O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI

N.X.ASLANOVA

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY USULLAR



Buxoro – 2021 y

Muharrir:

Sh.X.Samiyeva - Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi dotsenti (PhD)

Taqrizchilar:

Sh.Sh.Olimov – Buxoro davlat universiteti professori, p f d

B.R.Adizov - Buxoro davlat universiteti professori, p f d

N.X. Aslanova

Boshlang’ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi metodikasi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang’ich sinf o’qituvchilari hamda oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalarining boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabalari uchun o’quv uslubiy qo’llanma. Buxoro, 2021 y.

“Boshlang’ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi metodikasi” o’quv qo’llanmasi umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang’ich sinf o’qituvchilari, oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalarining boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabalari va magistrantlari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda ona tili va o’qish savodxonligining tarixi, uni o’qitishning zamonaviy texnologiyasi, ona tili va o’qish savodxonligini shakllantirishda qo’llaniladigan usul va vositalar haqidagi mavzular batafsil bayon etilgan.

KIRISH

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimi kundan kunga takomillashib bormoqda. Chunki bugungi kunda barcha sohalarda, xususan, ta’lim, tibbiyot, turizm, san’at, madaniyat va boshqa yo’nalishlardagi islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi sababli malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talab yanada oshmoqda. Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimining har bir bo’ginini samarali tashkil etish, unga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishishda g’oyatda muhim sanaladi. Zamonaviy ta’lim o‘quvchilarga beriladigan bilimlarning to‘laqonli amalga oshirilishini ko‘zda tutadi[1]. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarni darslarga qiziqtirib borishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ma’lumki, o‘quvchilarda o‘qish, yozuv, hisoblash savodxonligini rivojlantirish, ularda savodli o‘qish va yozuv malakalarini shakllantirish, o‘qiganlarini tushunish darajasini oshirish, ularda kitobxonlikka havas uyg‘otish aynan kichik maktab yoshida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda “O‘qish savodxonligi”ni oshirish o‘qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli va ongli o‘qish” ko’nikmalarini rivojlantirishni anglatadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi o‘qiganlarini tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o’qiganlari yuzasidan o‘z fikrini bayon eta olishi zarur. Shu sababdan ona tili va o’qish savodxonligi darslarini tashkil etishda asosiy e’tibor o’quvchilarda kitob o’qishga havas uyg’otishga qaratiladi. Badiiy asarlarni o’qishga qiziqtirish uchun esa matn ustida ishlash mashqlariga muhim ahamiyatga ega.

[1] Jo’rayev A.J. Tarbiyaviy darslarni o’tish. Sinf rahbarlari uchun qo’llanma. -T.:O’qituvchi, 1994 y, b 14.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2017-yil 13-sentabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli Qaror qabul qilindi.[2] “Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi”,[3] deb alohida ta’kidlaydi, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o’z ma’ruzalarida.

Shuningdek, Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 997-sonli qarorida quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar tashkil etilishi qayd etilgan:

- Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash;

The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

---

[2] “Xalq so`zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – №9. – B. 1

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish dasturidir.

2021 yildan boshlab mamlakatimiz **(PISA)** — 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash, **(PIRLS)** — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash kabi xalqaro dasturlarda ishtirok etishni boshladi.

Ma’lumki, **PIRLS** *t*adqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtrok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi - turli xil ta'lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta'lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot mamlakatimizning jahon ta’limi miqyosidagi nufuzini belgilashda sezilarli ahamiyatga ega.

Chunki o‘quvchilarga o’z ona tilini o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirishish malakasini egallash nazarda tutiladi. Shuningdek, o’quvchilarni badiiy adabiyot namunalari bilan oshno etish muhim sanaladi. Shu sababli ham ona tilini puxta o‘zlashtirmasdan turib, adabiyotning go‘zalligini va qudratini anglab bo‘lmaydi. Ona tili va o’qish savodxonligi darslarida amalga oshirish lozim bo‘lgan asosiy masala o‘quvchilarda so‘z san’atiga qiziqish va e’tibor hissini muntazam sur’atda o‘stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyatini, turli

matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Shu sababli ona tili va o’qish fanlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish - u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqea va hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi, bu bilan o‘quvchi voqea, hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi ona tili va o’qish fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lagan holda ta’lim berar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘lanishli, o‘quvchilarni mantiqiy, tahliliy mushohadaga chorlovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o‘quvchilarni kreativ fikrlashga, matnni tushunishga, bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi. Milliy ma’naviyatni egallash o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, uni o‘qib o‘rganish, milliy an’analar, bayramlar, urf-odatlar asosida shakllangan milliy madaniyat, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. O‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Bunda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Til o‘rganishda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich va umumiy o‘rta bosqichlarida til ta’limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik xususiyatlari, muhimi, umumdidaktik va o‘ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi. Ona tili fani faqat grammatik me’yorni o‘rgatuvchi fan sifatida emas, balki o‘quvchining ixtiyoriy mavzudagi, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunishiga, to‘g‘ri o‘qishiga, orfoepik va

orfografik me’yorlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchi mantiqiy, tanqidiy, kreativ fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy (kreativ) fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga singdirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda matnni tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlash, munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Ona tili va o’qish savodxonligi fani o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchilarda grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so‘zning tarkibi, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to‘g‘ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Ushbu fan ta’limi mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma erkin muloqot yurita olishlarini ta’minlashga qaratilgan. Bu fan o‘quvchilarni milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini mustaqil tushunish va tahlil qilishga o‘rgatadi hamda shu orqali o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, kitobxonlik madaniyatini va o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish, ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko‘nikma, malakalarni

hosil qilish va rivojlantirish, olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarda og'zaki va bog'lanishli nutqni o'stirishga, lug'at bazasini boyitishga, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Bu mamlakatimizda davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirishga xizmat qiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish orqali o'quvchilarda to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish; o'quvchilarda kitobga, o'qishga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali o'quvchilarning tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarash elementlarini shakllantirish; o'quvchilarni axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; o'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish; elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o'quvchilarning tafakkurini boyitish ko'zda tutiladi. Ushbu fan oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolalarni qurshab olgan hayot, tabiatdagi turfa o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchilarni o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. Mutolaa bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va

tasviriy san’at darslarini o‘zaro bog‘lab uyushtirish bolalarda san’at asarlarini to‘g‘ri tushunish va qadrlash ko‘nikmalarini o‘stiradi, o‘quvchilarning shaxs sifatida ma’naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi. Agar o‘quvchi matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarni mantiqiy fikrlab, unga tanqidiy yoki kreativ yondashmasa, o‘qish savodxonligida qusur borligidan dalolatdir.

“Metod” so’zi yunoncha “metodos” so'zidan olingan bo‘lib, “bilish va tadqiqot yo‘li”, “nazariya”, “ta’limot” kabi ma’nolarni bildiradi. Metodika (yun. “methodike”) biror ishni bajarish, amalga oshirish usullarining yig'indisi yoki o ‘qitish usullari haqidagi ta’limot, ya’ni ta ’lim berish usullari, yo'llari va vositalari haqidagi fandir. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qish savodxonligi metodikasi fanining predmeti - o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, o’z ona tilida aniq va savodli nutq so’zlash ko’nikmalarini egallash, to’g’ri o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir. Metodika xalq ta’limi sohasi oldiga qo'yilgan ta ’lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tili va o’qishni o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta’lim-tarbiya berish jarayonini yo’lga soladi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta’lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi. Eng foydali materiallarni, usullarni o'rganadi, ularni asoslaydi, tavsiyalarni tajriba va sinovdan o’tkazadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi metodikasi yuqori sinflarda ona tili va adabiyot fanlari metodikasining dastlabki bosqichi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish grammatika, imlo va unga bog'liq holda nutq o'stirish metodikasinigina emas, balki xat-savod o'rgatish, sinfda va sinfdan tashqari o'qish metodikalarini ham o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, boshlang'ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi metodikasi fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) boshlang'ich sinflarda ona tili va o’qish savodxonligi fanining mazmuni, hajmi va mavjud tizimini, ya’ni xat-savod o'rgatish, o'qish, grammatika, imlo, nutq o'stirishning tizimli va innovatsion dasturini belgilash va asoslash;

b) o'qish va yozuvdan bilim va ko'nikmalarning shakllanishi jarayonini hamda bu jarayonda o'quvchilar duch keladigan qiyinchiiiklarni o'rganish, xatolarning sababini tahlil qilish, ularning oldini olish va to'g'rilashga yordam beradigan ish turlarini ishlab chiqish;

d) ona tili va o’qish savodxonligi fanidan beriladigan o'quv materialini o'quvchilar aniq tushunishi va puxta o'zlashtirishiga, ularda olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq eta olishga va o'quvchilarning umumiy taraqqiyotiga, ya’ni ularning zehnini, xotirasini, kuzatuvchanligini, yodda saqlashini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy fikrlashini, nutqini o'stirishga yordam beradigan usul va vositalarni ishlab chiqish;

e) ona tili va o’qish bilan bog'liq holda maktablar oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifalarni ham amalga oshirish, o'quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish.

Ona tili va o’qish savodxonligi metodikasi ta’limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlaydi, o'qishning muvaffaqiyati va kamchiliklarini belgilaydi, sababini izlaydi, xato va kamchiliklarni bartaraf etish usullarini topadi. Ona tili va o’qish savodxonligi metodikasi ta’lim tizimining keyingi bosqichlirida ham ona tilini o'qitishning izchillik va uzluksizligini ta’minlaydi. Bolalarning o’g’zaki va yozma nutqini samarali o'stirishni nazarda tutadi. Shuningdek, ona tili fanidan o’zlashtirgan nazariy tushunchalarni badiiy adabiyot namunalari mutolaasi orqali amaliy o'zlashtirish va davom ettitishni ham nazarda tutadi.

I BOB. ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI FANINING TARIXI VA TARAQQIYOTI

1.1. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish metodikasi

Reja

1. O'zbekistonda ona tili va o’qish savodxonligi tarixidan
2. Mustaqillikning dastlabki yillarida ona tili va o’qish savodxonligi fanlari taraqqiyoti
3. Ona tili va o’qish savodxonligi fanlarini o’qitishning hozirgi holati

O'zbekistonda ona tili va o’qish savodxonligi tarixidan

Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimida umumiy o‘rta ta’lim asosiy tayanch bosqich bo‘lib, bu bosqichda o‘zbek tilidan o‘quvchilarga kundalik ijtimoiy hayotda davlat tilida og‘zaki va yozma muloqot olib bora olishlariga qaratilgan tayanch bilimlar beriladi va o‘qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida o‘quvchilarda o‘zbek tili bo‘yicha egallangan bilim va ko‘nikmalarni muloqot faoliyati jarayonida qo‘llash malakasi shakllantiriladi. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda tahsil oluvchi turli millat vakillari esa o‘zbek tilini o‘qitish bilan bir qatorda o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, zamonaviy va mumtoz adabiyoti namunalari bilan tanishtirib boriladi. Shu maqsadda ushbu maktablarda adabiy o‘qish darslari uchun qo‘shimcha soatlar ajratilgani ham nihoyatda to‘g‘ri qaror bo‘ldi.

Bugungi kunda ta’limning eng asosiy tayanch bo‘g‘ini hisoblanuvchi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqilgani va “Milliy o‘quv dasturi” deb nomlanishining o‘zi bizga katta umidlar baxsh etdi. Shuningdek, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa, mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga o‘zbek tilini intensiv o‘rgatishni ta’minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa o‘qituvchi obro‘sini ko‘tarishga qaratilgan

sa’y-harakatlar va hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar tahsinga sazovor. Biroq tan olish kerakki, ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quv-uslubiy dasturlar va darsliklar saviyasiga ham bog‘liq. Xususan, respublikamizda keyingi yillarda til savodxonligi va nutq madaniyatining keskin pasayib ketganligi, nafaqat og‘zaki, hatto yozma nutqda ham o‘zbek adabiy tili me’yorlariga amal qilinmayotganligi, husnixatga umuman e’tibor qaratilmayotganligi, o‘quv dasturlaridan insho, bayon, diktant kabi yozma ish turlarining deyarli chiqib ketganligi, darsliklarda faqat tayyor matn ustida ishlash va matn yaratish topshiriqlari berilayotganligining mevasi emasmi?! Yakuniy nazorat ishlarining test shakliga o‘tkazilishi o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, bog‘lanishli nutq tuzish, savodli va chiroyli yozish ko‘nikma-malakalarini egallashga bo‘lgan intilishlarini umuman yo‘qqa chiqardi. Milliy telakanallar orqali namoyish etilayotgan badiiy filmlarda ham o’zbek adabiy til me’yorlarining qo’pol ravishda buzilayotganligiga guvoh bo’lmoqdamiz. Biroq tarixiy manbalardan ma’lumki, qadim zamonlardanoq xalqimiz ilm-fanga katta qiziqish va e’tibor bilan qaragan. Buyuk siymolarimiz Ibn Sino, al-Beruniy, al-Xorazmiy, al-Farg’oniy, al-Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek va boshqa ko‘plab allomalar dunyoviy fanlar rivojiga salmoqli hissa qo’shib, o’zbek millatini dunyoga tanitganlar. Ilm-ma’rifatga cheksiz hurmat bilan qaragan xalqimiz qanday qiyinchilik va to'siqlar bo'lmasin, ilm o’rganishga harakat qilgan. Uzoq mamlakatlarga borib ilm o’rgangan va o'z farzandlarining savodli bo'lishini orzu qilganlar. Shu sababli ularini yoshligidanoq maktablarga o'qishga berganlar. Maktabdor domlalar o'z usullari va tajribalariga asoslanib bolalarga saboq berganlar. Demak, O'zbekistonda o'qitishning o'ziga xos usullari mavjud bo'lgan va ular yillar davomida taraqqiy etib, rivojlanib borgan. Tabiiyki, bu jarayonda ham turli ziddiyatlar kelib chiqqan, ba’zi xato va kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan.

Eski maktabda o’qish bilan yozish bir vaqtda o’rgatilmagan, dastlab faqat mutolaa o’rgatilgan. O’qish hijo (bo’g’in) usuli bilan o’rgatilgan. O’qishga o’rgatishning - “hijjai qadimiy” deb atalgan usuli asrlar davomida hech qanday

o’zgarishsiz davom etib kelgan. Hijo usulida o’qishga o’rgatishni 3 bosqichga bo’lish mumkin.

1-bosqich. Harflarning nomini yodlatish (harfiy metod). Bu metodning mohiyati asosan quyidagilardan iborat: bir necha yildan beri maktabda o’qiyotgan bolalar tomonidan yangi kelgan bolaga bir necha kichik-kichik suralar yodlatilgan. Bola aytayotgan suradagi so’zlarining ma’nosini tushunmay, ularni birin-ketin yodlab olgan, bu orada taxminan bir yilga yaqin vaqt o’tgan. Shundan keyin arab alifbosi yodlatila boshlangan; bola uyidan har ikki tomoni randalanib silliqlangan maxsus taxta olib kelgan. Maktabdor taxtaning bir tomoniga qora siyoh bilan 28 ta arabcha harfning yolg’iz shaklini alifbo tartibida yozib bergan. Maktabdor birinchi banddagi harflarning nomini alif, be, te, se deb aytgan; bola domlaga ergashib takrorlagan; ayta olmasa, domla yana qaytib takrorlagan va shuni yaxshilab o’rganishni vazifa qilib topshirgan. Bola birinchi bandni yodlab olgach, ikkinchi bandni shu tariqa yodlagan va h. Bolalar 26 harf nomini 5-6 oyda zo’rg’a bilib olganlar. Ular harflarning nomini yodlab olsalar ham, qaysisi be, qaysisi se ekanini ko’rsatib bera olmaganlar. Ayrim domlalar, otinoyilar yosh bolalarning eslab qolishiga yordam berish maqsadida har bir harf uchun shartli iboralar o’ylab topganlar (uzunchoqqina alif, bir nuqtali be, ikki nuqtali te, uch nuqtali se kabi).

2-bosqich. Bo’g’in hosil qilish. Harflar nomi yodlab bo’lingach, bo’g’in hosil qilishga, ya’ni - “zeru-zabar”ni o’rgatishga o’tilgan. Eski maktabda - “zeru-zabar” (zabar, zer, pesh) har xil o’rgatilgan. Masalan, ba’zi domlalar (be, zabar-be), (be-zer - bi), (be-pesh-bu), (te-zabar-ta), h. kabi o’rgatsalar, boshqa ba’zilari be, ba, te, zabar, ta,.. kabi, yana boshqalari: be, zabar-a; zer-i, pesh-u; te-zabar-a; zer-i, pesh-u... deb o’rgatganlar va h. Maktabxonada - “zeru-zabar” quruq yodlatilgan, nimaga xizmat qilishi aytilmagan. Aslida esa bu belgilarni ma’lum xizmati bor: zabar (fatha)-undosh harf ustidagi urg’u belgisiga o’xshash chiziqcha bo’lib, undoshga “a” unli tovushini qo’shib aytish zarurligini ko’rsatadi. Zer (kasra) undosh harf ostidagi chiziqcha bo’lib, shu undoshga “I” unli tovushini qo’shib aytish kerakligini bildiradi. Pesh (zamma)

esa undosh harf ustiga qo’yiladigan vergulsimon belgi bo’lib, shu undosh tovushga “u” unlisini qo’shib aytish zarurligini ko’rsatadi. Demak, arabcha matnlarni o’qish uchun - “zeru zabar”ni bilish juda zarur bo’lgan, ammo o’qishga o’rgatish anglab o’qishga asoslanmagani uchun, bolalar mim zabar ma, mim, zer mi, mim pesh, mu deb yodlaganlar - “zeruzabar”ning mohiyatini anglamaganlar.

3-bosqich. Bo’g’inlarni qo’shish. Eski maktabda bo’g’inlarni qo’shish - “abjad” bilan boshlangan. Maktabdor taxtaning ikkinchi tomoniga arab tili alifbosidagi 28 ta harf nomlangan 8 so’zni -“zeru-zabar” bilan yozib bergan. Bolalar bu 8 ta so’zni birin- ketin hijo usulida o’qib yodlab olganlar. Masalan, abjad o’zi alifbega zabar qo’yib, be ga urishtirilsa, ab; jim ga zabar qo’yib, dolga urishtirilsa, jad: bularning ikkisidan abjad hosil bo’lgan kabi. Abjaddan keyin eski maktab o’quv kitobi bo’lgan. “Haftiyak”ka o’tilgan. “Haftiyak” dagi suralar ham “Abjad”dagi kabi hijo usulida o’qitilgan. Bolalar “Haftiyak”ning bir betini hijo usulida o’qish uchun juda ko’p vaqt va kuch sarflaganlar. So’zni hijo usulida o’qishda avval so’zdagi birinchi undosh harfning nomini, keyin ikkinchi undosh harfning nomini aytib, unga zarur harakatni qo’yib, hijo hosil qilingan; shu usulda navbatdagi harflardan ham hijo hosil qilinib, keyin hijolarni birbiriga qo’shib, bu so’z bir butunicha aytilgan. So’zni hijo usulida o’qishda tovush emas, balki shu tovushni ifodalovchi harfning nomi asos qilib olingan; so’zni tovush jixatidan tahlil qilishga oid hech qanday ish qilinmagan, tovushlarning qo’shilishi bolalarga tushunarli bo’lmagan, bolalar so’zidagi har bir harf ma’lum bir tovushni bildirishini mutloqo anglamaganlar. Hijo usulida o’qishga o’rgatish, birinchidan, mexanik ravishda bo’lib, ayni bir narsani qayta-qayta aytishga majbur qilingan, ikkinchidan, bola o’zi aytgan so’zining ma’nosini tushunmay, maktabdordan eshitganini takrorlay bergan. “Haftiyak”ning keyingi ayrim suralari so’zni yaxlit -“o’qish” usulida olib borilgan, aniqrog’i bola o’qimagan, eshitganini to’tiqush kabi yodlagan. Natijada bolalar maktabxonada o’qiganlarini o’zi o’qib yurgan kitobidan -o’qib bergan”, ammo ularning

qo’liga maktabda o’qilmagan boshqa bir kitob berilsa, uni o’qiy olmagan; eski maktabda 6-10 yil muntazam o’qigan bolalarning juda ko’p deganda 4- 5 foizigina o’qish va yozish ko’nikmasini hosil qilgan.

Turkistonda ochilgan rus-tuzem maktablari savod o’rgatishda ma’lum darajada ijobiy rol o’ynadi. Rus-tuzem maktablarining o’zbekcha sinflarida o’zbekcha xatsavod o’rgatish metodi 1900-yildan boshlab asta-sekin isloh qilindi. Hijo metodidan tovush metodiga o’tildi. 1900-yillardan rus-tuzem maktabi o’zbekcha sinflarining peshqadam muallimlari tovush metodi asosida tuzilgan tatarcha alifbedan foydalanganlar. Bu kitobning tili va mazmuni o’zbekcha sinflarga mos kelmasdi. 1902-yilda Saidrasul Saidazizovning tovush metodi talabiga muvofiq tuzilgan ona tili alifbesi -“Ustodi avval” nashr etildi. -“Ustodi avval” nashr qilingandan keyin o’zbekcha xat savod o’ragatishda yangi davr boshlandi. Tovush metodi savod o’rgatishning eski usulidan tamomila farq qilib, o’qitishni osonlashtirdi, ta’limni bola tushunadigan, anglaydigan ta’limga, aktiv ta’limga aylantirdi. -“Ustodi avval” 3 bo’limdan iborat: 1- bo’lim, hozirgi atama bilan ataganimizda, alifbe davridir. Muallif bu bo’limda arab alifbosidagi harflarni alifbo tartibida emas, balki harf orqali ifodalangan tovushning talaffuzi oson-qiyinligini harflarning yozilishi sodda yoki murakkabligini e’tiborga olgan. Muallif har bir harfning yozuvda bir necha xil shaklda kelishi xat savod o’rgatishni qiyinlashtirishini hisobga olgan; alifbe davrining boshida deyarli har doim bir xil shaklda qo’llanadigan harflarni bergan. Shakli, yozilish o’rniga qarab turlicha bo’ladigan harflarning so’z boshida, so’z o’rtasida, so’z oxirida va alohida yozilish shaklini berib, ularga mos misollar keltirgan. Masalan, q harfini tanitish uchun qor, uyqu, oq so’zlarini, g’ harfini tanitish uchun g’or, uyg’oq, tog’ so’zlarini tanlagan. Muallif soddadan murakkabga tamoyiliga amal qilib, alifbe davrini asta-sekin murakkablashtira borgan. Kitobning alifbe qismiga asosan, o’zbek tilining lug’at tarkibidagi harflardan tanlab olgan.

“Ustodi avval”ning 2-bo’limi alifbedan keyingi davrdir. Bu bo’limda hikoya, masal va 50 maqola berilgan. Ularning ayrimlarida bilim targ’ib

qilinsa, boshqalari tarbiyaviy mazmunda. S.Saidazizov kitobining 3-bo'limini - "Alifboi Qur'on" deb atagan va o'z oldiga bolalarga -"Qur'on"ni tushunib olishga o'rgatishni maqsad qilib qo'ygan.

Umuman, tovush metodi Markaziy Osiyoga ikki manbadan kelgan. Rus-tuzem maktablari ruscha sinflarida xat-savod tovush metodi bilan o'rgatilar edi. O'zbekcha sinf muallimlari tovush metodi oson va qulayligini amalda o'z ko'zlari bilan ko'rdilar va ular rus o'qituvchilariga taqlid qilib, asta-sekin tovush metodini o'z sinflariga tatbiq eta boshladilar. XIX asrning oxiridan boshlab ichki Rossiyadan Markaziy maktabga kelgan tatar muallimlari tovush metodida xat-savod o'rgata boshlagan edilar, oradan ko'p o'tmay, bir qancha mahalliy muallimlar ham tatar muallimlariga taqlid qilib, yangi maktablar ochdi-da, bolalarga xat-savodni tovush metodida o'rgata boshladi. Shunday qilib, O'rta Osiyoda tovush metodi asta-sekin hijo metodining o'rnini ola boshladi. Ma'lumki, tovush metodi bilan xat-savod o'rgatishga Rossiyada K.D.Ushinskiy asos solib, u sintetik tovush metodini qat'iy himoya qilgan edi. Tovush metodi bilan savod o'rgatilganda, so'zning eng kichik bo'lagi, ya'ni nutq tovushlari asos qilib olinadi. So'zning ma'nosi o'zgartira oluvchi har bir tovush yozuvda harf orqali ifodalanishi: so'zda tovushlar almashishi, ortishi yoki kamayishi natijasida boshqa bir yangi so'z hosil bo'lishi mumkinligi bolalar ongiga yetkaziladi. Atoqli metodistlar (S.P.Redazubov, A.I.Voskresenskaya, K.Qosimova, Y.Abdullayev, O.Sharafiddinov) tovush metodida xat-savod o'rgatishni takomillashtirdilar. Arab alifbosida yozuvni o'rgatish qiyin edi. Chunki harflar so'zda qo'llanish o'rniga qarab, har xil shaklda yozilgan, bu yozishni o'rganishni qiyinlashtirgan. Shuning uchun ko'p maktablarda bolalarga o'qish o'rgatilib, yozuv o'rgatilmagan, chunki domla va otinoyilarning ko'pchiligi o'qishni bilgan, lekin yozishni bilmagan. Eski maktabda yozish chiziqsiz, tekis oq qog'ozga dastlab yo'g'onroq savag'ich qalamda o'rgatilgan; bolalar yozishni ozroq o'rganganlaridan keyin qamish qalamda ham yozishgan. Ularga ruchkada yozishga ruxsat etilmagan. Yozishni o'rgatish alifbo tartibida harflarning alohida-alohida shaklini yozdirishdan

boshlangan. Avval alifni yozish o’rgatilgan, keyin o’xshash shaklli harflar bandlarga bo’linib, o’xshash unsuri bo’lmaganlari esa ayrim-ayrim yozdirilgan. Ayrim domlalar ba’zi harflarning elementlarini yozishni ham alohida mashq qildirganlar. Ayrim-ayrim harflarni nusxaga qarab alfavit tartibida katta-katta qilib yozish, mufradot (salhad) deyilgan; bunday yozish bir ikki yilga cho’zilgan. SHundan keyin harflarni bir-biriga qo’shib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni murakkabbot deyilgan. Harflarni bir-biriga qo’shib yozish mashqi bir necha bosqichga bo’linib, harf birikmalarining ma’no anglatish anglatmasligi umuman, e’tiborga olinmagan. Qanday qo’shilishi mashq qilinavergan. Ko’pgina eski maktablarda bunday mashq - “abjad yozish” bilan tugallangan. Murakkabbotdan keyin bayt, qit’a va ruboiylarni ko’chirib yozish mashqi boshlangan. Bu mashqni muqattaot deyilgan. Bu mashqqa ham juda ko’p vaqt sarflangan: u ma’noli so’zlarni yozish bilan boshlanib, duoyi salom (insho) yozish bilan tugallangan. Yozuvni o’rgatish va xusnixat mashq qildirishda “Mufradot” kitobidan foydalanilgan. Bu kitobchada har uchala mashq turi, ba’zi nashrlarda esa insho namunalari berilgan. Eski maktablarda yozuvga o’rgatishning birdan bir yo’li ko’chirib yozuv-nusxa ko’chirish bo’lgan. Natijada bolada yozma nutq ko’nikmasi hosil qilinmagan. Bu mashq bolani juda zeriktirgan. Hech o’ylamasdan yozishga odatlantirilgan. Maktabxonada ijodiy ko’chirib yozuv mashqlarining, shuningdek, boshqa usullarning qo’llanmaganligi orqasida bola chiroyli ko’chirib yozish ko’nikmasini hosil qilgan bo’lsa ham, ammo o’z fikrini yozma ifoda qila olmagan, eng oddiy jumlalarni ham juda ko’p xato qilib zo’r-bazo’r yozgan. Eski maktablarda, madrasalarda o’zbek tili o’qitilmagan, natijada eski maktab bolalarigina emas, hatto madrasada bir necha yil umr o’tkazgan ba’zi bolalar ham o’z ismini to’g’ri yozishni bilmaganlar.

Arabchada to’g’ri, chiroyli yozuvga o’rgatish uchun xivalik shoir Shermuhamad Avazbey o’g’li Munisning (1778-1829) “Savodi ta’lim” kitobidan foydalanildi.

Rus-tuzem maktablarida o’qish va yozishga o’rgatish, odatda, bir vaqtda boshlanib, bir-biriga bog’lab olib borilgan:

- har kuni avval o’qish, keyin yozuv darsi bo’lgan;
- o’qish va yozish onglilik tamoyili asosida o’rgatilgan;
- bolalar qaysi tovush bo’g’in, so’z yoki gapni o’qiyotgan yoki yozayotganini aniq tasavvur qilgan, ma’nosiga tushungan,
- arabcha harfning yolg’iz shaklini yoki so’zda qo’llanish o’rniga qarab kasb qiladigan shaklini, yohud biror harfning elementini yozayotganligini ongli ravishda bilgan.

Rus-tuzem maktablarining o’zbekcha sinfida ko’chirib yozishga va diktantga ko’p vaqt sarf etilgan. Ulardan tashqari, insho (turli tilxat, duoi salom va savdo ishiga oid har xil xatlar) yozishga o’rgatilgan.

XX asrning 20-yillarida maktabni rivojlantirishda juda jiddiy xatolarga yo'l qo'yildi. Kompleks dasturlarda ona tilini o'rganish tizimi buzildi: grammatik, orfografik ko'nikmalarga yetarli darajada ahamiyat berilmadi. Savod o'rgatishda yaxlit so'z metodi tilning fonetik xususiyatlariga mos kelmadi, analitik-sintetik ishlar ta’minlanmadi, puxta, to'g'ri yozuv masalalari uchun zamin yaratilmadi.

Keyinchalik 1931-yil 5-sentabrda qabul qilingan “Boshlang'ich va o'rta maktab haqida”gi, 1932-yil 25-avgustda qabul qilingan “Boshlang'ich va o'rta maktab o'quv dasturlari rejimi haqida”gi qarorlar yuqoridagi kabi yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklami bartaraf qilishda va o'quv mashg'ulotlari tizimini ishlab chiqishda maktabga va o'qituvchilarga yordam berdi. Tezlik bilan savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi qayta tiklandi. Grammatik, orfografik materiallarni izchil o'rgatishga, o'quvchilarning har tomonlama savodli bo'lib, madaniy nutqni egallashlariga katta ahamiyat berila boshlandi. O'quvchilar va o'qituvchining o'quv mehnatini tashkil etishning asosiy shakli bo'lgan dars metodikasi muvaffaqiyatli ishlana boshlandi.

O'tgan asrning 50-70 yillari mobaynida boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi sohasida anchagina qo'llanmalar yaratildi. Bu yillarda ona

tili o'qitish metodikasi fan sifatida rivojlana boshladi, umumiy pedagogik, didaktik va psixologik xarakterdagi ilmiy tekshirishlarning natijalari ona tili o'qitish metodikasini takomillashtirish va yangi metodika yaratishga imkon berdi. O'zbek tilshunosligi sohasidagi muvaffaqiyatlar ham tilni o'zlashtirish jarayoniga va metodikaning rivojlanishiga jiddiy yordam ko'rsatdi. Shuningdek, bu fanning rivojlanishiga o'qituvchilarning ommaviy ish tajribalarini o'rganish, umumlashtirish katta ijobiy ta’sir ko'rsatdi. O'sha davrdagi jurnallarda o'nlab metodik maqolalar bosilib chiqdi. 1955-yildan boshlab pedagogika institutlari qoshida boshlang'ich ta’lim o'qituvchilari tayyorlaydigan fakultetlar ochila boshlandi. Bu ham ona tili o'qitish metodikasining o'sishiga ijobiy ta’sir ko'rsatdi, ya’ni boshlang'ich sinf o'qituvchilarining umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasi o'sdi. Institut kafedralarida faoliyat yurituvchi ilmiy xodimlar metodik masalalarni chuqur, ilmiy asosda hal qilishga harakat qildilar.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ona tili va o’qish savodxonligi fanlari taraqqiyoti Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ona tili o'qitishga katta ahamiyat berila boshlandi. Bunda 1989-yil 21-oktabrda ,,O‘zbek tiliga Davlat tili maqomini berish to’g’risida“gi qaror alohida o'rin tutadi. Ta’lim sohasidagi bu o'zgarishlar ona tili o'qitish metodikasida ham bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Yangi asr bo‘sag‘asida juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi mustaqil O‘zbekistonda ham tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Fanda yangi yo‘nalishlar, yangicha yondashuvlar paydo bo‘ldi. Bu masalalarning dolzarbligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”, PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonidagi bandlarda ham yaqqol aks etgan. Inson psixologiyasini bilish, o‘z taraqqiyoti va iqtidoriga mos ravishda to‘g‘ri yo‘naltirish, har qanday davrda ham optimal ravishda kompetentlikni, turli o‘zgarishlarga kreativ jihatdan tayyorlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro‘y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to‘g‘ri idrok etish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o‘z ma’ruzalarida: “Kitob o‘qigan, o‘zini ustida ishlagan odamda qanot bo‘ladi. U befarq bo‘lmaydi. Uning kuchi bilimida bo‘ladi”, deya ta’kidlaydi. Prezident tomonidan kitob mutolasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida buni targ‘ib qilish lozimligi haqida ko‘p bora aytilmoqda. Davlat rahbari tomonidan Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning bittasi aynan kitobxonlikka qaratilgan bo‘lib, u yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Bugungi tezkor o‘zgarishlarga boy bo‘lgan yangi davr har bir insondan o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanish, shu bilimlar zaxirasi bilan atrofidagilar ruhiy dunyosini o‘rganish va ularga samarali yondashuvni talab qilmoqda. Aynan mana shunday talablarga mos faoliyat yuritish uchun esa inson o‘zidagi tug‘ma imkoniyatlarni vaziyatga moslashtira olishi, donolik bilan faoliyat yuritishi lozim bo‘ladi.

Respublikamiz mustaqillikga erishgan yillardan buyon mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash barobarida dunyoviy bilimlarni ehtiyojlari darajasida egallayotgan, barkamol avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘qish jarayonining barcha bosqichlari fanlarni o‘rganish jarayonida o‘qish strategiyasidan foydalangan holda qo‘llanilishi mumkin. Yaqin orada e’lon qilingan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni orqali maktab ta’limini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish uchun ulkan islohotlar sari dadil qadam qo‘yildi. Bu Farmon asosida xalq ta’limi sohasiga mas’ul bo‘lgan har bir pedagog uchun darsliklarni yangilashda ishtirok etish vazifasi berildi. Ayni vaqtda yangi avlod darsliklarini ilg‘or tajribalar asosida to‘liq yangilash uchun Angliya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlardan qirqqa yaqin xalqaro ekspertlar jalb qilindi. Mazkur darsliklar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini oshirib, fikrlashga chorlaydigan metodikalardan tashkil topishi ko‘zda tutilmoqda.

Kelgusi besh yilda 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratilishi yuzasidan berilgan vazifa ham ta’limda amalga oshirilishi kutilayotgan tub islohotlardan biridir. Yaqin besh yillikda aholi soni o‘sishi bilan bir qatorda maktab o‘quvchilarining soni ham o‘sadi. 2025- yilga borib, o‘quvchi soni 7 mln.dan ko‘proqni tashkil etadi. Tabiiyki, maktablarda shuncha o‘quvchi o‘rni ham bo‘lishi kerak. Shularni inobatga olgan holda mamlakatimiz rahbari 2022-yilning o‘zida 527 ta yangi va ta’mirtalab maktablarni rekonstruksiya qilish yo‘li bilan kerakli o‘quvchi o‘rni yaratilishini rejaga kiritish bo‘yicha topshiriq berdi. E’tirof etish joizki, sifatli ta’lim olishni keng yo‘lga qo‘yish yuzasidan amalga oshirilayotgan davlat siyosati darajasidagi ishlar, ya’ni Prezidentimiz farmoyishlari va Qonun hujjatlari bugungi zamonaviy ta’limni rivojlantirish uchun o‘ta ahamiyatlidir. Bunday muhim hujjatlar mamlakatimizdagi ma’naviy-ma’rifiy jarayonni samarali yuksaltirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish, yoshlarimizning barkamol bo‘lib tarbiyalanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yanada kengaytirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib hisoblanadi.

Ona tili va o’qish savodxonligi fanlarini o’qitishning hozirgi ahvoli

Ma’lumki, mamlakatimizdagi 4-sinf o‘quvchilari 2021-yildagi PIRLS xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida ilk marotaba ishtirok etdi. Bunda respublika bo‘yicha jami 180 ta maktab tanlab olindi va 5948 ta o‘quvchi qatnashdi.

PIRLS - (ingl. Progress in International Reading Literacy Study), ya’ni matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) har 5 yilda o‘tkaziladigan dastur bo‘lib, unda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qish darajasi baholanadi va bu jarayonda “badiiy tajriba orttirish” va “axborotni olish va undan foydalanish”ga alohida e’tibor qaratiladi. PIRLS xalqaro baholash dasturida ishtirok etish ta’lim sifatini oshirish bilan birga o‘quvchilar bilimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos ravishda boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida samarali ish turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday darslarni tashkil etishda o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlik ko‘rishlari, har bir matnning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishlari lozim. Chunki aynan o‘**qish** orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo‘ladi, o‘qishni bilmagan odamda dunyoqarash o‘ta tor bo‘ladi. Boshlang‘ich sinfda o‘qish faoliyati barcha darslar jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, eski maktablarda o‘qish quruq yod olish metodida o‘rganilgan bo‘lsa, hozirgi kunda maktablarda o‘qish **izohli o‘qish** metodiga asoslanib olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so‘zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o‘qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o‘qishning ongli bo‘lishiga mutlaqo e’tibor berilmagan. Ularda ko‘proq to‘g‘ri talaffuzga, qiroat bilan o‘qishga, ifodali o‘qishga katta e’tibor berilgan.

Ongli o‘qish orqali inson tabiat, jamiyat, undagi muhit, kishilar hayoti, ularning o‘tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilar, vatan, ob-havo, tabiiy va ma’naviy boyliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egalaydilar. Ularga nisbatan munosabat uyg‘onadi, shu yo‘sinda o‘quvchi shaxsi aqlan, ma’nan shakllanib boradi. Insonning aqliy kamolotida esa badiiy matnlar bilan birgalikda axborotli matnlarning ham o‘rni beqiyos. Chunki insonda ilmiy dunyoqarash dunyoviy bilimlarni egallash vositasida paydo bo‘ladi. Aqliy yetuklik esa, ilmiy mavzulardagi axborotli matnlarni tushunish va bu

tushunchalardan amalda foydalanish bilan belgilanadi. Xo‘sh, axborot matnining mohiyati nimada?

O‘quvchining informatsion matnlardagi ma’lumotni tushunishi ularda aks etgan turli ko‘rinishdagi tasvirlar, rasmlar, jadvallar va grafiklar orqali aniq mazmunni anglashi - axborotli matn mohiyatini tushunishi hisoblanadi. To‘rtinchi va undan yuqori sinf o‘quvchilaridan odatda badiiy va informatsion xarakterga ega bo‘lgan matn xususiyatlarini anglash talab etiladi. Chunki maktabning bu davriga kelib, fanlar tizimida turli ilmiy-ommabop ma’lumotlarni topish va aniqlash zaruriyati paydo bo‘ladi. Informatsion matnlar mohiyatini anglashga asosan, o‘quvchining psixik holatlari, diqqati, sezgisi, tafakkuri, xotirasi, tafakkuri va idroki yordam beradi. Shuningdek, matnning turli qismlari o‘quvchilarda matn haqida ma’lumot berishi ko‘zda tutiladi. Matnni tushunish asosan matnning sarlavhasi orqali boshlanadi va o‘quvchini matnni tushunishga tayyorlaydi. Turli rasmlar, terminlar, grafiklar, jadvallar esa information matndagi asosiy mazmunni ochib berish maqsadida qo‘llaniladi. Shuningdek, bu vositalar informatsion matnning alohida xususiyati sifatida ma’lumotlarning kishi xotirasida uzoq muddatda saqlanib qolinishiga olib keladi. Informatsion matnlardagi turli sohaga oid terminlar ularning lug‘aviy xususiyatlarini, ya’ni matn ichidagi maxsus so‘zlarning ta’riflarini o‘zida aks ettiradi.

Matn mazmunini tushinishni osonlashtiruvchi xususiyatlar toifasiga jadvallar, tasvirlar, suratlar, taglavhalar, grafika va diagrammalar kiradi.

Tasvirlar - rassomning ijod mahsuli bo‘lib, ular matn mazmunini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Suratlar – bir necha yuz yil ilgari fotosuratlar bosmadan chiqarish murakkab jarayon sanalgan. Endilikda raqamli axborot vositalari fotosuratlarni yaratish va qayta ishlashni osonlashtirdi. Endilikda ular axborot materiallarida juda keng qo‘llaniladi.

Taglavhalar - suratlar va fotosuratlarning pastki qismida chop etiladi va matnda o‘z aksini topgan narsa va hodisaning mohiyatiga izoh sifatida beriladi.

Grafika va diagrammalar - tasvirlardan farqli o‘laroq, jadvallar va diagrammalar matndagi umumiylik, parametrlar, masofa, o‘lchov, raqamli va boshqa ma’lumotlarni ifodalashga qaratilgan. Ko‘pincha ular grafiklar, jadvallar, chiziqli va doirasimon diagrammalar hamda xaritalarni o‘z ichiga oladi.

Innovatsion shaklda tashkil etiladigan darslarda asosan o‘quvchilarga beriladigan ma’lumotlar uzoq muddatda ularning xotirasida saqlanishi muhim hisoblanadi. PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos test va topshiriqlar aynan shu maqsadni qamrab oladi.

Bunday vazifani yechish uchun o‘quvchilarda matnni o‘qish va uni tushunish darajasini shakllantirish bilan bog‘liq shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa bir qator ko‘nikmalarni shakllantirish ham talab etiladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda o‘qish va savodga o‘rgatishga faoliyatli yondashuv doirasida o‘quvchilarda ijodkorlik, badiiy va ma’lumotli matnlar tahlili asosida hayotiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, turli vaziyatda o‘zini o‘zi rivojlantirishda ham alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Ayni paytda o‘quvchi o‘zida ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining asoslaridan xabardor, ijtimoiy voqea va hodisalar mohiyatini teran anglab, obyektiv xulosa chiqara oladigan, mustaqil fikr va keng dunyoqarash egasi bo‘lish kabi sifatlarini namoyon etishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini kreativ yondashuvlar asosida turli hayotiy vaziyatlarga tayyorgarligini takomillashtirish uzoq muddatli, murakkab jarayon bo‘lib, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi umumiy pedagogik faoliyatni mazmun va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, yuqori samaradorlikka ega bo‘lish va keng ko‘lamli axborotlardan foydalanishdan iborat.

Hozirda o‘quvchilarga bilim berish, ularning bilimlarini oshirishda mustaqil va ijodiy ishlardan samarali foydalanish, bilimlarni hisobga olishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilmoqda. Darslarda didaktik va texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta’limiy o‘yinlarni joriy

etish keng tus olmoqda, ta’lim jarayonida test topshiriqlaridan, matn ustida ishlashning turli murakkablikdagi innovatsion usullaridan, turli boshqotirma va jadvalli topshiriqlardan keng foydalangan holda dars-mashg‘ulotlari tashkil etilmoqda. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ona tili va o‘qish savodxonligi o‘quv fani sifatida shakllanib, yanada takomillashib, rivojlanishning murakkab yo‘lini bosib o‘tmoqda.



1.1.1-rasm. Umumiy o’rta ta’limning Milliy o’quv dasturining umumiy ko’rinishi

2020-yilda yaratilishi boshlangan milliy o‘quv dasturlarida XXI asr ehtiyojlaridan kelib chiqib o‘quvchilarda shakllanishi kerak bo‘lgan ko‘nikmalar belgilangan. Respublika ta’lim markazi mutaxassislari tomonidan yangi milliy o‘quv dasturi uchun darsliklar tayyorlash jarayoni amalga oshirilmoqda. Maktablarda to‘liq milliy o‘quv dasturiga o‘tish 2025 yilda yakunlanadi. Buning uchun metodik yondashuv o‘zgarishi va yangicha darsliklar yoza oladigan mualliflar maktabi shakllanishi kerak bo‘ladi. Respublika ta’lim markazi ma’lumotlariga ko‘ra, 22 fandan milliy o‘quv dasturlari loyihalarini yaratishga 246 nafar ekspert, shu jumladan, maktab o‘qituvchilari, metodistlar, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari hamda UNICEF va USAID tashkilotlaridan xalqaro ekspertlar jalb qilindi. Milliy o‘quv dasturining oldingi dasturlardan yana bir katta farqi — **chiziqli yondashuvdan spiralsimon**

yondashuvga o‘tilganligidir. Natijada oldingi sinflarda o‘tilgan mavzular keyingi sinflarda qaytariladi va chuqurlashtiriladi. Misol uchun, ona tili fani orqali og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalari, turli matnlarni tushunish, matematika fani orqali matematik tafakkur, mantiqiy fikrlash va muammolarga yechim topish, tabiiy fanlar orqali tadqiqotchilik va atrof-muhitni asrash, tarix fani orqali davrlarni solishtirish va tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini tushunish, tasviriy san’at orqali ijodiy fikrlash, informatika fani orqali raqamli kontent yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsad qilingan. Har bir fanda o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, ko‘p savodlilikni rivojlantirishga e’tibor berilgan.

Milliy o‘quv dasturini maktablarga 2025 yilgacha bosqichma-bosqich joriy qilish rejalashtirilgan. Buning uchun keyingi o‘quv yiliga milliy o‘quv dasturi dasturi asosida 3, 6, 7, 10 sinflar uchun 431 nomda va undan keyin 4, 5, 8, 9, 11 sinflar uchun 582 nomda o‘quv-metodik adabiyotlar tayyorlanadi. Hozirgi kunda boshlang‘ich 1 va 1-sinf o‘quvchilari uchun darsliklar va mashq daftarlari tayyorlandi va amalda qo‘llanilmoqda.

Bu yangiliklardan ko'plari maktablarda amaliyotga tatbiq qilinmoqda, ba’zilari hozircha sinovdan o'tkazilmoqda. Sinov davrida, birinchidan, o'quvchiga, uning darsdagi va darsdan tashqari vaqtiga, u duch kelayotgan qiyinchiliklarga, ko'nikma-malakalarini va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish metodikasiga ko'proq ahamiyat berilmoqda.

Ikkinchidan, ta’lim jarayonida o’quvchining fikrlash qobiliyatini, mustaqilligini va o'quv jarayonidagi aqliy faolligini oshirish vazifalari hal qilinmoqda.

Uchinchidan, mavjud ta’lim tizimidagi izlanishlar bilan bir qatorda o'qitishning istiqboli haqidagi vazifalarni hal qilish maqsadida ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shunday qilib, fan sifatida ona tili o'qitish metodikasining o'z predmeti, vazifasi, nazariy va ilmiy sohasi bo'lib, bir qator fanlar o'rtasida uning ma’lum o'rni bor. Bu fan ham boshqa fanlar kabi rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda.

Hozirgi kunda Respublikamizda yaratilgan umumiy o‘rta ta’limning Milliy o’quv dasturining o‘quv-me’yoriy hujjatlari: o‘quv reja va fanlarning o‘quv dasturlari, o‘qitish metodologiyasi va baholashni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, darsliklar, o‘qituvchilar uchun qo‘llanma - o‘qituvchi kitoblari, o‘quvchi ish daftari, o‘quv-metodik materiallari ta’lim resurslarini (shu jumladan texnik va ilmiy manbalarni) ishlab chiqish, takomillashtirish va rivojlantirish uchun asos bo‘ladi.

U pedagogik amaliyotni va baholash yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydi va ushbu elementlarning barchasini birlashtirishga imkon beradi. Unda boshlang'ich bosqich va umumiy o'rta ta’lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berildi. Jumladan, 1—4-sinflarda o'quvchilar ona tili va o'qish savodxonligidan o'qish texnikasi, matn mazmunini va o'zgalar fikrini tinglab tushunish, fikrni og’zaki va yozma shaklda bayon etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar darajasi belgilab berildi. Bu o'rinda ona tili va o’qish savodxonligi faniga katta vazifa yuklatildi: ona tili va o’qish savodxonligiga o'quv fani sifatidagina emas, balki butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi jarayon sifatida qaralmoqda. Bu talablarni amalda bajarish ta’lim jarayoniga innovatsion o'qitish texnologiyalarini tatbiq etishni taqozo qiladi.

Hozirda o'quvchilarga bilim berish, ularning bilimlarini oshirishda mustaqil va ijodiy ishlardan samarali foydalanish, bilimlarni hisobga olishga yo’naltirilgan metodik tavsiyalar tizimi ishlab chiqilmoqda. Darslarda didaktik va texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta’limiy o'yinlarni joriy etish keng tus olmoqda, ta’lim jarayonida test topshiriqlaridan, matn ustida ishlashning turli murakkablikdagi innovatsion usullaridan, turli boshqotirma va jadvalli topshiriqlardan keng foydalangan holda dars-mashg'ulotlari tashkil etilmoqda. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ona tili va o’qish savodxonligi o'quv fani sifatida shakllanib, yanada takomillashib, rivojlanishning murakkab yo'lini bosib o'tmoqda.

Nazorat savollari

1. Eski maktabda dastlab o’qish o’rgatilganmi yoki yozuv o’rgatilganmi?

2. Hijo usulida o’qishga o’rgatishni necha bosqichga bo’lish mumkin va ular qaysilar?

3. “Ustodi avval” necha bo’limdan iborat va ular qaysilar?

1.2. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini tashkil etishda o‘qituvchining kreativ yondashuvini rivojlantirish

Reja

1. Hozirgi zamon ta’limida kreativ yondashuv masalalari
2. Kreativ usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida faol fikrlash imkoniyatlarini kengayrirish
3. Boshlang‘ich sinf ona tili va o’qish savodxonligi darslarida kreativ fikrlashga o’rgatish usullari

Hozirgi zamon ta’limida kreativ yondashuv masalalari Hozirgi zamon ta’limining bosh va asosiy vazifasi – o’quvchining intellektual darajasini, yaratuvchanlik qobiliyatini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali yangi bilimlarni olish, yaratishga, ruhlantirishga qaratilmog’i kerak.

An’anaviy ta’lim asosan ilgaridan mavjud bo’lgan didaktikaga asoslangan, ya’ni o’quv jarayoniga fanga oldindan ma’lum bo’lgan bilimlarni o’qitish, o’rgatish, yetkazish bilan xarakterlanadi. O’qituvchi odatiy, an’anaviy, reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan o’quvchining ta’lim mazmunini yodlab olishi, doimiylik asosida qayta takrorlab borishi bilan cheklanadi. Bunday holda bilim konsepsiyasi to’rt bosqichda amalga oshiriladi:

1. Bilim bilan tanishish, ma’lum axborotni tushunib olish, voqealarni bir – birdan ajrata olish;

2. Bilimdan nusxa olish, olgan bilimlarini takrorlash;

3. Bilim, ko’nikma, olgan malakalarini amaliy faoliyatda qo’llay olish;

4. Bilim – transformatsiya, olgan bilimlarini keyingi yangi bilimlarni, yangi vazifalarni bajarishda qo'llay olish (ya'ni ijodiy foydalana olish darajasi)dir.

Shuni yodda saqlash kerakki, ijodkor, yangilik yaratuvchi shaxsni tarbiyalash, fanda ma'lum bo'lgan bilimlarning o'zi bilangina kifoyalanmay, olingan, o'zlashtirilgan bilimlar zamirida yangi bilimlarni kashf etish bilan muhimdir. Bunga yorqin misol qilib, ulug' allomalarimiz Muso al – Xorazmiyning matematika faniga qo'shgan hissasi, Al – Farg'oniyning turli fanlarga tegishli buyuk kashfiyotlari, Al – Farobiyning (70 dan ortiq tillarda erkin so'zlashgan) tovush tezligi, chastotasi, moddiyat, issiqlik, harakat, optikaga oid kashfiyotlari, Abu Rayhon Beruniyning (qomusiy olim) minerologiya, geodeziya, jo'g'rofiya, falakiyot fanlari rivojiga qo'shgan katta hissalari, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Ko'z anatomiyasi"ga bag'ishlangan kitoblari, Ulug'bekning "Zijji Ko'ragoniy" asari va boshqa buyuk allomalarimizning qoldirgan qimmatli asarlari hozirda ham bizning mamlakatimizda va ko'plab xorijiy mamlakatlarda o'qib o'rganilishini keltirishimiz mumkin. Ularning buyuk kashfiyotlari butun jahon xalqlarining intellektual umummulkiga aylangan. Bu shundan darak beradiki, allomalarimiz mavjud bilimlarni chuqur va puxta o'rganib, o'zlashtiribgina qolmay, ular o'z ishlariga izlanuvchanlik, (kreativ) ijodkorlik bilan yondashib, juda ko'plab kashfiyotlar qilganlar. Shuning uchun yangilangan didaktikaning vazifasi faqatgina fanga ma'lum bilimlarning o'zini o'rgatish, uni takrorlash bilan cheklanmay, ularni ijodiy, tanqidiy va yaratuvchanlik ruhida ish yuritishlariga zamin yaratib berishdan iborat. Ma'lumotlarga qaraganda inson kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo'lar ekan.

Agar shu davrda u bilan olib borilayotgan ta'lim jarayoniga faqat an'anaviy ta'lim asosida yondashilsa, undagi ijodkorlikka moyillik so'nib boradi. O'quv – biluv jarayoni ijodkorlikka yo'naltirilsa, uning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi. Ijodkorlik asosida ish yuritishda faqatgina obyektning o'zi bilan cheklanmay, ya'ni sub'ekt (bola)ning

ijodkorligi, moyilligi, ehtiyojiga qarab, ish yuritilsa, ijobiy natijalar beradi (ijodkorlikka bolalikdan o'rgatish mumkin va zarur). Umuman ulug' kashfiyot namoyandalari fikrlash algoritmini yaxshi o'zlashtirganlar, chuqur, atroflicha bilimga ega bo'lganlar. Ular asosan evristik metod va usullarni yaratganlar, shular asosida ijodkorlik namunalarini namoyon qilganlar.

"Creato" lotincha so'z bo'lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma'noni bildiradi. Ijodkorlik va yaratuvchanlik metodlarini yaratishni, o'rganish kreativ pedagogika deyiladi. Agar ta'lim jarayoni o'quvchi faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan loyihalar asosida jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo'nalishga ega, o'quvchilarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi. Ijodkorlik va madaniyatlilik o'quv faoliyatida doimiy tizimli kechsa, u ijodkorlik sari boradi. Shuning uchun ham bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli va maqsadli yo'naltirish, ularning kelgusida kasbiy mahoratli, ijodkor bo'lib yetishishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida ta'lim jarayoni oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda, ta'lim oluvchi olgan bilimlarini o'zlashtirib, ko'paytirib borishdan tashqari, o'quv – biluv jarayonida qo'shimcha bilimlar olish orqali ijodiy yondashuvga moyilliklari ortib boradi. O'quv jarayonini kreativ yo'naltirish uchun: o'quv jarayonida o'quv materialini berib borish, boshqa qo'shimcha materiallarni taklif etish va o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka yo'naltiruvchi material asosida uni o'z ehtiyoji, xohishi orqali yangilik sari yetaklash zarur. O'quv materiallariga yangi qo'shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklifi orqali o'quvchini ijodiy fikrlashga qiziqishini oshirish kerak.

Evristika"–grekcha so'z bo'lib, "heurist" so'zi "izlayman", "topaman", "ochdim" ma'nolarini beradi. O'quvchilarning mustaqil, faol, ijodiy faoliyatini tashkil etishda evristik metodlar asosidagi ta'lim alohida o'rin tutadi. Umuman evristik ta'lim juda uzoq antik zamonlardan beri qo'llanib kelinadi. Birinchi bor ta'lim jarayonida qo'llanilganda – evristik suhbatlar, ketma – ket berilgan savollarga javob, savollarga javob berish orqali o'quvchi tomonidan muammolar yechimiga qatnashish jarayonida rivojlantirilgan. Ilg'or metod

sifatida uni Yan Amos Komenskiy ta’lim tizimiga kiritish zarurligini uqtirgan. U evristik usuldan ta’lim jarayonida foydalaniladi, shaxsning o’ylashi, ijodiy fikr yuritishi zamirida turli yangiliklarni yaratuvchi shaxs tarbiyalanadi, deb ta’rif beradi. Evristik ta’lim metodining keng tarqalishi bizga XX asrning ikkinchi yarmidan kela boshlagan. Bu metod muammolar yechimiga yangicha yondashish, eski qoliplardagi fikrlashlardan holi ravishdagi insonni talab etadi. Yangicha sharoitda fikr yuritish, yangicha yechim topish, muammolar yechimini topishga, g’oyalar tug’ilishiga sabab bo’ladi. Eskicha fikr yuritishlar muammo yechimini berk ko’chaga olib kiradi. Muammo o’z yechimini topmaydi. An’anaviy metod muammoning yechimini topish vaziyatidan chiqishda tashqi tomondan qarashni taqozo etadi. Masalan, o’rganilayotgan obyektlarni, maktabni kattalashtirish yoki kichiklashtirish, ularni qismlarga bo’lish mumkin. Ijodiy vazifalar yechimini topishda shaxsiy analoglar ancha qulay va yaxshi natijalar beradi.

Uning yechimida shaxsiy sezgirlik, his – tuyg’ular jarayon yechimini tezlashtiradi.



1.2.1-rasm. Evristik metodlarning bola faol fikrlashiga ijobiy ta’siri

Demak, evristik metod ijodiy faoliyatga suyanadi, o’rganilayotgan obyektga nisbatan shaxsiy qarash, ijodiy yondashish orqali muammo yechimini topishga olib keladi. Shu orqali ixtiro qilishga yoki ayrim hollarda o’ziga xos original yechimlar topishga olib keladi. Muammoni qayta shakllantirilib, qidirish, izlash, muammoning yechimiga keltiradi. Muammoni hamkorlik

asosida qayta shakllantirish yaxshi natijalar beradi. Ya’ni yechim uchun tanlanayotgan muammo va g’oya ijodiy guruh rahbarining shaxsiy sifati va kasbiy mahoratiga bog’liq. O’qituvchi savolni ustalik bilan ketma – ket bera olishi, replikalar qilishi, aniqliklar va tushunchalar berib borishi kerak. Qisqa qilib aytganda, o’qituvchining vazifasi – ishtirokchilarning faol qatnashishlari, o’ylashlariga, ularni qo’zg’ata olishga ijodiy, qulay sharoit yaratishdan iborat.

Kreativ usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida faol fikrlash imkoniyatlarini kengayrirish Hozirgi kunda ta’lim sohasida kreativ fikrlash mavzusi ko’p tilga olinmoqda. Kreativ fikrlashga undovchi usullar interfaol ta’lim, kreativ ta’lim asosida shakllangan usullar jamlanmasidir. Kreativ usullar - o‘quvchining ijodkorlik qobilyatlarini yuzaga chiqarish uchun xizmat qiluvchi eng qulay vosita hisoblanadi.

Kreativlik – (lot. *creatio* - yaratmoq) ijodiy, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, “Asoslangan, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va qobiliyatning tarkibiy tuzilishi, mustaqil fikrlash sifatini xarakterlaydigan, kishidagi ijodiy qobiliyatlar majmui”. Odatda, kreativ usullarga asoslangan ta’limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual, juftlik, guruh, jamoa bilan ishlash.

Kreativ usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida:

- ijodkorlik, yaratuvchanlik;
- ijodiy fikrlash, dunyoga ijodkorlik nigohi bilan qarash;
- eng original yechimlar va fikrlarni topish;
- mustaqil fikrlash va fikrini dalillay olish qobiliyati;
- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to‘siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish;
-fikrlash, fikrlarini umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;

- o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish kabi imkoniyatlarning shakllanishiga erishish mumkin.

Bunda

- ta’lim oluvchi (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari)da bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi;
- ta’lim jarayonining har bir ishtirokchisi rag‘batlantiriladi;
- har bir o‘quvchining ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatiladi;
- o‘quv materialining samarali o‘zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratiladi;
- o‘quvchilarda hayotiy zarur ko‘nikma, malakalarni shakllantiradi;
- o‘quvchilarning xulq-atvori ijobiy tomonga o‘zgartirilishi ta’minlaydi

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida kreativ usullarning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma’lum:

1. Kashf etmoq – bu metod orqali o‘quvchining kashfiyotchilik qobiliyati, fantaziya kuchi oshiriladi. O‘quvchilarga “Agarda men…”, “Agarda…” kabi boshlang‘ich qo‘zg‘atuvchi savol tashlab qo‘yiladi. O‘quvchilar o‘zlarining tasavvurlariga suyanib jarayonni davom ettirishlari lozim bo‘ladi. Masalan, “Agarda men sehrgar bo‘lib qolsam…”, “Agarda insonda qanot bo’lsa…” kabi.

2. Obrazli rasmlar – bu metodda obyekt hissiy-obrazli tadqiq qilinadi. O‘quvchi tanlangan obyektni tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning o‘z tasavvuridagi matnli yoki grafik ko‘rinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda obrazli tafakkurni, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ularning tasavvuri, xayoloti va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir.

3. Giperbolizatsiya – bu metod biron obyekni orttirib, kattalashtirib yoki aksincha kichraytirib, kamaytirib ko‘rsatish orqali nomoyon bo‘ladi. Misol uchun devlar, Gulliver, yoki “King Kong” ertagi qahramoni kabi obrazlar kattalashtirib, “Jimjiloq”, “Dyumchaxon”, “No‘xatpolvon” kabi obrazlarning

kichiklashtirib olinishini misol qilib olih mumkin. Bu metod, asosan, o‘qish darslarida badiiy asarlar, ertak va hikoyalar ustida ishlashda juda qo‘l keladi.

4. Agglyutinatsiya – bu metod orqali o‘quvchilar o‘z tasavvurlari orqali turli, haqiqatdan yiroq bo‘lgan predmet yoki obrazlarni yaratishlari mumkin. Misol uchun: uchar gilam, sehrli nay, uchar qanotli otlar ham agglyutinatsiya mahsulidir.

Bundan tashqari, “Aqliy hujum”, “Evristik savollar” kabi bir qator metodlar ham mavjud.

Boshlang‘ich sinflarda dars jarayonida va to‘garak mashg‘ulotlarida kreativ metodlardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsida Maftuna Aliyevaning “Arafa” matnini o‘rganishda o‘quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Nega bola hayit bayramini intiqlik bilan kutdi?

2. Sizga hayitlik berilsa u pulni nimalarga sarflardingiz?

3. Oilangizda hayit bayrami qanday kayfiyat bilan kutib olinadi?

4. Arafa kuni oilangizda qanday ishlar amalga oshiriladi va siz bu ishlarga qanday yordam berasiz?



1.2.2-rasm. Kreativlik–shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya

Demak, kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili,

shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Pedagogik kreativlik (ijodkorlik) - pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati hisoblanadi.

“Pedagogik ijodkorlik” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o‘quvchilar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga qarata olish;

2) o‘qituvchilarga o‘quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular quyidagilardir:

1. Me’yoriy hujjatlar (o‘quv fanlari bo‘yicha DTS, o‘quv dasturi va o’quv rejalari)ni tayyorlash;

2. O‘quv manbalari (darslik, o‘quv-metodik va metodik qo‘llanma, tavsiyanoma, lug‘at, ensiklopediya, atlas, ish daftari va b.)ni yaratish ;

3. Ta’lim jarayoni va ma’naviy-ma’rifiy ishlar loyihalarini tayyorlash;

4. O‘quv axborotlari, nazorat hamda sinov topshiriqlarini shakllantirish;

5. Ta’lim jarayonini qiziqarli, jonli, jo‘shqin tashkil etish;

6. Ilmiy-tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli olib borish;

7. Ilmiy va metodik anjumanlarda faol ishtirok etish, chiqishlar qilish;

8. Ilmiy, ilmiy-metodik va metodik ishlarni chop ettirish;

9. Davriy hisobotlarni topshirish, attestatsiyadan o‘tish va h.k.

Ijodkorlik – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi;

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs ;

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs;

Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida obyektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talab darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs;

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o‘rgatish va o‘zini o‘zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni;

Ijod – ijtimoiy sub’ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.



1.2.3-rasm. Pedagoglarda kreativlik sifatlari

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

1) bilishga oid (gnostik) malakalar;

2) loyihalash malakalari;

3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;

4) tadqiqotchilik malakalari;

5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;

6) tashkilotchilik malakalari;

7) izchillikni ta’minlovchi (protsessual) malakalar;

8) texnik-texnologik malakalar

Muayyan omillar pedagoglarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda o‘qituvchilar ushbu omillarni barataf etishga e’tibor qaratishlari lozim.

Bular quyidagi omillardir:

1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va hatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo‘lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

O‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, o‘quvchilarni kreativ fikrlashga o’rgata oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, o‘quvchilar ham shunday bo‘la oladi.

Mashg‘ulotlarda o‘qituvchi “kreativlik yo‘l xaritasi”ga ko‘ra quyidagi to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

1) ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;

2) o‘quvchilarni o‘quv fanlarini qiziqish bilan o‘zlashtirishga rag‘batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish;

3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;

4) kutiladigan natija.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo‘yiladi va bu qobiliyat kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi.

Xo‘sh, ta’lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o‘rgatish mumkin?

Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o‘zgarishlar kechishi lozim?

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim.

Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning zamirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

` Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim.

Inson miyasi o‘z ishini “yengillashtirish”, “qulaylashtirish” uchun avvaldan mavjud bo’lgan shablonlardan foydalanadi. Shablonlar shu paytgacha ma’lum bo‘lgan va umumqabul qilingan fikrlar hisoblanadi. Ular asosida fikrlash bizga hech qanday yangi g‘oya bermaydi. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo‘lgan ijtimoiy fikr, mediamahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko‘rinishlar ham yetakchi o‘rin tutadi. Inson ommadan ajralib qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo‘shiladi.



.2.4-rasm. O’quvchini kreativ fikrlashga o’rgatish usullari

Qolaversa, “oqim bo‘ylab suzish” mustaqil fikrlashdan ko‘ra oson tuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo‘yicha inson ongiga “so‘rov” berilganida odatiy ma’lumot va mulohazalar yuzaga keladi.

Eng ajablanarli jihati, ta’lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o‘rgatib qo‘yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabdagi ta’lim jarayonidagi bir xillikka ko‘nikolmagani, qoliplarga sig‘maganini ko‘rish mumkin. Masalan, bunga Albert Eynshteynning maktabdan haydalishi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan “uch” olgani bunga misol bo‘ladi. AQShlik buyuk olim, lampochka ixtirochisi Tomas Edison (1847-1931) bolaligida o’qituvchisidan xat olib kelib uni o'z onasiga beradi, onasi xatni ovoz chiqarib o'qiy boshlaydi: O'g’lingiz juda yaxshi o’qigani bois siz uni boshqa maktabga ko’chirishingizni so'raymiz, bu bola

bizning o’quvchilarimizga nisbatan zehnliro, biz ortiq unga saboq bera olmaymiz,,- deydi, Tomning onasi ko'zida yosh bilan o'glidan xursand bo'ladi. Yillar o'tib Tomas buyuk olimga aylanadi. Kunlarning birida u yoshlikdagi o'qituvchisi yozgan xatni topib oladi va unda "O’'g'lingizni boshqa maktabga ko’chirmasangiz uni sinfida qoldiramiz, chunki u sinfdoshlariga nisbatan juda ham bilimsiz va aqli zaif" degan yozuvga guvoh bo’ladi. Xatni o’qib bo’lgach, yig’lab yuboradi, onasining aqliraso ayol bo’lganiga tasannolar aytadi. Shu yuksak darajaga yetishishiga aslida onasi sababchi bo'lganligidan xabar topadi. “Istedodning bir foizi- qobiliyat, qolgan 99- foizi mehnat va izlanishdir”.

T. Edison

Boshlang‘ich sinf ona tili va o’qish savodxonligi darslarida kreativ fikrlashga o’rgatish usullari

Boshlang‘ich sinf ona tili va o’qish savodxonligi darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi o’yinli metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

“QOFIYALAR” O’YINI

O‘quvchilarga qofiyadosh so‘zlarni topish vazifasi topshiriladi. Masalan: ***tosh*** so‘zini ***bosh*** so‘zigacha davom ettirish talab etiladi.

Namuna: ***tosh, mosh, qosh, yosh, osh, dosh, chosh, bosh.***

Or, tor, bor, xor, zor, kor, yor, dor…

“MA’NODOSHINI TOP” O’YINI

O‘quvchilardan so‘zlarning juftini davom ettirish so‘raladi. Masalan: ***chiroyli-go’zal-latif-maftunkor, katta-ulkan-buyuk-hashamatli-bahaybat, kichik-mitti-jajji-mo’jaz, tabiat-borliq-atrof-olam, ot-yo’rg’a-saman-toy, yaxshi-ajoyib, zo’r, a’lo, ijobiy…*** . Berilgan so‘z ma’nodoshlarini ko’proq topib aytgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

“DAVOM ETTIR” O‘YINI

Bunda o‘quvchilardan faqat bir ishtirokchi guruh nomidan belgini anglatuvchi so‘z aytadi, qolgan guruhlar navbat bilan tugagan harfdan boshlab so‘z aytadilar. So‘zlar faqat qanday? qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lishi kerak. O‘qituvchi tushuntiradi o‘quvchilar bajaradi.

Masalan: go’zal, latif, farosatli, iboli, intiluvchan, nafis, sohibjamol, lobar, rostgo’y, yolg’onchi, ishchan, nafosatli, ibratli, ishbilarmon, noyob, bahaybat, tortinchoq, qobiliyatli, imonli…

“KIM CHAQQON” O‘YINI

O‘qituvchi biror koptokchani boshqa bir o’quvchiga otib savol beradi. O‘quvchi tez javobni aytib koptokchani o’qituvchiga qaytarishi kerak. Masalan:

1. Unda aksimiz ko’rinadi. (oyna)

2. Osmonda tunni yoritadi (oy)

3. Bahor va kuzda tomchilaydi (yomg’ir)

4. Yetti rangda bo’ladi (kamalak)

5. Atigi bir kun yashovchi hasharot (kapalak)

“ORTIQCHASINI TOP” O‘YINI



Bu

o‘yinda o‘quvchilar so‘zlar qatoridan noto‘g‘risini topadi.

1. dala, bog’, o’rmon, qizil, gulzor.

2. ona, bola, buvi, mayin, opa.

3. katta, sho’x, osmon, shirin.

4. ko’rkam, kelajak, qizil, sho’r.

“TARTIBGA SOL” O‘YINI

O‘quvchilar aralashtirilgan so‘zlarni to’g’ri ketma ketlikda joylashtirib gap tuzadi.

Masalan: **maftunkor tabiat nihoyatda kiradi bahorda manzarasi tusga. o’z ulasha nurlarini boshladi zarrin quyosh. dam boqqa olish borib o’ynadik rosa kuni.**

1. Bahorda tabiat manzarasi nihoyatda maftunkor tusga kiradi.

2. Quyosh o’z zarrin nurlarini ulasha boshladi.

3. Dam olish kuni boqqa borib rosa o’ynadik.

“JUMBOQ” O‘YINI

O‘qituvchi buyumlar nomlari yozilgan qog‘ozlarni stol ustiga teskarisiga qilib qo‘yadi. O‘quvchilardan biri qog‘ozlardan bittasini shunday tasvirlashi kerakki, qolgan o‘quvchilar gap nima haqida borayotganligini darrov tushunib javob berishlari kerak.

1. Bu yerda gulning nomi yozilgan. U har xil: qizil, sariq, oq rangda bo‘lishi mumkin. U juda xushbo’y bo‘ladi. (Javob “atirgul”)

2. U doim kishini quvontiradi, yangi yilda bizga sovg’alar ulashadi. (Javob “qorbobo”)

3. Uni bolalar mazza qilib tomosha qiladilar. O’rgatilgan hayvonlar turli tomoshalar ko’rsatadilar (Javob “sirk”)

“JUFTINI TOP” O’YINI

O’quvchilar jamoasi ikki guruhga bo’linadi. 1-guruhda ish-harakatni bildiruvchi so’zlar yozilgan kartochkalar, 2-guruhda predmetning nomini bildirgan so’zlar yozilgan kartochkalar jamlanmasi beriladi. 1-guruh “uchadi” so’zi yozilgan kartochkani ko’rsatganda, 2-guruh “qush” so’zini topishi kerak. Masalan: **“yuradi”-“poyezd”, “pishiradi”-“oshpaz”, “kuylaydi”-“xonanda”, “sayraydi”-“bulbul”, “o’sadi”-“daraxt”, “suzadi”-“baliq”….**

Nazorat uchun savollar:

1.Kreativ fikrlash nima?

2.Kreativ mashqlarning xarakterli jihati nimada?

3.Evristik yo’nalishdagi topshiriqlarning afzallik jihatlarini izohlang.

4.Ta’lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o‘rgatish mumkin?

5.Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o‘zgarishlar kechishi lozim?

6. Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlarini ayting.

7.“oqim bo‘ylab suzish” deganda nimani tushunasiz?

8.Kreativ shaxs deganda qanday kishilarni tushunasiz?

9.Ijod nima?

10. Innovatsiya nima?

1.3. BOSHLANG’ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI NAZORAT QILISHNING KOGNITIV SHAKLLARI

O‘quvchiga tilni o‘qitish orqali shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini rivojlantirish, bunda o‘qish hamda mehnat jarayonida,

oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi. Adabiyot so‘z san’atidir, shu sababli ona tilini puxta o‘zlashtirmasdan turib, adabiyotning go‘zalligi va qudratini anglab bo‘lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslarida amalga oshirish lozim bo‘lgan asosiy masala o‘quvchida so‘zga qiziqish va e’tibor hissini muntazam sur’atda o‘stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iborat. Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqea-hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi. Bu bilan o‘quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi ona tili, adabiyot hamda o‘zbek tili fanlarini boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lagan holda o‘qitar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdek, takrorlash, umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘laydi va o‘quvchini mantiqiy, tahliliy mushohadaga undovchi turli mazmunga oid matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish o‘quvchini ijodiy fikrlash, matnni tushunishga o‘rgatadi hamda ularning bilimi va dunyoqarashining boyishiga xizmat qiladi. Yosh avlod ma’naviyatini rivojlantirish o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an’ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik-uslubiy

jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Til o‘rganishda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich va umumiy o‘rta bosqichlarida til ta’limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va, muhimi, umumdidaktik va o‘ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ, grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi. “Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me’yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchida til qurilishiga oid o‘zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish. O‘zbek tili fani umumiy o‘rta ta’limning ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarida ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. Ushbu fan ta’limi mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyani shakllantirishga

mo‘ljallangan, bu o‘quvchining o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma shaklda erkin muloqot yurita olishini ta’minlash asosida amalga oshiriladi. O‘quvchining kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan lingvistik kompetensiyalar o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni ham shakllantirishini ko‘zda tutadi.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang’ich sinf o‘quvchiiga ona tili fanidan qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat.

NUTQIY KOMPETENSIYA

(og‘zaki nutq, yozma nutq, anglash, o‘qish va tushunish, tinglab tushunish)

Og‘zaki nutq

- unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish;

-x va h, o‘ va u tovushlarini og‘zaki nutqda farqlash (dasturda berilgan matnlar asosida);

-tengdoshlari va kattalar bilan suhbatga kirisha olish, suhbatlashish odobiga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish, so‘zga chiqishni istashini hurmat bilan so‘rash, mavzu yoki matn yuzasidan navbat bilan gapirish);

- rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlash;

- o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gapira olish;

- matnni qayta bayon qila olish.

- berilgan mavzuda og‘zaki talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda to‘g‘ri va ravon so‘zlay olish; she’rlarni ifodali ayta olish;

- munozara jarayonida mavzudan chetga chiqmagan holda o‘z fikrini erkin, navbat bilan bayon qilish va asoslash, shaxsiy qarashlarini odob bilan himoya qilish;

- rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlash;

- o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gapira olish; tushunmagan o‘rinlarni aniqlashtirish maqsadida savollar bera olish;

- og‘zaki fikr ifodalashda o‘zlashtirilgan leksik birliklarni maqsadga muvofiq tarzda qo‘llash;

- matn, hikoya, ertakni qayta ijodiy bayon qila olish.



Savod chiqarish va yozma nutq

- fikr ifodalashda bir-biriga o‘xshash (satr osti, satr usti harflari) harflarni farqlab yozish;

- yozma nutqda x va h harflarini to‘g‘ri qo‘llash;

- bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qilish;

- husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qilgan holda diktant yozish;

- yil davomida o‘rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ularni to‘g‘ri yoza olish;

- berilgan rasm asosida, odam yoki ma’lum voqeani tasvirlab, gap tuzib yoza olish;

- turli mavzularda tabriknoma yoza olish.

Anglash. O‘qish va tushunish

- harflarning bosma va yozma shakllari muvofiqligi va farqlarini ajratgan holda o‘qish va tushunish;

- o‘quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so‘z va birikmalarning ma’nosini anglash;

- darslikda berilgan lug‘atdan foydalana olish;

- matn yuzasidan savollar bera olish;

- matn tafsilotlarini aniqlashtirish uchun savollarga javob bera olish (Kim? Nima? Qayerda? Qachon? Nima uchun? Qanday qilib? kabi);

- o‘qilgan ertaklarning xulosasini ayta olish.

- gap ohangiga rioya qilgan holda tinish belgilari (nuqta, vergul, so‘roq, undov)ni qo‘ya olish;

- punktuatsion va imlo qoidalariga amal qilgan holda 65–70ta so‘zdan iborat diktant yozish, tinglangan matn asosida bayon yozish;

- yil davomida o‘rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ro‘yxatini tuzish, ularni to‘g‘ri yoza olish;

- berilgan rasm asosida odam yoki ma’lum voqeani tasvirlab, 7–8ta gap tuzib yoza olish, bunda fikr tartibiga rioya qilish, ifodada badiiylik unsurlarini qo‘sha olish;

- berilgan qo‘shimchalar asosida yangi so‘zlar hosil qilish va ularni to‘g‘ri yozish;

- shaxsiy xat, tabriknoma va e’lon yoza olish, bunda o‘z tilaklari va shaxsiy munosabatini ifodalay olish.

- matnlarni og‘zaki talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish;

- o‘quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so‘z, so‘z birikmasi, ibora va sodda gaplarning mohiyatini anglash;

- matnning ma’lum qismini o‘qib, uni mantiqan davom ettirish, matn mazmuniga mos keladigan sarlavha topish;

- matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savol, taklif va tavsiyalar bera olish;

- ertak, hikoya, rivoyatlarning asosiy g‘oyasini, axloqiy jihatini aniqlash, ertak qahramonlari nutqini obrazga kirib o‘qiy olish.

Tinglab tushunish

- tinglangan tovushlarni o‘zaro farqlash va harflarga moslashtira olish;
- suhbatlashish qoidalariga rioya qilish (bir-birini hurmat qilish, so‘zga chiqishni istashini hurmat bilan so‘rash);
- xabar, buyruq, so‘roq ohanglarini farqlash;
- berilgan savolni tushunish va tartibli javob bera olish;
- jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta olish.
- tinglangan audiomaterialni og‘zaki aytib bera olish va matn ko‘rinishida yozib bera olish;
- tinglangan matnda qo‘llangan zid ma’noli, shakldosh va ma’nosi yaqin so‘zlarni sharhlay olish;
- berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish;
- matn, hikoya va ertaklardagi qahramonlarni tasvirlay olish;
- jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta olish;
- ibora, maqol va hikmatli so‘zlarning ma’nosini tushunish;
- tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlash va izohlay olish;
- ma’lum qismi berilgan matnni davom ettira olish.



LINGVISTIK KOMPETENSIYA

- unli va undosh harflar imlosini bilish va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;
- olinma so‘zlar, atamalarning talaffuzi, imlosi va ma’nolarini bilish, ularni nutqda to‘g‘ri qo‘llash;

- so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlarini o‘zaro farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;
- lug‘at va lug‘at turlarini bilish, lug‘atdan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- so‘z, uning tarkibiy qismi, asos va qo‘shimchalar imlosini bilish va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;
- ot, sifat, son, olmosh, fe’lni o‘zaro farqlash, nutqda to‘g‘ri foydalana olish;
- so‘zlarni o‘zaro to‘g‘ri biriktirgan holda gap hosil qila olish;
- gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini bilish, ular imlosiga rioya qilish;
- gap bo‘laklarini farqlash va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish;
- so‘z, gap va matnning xususiyatlarini bilish, qoidalariga rioya qilgan holda matn yarata olish.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchida fanga oid kompetensiyalar bilan birga tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Til va adabiyot fanlari bloki yo‘nalishidagi fanlar orqali o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalar**ni shakllantirishda davlat tili hamda xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda ona tili bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantirish lozim.

Fanlarni o‘qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasi**ni samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o‘quvchini fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjet)lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlarga ega bo‘lish, vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy

bilimlarga ega bo‘lish, yangiliklarga intilish va o‘zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilish, jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o‘rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish hamda badiiy va san’at asarlarini tushunishdan, ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini



rivojlantirishdan iborat.

“Kognitiv” so‘zi (lotincha bilish – “bilish” dan) keladi va tarjimada (ingliz tilidan kognitiv – “kognitiv”), shuning uchun biz bilish psixologiyani bir qismi deb
aytishimiz mumkin. Psixologiya fanlari kognitiv harakatlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Ona tili darslarida bilim, ko‘nikma, malakalarni nazorat qilishning kognitiv usullariga diktant, test, insho, bayon kabi yozma ish turlarini kiritish mumkin.

Diktant eshitib idrok qilingan so‘z, gap, matnni yozishdir. O‘quvchilarning og‘zaki yozma nutqini o‘stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O‘quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganliklariga bog‘liq bo‘ladi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o‘z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda nazorat va ijodiy topshiriq turlaridan foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni grammatikaga oid bilimlarini o‘rgatish va ularni yozma nutqlarini shakllantirishda yozma ishlar alohida o‘rin tutadi. Bular – ko‘chirib yozish, diktant, bayon, insho tarzida amalga oshiriladi.

Bolalar savodxonligini oshirishda foydali bo‘lgan mashqlardan biri – **yozma ishlardir.**



Uni o‘tkazishda o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish, aniqlikka e’tibor berish soddadan murakkabga qarab borish muhim ahamiyatga ega.

Yozma ishlar quyidagi shakllarda bo‘ladi: mashqlar, ko‘chirib yozish, diktant, bayon, insho.

Mashqlar o‘quvchining ona tilidan olgan bilim va malakalarini mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi.

Mashqlar bajarish natijasida o‘quvchilar:

a) olgan bilimlarini ongli o‘zlashtira boradilar,

b) bilimlarni amalda qo‘llay oladilar,

v) savodli fikrlash malakalari ham orta boradi.

Mashq bajarish jarayonida til faktlarini doimo kuzatib boradilar, taqqoslaydilar va nihoyat umumlashtiradilar. Shuningdek, yozma va og‘zaki nutq malakalarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Mashqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash imkoniyatlarini ongli tarzda o‘zlashtirish faoliyatini yaxshilaydi.

Ko‘chirib yozish. Ko‘chirib yozishda o‘quvchi yozuv taxtasidan, kitob lug‘at yoki turli ko‘rsatmali materiallardan ko‘chiradi va so‘zlarning imlosini ko’rish orqali xotirasida saqlab qoladi. Bu yozuv usuli o‘quvchilarning to‘g‘ri

yozish malakasini mustahkamlashga, so‘z boyligini oshirishga, husnixat o‘rgatishga, so‘zlar imlosini esda olib qolishga xizmat qiladi.

Ko‘chirib yozish 2 xil bo‘ladi.

1. Matnni o‘zgartirmasdan ko‘chirib yozish.

2. Matnni o‘zgartirib ko‘chirib yozish.

Matnni o‘zgartirmasdan ko‘chirib yozish ko‘proq boshlang‘ich sinflarda qo’llaniladi. Ko‘chirib yozishda o‘quvchilarning bilim darajasiga qarab so‘zlar miqdorining sinflararo quyidagicha belgilash maqsadga muvofiq:

1-sinf – 5–8 ta so‘z

2-sinf – 10–20 ta so‘z

3-sinf – 20–30 ta so‘z

4-sinf – 30–40 ta so‘z.

Yozma ishlarning yana bir turi diktantdir. O‘quvchilarning og‘zaki yozma nutqini o‘stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O‘quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganliklariga bog‘liq. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o‘z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Boshlang‘ich sinflarda diktant uchun matn tanlashda bir qancha tamoyillarga amal qilinadi. Bular:

1. Matnning monologik nutq shaklida bo‘lishi. Unda ko‘chirma gaplar, undalmali, kirish so‘zli, ajratilgan bo‘lakli gaplar, qo‘shma gap bo‘lmasligi lozim.

2. Matn hajmi 1-4-sinf o‘quvchilarining o‘qish sur’tiga asoslangan bo‘lishi.

3. Matn mazmuni bolalar hayoti bilan bog‘liq bo‘lishi.

4. Diktant matni o‘quvchilarga u yoki bu haqda ma’lumot berishi.

5. Tanlangan matn g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak bo‘lishi, bolalar hissiyotiga ta’sir qilishi.

6. Matn tarbiyalovchi xarakterda bo‘lishi.

7. Matnda o‘rganilayotgan hodisa kamida 5-6 marta uchrashi.



Diktantlar maqsadiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. ***Ta’limiy diktantlar*** – bilim berishga yo‘naltirilgan diktantlar.

2. ***Tekshiruv diktantlari*** – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta’limiy diktantlarni o‘tkazish vaqtini, o‘rnini, turini o‘qituvchining o‘zi belgilaydi. Ta’limiy diktantlar uchun darsning ma’lum bir qismi (5-10 daqiqasi), ba’zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o‘quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi. Ta’limiy diktantda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rgatilayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, o‘quvchilar so‘zlarni to‘g‘ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga ruxsat beradi. Har qanday yo‘l bilan xatoning oldini olish chorasi ko‘riladi. Masalan, 1-sinfda ***a*** va ***o*** unlilari o‘rganilayotgan darsda bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tahlili o‘tkaziladi. **Baho, bahor** so‘zlarining birinchi bo‘g‘inida ***a*** harfi yozilishini o‘quvchilar bilib olgach, o‘quvchilardan biri shu so‘zlarni xattaxtaga yozadi. So‘ng so‘z o‘chirib tashlanadi, shundan keyin aytib turib yozdiriladi.

Ta’limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Ta’kidiy diktant.
2. O‘z diktant yoki yoddan yozuv diktanti.
3. Izohli diktant.
4. Saylanma diktant.
5. Erkin diktant.

6. Rasm diktant.

7. Lug‘at diktant.

8. Ijodiy diktant.

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma’lum o‘zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o‘rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o‘quvchilar qay darajada o‘zlashtirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo‘lim o‘rganilgandan so‘ng yoki chorak oxirida o‘tkaziladi. Tekshiruv diktanti o‘quv yili davomida 5-6 marta o‘tkaziladi. Diktantning bu turida yo‘l qo‘yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta’limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Ta’kidiy diktantdan qoidani tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o‘quvchilar so‘zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

O‘z diktant yoki yoddan yozuvda o‘rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so‘zlar bo‘lgan matnni o‘quvchilar o‘zlari o‘qib (ko‘rib idrok qiladilar) yodlaydilar yoki o‘qituvchi rahbarligida eshitib (idrok qiladilar) yodlaydilar, keyin o‘zlari mustaqil yozadilar.

Izohli diktant o‘quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o‘tkaziladi. O‘quvchi, odatda, o‘qituvchining ko‘rsatmasi bilan ma’lum so‘zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So‘zning yozilishini bo‘g‘in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, “Kitob – bilim manbai” – Kitob: Ki-tob. Ikki bo‘g‘in. Birinchi bo‘g‘inida **k, i;** ikkinchi bo‘g‘inida **t, o, b** tovushlari bor. Oxirgi **b** tovushi **p** tovushi tarzida talaffuz qilinadi. Unda **b** yoki **p** tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so‘z oxiriga **i** tovushini

qo‘shamiz va aytamiz: ***kitobi.*** **B** tovushi yozilar ekan” kabi izohlanadi. Bu diktantda o‘quvchilar qoidalarga oid so‘zlarning tagiga chizadilar.

Saylanma diktantda o‘quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydilar. Uning o‘qituvchining topshirig‘iga mos (o‘rganilgan qoida asosida yoziladigan so‘zlarni, so‘z birikmalari) qisminigina yozadilar. Masalan, bosh harf bilan yoziladigan so‘zlarnigina yozish (1-sinf), qaratqich kelishigidagi so‘zni u bog‘langan ot bilan yoki tushum kelishigidagi so‘zni u bog‘langan fe’l bilan birga yozish (4-sinf) kabi. Saylanma diktant o‘quvchilarda imloviy ziyraklikni o‘stiradi.

Erkin diktantda o‘quvchilarga mazmunni buzmay, gap tuzilishini o‘zgartirish, bir so‘zni unga yaqin ma’noli so‘z bilan almashtirish erkinligi beriladi. Diktant uchun 3-5 qismli matn tanlanadi. O‘qituvchi avval matnni bir marta ifodali o‘qib beradi, so‘ngra matn mazmuni yuzasidan suhbat o‘tkazadi. Ayrim qoidalarni eslatadi. Keyin matnning bir qismi qayta o‘qib beriladi, o‘quvchilar uning mazmunini yozadilar.

Erkin diktant imlo qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o‘quvchilar nutqini o‘stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki o‘zini ko‘rsatib o‘tkaziladi: predmet rasmi ko‘rsatiladi, o‘quvchilar uning nomini aytadilar va yozib vergul qo‘yadilar, ish shunday davom etadi (Birinchi so‘z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko‘ra yozilishi eslatiladi). Rasm diktantda **o‘**rganilgan qoidani, ayniqsa, o‘quv yili davomida o‘rganiladigan imlosi qiyin so‘zlarni to‘g‘ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o‘quvchilar qanday o‘zlashtirganliklarini sinash maqsadi ko‘zda tutiladi.

O‘qituvchi darsning maqsadi va malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.

Bayon o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni o‘rganishning yakunlovchi bosqichida, o‘quvchilar qoidalarni bilib

olib, uni tatbiq qilishga o‘rganganlaridan so‘ng o‘tkaziladi. Bayon yozganda o‘rganilgan imlo qoidalarini to‘g‘ri tatbiq etish ularning ongli o‘zlashtirilganligini ko‘rsatadi.



Ijodiy mashqlar. Ijodiy mashqlarda o‘quvchilar o‘zlari erkin ravishda gap tuzadilar. Boshlang‘ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o‘quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: *«Bahor fasli», «Maktabimiz bog’i» yoki «Non - aziz»* kabi.

2. Narsa rasmi yoki syujetli rasm beriladi, o‘quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta «tayanch» so‘z beriladi, o‘quvchilar shu so‘zlar ishtirokida gap tuzadilar. Tayanch so‘z sifatida bolalarning faol lug‘atiga aylantirish zarur bo‘lgan so‘zlar olinadi.

O‘QUVCHILARNING YOZMA ISHIDA UCHRAYDIGAN XATOLAR

Orfografiya grekcha so‘z bo‘lib, to‘g‘ri yozish ma’nosini ifodalaydi. Tilshunoslikning orfografiya bo‘limi savodli yozma nutqni shakllantiradi. Yozma nutqni ifodalash grafik yozuv orqali amalga oshiriladi. Yozuv orqali voqea-hodisani kishilarga yetkazish, tashkilotlar bilan yozma aloqa qilish vazifalari hal etiladi. Buning uchun esa faqat grafikaning o‘zi kifoya qilmaydi, yetarli bo‘lmaydi. Yozuv orqali so‘z - tovush qanday talaffuz qilinsa, shunday yozish tushuniladi. Tilning tovush tarkibi yozuvga nisbatan murakkabdir. Bunday murakkablik "O‘zbek tilining orfoepik lug‘ati"da o‘z aksini topgan. Masalan, “tomosha” so’zi “tomasha”, “tamosho” kabi turlicha talaffuz qilinadi.

Orfografik qoidalar o‘zbek xalqining so‘zlar yozuvini bir xil yozma ifodalashni ta’minlaydi. Demak, orfografiya tilidagi so‘z asos-negizlari va qo‘shimchalarni yagona tarzda yozish qoidalarining yig‘indisidir.

Boshlang‘ich sinflarda so‘zninig satrga sig‘may qolgan qismini keyingi qatorga bo‘g‘inlab ko‘chirib yozishni, bunda bo‘g‘in hosil qilgan bir unli harfni oldingi qatorda qoldirib va keyingi qatorga bo‘g‘inlab ko‘chirib yozishni, unda bo‘g‘in hosil qilgan bir unli harfni oldingi qatorda va keyingi qatorga ko‘chirib yozib bo‘lmasligini, gap boshida, shuningdek, kishilar ismida, hayvonlarga qo‘yilgan nomlarda bosh harf ishlatilishini bilish, **singil, ko‘ngil** kabi so‘zlarni bo‘g‘inga to‘g‘ri bo‘lish, qo‘shma so‘zlarni ajratib yoki qo‘shib yozishni, juft so‘zlarni chiziqcha bilan yozishni o‘rgatishdek imloviy vazifalar turadi. Aynan ana shu masalalarni chuqur o‘rganish “Keys stadi” texnologiyasiga asoslangan o‘qitishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy va o‘rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi.

Xato turlari. Tekshiruv diktantida qanday xato turlari farqlanadi?

Uslubiy qo‘llanmalarda xato ikki xil belgilanadi: jiddiy xatolar, juz’iy xatolar. Jiddiy xatolar bahoning pasayishiga olib keladi. Juz’iy xatolar kechirimli yoki bahoga ta’sir etmaydi deyish mumkin. Boshlang‘ich sinf yozma ishlarida xatolarning imlo, uslubiy, ishorat, shakliy turlari uchraydi.

Imloviy xato turlari

1. So‘zda harfning tushib qoldirilishi yoki orttirilib, so‘z ma’nosining o‘zgarishi: Katta-kata; joyida-joida.

2. Tutuq belgisi tushirilsa: Ma’mura-Mamura, Ra’no-Rano

3. Diakritik belgilar tushirilsa: O‘o‘, G‘g‘, Q. Qodir-Oodir, G‘ulom-Gulom, g‘o‘z-g‘oz. o‘n-on.

4. Juft, takror so‘zlar orasiga, bo‘g‘in ko‘chirishda chiziqcha (-) (chiziqcha 3-4 mm bo‘ladi, chiziqcha imlo belgisidir, u ishorat xato emas)

Uslubiy xato turlari

Uslubiy xatolar tekshirish diktantida, ta’limiy diktant yozish jarayonida kamdan-kam yuz beradi. Uslubiy xatolar ko‘proq bayon va insholarda uchraydi. Masalan:

1. Berilgan gapda biron so‘zning tushib qolishi yoki biror gap bo‘lagining yetishmasligi.

2. Beriigan gapda kelishik qo‘shimchalaridan biri o‘rniga boshqasining qo‘llanishi yoki no‘rin tushirilishi natijasida maqsad qilingan mazmunning o‘zgarilishi oqibatida: Maktab kutubxonasiga do’stimni uchratdim. - Maktab kutubxonasida do’stimni uchratdim. Shahar markazidan keldim. Shahar markazida keldim.

3. Adabiy til o‘rnida sheva so‘zini qo‘llash. Bu xato turi diktant yozishda ham ba’zan uchrashi kuzatiladi, asosan bayon yana insholarda uchraydi: opa-apa, ona-oyi.

Ishorat xato turlari

Ishorat xato yozma ishlarning barchasida uchraydi, ammo tinish belgilarining hammasi boshlang‘ich sinflarda (9 ta) o‘rganilmaydi. 2-3-sinflarda nuqta, so‘roq, undov tinish belgilari o‘rganiladi, xolos. Qolganlari o‘rni bilan bayon qilinadi.

1. Tire (-) tinish belgisidir. Tire bilan chiziqcha (-) farqlidir. Tire hajmi 5-7 mm. U ishorat xatodir.

2. Nuqta (.), so‘roq (?), undov (!), vergul (,), ko‘p nuqta (…), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), qavs (), qo‘shtirnoq (“”) tinish belgilari noo‘rin qo‘yilsa yoki tushirib qoldirilsa, u holda ishorat xato sanaladi.

Grafik xato turlari

Grafik xato boshlang‘ich sinflarga xos tipik xato turidir. Husnixat me’yorida yozilmay, harf shakli buzilsa, uning ostiga chiziladi. Harfning husnixat shaklining to‘g‘ri ko’rinishi daftar hoshiyasida namuna sifatida yozib

qo‘yiladi. Shakliy xato yozma ishlarning barchasida hisobga olinadi, bahoga ta’sir etadi.

O‘qituvchi darsning maqsadi va malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalanadi.

Bayon – mustaqil yoritiladigan o‘ziga xos ijodiy ish bo‘lib, u og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishning eng asosiy vositalaridan hisoblanadi. Bayon o‘quvchining o‘zligi demakdir. O‘quvchining tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqyea, hodisalarga munosabati, tarbiyalanganlik darajasi, mustaqil hayotga tayyorgarligini belgilovchi omil insho sanaladi.

Bayon o‘quvchilar yaratadigan matnning oliy ko‘rinishi bo‘lib o‘quvchilarning o‘zligi namoyon bo‘ladi. Til hodisalari bayon orqali o‘quvchilarning ijodiy-amaliy faoliyatiga kuchadi. Shuning uchun ona tili o‘qituvchilari barcha mashg‘ulotlarda mustaqil ishning bu muhim turiga murojaat qiladilar. Ona tili ta’limining mazmunini qiyinlashtirishga xizmat qiluvchi nazariy materiallarni qisqartirib, uning o‘rniga talaffuz, imlo, uslub, nutq bilan aloqador materiallarni kiritish zarur. Ular nutq imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi lozim.

Bayonning muhim xususiyatlaridan biri mavzu va materialdir. Badiiy asarda obrazlar orqali berilgan muallif g‘oyasi mavzu bilan uzviy bog‘liq holatda yoritiladi. Mavzu va g‘oyani aniq belgilab olmasdan va zarur material, faktlar yig‘may turib, inshoni muvaffaqiyatli yozish mumkin emas. Fakt dalillarsiz bayon mazmunsiz quruq gapdan iborat bo‘lib qoladi.

Bayon yozish uchun dastlab mavzu tanlanadi, keyin material yig‘iladi. To‘g‘ri tanlangan mavzular bayonning muvaffaqiyatli chiqishi uchun tashlangan ilk qadamdir. Yig‘ilgan material, faktlar asosida g‘oya belgilangach, uni izchil yoritish talab qilinadi.

Bayon uchun material to‘plashda manba muhim ahamiyat kasb etadi. To‘plangan materialni tartibga solish va unga muayyan izchillik bera olish ham o‘quvchi uchun o‘ta zarur malakalardan biri sanaladi. Tartibga solish – bu

avvalo to‘plangan materialni saralab, uning ichidan yoritilayotgan mavzu uchun zarurlarini ajratish ularni mantiqiy izchillikda joylashtirish demakdir. Shundan so‘ng insho yozishga kiritish kerak va bunda uchta savol berishga intilish kerak: nimani yozmoqchiman, nima uchun yozaman va qanday qilib yozishim kerak.

O‘quvchi, avvalo inshoning mavzu va g‘oyasi, uning janri haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Ba’zan bayon yozish jarayonida mavzuga jiddiy e’tibor berilmasligi tufayli g‘oya mazmun yetarli asoslanmaydi, natijada mavzu yaxshi yoritilmay qoladi. Ba’zan mavzuga aloqasi bo‘lmagan, ortiqcha gaplar ko‘p bo‘lmasligi uchun insho mazmuni sayoz bo‘ladi. Bu mavzu va g‘oyani oldindan aniq tasavvur etmaslikdan kelib chiqadi.

Mavzu va g‘oyani yetarli ochishda epigraf tanlay bilish ham muhim o‘rin tutadi. G‘oyaning yoritilishi yana mavzuga qanday munosabatda bo‘lishga ham bog‘liq. Qo‘yilgan masalaga baho berish inshoning asosiy g‘oyasini keltirib chiqaradi. Bu mahorat va tajribaga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Xullas, mavzu tanlab olingan biror yo‘nalish bo‘lib, shu yo‘nalish bo‘ylab fikr-mulohaza yuritishdan iborat. Bayonning mavzusi va g‘oyaisini aniq tasavvur etish uchun kichikroq badiiy asarlarni ko‘proq mustaqil tahlil etish, mavzu g‘oyasini aniqlash mashqlari muhim o‘rin tutadi.

Maktabda o‘tkaziladigan bayonlarning asosiy qismini ta’limiy bayonlar tashkil etadi. Bunday bayonlar o‘rgatishni ko‘zlaydi. Til hodisalarini amalda qo‘llashga o‘rgatish, o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish kabi zaruriy malakalar **ta’limiy insho va bayon** orqali amalga oshiriladi. Ta’limiy bayonning mavzusi oldindan e’lon qilinadi, chunki bunga bir necha kun oldinroq tayyorgarlik ko‘riladi.

Ta’limiy bayon o‘z vaqtida baholab boriladi, ularning yutuq va kamchiliklari, xatolarini tuzatish yo‘llari ko‘rsatiladi. Ta’limiy bayonning asosiy maqsadi va vazifasi insho yozishda yetarli tajriba hosil qilishga erishishdan iboratdir. Ta’limiy mashg‘ulotlarsiz bayon yozish uchun mahoratni egallash qiyin, bular o‘quvchilarning yozma nutqini muttasil o‘stirib borishga,

ijodiy fikrlash qobiliyatini taraqqiy ettirishga katta yordam beradi, kitob ustida mustaqil ishlashga o‘rgatadi. Ta’limiy mashg‘ulotlar jarayonida qanchalik malaka va mahorat hosil qilinganligini aniqlash maqsadida vaqti-vaqti bilan nazorat qilishga qaratilgan insho olib turiladi.

Nazorat qilishga qaratilgan bayonlar o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish maqsadida o‘tkaziladi. Nazoratga qaratilgan bayonlar yirik mavzulardan keyin, chorak oxiri va o‘quv yilining oxirida o‘tkazilishi mumkin. Nazoratga qaratilgan bayonlar mavzusi oldindan e’lon qilinmaydi, ular avval qoralama nusxada bajarilib, keyin takomillashtirilgach, oqqa ko’chriladi. Nazorat maqsadini ko‘zlagan bayonlarga ikki soat vaqt ajratiladi. Odatda nazorat inshosining mavzusi e’lon qilingach, o‘quvchilar unga mos epigraf o‘ylab topadilar, reja va qisqa tezis tuziladi, so‘ngra asosiy mavzuni yoritishga kirishiladi. Maktab yoki sinf g‘oliblarini aniqlash maqsadida ko‘rik-tanlov bayonlari yoziladi. Bunda o‘quvchilar ko‘rik-tanlov shartlari bilan tanishtiriladi.

BAYON TURLARI

- ✓ **Nazorat qilishga qaratilgan bayonlar.**
- ✓ **Ko’rik-tanlov bayonlari**
- ✓ **Ta’limiy bayon**

Insho.

Boshlang‘ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o‘quvchining shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir. Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o‘tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta’sir etadi, hayotining bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o‘quvchilarga tanish bo‘lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor:

1. Rasm rejasi yoki rasmli reja asosida yozilgan hikoya tarzidagi insho.

2. Sujetli − o‘quvchilarni o‘ylashga, faraz qilishga undaydigan qandaydir rasm asosida yozilgan hikoya tarzidagi insho.

3. Rasmni tasvirlash (tasviriy insho). O‘quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, keyin bir rasm asosida, undan so‘ng tasviriy insho yozishga o‘rgatiladi.

Insho yozish uchun 2-sinfda odatda bir dars zarur bo‘lib qolsa, ikkinchi darsdan 15−20 minut, 3–4 - sinflarda bir yoki bir yarim dars, ayrim vaqtlarda ikki darsgacha ajratiladi. Bulardan tashqari, insho tahlili va xatolar ustida ishlash uchun 20−25 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda eng yaxshi yozilgan insholar tahlil qilinadi, imloviy, punktuatsion, nutqiy, mantiqiy xatolar va mazmunidagi xatoliklar ustida ishlanadi.

Insho yozish darsida quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1. Mavzuni, inshoning vazifasini e’lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o‘quvchilar bilan muhokama qilish.

2. Kuzatish davrida to‘plangan materialni tartibga solish yoki material yig‘ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko‘rish) maqsadida suhbat o‘tkazish.

3. Reja tuzish yoki avval tuzilgan rejaga aniqlik kiritish.

4. Matnni nutqiy tayyorlash, ya’ni zarur so‘zlarni yozish, so‘z birikmasi, gap yoki bog‘lanishli matnning ayrim qismini tuzish, imlosi qiyin so‘zlarning yozilishini tushuntirish va boshqalar.

5. Darsning asosiy qismi bo‘lgan inshoni yozish. Bu jarayonda o‘quvchilar inshoni yozayotganlarida, o‘qituvchi ular ishini kuzatadi, ayrim o‘quvchilarga (boshqalarga xalaqit bermay, ular e’tiborini chalg‘itmay) individual yordam beradi.

6. O‘quvchilar yozgan insholarini tekshiradilar, kamchiliklarini to‘ldirib, xatolarini to‘g‘irlaydilar. O‘quvchilar inshoni oqqa ko‘chirmaydilar, kerakli tuzatishlarni ehtiyotlik bilan kiritadilar, bunday tuzatishlar uchun insho bahosi pasaytirilmaydi, aksincha, matnni yaxshi to‘g‘irlagan o‘quvchi rag‘batlantiriladi.

7. O‘quvchilar inshoni o‘qituvchiga tekshirish uchun topshiradilar, o‘qituvchi ikki kun ichida tekshiradi.

Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15−25 daqiqa vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg‘ulot o‘tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi).



O‘qituvchi har bir insho turi uchun o‘quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O‘quvchilarni inshoning yangi turi bo‘lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.

2. Rasmli reja asosida matn rejasini tuzish.

3. Reja qismlariga mos ravishda matnni xatboshilarga bo‘lish va har birini xatboshidan yozish.

4. Insho matnini mustaqil tekshirish.

O‘quvchilarning dunyoqarashi o‘sib borgani sayin, inshoga talab ham orta boradi.

2-sinfda o‘quvchilar mazmunli rasmlarga qarab gaplar tuza olish, o‘qituvchi rahbarligida bolalarning o‘yinlari, taassurotlari asosida hikoya (insho) tuzish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lishlari, shuningdek, seriyali rasmlar va mazmunli bir rasm yuzasidan berilgan savollarga to‘liq javob berishlari va ularni yozishlari talab etiladi.

Bu sinfda insho yozishga o‘rgatishning asosiy usuli savollarga to‘liq javob berish va javobni yozish hisoblanadi. Bu ish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi: o‘quvchi rasm yuzasidan og‘zaki hikoya tuzishga o‘rganadilar, so‘ngra fikrlarini yozma bayon qilishga kirishadilar. 2-sinf o‘quvchilariga

insho yozishni o‘rgatish juda mas’uliyatli ish hisoblanadi. O‘qituvchi inshoni yozish tartibini yaxshi o‘rgatishi − sarlavhani to‘g‘ri qo‘yish, berilgan savollarga javobni husnixat qoidalariga rioya qilgan holda imlo xatolarsiz yozishga ko‘niktirishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida tashkil etiladigan nazorat va ijodiy topshiriqlarga qanday yozma ish turlari kiradi?

2. Ta’limiy va tekshiruv diktantining farqli tomonlari nimada?

3. Ta’limiy diktantning tarkibiy tuzilishi qanday bo’ladi?

3. Diktant bayoni texnikasi va o‘qituvchining nutqi qanday bo’lishi lozim?

4. Diktant, bayon, insholarni tekshirish va tahlil qilishda qanday jihatlar inobatga olinadi?

4. Ijodiy topshiriqlar va ularni tashkil etishning maqsadi nimada?

5. O‘quvchilarni ijodiy matn yaratishga o‘rgatish orqali ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirish qay tarzda amalga oshiriladi?

1.4. BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida ona tili, bolalarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omilidir deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o‘rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug‘aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o‘qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o‘rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til aloqa vositasi – so‘zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro‘yobga chiqqan fikrni anglaydi.

Ona tili fani o‘quvchilarni fikr bayon qilish va uni o‘qib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro‘yobga chiqar ekan, har bir kishi o’z ona tilini va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik-qonun qoidalarini, ta’rifini o‘zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilishdir, ya’ni fikrni og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashga alohida e’tibor qaratish lozim.



Lug‘at ishida so‘zning ma’nosi talaffuzi va imlosi nazarda tutiladi. Lug’at ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o‘quvchilarning nutqda lug’atdan foydalanishlariga erishish, o‘zgalar nutqini anglashlarini ta’minlashdir. Buning uchun o‘qituvchi ona tili darslarida qo‘llangan har bir so‘zning, ta’limiy jarayonlarda: ekskursiya, o‘zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so‘zlarning ma’nosiga e’tibor bilan qarashi, ularni qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.

Tilning lug‘at boyligining o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so‘zlarning quyidagi ma’nolari bilan tanishtiriladi.

1. O‘quvchilarni notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish.

O‘quvchilar darslikdagi so‘z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo‘lishi mumkin. Bu so‘z yangi paydo bo‘lgan so‘z bo‘lmasa ham, o‘quvchi uning ma’nosini bilmaydi, demak, o‘quvchi uchun yangi so‘z hisoblanadi.

Masalan, 2- sinf «Ona tili va o'qish savodxonligi» darsligida[3] rapida (non yopishda ishlatiladigan qalin, aylana shaklidagi qo'lqop), kosov (tandir olovini, cho'g'ini to'g'rilash uchun ishlatiladigan uzun tayoq), tumtaraqay (har tomonga tartibsiz qochish), zarra (juda kichik bo'lak), mahalla (bir qancha oila jam bo'lgan hudud), hashar (hamma birgalikda bajaradigan ish) kabi so'zlarga duch keladilar. Bunday so'zlarning ma'nosini sinonimlar keltirilib kengaytirish yo'li bilan yoki qarshi ma'noli so'zlar bilan izoh berish, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish mumkin. Bunday ishlash o'quvchilarda co'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish. O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so'zlarning hamma ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib ololmaydilar. Ularning ma'nosini o'zlashtirish bosqichma – bosqich amalga oshiriladi. 1-2-sinfda ko'p ma'noli so'zning bir-ikki ma'nosi bilan tanishsa, 3-4- sinflarda yana boshqa ma'nolarini bilib oladi. Tilning barcha sathlarini: fonetika, leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis («Tovushlar va harflar», «So'z», «Gap», «Bog'lanishli nutq»)ni o'rganish jarayonida tasviriy ifodalar, iboralar, ma'nodosh, shakldosh, qarama-qarshi ma'noli so'zlarning ma'nolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi. Ko'rinadiki, taqqoslash usuli so'z ma'nolarini izohlashda samarali usul sanaladi. Quloch otib, tanbeh yedi, ko'zi o'ynar, qalbi olov, til topishdi, rohatini totdi iboralarining ma'nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi.

2- sinf darsligida keltirilgan ***Ilmli uy – charog'on, Ilmsiz uy – zimiston***, *Mahalladoshlar bilan bir oila a'zolaridek* ***qo'lni qo'lga berib*** *mehnat qilamiz, Ko'nglimiz* ***tog'dek*** *ko'tariladi, Qiynalganlarga* ***yordam qo'lini cho'zish****ni o'z burchlari deb biladilar,* kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o'quvchini til zar, uni tilida qo'llovchi zargar bo'lishga undaydi.

3. O'quvchilar tilida kam qo'llanadigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash. Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llanadi. Bu

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Toshkent – 2021y

so‘zning ma’nosini o‘quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o‘rnida oddiy so‘zlashuvga doir, eskirgan yoki shevaga oid so‘zlarni qo‘llaydi. O‘qituvchi ularni kitobiy so‘zlar bilan almashtirish uchun nutqda qo‘llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirishi zarur, Masalan, ***jim–tinch–osuda–osoyishta, yurakdan–dildan, soat strelkasi–soat millari, garmdori–qalampir, minut–daqiqa, sekund-soniya, pul-mablag’, familiya-sharif*** **kabi.**

So‘zlarning qo‘llanishini faollashtirish uchun yozma ishlar o‘tkazilayotganda ham o‘quvchilar e’tiborini ayrim so‘zlarni boshqasi bilan almashtirishlari ta’kidlanadi. Masalan, 1-sinfda rasmlar asosida og‘zaki hikoya tuzayotgan o‘quvchilarning nutq elementlari biri-biridan farqli bo‘lishi – biri ikkinchisining so‘zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, *shirinsuxan* so‘zi o‘rnida *shirinso‘z, nasim–tonggi yel (shabada), tanbeh berdi –dashnom berdi, zilol suv–tiniq suv, kichik- mo‘jaz, tik–adl, nafis–nozik, ishbilarmon–ishning ko‘zini biladigan kabi...*

Yozma bayon yozishga tayyorlanish jarayonida ham (2- sinf) so‘zlarni boshqasi bilan almashtirishga, kitobiy so‘zlar tanlashga e’tibor berish lozim.

Darsliklarda bola hissiyotiga ta’sir qiluvchi ko‘chma ma’nodagi badiiy ifodalar ko‘p qo‘llangan, ular ustida maqsadga muvofiq ishlash o‘quvchi nutqini jozibador qiladi, ularning nutqni adabiy tilga yaqinlashtiradi.

4. Yangi paydo bo‘lgan so‘z ma’nolari ustida ishlash. Bunday so‘zlar darslikda kam qo‘llanadi. Bunday so‘zlarning bolalar hayoti bilan bog‘liq bo‘lganlarini ajratib olib «Bilib qo‘ygan yaxshi» rubrikasi ostida ishlansa, o‘quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi. Masalan: biznes-tadbirkorlik, bilim-intellekt, hobbi-sevimli mashg’ulot…

5. Grammatik atamalar ma’nosi bilan tanishtirish. Grammatik atamalarning avvalo to‘g‘ri talaffuzi, imlosi o‘rgatiladi. Shundan so‘ng misollar asosida uning mazmuni ochib beriladi. Qoidani o‘qitish va mashqlar bajarish orqali atama ma’nosini to‘laqonli anglashlariga erishiladi. Masalan:

turnik, gimnastika, atletika, gantel va boshqa sohaga oid so'zlar ma'nosi tushuntiriladi.

Lug'at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So'z ma'nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko'chma ma'noli so'z va iboralar, paronim so'zlar, shakli bir xil so'zlar ma'nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo'llaniladi. Masalan: **asl** va **asil** so'zlarini taqqoslaymiz.

Bu so'zlarni ko'p yanglishtirib qo'llaymiz. Sababi ularning talaffuzi bir-biriga yaqin va ba'zida o'rni almashganda ham birikmadan ma'no chiqaveradi. Masalan, **asl tilla va asil tilla**. Nima farqi bor, qay biri to'g'ri?

Asil so'zi arabchadan, asliyatda naslli, zotli ma'nolarini anglatadi. O'zbek tilida esa **a'lo sifatli, toza, sof (qalbaki, past emas), ko'chma ma'noda yaxshi xislatlarga, fazilatlarga ega bo'lgan, oliyjanob, bebaho, sof, pok** ma'nolarini anglatadi.

Asil tosh birikmasi **la'l, zumrad, brilliant kabi qimmatbaho tosh**larni ifodalaydi.

Asl so'zi ham arabchadan kirgan, asliyatda, kelib chiqish ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida **kelib chiqishi, nasli, tagi, kelib chiqqan (asos) joyi, bosh, dastlabki, chin, haqiqiy** ma'nolarini anglatadi.

Xo'sh, **asil tilla** to'g'rimi yoki **asl tilla**? **Asil tilla** – sof, toza, boshqa metal aralashtirilmagan tilla degan ma'noni anglatadi. **Asl tilla** esa haqiqiy tilla ma'nosiga ega. Soflik ma'nosi nazarda tutilganda **asil** so'zini ishlatish kerak. Ma'nosiz ibora yuzaga kelmayotgani uchun bu o'rinda **asl** so'zini ishlatish ham xato emas. Lekin ba'zi o'rinlarda ma'no farqlanadi va bu ikki so'zni almashtirib qo'llash xatoga olib keladi.

Masalan:

Asl maqsad ✓

Asil maqsad ✗

Chunki **asl maqsad** – chin, haqiqiy maqsad. **Asil maqsad** esa sof, boshqa narsa aralashtirilmagan maqsad bo'lib qoladi va bu xato.

Asil so‘zi asosan narsa-buyumlarni, moddiylikni bildiruvchi so‘zlar bilan ishlatiladi. Uni maqsad, niyat, haqiqat, daraja kabi so‘zlarga nisbatan qo‘llash xatodir. Bu so‘zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. So‘zlarni kuzatish usuli orqali so‘zlarning imlosini, ma’nosini va talaffuzini o‘rgatish. Bu usul o‘zakdosh so‘zlarni o‘rganish jarayonida, ko‘m-ko‘k, oppoq, qip-qizil sifatlarining (qizil, oq, ko‘k) ma’no nozikliklari, imlosi, talaffuzini o‘rgatishda qo‘llaniladi. Masalan: Gul: guldon, gulchi, gulzor, gulli, gulsiz, gulla so‘zlarining tarkibini kuzatadilar. Bu so‘zlar ma’nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so‘zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shunday o‘rinda o‘qituvchi so‘zlarni o‘z so‘ziga aylantirishi orqali aniq fikr yuritishga o‘rganish o‘quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

Kuzatish usuli shakllari o‘zgarayotgan so‘zlarning imlosini o‘rgatishda ham qo‘llaniladi: og‘iz+im - og‘zim, singil+im - singlim, u+ga -unga.



3. So‘zlarni belgilariga ko‘ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo‘lib, u ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so‘zlarning anglatayotgan ma’nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli bilan bog‘liq. So‘zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so‘ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o‘xshash va farqli tomonlari ajratiladi: Masalan, qavm-qarindoshlik bo‘yicha guruhlash:

1. Ota urug‘i: ota, amaki, amma, dada, oppoqdada, buvi, buva.

2. Ona urug‘i: ona, xola, tog‘a, oyi, buvi, buva.

Sifatlarda:

a) xususiyat bildiruvchi sifat: sho‘x, og‘ir, bosiq, aqlli, aqlsiz, hayoli, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va h.

b) ta’m bildiruvchi sifat: shirin, achchiq, nordon, taxir, sho‘r, mazali, bemaza, chuchmal va h.

Guruhlash musobaqa tarzida uyushtirilishi mumkin.

Ma’lum bir so‘zlar ro‘yxatini tuzish ishini alifbo asosida yozdirish ham mumkin. Guruhlashda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1. Bolalar o‘yinlari nomining lug‘atini tuzing.
2. O‘zingiz bilgan shoir nomlari ro‘yxatini tuzing.
3. Ertak nomlari ro‘yxatini tuzing.
4. Joy nomlari ro‘yxatini tuzing.
5. Ohangdosh so‘zlar ro‘yxatini tuzing.
6. Ma’nodosh so‘zlar ro‘yxatini tuzing.

Bular o‘rganilayotgan mavzularga, mashq matnlariga bog‘liq holda tashkil etiladi.

So‘zlarning izohli lug‘atini sinf va maktab miqyosida tuzib, osib, umumiste’molga kiritish mumkin.

Bunda “O‘quvchilar pochtasi” tashkil etiladi. O‘quvchilar qaysi so‘zning ma’nosini bilib olishda qiynalsalar, shu so‘zni yozib quttiga tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so‘zlar ma’nosi, imlosi izohi o‘tkaziladi. “Lug‘at doskasi” tashkil etiladi. Inglizcha-ruscha-o‘zbekcha tarjimasi, imlosi beriladi. Haftada yangilanadi. Lug‘atlardan foydalanish tavsiya etiladi.

O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASI (LUG‘ATSHUNOSLIGI)

Leksikologiya – tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, tilning lug‘at tarkibini, so‘z boyligi, so‘zlarning ma’nosini o‘rganadi. Leksikologiya o‘z ichida semantika, semasiologiya, etimologiya, leksikografiya bo‘limlariga bo‘linadi.

Semantika, semasiologiya – so‘zning lug‘aviy ma’nosini o‘rganuvchi bo‘limdir.

Etimologiya – so‘zlarning kelib chiqishini o‘rganadi.

Leksikografiya yunoncha «leksikos» — «so‘z», grapho — chizmoq, yozmoq so‘zlaridan olingan bo‘lib, lug‘at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limidir. Tildagi jamiki so‘zlar, ularning tarixi, izohi kabi muhim masalalar bilan lug‘atshunoslik shug‘ullanadi. So‘zlarning ma’lum maqsad bilan to‘plangan tartibga solingan kitob yoki boshqa shakldagi to‘plami lug‘at deyiladi.

Leksikografiya nazariyasining predmeti lug‘at tuzish tamoyillari va usullaridir. Leksikografiya amaliyoti esa lug‘at tuzuvchilarning ishini tashkil etish, so‘zlarni kartochkalarga tushirish, tizimga solish va saqlash singarilarni o‘z ichiga oladi.



Leksikografiya nazariyasida lug‘at turlari, so‘zlik tarkibi va so‘z maqolasining tuzilishi asosiy o‘rinni egallaydi.

Avvalo, lug‘atlar ikki turli bo‘ladi:

1) ensiklopedik (qomusiy) lug‘atlar;

2) filologik (lingvistik) lug‘atlar.

Bu ikki turdagi lug‘atlar lug‘at birliklarining nimaga qaratilgani bilan farqlanadi. Lug‘atga kiritilayotgan birliklar barcha tushunchalarni o‘z ichiga olsa, ensiklopedik (qomusiy) lug‘at; ma'lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga olsa, filologik (lingvistik) lug‘at hisoblanadi.

Misol: Ushbu izoh qanday lug‘atdan olingan?

Mag‘zini chaqmoq: kim, nimaning? Ma'nosini tag-tubigacha o‘rganib yetmoq, anglab yetmoq: “Yer sotgan er bo‘lmaydi, er yer sotmaydi. Mana bu gapning mag‘zini chaq”.(Oybek)

Tarixda yaratilgan lug‘atlar haqida. XI-XIX asrlarda yaratilgan lug‘at va grammatik asarlar:

1. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari

2. “Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddamat-ul-adab” asari”

3.“Kitob-i majmu-i tarjumon-i turkiy va ajamiy va mug‘aliy”(muallifi noma’lum)

4. “Attuhfat-uz-zakiyatu fillug‘atit turkiya” (muallifi noma’lum)

5. Alisher Navoiyning tilshunoslikka tegishli ikki asari bor: “Muhokamat-ul-lug‘atayn” hamda “Sab’at abhur” lug‘ati.

6. Tole Imoniy Hiraviyning “Badoyi-ul-lug‘at”i

7. “Abushqa” lug‘ati (muallifi noma’lum)

8. Muhammad Yoqub Chingiyning “Kelurnoma” asari

9. Mirzo Mehdixonning “Sangloh”” va “Maboni ul-lug‘at” asarlari

10. Fazlullaxon Barlosning “Lug‘at-i turkiy” asari

11. Fathali Qojorning “Kitob-i lug‘at-i atrokiya” lug‘ati

Atoqli tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning **“Devonu lug‘otit turk”** asari turkiy xalqlaring ilk lug‘ati sanaladi. Muallif uni 1072- yilda yoza boshlagan va 1074-yilda yozib tugatgan. Bunga qadar u bir necha o‘n yillar davomida Chin (Xitoy) dan tortib to Rum (Vizantiya)ga qadar bo‘lgan ulkan hududda yashovchi turkiy qabilalarni birma-bir o‘rganib chiqqan. Bu haqda uning o‘zi shunday deb yozadi:

— Men turklar, turkmanlar, o‘g‘izlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlaming shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim. lug‘atlarini to‘pladim. Men bu kitobni maxsus alifbo tartibidagi hikmatli so‘zlar, sa’jlar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim.

Devon ikki qismdan iborat: ”Muqaddima” va “Lug‘at” qismlaridan. Undan mehnat va marosim qo‘shiqlari, o‘gitnomalar, munozara shaklidagi to‘rtliklar. Alp Er To‘ng‘a (Afrosiyob) marsiyasi kabi ajoyib adabiy

yodgorliklar o‘rin olgan. **«Devonu lug‘atit turk»** bitmas-tuganmas ilm manbayidir.

ENSIKLOPEDIK (QOMUSIY) LUG‘ATLAR VA ULARDAN FOYDALANISH

Ensiklopedik (qomusiy) lug‘atda turli xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, ilmiy tushunchalar va boshqalar o‘z ifodasini topadi. Umuman, ensiklopedik lug‘atlar ma’lum bir xalqning madaniy-ma'naviy, ilmiy-amaliy, siyosiy- iqtisodiy hayotiga doir barcha tushunchalarni qamrab oladi va bu tushunchalar unda o‘z izohini topadi.

Qomusiy lug‘atlarni yaratish uzoq davom etadigan, mashaqqatli ish sanaladi.

Unga kiritiladigan maqolalar tushunarli, ravon tilda berilishi, ular turli-tuman kartalar, sxemalar, rangli va oq-qora rasmlar, atoqli shaxslarning portretlari bilan bezatilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasini yaratish to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qildi. Ana shu qaror asosida 2000-2006-yillarda “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” yaratildi.

Toshkent shahrida qomusiy lug‘atlar va kitoblarni nashr etish bilan shug‘ullanayotgan alohida tashkilot — “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ensiklopedik lug‘at namunalari:

1.Mening eng birinchi ensiklopediyam

2.“U kim? Bu nima?”(“Bolalar ensiklopediyasi”. T.:I987-1988-y.lar. 3 jildli)

3. Salomatlik ensiklopediyasi

4. Uy-ro‘zg‘or ensiklopediyasi

FILOLOGIK LUG‘ATLAR VA ULARNING TIPLARI

Filologik lug‘atlar ma'lum bir tildagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. So‘zlar muayyan bir tartibda (yo alifbo asosida, yo mazmuniy guruhlar asosida) joylashtiriladi.

Filologik lug‘atlarning o‘zi, eng avvalo, izohli va tarjima lug‘atlarga bo‘linadi.

Tildagi so‘zlarni izohlashga qaratilgan lug‘atlar izohli lug‘at, muayyan tildagi so‘zlarning ikkinchi tilga tarjimasini berishga qaratilgan lug‘atlar esa tarjima lug‘at sanaladi.

O‘ZBEK TILINING MORFEM LUG`ATI

Morfemika bo‘yicha yaratilgan lug‘atlar:

1. A.G`ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo`ng`urov. “O`zbek tilining morfem lug`ati”. T., “O‘qituvchi”, 1977.

2. B. Mengliuev, B. Bahriddinova. O`zbek tilining so`z tarkibi o`quv lug`ati (Maktab o`quvchilari uchun). Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2007. Lug`atni tuzishda 1977 yilda nashr qilingan “O`zbek tili morfem lug`ati”ga (A.G`ulomov, A.N.Tixonov, R.Qo`ng`urov) tayanildi. Bu lug`at yaratilganidan hozirga qadar jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy, siyosiy, madaniy o`zgarishlar yangi lug`at tuzish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

BIR TILLI VA KO‘P TILLI LUG‘ATLAR

Ko‘p tilli lug‘atlar. Bunday lug‘atlarda bir tilga oid tushuncha ikki, uch, ba'zan to‘rt tildagi muqobillari bilan beriladi va asosan, til o‘rganish hamda tarjima ishlarida asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ko‘p tilli lug‘atning ilk namunasi buyuk vatandoshimiz va betakror leksikograf Mahmud Zamaxshariy tuzgan edi. Uning 1137-yilda tugatgan “Muqaddimat ul-adab” (“Adabiyotga kirish”) lug‘ati 4 tilli bo‘lib, forsiy so‘z, chig‘atoy, mo‘g‘ul va turk tillaridagi muqobillari bilan beriladi. Muhimi, asarning mavjud qo‘lyozmalarida so‘zliklarning berilish tartibi har xil: asar nusxalari ikki tilli (arabcha-forscha, arabcha-turkiy, arabcha-xorazmiy), uch tilli (arabcha-forscha-turkiy), to‘rt tilli (arabcha-forscha-turkiy-mo‘g‘ulcha) variantlarda tarqalgan.

Jahon lug‘atshunosligi o‘shandan beri Mahmud Zamaxshariyning lug‘atni alifbe asosida tartib berishi an'anasiga amal qilib keladi.

II tomli “Ruscha – o‘zbekcha” (1983-84), “O‘zbek – ruscha lug‘at” (1959 va 1988), “Ruscha – tojikcha lug‘at” (1985), shuningdek, inglizcha - ruscha - o‘zbekcha; Nemischa - o‘zbekcha; o‘zbekcha – tojikcha; arabcha-o‘zbekcha lug‘atlar ham shunday xususiyatga ega.

Frazeologiya sohasida ham qator frazeografik ishlar amalga oshirilgan. Ularga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

I. O‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘atlar. Bunday tipdagi frazeologik lug‘atlarning ilk namunalari M. Abdurahimov tomonidan tuzilgan.

1. Abdurahimov M. “O‘zbekcha-ruscha aforizmlar lug‘ati”. – Toshkent, O‘qituvchi, 1976. – 216 b.

2. Abdurahimov M. “O‘zbekcha-ruscha aforizmlar lug‘ati”. 2-nashri. – Toshkent, O‘qituvchi, 1986. – 216 b.

3. Abdurahimov M. “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at”. – Toshkent, O‘qituvchi, 1980. – 184 b.

4. M.Sodiqova “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at”. – Toshkent, O‘qituvchi, 1989. – 336 b

5. M.Sodiqova “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at”ining M. Abdurahimov lug‘atlaridan farqi shundaki, unda adabiy tilga oid iboralardan tashqari dialektal iboralar ham mavjud. Umuman, M.Sodiqova lug‘atiga tilimizdagi jami 5000 mingga yaqin iboralar kiritilgan.

5. M.Sodiqova. “Qisqacha o‘zbekcha-ruscha maqol-matallar lug‘ati”. – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1993. Bu lug‘atga 1000 ga yaqin maqol va matal tipidagi iboralar kiritilgan.

II. Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘atlar. Bu tipga

1. M.Sodiqova “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at”.– T., Fan,1972, -192 b.

2. N.M.Shanskiy, E.Bistrova va T.Aliqulov. “Rus tilidagi 700 frazeologik ibora”.

M.,1982. -118 b. (2-nashr, – Toshkent, O‘qituvchi, 1990,112 b)

3. M.Sodiqova “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha barqaror iboralar lug‘ati”. – Toshkent, O‘qituvchi,1994. – 96 b.

III. Ko‘p tilli frazeologik lug‘atlar.

1.Umarxo‘jayev M. , Nazarov K. Nemischa-ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at. Toshkent, O‘qituvchi, 1994.-160 b.

2. Kalontarov Y.I. “Tojik maqollari va ularning o‘zbekcha muqoyasi”. – Dushanbe, Donish, 1969, - 434 b.

Boshlang‘ich sinfning har bir bosqichda doimiy bajarilishi zarur muhim ish turi lug‘at bilan ishlashdir. Lug‘at bilan ishlash davlat ta’lim standartida belgilab qo‘yilgan. Har bir sinf ona tili darsligining oxirida lug‘at berilgan. Bu esa lug‘at ustida ishlashning mas’uliyatliligini belgilaydi. Umuman tilshunoslikning katta bo‘limi leksikologiya yana o‘z ichida leksikografiya, frazeologiya ham so‘z ma’nosi bilan shug‘ullanadi. Hozirgi kunda faqat tilshunoslikka doir bir necha lug‘atlar – “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tili frazeologiyasining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, “O‘zbek tilining izohli sinonimlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining paronimlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining morfemik lug‘ati” va yana boshqa lug‘atlarga egamiz. O‘zbek tilining lug‘ati bilan ishlash zarurligi shuni belgilaydiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi har bir ona tili darsida 4-6 so‘z, hamma darslarda bir kunda 8-10 yangi so‘zni o‘rganish talab etiladi. So‘z bilan ishlashda o‘quvchining puxta o‘zlashtirmagan so‘z ma’nosiga aniqlik kiritish, ularni ma’nosi yaqin so‘zlar bilan qiyoslash, so‘zning kinoyali ma’nosi, ko‘p ma’noliligi ustida ishlash, ma’noviy sinonimlarning ma’no nozikliklari ustida ishlash, ayrim frazeologik birliklar, tasviriy ifodalar bilan ishlash zarurati kelib chiqadi.

Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlardan o‘quvchilar nutqini tozalash ham muhim vazifadir. O‘quvchilar lug‘atini badiiy asarlarda uchraydigan yangi so‘zlar, chetdan o‘zlashgan so‘zlar, fanga doir atamalar bilan boyitish lozim.

Aynan ana shu masalalarni chuqur o‘rganish “Keys stadi”ga asoslangan o‘qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya

amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy va o‘rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo‘yicha haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur. Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhiy tahlilida bilim va ko‘nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash;
- o‘quv axborotlarini o‘zlashtirish darajasini tekshirib ko‘rish.

So‘z ma’nosi nima?

1-vaziyat

So‘zdan nima anglashilsa, o‘sha so‘zning lug‘aviy ma’nosi bo‘lishi tushuntiriladi. “Dumaloq, bir tomoni oppoq, bir tomoni qip-qizil, shirin bu nima, o‘quvchilar?” - deyilsa, ular **“olma”** deyishlari, “Oppoq, yumshoq, momiqdek mayin nima?” - deyilsa, **“paxta”** deb nomlanishi mumkin. Hikoya va mashq tarkibida o‘zlashgan so‘zlarga duch kelamiz. **Maktab, kutubxona, qalam** singari so‘zlar ongimizga garchi singib ketgan bo‘lsa ham, bu so‘zlar arab tilidan olinganini, **bank, marmelad** so‘zlari polyak, ispan tillaridan o‘zlashganini, **futbol, basketbol, voleybol, gandbol, hotdog s**o’zlari aslida ingilizcha ekanligini aytib izohlash mumkin.

O‘quvchi lug‘atini boyitishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1.O‘quvchilarning uy sharoiti, atrof-muhit ta’sirida ular nutqini “bezab turgan” so‘zlardan xoli qilish, sheva so‘zlari, vulgar, jargon, argo so‘zlardan tozalash, turli qo‘pol so‘zlarni qo‘llashdan tiyilish; jinni, eshak, mol kabi haqorat so‘zlarni aytmaslikka bolalarni undash.

2. Mashq yoki matndan izoh talab so‘zlarni aniqlash va mavzu matni bayonidan oldin so‘zni izohlash.

3. Matndagi so‘z ma’nosi izohlangach, uning o‘rniga sinonimini qo‘llash, so‘zning nozik ma’nosiga tushunib yetish.

4. O‘sha so‘zni yanada yaxshiroq tushunish va nutq tarkibida qo‘llash uchun, so‘z ishlatishni faollashtirish uchun antonimlarini keltirish.

5. Ba’zi holat fe’li, harakat belgisini ifodalovchi so‘zlarning ma’nosini holat va harakat bilan amaliy izohlash.

6. Ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni qaysi tildan ekanligini, qaysi turkumga mansubligini, qanday lug‘aviy ma’noga egaligini aniqlash uchun izohli lug‘atlar orqali mustaqil ishlash.

7. Ana shu tayanch so‘zlar ishtirokida gap va kichik matn tuzish.

8. Ba’zi so‘zlarni ularning vazifasini izohlash orqali tushuntirish: Kombayn – bir vaqtning o‘zida, donni o‘radigan, yanchadigan, tozalaydigan xo‘jalik mashinasi; aeroport - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo‘nadigan joy.

Sinonimlar ma’nosiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi

1. To‘liq sinonimlar

2. Ma’noviy sinonimlar

Ma’noviy sinonimlar o‘z ma’nosiga ko‘ra leksik, morfologik, grammatik, frazeologik, sintaktik turlarga bo‘linadi. Sinonimlar ma’no farqlari bilan nutqning ta’sirchanligini oshiradi, nutqni tushunarli qiladi, hissiy-ta’siriy bo‘yoqni ta’minlaydi.

Mashq turlari:

1. Berilgan so’zlarni sinonimik qatorga guruhlash. Vatan-yurt-mamlakat-ona yer-makon-manzil-diyor, maqsad-muddao-murod-niyat.

2. Berilgan so‘zga sinonim tanlash: osmon-samo-ko‘k-falak.

3. Tushirilgan sinonim so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib matnni ko‘chirish. (Sinonimlar ro‘yxati mashq ostida beriladi)

4. Sinonimlardan mosini qo‘yib mosini ko‘chirish. Sinonimlar qavs ichida beriladi.

5. Sinonim va ularga mos so‘z birkmasi hosil qilish uchun so‘zlar beriladi, so‘z birikmasi tuziladi.

Ibora va tasviriy ifodalar

2-vaziyat

Ibora va tasviriy iboralar ham leksik birlikdir. Ibora, tasviriy ifoda, maqol, matallar nutqimiz ko‘rkidir. ***Ko‘ngli oq, qo‘li ochiq, tepa sochi tikka bo‘ldi, tuyaning dumi erga tekqanda, qizil qor yoqqanda*** kabi ibora va ibora matallar bilan 3-4-sinf o‘quvchilari tanishtirilishi mumkin.

O‘quvchilar fikrlashini, tafakkurini rivojlantirishda 1-2-sinflar uchun mantiqiy mashqlar qo‘l keladi. Mantiqiy mashqlar bolalarning predmet va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga keltiradi va ularga to‘g‘ri fikrlash usullarni o‘rgatadi.

Predmet nomlari va belgi bildiradigan so‘larni guruhlarga ajratish. Idishlar nomini, ish qurollari, o‘quv qurollariga berilgan so‘zlarni guruhlash o‘quvchilarning aqliy faoliyatlarini rivojlantiradi.

O‘quvchi qancha so‘z boyligiga ega bo‘lsa, uning og‘zaki va yozma nutqi ravon bo‘ladi, mantiqiy fikrlashi rivojlanadi.

“Muammoli vaziyat” jadvali

Jadvalni to‘ldirish. O’quvchilar taqqoslanuvchi jihatlarni ta’riflashadi va muvofiq turkumlar tagiga ma’lumotni taqsimlab chiqadi.

Sinonim	**Ibora**	**Tasviriy ifodalar**
Jahli chiqdi	Tepa sochi tikka boldi	…
…	Ensasi qotdi	Suvga tushgan mushukdek
Bitta gapda turdi	Ikki oyog’ini bir etikka tiqdi	…
Xursand bo’ldi	Boshi osmonga yetdi	Terisiga sig’madi
…	Terga botdi	…

Nazorat savollari

1. O‘quvchilarni notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirishda qanday usullar samara beradi?
2. Frazeologiya nima?
3. Ibora va tasviriy ifodalar bilan ishlashda o’quvchida qanday sifatlar shakllanadi?
4. O‘quvchi lug‘atini boyitishda qanday usullardan foydalanish mumkin?

1.5. O‘ZBEK TILINING IZOHLI, IMLO VA FRAZEOLOGIK LUG‘ATLARI USTIDA ISHLASH

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligi. Tildagi so‘zlar yig‘indisi tilning lug‘at boyligini tashkil etadi. So‘zning ikki tomoni: tovush tomoni va ichki ma’no tomoni bo‘lib, uning ma’nosi leksikada o‘rganiladi. So‘z aniq

predmetlarni ham, mavhum tushunchalarni ham bildiradi. Tilning lug‘at tarkibi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda o‘zgarib, rivojlanib, boyib boradi. Bularni leksikologiya tekshirib boradi. Shuning uchun ham leksika lug‘at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Toshkentdagi “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” nashriyotida 2006-2008 yillarda nashr qilingan. Lug’at 5 jilddan iborat bo’lib, unda jami 80.000 mingdan ortiq so‘z va iboralar berilgan.

Izohli lug‘atlar so‘zlarning tanlanishiga ko‘ra **umumiy** va **tarmoq** lug‘atlarga bo‘linadi. Tilning barcha so‘zlarini izohlashga qaratilgan lug‘atlar **umumiy izohli lug‘atlar**, ma'lum bir tarmoqqa doir so‘zlarnigina tanlab, ularni bir tartibda joylashtirib izohlashni maqsad qilgan lug‘atlar **tarmoq lug‘at** hisoblanadi (Masalan, kasb-hunarga doir lug‘atlar, ma'lum fan sohasi bo‘yicha atamalar lug‘ati va boshqalar). Masalan: sinonimlar, antonimlar lug‘ati, frazeologik lug‘at.

Har qanday lug‘at shu lug‘atning egasi bo‘lgan xalqning katta tarixiy, madaniy va ma'naviy boyligi sanaladi.

Izohli lug‘atlarga namuna:

1. Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972, 784- bet.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008 –y.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. Toshkent, Fan nashriyoti, 1 - jild. 656-bet, 1983; 2-jild. 644-bet, 1983; 3- jild 622- bet, 1984; 4- jild 634- bet, 1984.

4. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘ati. Toshkent «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 1998, 318-bet.

5. O‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001.

“Mustaqillik” izohli ilmiy-ommabop lug‘atidan:

Alternativa (13- bet), birja (22-23- betlar), investitsiya (68-69- betlar), mafkura (106-107- betlar), ombudsman (179-180- betlar), xalqaro tillar (231-232-betlar) kabi atamalardan biriga berilgan izohni daftaringizga ko‘chirib yozing va shu haqda fikr yuriting.

ACHCHIQ 1

Ta'mi qalampirnikiga o‘xshash, achchiq dori, achchiq anor.

SHIRIN 1

Ta'mi shakarnikiga o‘xshash shirin, chuchuk dori, chuchuk anor

Achchiq bilan chuchukni totgan bilar, uzoq bilan yaqinni yurgan bilar. (Otalar so‘zi);

ACHCHIQ 2

Kishining izzat-nafsiga tegadigan, xafa qiladigan achchiq so‘z, achchiq turmush;

Achchiq savol berib shirin javob kutma (maqol).

SHIRIN 2

Kishiga rohat bag‘ishlaydigan, xursand qiladigan shirin so‘z shirin turmush

“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”dan

Zang, kech, mushak, oqim, tuy, et, qil kabi omonimlarga izoh bering.

BOG‘

Bog‘ I ot. Biror narsaning to‘dalab bog‘langan holati (vyazanka, puchok). Bog‘lamoq, bog‘lash bir bog‘ beda, bir bog‘ piyoz (ukrop, kashnich, rediska).

Bog‘ II (tojikcha) ot. Uzum (tok), mevali daraxtlar ko‘p ekilgan yer uchastkasi (sad). Bog‘bon. bog‘dor, bog‘iston, bog‘cha (bolalar bog‘chasi). Bog‘-rog‘, bog‘- bo‘ston. Uzumini ye, bog‘ini surishtirma. Boqqa boqsang bog bo‘ladi, botmon dahsar yog‘ bo‘ladi (maqol).

IMLO LUG‘ATI VA UNDAN FOYDALANISH

Har bir tilda shu tildagi so‘zlarni to‘g‘ri yozishga qaratilgan maxsus qonun-qoidalar majmuyi bo‘ladi. Bunga imlo yoki orfografiya qoidalari

deyiladi. Imlo qoidalari amaldagi yozuvga mos ravishda yaratiladi. Kirill yozuviga asoslangan hozirgi o‘zbek yozuvi uchun bugungi kunga qadar 1956-yilda yaratilgan imlo qoidalari asos vazifasini o‘tab kelmoqda.

1993-yilning 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. 1995-yilning 6-may kuni 0‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida»gi Qonuni e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995-yilning 24-avgustida 339-sonli «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida» qaror qabul qildi. U 7 bo‘lim, 82 banddan iborat:

1. Harflar imlosi:
   a) unlilar imlosi (1-7-bandlar);
   b) undoshlar imlosi (8-32-bandlar).
2. Asos va qo‘shimchalar imlosi (33-37-bandlar).
3. Qo‘shib yozish (38-50-bandlar).
4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-bandlar).
5. Ajratib yozish (57-65-bandlar).
6. Bosh harflar imlosi (66-74-bandlar).
7. Ko‘chirish qoidalari (75-82-bandlar).

Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek yozuviga o‘tilishi munosabati bilan imlo qoidalariga ham sezilarli darajada o‘zgarishlar kiritildi. Shu munosabat bilan 1995-yil professor A. Hojiyev muharrirligida yangi “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” nashr qilindi.

Imlo lug‘atlarida so‘zlar orfografiya qoidalari asosida alifbo tartibi bilan beriladi.

1. Birlashgan o‘zbek alfaviti va orfografiyasi. — Toshkent. O‘zFAN, 1940.

2. S. Ibrohimov. M. Rahmonov. Imlo lug‘ati. — Toshkent. O‘qituvchi, 1956, 1964.

3. S. Ibrohimov, E. Begmatov, A. Ahmedov. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. — Toshkent. FAN. 1976.

4. A. Hojiyev muharrirligi ostida chiqarilgan O‘zbek tilining imlo lug‘ati. — Toshkent. O‘qituvchi, 1995.

5. A.Madvaliyev, E.Begmatov; muharrir N.Mahmudov. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. — Toshkent. “Akademnashr”, 2013.

“O‘ZBEK TILINING FRAZEOLOGIK LUG‘ATI”

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo‘lagi vazifasida keladi. Frazeologizmni tashkil etgan so‘zlar frazeologizmning faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo‘laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi. Masalan, Rais daladagi hosilni ko‘rib boshi osmonga yetdi. Bu gapdagi **boshi osmonga yetdi** qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

Frazeologik birlik sifatida ibora atamasi ham ishlatiladi. Ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko‘chma ma’no ifodalaydigan, ta’sirchanlikka ega bo‘lgan til birligi ibora (frazeologik birlik) deyiladi: qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan (yuvosh), kapalagi uchib ketdi (cho‘chidi), og‘zing qani desa qulog‘ini ko‘rsatadi (lapashang) va h. Iboralar ahamiyati va qo‘llanishi jihatidan, odatda, so‘zga teng keladi. Iboralar ko‘proq so‘zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Til fanining iboralarni o‘rganadigan bo‘limi frazeologiya deb ataladi.

Frazeologizmlar nutqning ta’sirchan va bo‘yoqdor bo‘lishini ta’minlaydi. Shu sababdan frazeologizmlarda uslubiy-funksional xossalar leksik birliklarga qaraganda ham keng: Ko‘zining paxtasi chiqmoq, yuragi qon bo‘lmoq, ichini it tirnamoq kabi frazeologizmlarda uslubiy bo‘yoq kuchli. Ularni ikki yo‘nalishga bo‘lish mumkin:

• ijobiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan frazeologizmlar: boshini silamoq, tillaridan bol tommoq, ko‘zi yashnamoq;

• salbiy: uyiga o‘t yoqmoq, to‘ng‘iz qo‘pmoq, yer tishlamoq.

Ko‘chma ma’noli turg‘un iboralarning yana bir turi *frazeologizmlardir*. Tarkibidagi qismlar o‘rtasida sintaktik aloqa mav-jud bo‘lmay, tilda ilgaridan bir sintaktik bo‘lak yoki gap sifatida barqaror mavjud bo‘lgan, tarkibidagi bo‘laklarning ma’nosi qisman yoki butunligicha ko‘chgan holda qo‘llanadigan, leksik-semantik jihatdan bir lug‘aviy birlikka teng keladigan ko‘chma ma’noli turg‘un iboralarga *frazeologizmlar* deyiladi. Masalan, *og‘zi qulog‘ida* va *boshi osmonga yetdi* birikma va gap holidagi frazeologizmlar yuqoridagi ta’rifga ko‘ra tahlil qilinsa, ularning har ikkilasida:

1) ibora tarkibidagi bo‘laklar o‘rtasida sintaktik aloqa yo‘q;

2) ma’no butunligicha ko‘chgan;

3) gapga teng ibora;

4) bir lug‘aviy birlik (xursand, mamnun);

5) doimiy barqaror til birligi holati namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikning bu sohali XX asrning 60-yillaridan boshlab, rus va o‘zbek tilshunosligida keng tadqiq qilib kelinmoqda. O‘zbek tilshunosligida ham bu sahada yirik-yirik ilmiy tadqiqot ishlari yaratilgan, monografiyalar yozilgan va lug‘atlar tuzilgan. Shunga qaramay, bu soha ayrim tomonlari bilan munozara-ligicha qolib kelmoqda. Bular:

1. Avvalo, termin haqida. Leksikologik adabiyotlarda bu haq-da *frazeologiya, frazeologizm, frazema* atamalari mavjud bo‘-lib, ularning har biridan o‘z o‘rnida foydalanilmayapti. Aslida, «frazeologiya» – tilshunoslikning frazeologik birliklar haqida ta’limot beruvchi maxsus sohasi, «frazeologizm» – frazeologik iboralarning jami, «frazema» – bir lug‘aviy birlikka teng ibora;

2. Frazeologizmlar semantik hodisa ekanligi hisobga olinib, ularning turg‘un birikma ekanligi inkor qilinmoqda, bunda ular frazeologizmlar

tarkibidagi ayrim so‘zlarning o‘rnini almashti-rish yoki ularning o‘rniga boshqa so‘z qo‘yish mumkinligini na-zarda tutmoqda;

3. Frazeologizmlarni lug‘aviy birlik sifatida ularning shakl va ma’no munosabatlariga ko‘ra turlarini aniqlash bilan chegarala-nishmoqda.

Shunday fikrlar berilishiga qaramasdan, frazeologizmlar yax-lit bor ma’no ifodalaydigan so‘z birikmasi yoki predikativ qo‘shilma qolipidagi til birligidir. Yaxlit bir ma’no berishiga ko‘ra u so‘zga o‘xshaydi ham, frazeologizm sub’yektning obyektga munosabatini bildirganligi va majoziyligi bilan so‘zdan farq qiladi ham. Lekin, baribir, tilda bir lug‘aviy birlik sifatida qabul qilinadi. Masalan, *qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan* frazeo-logizmi yuvosh so‘ziga teng.

Frazeologizmlar so‘zlar birligidan tarkib topgan birikma yoki predikativ qo‘shilma qolipli bo‘lsa ham, nutq jarayonida birikma yoki predikativ qo‘shilma kabi yuzaga kelmaydi, balki tilda tayyor lug‘aviy birlik sifatida mavjudligi holda nutq uchun shun-dayligicha tanlanadi. Chunki ular nutq birligi emas, til birligidir.

Frazeologizmlar so‘zlar kabi shakl va ma’no butunligicha ega, chunki so‘zlar tovushlardan tarkib topgani kabi, frazemalar ham so‘zlardan tarkib topadi: *ko‘ngli bo‘sh* – rahmdil, *boshi osmonga yetdi* – xursand kabi. Lekin frazemalar tarkibidagi so‘zlar o‘z ma’no mustaqilligiga ega emas. Umumiy ma’no ibora tarkibidagi so‘zlar yig‘indisining ko‘chma ma’no-sidan kelib chiqadi. Shuning uchun birikma tarkibidagi bir nechta so‘z butunligicha gapda bir sintaktik bo‘lak vazifasida keladi: *Ko‘z ochib yumguncha borib keldi* gapida *ko‘z ochib yumgun-cha* butunligicha holdir.

Frazeologik ma’no obrazli va jozibali bo‘ladi, shu bilan u oddiy leksik ma’noli so‘zlardan farqlanadi: *xufiya* – yeng uchi-da, *xursand* – og‘zi qulog‘ida kabi. Bunday ma’nolar turlicha yuz beradi:

1) ibora tarkibidagi so‘zlardan biri orqali: *achchiq gap, gap-ning tuzi* kabi;

2) komponentlarning umumiy ma’nosi asosida: *og‘zi qulo-g‘ida, tili tutildi* kabi;

3) tarkibidagi komponentlarning ma’nolariga aloqasiz holda: *yulduzni benarvon uradi, yuragiga qil siqmaydi* kabi va b.

Frazeologiya – tilshunoslikning bo`limlaridan biri hisoblanadi. **Frazeologiya** – lotin tilidan olingan bo`lib, prasis – ifoda, logos – ta’limot deganidir.

Tilda ikki yoki undan ortiq so`zdan tarkib topib, ko`chma ma’no ifodalaydigan, ma’nosi bir so`zga teng keladigan turg`un birikmalar **ibora (frazeologik birlik)** deyiladi.

Ma’no yaxlitligiga ega bo`lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so`zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko`chma ma’nodagi barqaror birikmalarga **frazeologizmlar** deyiladi

Tilning iboralarni o`rganadigan bo`limi **frazeologiya**, iboralar yig`indisi esa **frazeologizm** deb yuritiladi.

Masalan, tilini tiymoq, tarvuzi qo`ltig`idan tushmoq, o`takasi yorilmoq va hokazolar

Frazeologik birikmalar markazida turgan so`z turkumlari

a) otli frazeologik birikmalar: ***og‘zi qulog‘ida***

b) fe’lli frazeologik birikmalar: ***aqlini yeqan***

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SHAKL VA MA’NO TURLARIGA KO`RA TASNIFI

Omonimlik- shakli bir xil ma’nosi har xil iboralar. M: *boshga ko`tarmoq- e’zozlamoq; boshga ko`tarmoq- shovqin solmoq*

Sinonimlik- bir-biriga ma’nosi yaqin ma’nodosh iboralar. M: *dunyoga kelmoq- tavallud topmoq;*

Antonimlik- qarama-qarshi ma’noli iboralar zid ma’noli iboralar. M: *dunyoga kelmoq- dunyodan ketmoq;*

Paronimlik – bitta so`zi bilan farqlanadigan iboralar: *yetti uxlab, tush(i)ga kirmaslik va yetti uxlab tush(i)da ko`rmaslik;*

Frazeologik birliklarning ko`p manoliligiga ko`ra ko`ra tasnifi

1.Bir ma’noli frazeologik birliklar

Xuddi bir ma’noli so`zlarga o`xshab bir ma’noli frazeologik birliklar ham tarkibidagi so`zlarning ma’nolaridan kelib chiqadigan bitta ma’noga ega bo`ladi. Masalan ***bir yoqadan bosh chiqarmoq*** iborasi “hamjihat bo`lmoq” degan bitta ma’noni, yer bilan osmoncha iborasi “juda katta, beqiyos (farq)” degan bitta ma’noni ifodalaydi.

2. Ko`p ma’noli frazeologik birliklar

Ko`p ma’noli leksemaga o`xshab polisemantik iboralar ham bir-biriga bog`langan kamida ikkita ma’noga ega bo`ladi. Ko`p manoli iboralar ko`chma ma’nolari ikkitadan beshtagacha borishi mumkin.

1) ikki manoli iboralar: ***yo`lga tushmoq***. 1. *Kim*. jo`namoq, keta boshlamoq. 2. To`g`ri yo`lga qaytmoq.

2) uch manoli iboralar: ***bino qo`ymoq*** – 1. *o`ziga*. Ortiqcha baho bermoq, yuksak fikrda bo`lmoq. 2. *o`ziga*. Qiyofasiga alohida e’tibor bermoq. 3. *Kimga* yoki *nimaga*. E’tiqod bilan qaramoq.

3) to`rt manoli iboralar: ***bosh ko`tarmoq***. 1. *Kim*. Qaramoq. 2. *Kim nimadan*. Qilib turgan ishini to`xtatmoq. 3. *Nima*. Qo`zg`almoq, harakatga kelmoq. 4. *Kimga qarshi.* Kurashga chog`lanmoq.

Tilning lug‘ati qancha ko‘p bo‘lsa, fikr shuncha aniq ifodalanadi. Jumladan, aniq bir shaxsning ham o‘z lug‘at boyligi bo‘ladi. Lug’at doirasi keng kishining nutqi aniq, ravon bo‘ladi, shuning uchun boshlang‘ich ta’lim oldiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri ham o‘quvchilar nutqini so‘zlar bilan boyitishdir.

Metodika - lug‘at ishlarini yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, o‘quvchilar lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish yo‘llarini ishlab chiqadi.

Boshlang‘ich ta’lim lug‘at ustida ishlash metodikasi 4 yo‘nalishda ish olib boradi;

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish. O‘quvchilarga so‘zlarning ma’nolarini tushuntirish orqali har kuni 8-10 ta so‘z bilan, jumladan, ona tili darsida 4-6 so‘z bilan lug‘atini boyitishni ko‘zda tutadi.

2. Lug‘atga aniqlik kiritish:

a) o‘quvchilar ma’nosini yaxshi bilmaydigan so‘zlar ma’nosini izohlash orqali;

b) kinoyali, ko‘p ma’noli so‘z ma’nolarini izohlash orqali;

v) sinonim so‘zlarning ma’no ottenkalarini izohlash orqali;

g) iboralarning ma’nosini izohlash orqali.

3. Lug‘atini faollashtirish, kam qo’llaniladigan so‘zlarni ishlatish uchun sharoit yaratish: dialoglar, suhbat uyushtirish, insho yozdirish.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni passiv lug‘atga o‘tkazish.

Lug‘at ustida ishlashda so‘zning adabiy orfoepik talaffuzi, imlosi ustida ham ishlanadi.

O‘quvchilar nutqi muayyan manbalar asosida boyitiladi.

- tabiatni, kishilar hayoti, mehnati, bolalar o‘yin va o‘qish faoliyatini kuzatish orqali;
- badiiy asarlar orqali;
- gazeta va jurnal materiallari orqali;
- radio va teleko‘rsatuvlar orqali;
- ona tili vao’qish darslaridagi mashqlar orqali;
- lug‘atlar orqali;
- barcha fanlar orqali.

So‘z ma’nosini tushuntirish juda kam vaqtni olishi kerak (5-6 daqiqa). O‘qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida qaysi so‘zlarning ma’nosi ustida ishlashi zarurligini, qay tarzda ishlashini belgilab olishi kerak.

O‘qish darslarida 1-marta uchragan, bolalar ma’nosini tushunmaydigan so‘zlarning ma’nosini asarni o‘qimasdan oldin tushuntirishi kerak.

Ko‘chma ma’nodagi so‘zlarni, obrazli ifodalarni, umuman, asarning badiiy tiliga doir nutq birliklari asarni o‘qib bo‘lgach tushuntiriladi.

So‘z ma’nolarini tushuntirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. So‘zni matn asosida tushuntirish

2. So‘z ma’nosini lug‘atdan, kitobdagi izohdan foydalanib tushuntirish.

3. Sinonimlarini keltirib tushuntirish

4. Antonimiga taqqoslab tushuntirish.

5. Birikmalar, gaplar yordamida tushuntirish.

6. So‘zni predmetning asosiy belgilarini aytish orqali tushuntirish.

7. Axloqiy mavhum tushunchalarni bildiradigan so‘zlar ma’nosini misollar yordamida tushuntirish.

Ko‘chma ma’noli so‘z, tasviriy ifodalarni, maqollarni ham taqqoslash usuli yordamida tushuntirish mumkin.

Bir umumiy tushuncha bildiradigan so‘zlar **sinonim** so‘zlar deb yuritiladi.

Ular qo‘shimcha ma’nolarni uslubiy qo‘llanishi bilan o‘zaro farq qiladi. O‘quvchi nutqi sinonimlarga boy bo‘lsa, nutqining ifodaliligi shuncha ortadi.

Sinonim so‘zlar bilan ishlash elementar ravishda 1- sinfdan boshlanadi, lekin maxsus soat ajratilmaydi.

Boshlang‘ich sinfda sinonim so‘zlar ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

1) berilgan sinonimlarni guruhlash;

2) berilgan so‘zga sinonim tanlash;

3) tushirib qoldirilgan sinonim so‘zlarni o‘rniga qo‘yib matnni ko‘chirish;

4) sinonimlardan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chirish;

5) sinonim so‘zlar vositasida didaktik material tanlash.

Zid ma’no munosabatdagi so‘zlar **antonim** so‘zlar deyiladn. Antonimik munosabat so‘z va iboralar orasida ham bo‘ladi. Antonimlar bilan ham boshlang‘ich sinfda amaliy tanishtiriladi. Maxsus mashqlar uyushtiriladi:

1. Berilgan so‘zga antonim tanlash.

2. Antonim so‘zlar bilan gap tuzish.

3. Berilgan gapga antonim qo’yib ko‘chirish.

Omonim so‘zlar ustida ishlashda ham yuqoridagi kabi ishlar amalga oshiriladi.

Ko‘p ma’noli so‘zlar ustida ishlash. Darsliklarda ko‘p ma’noli so‘zlar uchrab turadi, lekin o‘quvchilar uning ko‘p ma’noli so‘z ekanini bilmaydilar. Ular so‘z birikmalari, gap ichida taqqoslab tushuntiriladi.

O‘quvchilarga ko‘p ma’noli so‘z gap ichida ajratilib ko‘rsatilib, uning ma’nosini tushuntirish so‘raladi, so‘ng ko‘p ma’noli so‘zlarni turli ma’nolarda qo‘llab, gap tuzdiriladi.

O‘quvchilar nutqini boyitishda badiiy asardagi tasviriy vositalarni, maqollarni yod oldirish ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Mantiqiy mashqlar. So‘zlarning biror mavzuga doir guruhini tuzish: Dorivor o‘simliklar: qoqi o‘t, otquloq, kiyik o‘ti, yalpiz va h.k.

Bir guruhdagi so‘zlarni umumlashtirib nomlash; olma, olcha, behi – **mevali daraxtlar.**

- **Ortiqcha so‘zni topish**: chumchuq, kaptar, musicha, mushuk, (mushuk ortiqcha).
- **Predmet bildirgan so‘zlar bilan belgi bildirgan so‘zlarni aniqlash.**
- **Belgi bildirgan so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra guruhlash.**
- **Yaxshi hislatlarni bildirgan so‘zlarni guruhlash** va h.k.

Bunday mashqlar savod o‘rgatish, ona tili, o‘qish darslarida qo‘llanadi. Mavzu bilan bog‘liq holda takomillashtirib, mukammallashtirib boriladi. Nazariy ma’lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo‘yish, gapda sifat bilan bog‘langan otni (so‘z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so‘z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Matn materialini tanlashda -roq qo‘shimchasi bilan qo‘llangan yaxshiroq, aqqlliroq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko‘proq bo‘lishiga e’tibor beriladi. O‘quvchilarning mustaqilligi oshgan sayin mashq topshiriqlari ham asta sekin murakkkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatli o‘zlashtirishda uni ot bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga asoslanadi.

Lug‘at – bu so‘lar yig‘indisi, tushuntirilgan, talqin qilingan, bir tildan ikkinchi tilda manoviy jihatlar o‘girilgan leksikadir. Ular faqat so‘larni to‘g‘ri yozish, ularning mano‘sini anglash so‘zlarning kelib chiqishinni tushuntiribgina qolmay, fan-texnika, san ‘at va adabiyot haqida ham yangi tushunchalar beradi.

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligidir. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud boigan barcha so‘z va iboralarning yig‘indisi lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi.

Leksikologiya o‘zbek tilining lug‘at tarkibini o‘rganadigan bo‘limdir. Leksikologiya lug‘at tarkibidagi so‘zlarning nutqda ma’no ifodalash xususiyati, qo‘llanish faolligi, boyib borislii, ba’zi so‘zlarning eskirib, iste’moldan chiqib ketishi, ma’no ko‘chish hodisasi kabilarni o‘rganadi. Shu sababli leksikologiya lug‘at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan, mazmunga mos so‘z va so‘z birikmalarining ma’lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi.

Kishining lug‘ati qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo‘ladi; o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi.

Shuning uchun lug‘atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi. O‘quvchi lug‘atining boyishiga, birinchi navbatda, uni o‘rab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o‘qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan muloqotlari asosiy manba vazifasini bajaradi.

Badiiy asarlar o‘quvchilar lug‘atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. O‘qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar lug‘ati ma’lum mavzular bo‘yicha ham boyib boradi.

Masalan, yil fasllariga oid mavzular bilan tanishish jarayonida tabiatdagi o‘zgarishlar, qushlar, jonivorlar, hayvonot olami, dov-daraxtlar, maysa-giyohlar bilan bog‘liq tushunchalari shakllantirilsa, ma’naviyat, yaxshilik va

yomonlik, do‘stlik mavzularidagi asarlarni o‘rganish orqali insoniy munosabatlar, ahloq-odob yuzasidan muayyan xulosalar shakllanadi.

Matnni o‘qish jarayonida so‘zning ma’nosi tushuntirilmaydi. Agar unga zarurat sezilsa, o‘quvchilar diqqati matn mazmunidan chalg‘itilmay, qisqa izoh berib o‘tib ketiladi. Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlar matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi. Chunki ularning ma’nosi matn mazmunidan kelib chiqib tushuniladi.

Boshlang‘ich ta’limda lug‘at ustida ishlashning umumiy yo‘l-yo‘riqlari, yo‘nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lsada, ularni hali qoniqarli ahvolda deb bo‘lmaydi.

Lug‘at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni
o‘rganishda, asosan, ona tili va o‘qish darslarida darslik materiallarini o‘rgatish bilan bog‘liq holda olib boriladi.

Ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilar nutqini o‘stirishga, savodxonligini shakllantirishga, so‘z boyligini boyitishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish maktablarda 1-sinfdan boshlanadi va butun o‘quv jarayonida davom ettiriladi.

Maktabda lug‘at ustida ishlash to‘rt asosiy yo‘nalishni ko‘zda tutadi:

1. O‘quvchilar lug‘atini boyitish, ya’ni yangi so‘zlami, shuningdek, bolalar lug‘atida bo‘lgan ayrim so‘zlarning yangi ma’nolarini o‘zlashtirish. Ona tilining lug‘at boyligini bilib olish uchun o‘quvchi o‘z lug‘atiga har kuni 8-10 ta yangi so‘zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so‘zni qo‘shishi, ya’ni shu so‘zlar ma’nosini o‘zlashtirishi lozim.

2. O‘quvchilar lug‘atiga aniqlik kiritish. Bu o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- o‘quvchi puxta o‘zlashtirmagan so‘zlarning ma’nosini to‘liq o‘zlashtirish, ya’ni shu so‘zlarni matnga kiritish, ma’nosi yaqin so‘zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo‘llari bilan ularning ma’nosiga aniqlik kiritish;

- so‘zning kinoyali ma’nosini, ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish;

- so‘zlarning sinonimlarini, sinonim so‘zlarning ma’no qirralarini o‘zlashtirish;

- ayrim frazeologik birliklarning ma’nosini o‘zlashtirish.

3. Lug‘atni faollashtirish, ya’ni o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkazish. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlarni o‘quvchilar faol lug‘atidan nofaol lug‘atiga o‘tkazish. Bunday so‘zlarga bolalarning nutq muhiti ta’sirida o‘zlashib qolgan adabiy til me’yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so‘zlashuv tilida qo‘llanadigan sodda so‘z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so‘zlar kiradi.

Adabiy til me’yori degan tushunchani o‘zlashtirgach, o‘quvchilar yuqorida izohlangan so‘zlar o‘rniga adabiy tildagi so‘zlardan foydalana boshlaydilar.

Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so‘zlar, so‘zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so‘z va iboralar o‘quvchilarning faol lug‘atidan chiqib keta boshlaydi.

Bolalar mustaqil o‘qishga o‘rganganlaridan keyin ular lug‘atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta’sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o‘qish va unga rahbarlik shakllari o‘quvchilar lug‘atini boyitishning, nutqini o‘stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi.

Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o‘rganish darslari ko‘pgina so‘z va atamalarni o‘zlashtirishga yordam beradi, o‘quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so‘zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o‘quvchilar lug‘ati tartibga solinadi, so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida guruhlanadi, so‘z tarkibi, so‘z yasalishi, so‘zlarning o‘zgarishini o‘rganish bilan esa lug‘atga aniqlik kiritiladi; ular o‘rgangan so‘zlaridan o‘z nutqlarida foydalana boshlaydi, natijada lug‘atlari faollashadi. O‘quvchilar

lug‘ati maxsus lug‘aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi.

Bulardan tashqari, kinofilm va teleko‘rsatuv matnlari, o‘qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o‘quvchilar lug‘atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi. Lug‘atni boyitishda turli lug‘atlar juda foydali qo‘llanmadir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun „Imlo lug‘ati” mavjud. O‘qituvchi ma’lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug‘atlardan (o‘zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug‘atlaridan, turli terminologik lug‘atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi.

So‘zlarning ma’nosini tushuntirish o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini o‘stiradi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo‘lgan so‘zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma’nosini tushuntirish mazkur so‘z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma’nosini tushuntirish bilan o‘quvchilar predmet keng ma’noda qo‘llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe’l kabi atamalarni tez fahmlab
olishda ularga yordam beradi.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan obrazli so‘zlar va badiiy nutq birliklari matn o‘qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma’nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o‘qilganda, undagi allegorik, ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarni asarni o‘qishdan oldin yoki o‘qish jarayonida tushuntirib bo‘lmaydi.

Metodikada so‘zlarni tushuntirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

1. So‘zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z ularga tushunarli so‘zlar qo‘llangan gap (yoki matn) yordamida tushuntiriladi.

2. So‘z ma’nosini lug‘atdan va o‘qish kitoblarida matn ostida berilgan izohdan foydalanib tushuntirish. Bunda o‘quvchilarni izohdan

mustaqil foydalanib, so‘z ma’nosini mustaqil tnshnnib olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So‘z ma’nosini shu so‘zning ma’nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan: sabo — shabada, mudofaa — himoya, sozanda — musiqachi, diyor — vatan, inshoot — bino, samo — osmon kabi. So‘zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so‘zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko‘rsatish zanir.

4. Tanish bo‘lmagan so‘z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo‘lgan so‘z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo‘y so‘zini yolg‘onchi so‘ziga taqqoslab tushuntirish mumkin.

Ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘z va so‘z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So‘zni o‘ziga yaqin tushuncha ~ boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so‘zning izohi qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Masalan, o‘zboshimchalik — o‘z xohishicha ish tutish, ishni o‘zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis — biror hunar egasi; shunqor ~ uzoq uchadigan ko‘zi o‘tkir qush; mesh ~ mol terisidan tikilgan idish; guldon - gul solib qo‘yiladigan idish va boshq.

Ba’zi so‘zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn — bir vaqtning o‘zida donni o‘radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo‘jalik mashinasi; ekskavator — bir vaqtning o‘zida erni qazib tuproqni yuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom - samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo‘nadigan joy va hokazo.

6. So‘zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq — suvsiz joyda o‘sadigan ninasimon tikanli o‘simlik; akula - okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning ma’nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o‘quvchilar

o‘rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo‘lgan asar qahramonining qilgan ishlari tahlil qilinadi.

So‘z ma’nosini tushuntirish ustida ishlash o‘quvchilar lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi. Lug‘at ustida ishlash ona tili darslarida ham, o‘qish darslarida ham reja asosida izchil olib borilishi lozim.

Boshlang‘ich sinflar uchun izohli, imlo lug‘atlarining yaratilmaganligi lug‘at ustida olib boriladigan ishlarni to‘g‘ri uyushtirishda ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Agar lugat ishi qat’iy reja asosida izchil amalga oshirilsa, o‘quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun qunt, e’tibor,

qat’iyatlik va sabot bilan ishlash zarur. Chunki ona tili darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning eng muhim va asosiy yo‘llaridan biri lug‘at ustida ishlashdir. Ma’lumki, o‘quvchining ona tili fanidan lug‘at boyligini qay darajada o‘zlashtirilganligiga qarab nutqi ham shunchalik ma’noli, savodli, tushunarli va tasirli bo‘lad. Agar o‘quvchining lug‘at boyligi kam bo‘lsa, uning fikirlash dairasi ham tor, sayoz bo‘ladi.

O‘quvchilar lug‘atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O‘qish darslarida o‘quvchilar Oybek, H.Olimjon, M.Shayxzoda, G‘.G‘ulom, Zulfiya, X.To‘xtaboyev, P.Mo‘min, Q.Muhammadiy, Sh.Sa’dulla, Z.Diyor, N.Fozilov, T.Adashboyev, A.Obidjon kabi ko‘pgina so‘z ustalaring asarlarini o‘qiydilar. O‘zbek tilini yuksak badiy obrazlar yordamida

o‘zlashtiradilar.

“Iboralar ma’nosini izohlash” mashqi

Burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirmoq, yerga ursa ko‘kka sakramoq, yaxshi ko‘rmoq, me’dasiga tegmoq, yuragi toza, burnini suqmoq, tepa sochi tikka bo‘lmoq, ko‘nglida kiri yo‘q, bir boshini ikkita qilmoq, og‘ziga tolqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda bo‘lmoq, oq ko‘ngil, ko‘nglini yozmoq, o‘takasi yorildi, bu qulog‘dan kirib, u qulog‘idan chiqib ketmoq, tishini tishiga qo‘ymoq, besh barmog‘ni og‘ziga

tiqmoq, ipidan ignasigacha, og‘zining tanobi qochadigan, do‘ppisini osmonga otmoq.

Berilgan misollardan omonim, sinonim, antonim iboralarni ajrating va quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Dam bermoq, suvdan quruq chiqmoq, ko‘z yummoq, yuragi tars yorilib ketayozdi, joni chiqmoq, boshiga ko‘tarmoq, ko‘kka ko‘tarmoq, tegirmonga tushsa butun chiqadi, yuragi qoq yorilayozdi, yerga urmoq, g‘amini yemoq, dunyoga kelmoq, og‘zining tanobi qochmoq, tavallud topmoq, boshi ko‘kka yetmoq, qo‘l ko‘tarmoq, hushi o‘ziga kelmoq, yerga urmoq, ichi qora, qo‘li egri, pixini yorgan, sirkasi suv ko‘tarmaydigan, qildan qiyiq topmoq, terisiga sig‘may ketdi, yer bilan yakson qilmoq, ipidan ignasigacha.

Omonim iboralar	Sinonim iboralar	Antonim iboralar

“Sirli kataklarni to‘ldir”

O‘quvchilarga kataklarni to‘ldirib, tovushdan so‘zlar hosil qilish vazifasi topshiriladi. **Masalan:** toy so‘zini soy so‘zigacha davom ettirish talab etiladi. **Namuna:** toy, loy, moy, voy, oy, choy, yoy, soy.

“Tarkibida hayvon, hasharot va qush nomi ishtirok etgan iboralarni top”

Namuna: qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, ilonning yog‘ini yalagan, shaytonning domlasi, kapalagi uchmoq, mushugini pisht demoq… kabi.

“So‘z juftlarini davom ettir”

O‘quvchilardan ***qal’a-qala, she’r-sher, sa'va-sava, qattiq-qatiq*** singari so‘zlarning juftini topish va ularning ma’nosini sharhlash so‘raladi. Berilgan so‘z juftlarini belgilangan miqdorda (10-15 ta so‘z jufti) yetkazgan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. Bu o‘yin sinf o‘quvchilarini guruhlarga ajratgan holda sinf taxtasida bajartirilishi mumkin. Qatordagi har bir o‘quvchi doskaga chiqib, bitta so‘z juftini yozadi va bo‘rni ikkinchi o‘quvchiga tutqazadi. O‘yin shu

tartibda davom ettiriladi. Xulosa qilib aytganda, so‘z ma’nosini tushuntirish ustida ishlash o‘quvchilarda faol fikrlash ko’nikmasini shakllantiradi, hozirjavoblikni rivojlantiradi, lug‘atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi.

Nazorat savollari

1. So‘z ma’nosini o‘rgatadigan bo‘lim haqida ma’lumot bering.
2. O‘quvchilar lug‘atini boyituvchi usullardan namunalar ayting.
3. Ona tili darslarida qanday turdagi lug’atlardan foydalaniladi?
4. Lug‘at ustida ishlashda qanday metodik usullardan foydalaniladi?

1.6. ONA TILI FANIDAN OCHIQ DARSLARNI O‘TKAZISH VA ULARNI TAHLIL QILISH TEXNOLOGIYASI

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimzda amalga oshirilgan muhim ijobiy ishlardan biri «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi Qonunlarning qabul qilinishi hamda boshlang‘ich ta’limning ham shaklan, ham mazmunan zamonaviylashib o‘zgarishi bo‘ldi. Bu o’zgarishlarning asl sababi ona tilini o’zlashtirilishidagi muammolar bo’lib hisoblanadi. Bu muammolarning boshlanishi ta’lim tizimimining ilk bo’g’ini sanalmish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi til, nutq, o‘qish va yozish kompetensiyalarini shakllantirish mashg‘ulotlari uchun milliy xarakterdagi didaktik (matnlar, audio, video va boshqa) materiallar tanqisligi bo’lib hisoblanadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun dastavval ta'lim oluvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyat markazlari o‘rtasida integratsiyani yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida esa o‘qitiladigan amaldagi “Ona (o‘zbek) tili” fani darsligining mundarijasi bevosita 1-4-sinfdagi “Ona (o‘zbek) tili” kitobining davomi sifatida tizimli tashkil qilinmagan, atamalar, ayrim grammatik qoidalarga yondashuvda har xillik kuzatiladi, shuningdek, ijodiy mashqlar ulushi darsliklarda juda oz bo‘lib, qariyb 60 foizini namuna asosida

bajariladigan sxolastik mashq va topshiriqlar tashkil etadi. Ta'limning barcha bo‘g‘inlarida ona tili fanini o‘qitishda asosiy e'tibor lingvistikaga oid nazariy ma'lumotlarga qaratilib, o‘quvchida amaliy xarakterdagi nutqiy (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish) kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlay olmadi. Ta'lim oluvchilarga adabiy til me'yorlarini singdirish masalasida asosiy e'tibor yozma nutqqa qaratilib, madaniy og‘zaki nutq malakalarini shakllantirish esa e'tiborsiz qolib ketdi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari milliy tilimizga asoslangan nutqiy faoliyatni takomillashtiruvchi, boyituvchi va madaniylashtiruvchi mashg‘ulotlarda bolalar nutqini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish bo‘yicha tegishli metodik yo‘riq, tavsiya va adabiyotlar bilan deyarli ta'minlanmagan. Maktabda o‘quvchiga darslikdan boshqa ta'limning o‘quv vositalari taqdim etilmadi va bu holat hamon davom etmoqda. O‘zbek tili fanining o‘quv va ilmiy metodik ta'minoti (lug‘at va qomuslar, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, multimedia, mobil ilova va boshqa didaktik materiallar) yetarli darajada ishlab chiqilmadi. Natijada ularda ta'limning yordamchi o‘quv vositalaridan foydalanish malakasini hosil qiladigan mustaqil izlanish tajribasi shakllanmadi. Ta'lim oluvchilarning yoshi, jinsi, milliy xususiyatlari, xususan, fiziologik, psixologik jihatlaridan kelib chiqqan holda o‘quv materiallarini qanday va qay miqdorda o‘zlashtirilishini hisobga olib sinflar kesimida tadrijiy rivojlantirib boriladigan ilmiy-metodik asosga ega uzviy o‘quv dasturi ham hamon yaratilmagan. O‘zbek tili fanini o‘qitishda fanlararo integratsiya mexanizmi talab darajasida ishlab chiqilmagan edi. Boshqa o‘quv fanlari, o‘quv predmetlariga qo‘yilgan malaka talablarida ta'lim oluvchi o‘z fikrini (dars jarayonida) ona tilida ifodalashi zarurligi bilan bog‘liq alohida talab qo‘yilmagan edi. O‘zbek tili fanini o‘zlashtirishda bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablari, tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq ilmiy asoslangan baholash mezonlari mavjud emas edi. Lingvodidaktika va tilshunoslikning pragmatik xarakterdagi so‘nggi yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish ham oqsamoqda. Shu sababli

O‘zbekistondagi ta'lim tizimi va jarayoni, qanday shakl va mazmunda bo‘lishidan qat'i nazar, mamlakatdagi barcha ta'lim muassasalarida o‘zbek tiliga davlat ramzlari sirasidagi muqaddas timsol sifatida qaralishi hamda shunday munosabatning shakllanishiga yo‘naltiriladi. Mamlakatimizning maorif sohasiga daxldor har bir xodimi, mutasaddisi o‘zbek tilida yetarli darajadagi og‘zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak hamda ular kasbiy faoliyatida tarbiyalanuvchilarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirishga o‘zbek (ona) tili o‘qituvchilari bilan teng barobarda mas’uldir.

2021-o’quv yilidan boshlab boshlang’ich 1-2-sinflar uchun ona tili va o’qish savodxonligi fani joriy etildi. Buning sababi ona tili fanida o’rgatiladigan qoidalar o’qish savodxonligi bilan badiiy matnlar misolida integratsion tarzda amaliy ish shaklida olib borilishidir. Maktablarda ona tilining o‘qitilishini talab darajasiga chiqarish maqsadiga mazkur fanning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning mazmuni va tarkibiy qismlari ishlab chiqildi.

Yosh avlod ma’naviyatini rivojlantirish o‘zbek xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari va ularni o‘zida aks ettirgan adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishtirish, milliy an’ana, bayram, urf-odatlar asosida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni taqozo etadi. Bunda, jumladan, o‘zbek adabiyotining ixcham va go‘zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo‘shgan o‘zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o‘rganish ham ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash va sintaktik-uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzish va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi. Til o‘rganishda uzluksiz ta’limning boshlang‘ich va umumiy o‘rta bosqichlarida til ta’limining lisoniy, lingvopsixologik, sotsiopsixologik va paralingvistik va, muhimi, umumdidaktik va o‘ziga xos metodik xususiyatlardan kelib chiqqan holda hosil qilinadigan nutqiy-kommunikativ,

grammatik va umumtarbiyaviy vazifalar belgilanadi. Ona tili nafaqat leksik va grammatik me’yorlarni o‘rgatuvchi, balki o‘quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to‘g‘ri o‘qish, orfoepik va orfografik me’yorlarni qo‘llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandir. O‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o‘qib tushunishga alohida e’tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o‘zlashtiradi. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o‘quvchida til qurilishiga oid o‘zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so‘z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirishni ko’zda tutadi. O‘quvchining kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalar va o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan lingvistik kompetensiyalar o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishini ko‘zda tutadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘zbek tili (ona tili) fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasida o‘zbek tili ta'limi barkamol shaxs tarbiyasi, unda ma'naviy sifat va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash, milliy an'ana va avlodlar o‘rtasidagi vorislikni asrash hamda davom ettirish jarayonida yetakchi o‘rin tutishi alohida qayd etilgan. O‘zbek tili davlat tili sifatida O‘zbekiston Respublikasida davlat ramzi o‘laroq aholini yagona milliy manfaatlar atrofida birlashtiradigan, shu tilda so‘zlashuvchilarning tafakkur tili sifatida kishi shuurini milliylik zaminiga bevosita bog‘laydigan, shu yurtda yashayotgan millat va elatlarning o‘zaro aloqasini ta'minlovchi vosita, unga bo‘lgan munosabat Vatanga munosabat va sadoqatni belgilaydigan omil sifatida ta’kidlanadi. Ta'lim tizimida o‘zbek tilini o‘qitish ana shu g‘oya va ruhni singdirishga xizmat qilishi, jamiyatdagi ijtimoiy nufuzini yuksaltirish bilan ta'lim, ilm-fan, iqtisodiyot va siyosat sohalarida o‘zbek tilining mavqeyini mustahkamlash, ularda ish yuritishda davlat tilining mutloq yetakchilik maqomini ta'minlash yo‘nalishini belgilagan holda ta'limda o‘zbek tilini o‘qitish tizimi ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlarni yuzaga chiqarishni ko‘zda tutadi.

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi o‘qitishning bosh yo‘nalishi, maqsad, vazifalari, mazmuni, tamoyillaridan kelib chiqib tilshunoslik hamda metodika fanlarining so‘nggi yutuqlarini hisobga olib, ulardan ta'lim oluvchilarning hayotiy ehtiyojlariga moslarini tanlagan holda ta'lim muassasalarida o‘zbek tili ta'limini samarali yo‘lga qo‘yish, amaliy samaradorlik jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat. Ta'lim muassasalarida o‘zbek tilini o‘qitish tizimini rivojlantirish vazifalari sifatida quyidagilar belgilanadi: ta'limning barcha bosqichlari uchun uzluksizlikni ta'minlagan holda o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari va metodikasi asosida o‘quv dasturlarini ona tili ta'limi maqsadi hamda mazmuni uyg‘unligiga ko‘ra isloh qilish hamda ular asosida darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va didaktik materiallarning yangi avlodini yaratish; ta'limiy axborotning ko‘pligi, tezligi va o‘zgaruvchanligini inobatga olib o‘zbek tili o‘qituvchilarining moslashuvchanligi, intellektuallik

darajasini oshirish; o‘quv dasturlari talablarini bajarish, elektron ta'lim, masofadan o‘rganish va o‘qitishda ta'lim oluvchilar hamda pedagog xodimlar faoliyati uchun kerakli, sifatli, ommabop informatsion resurslarni rivojlantirish; o‘zbek tilini o‘rganuvchilar auditoriyasini jahon miqyosida kengaytirishga harakat qilishdan iborat.

O‘zbek tilining jamiyatdagi ona tili va davlat tili sifatida o‘z qadri, mavqeyi hamda maqomiga bo‘lgan e'tibor sustligi tufayli uni to‘laqonli o‘rganish va o‘rgatishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojga beparvo qaraldi. Natijada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning diqqati kerak-kerak emas mavzular bilan chalg‘itildi, bu esa o‘zbek tili ta'limining hayotiy zaruratni qondirish o‘zanidan chiqib ketishiga sabab bo‘ldi; uni targ‘ib qilish ham susayib ketdi. O‘zbek tilining ona tili sifatida o‘qitilishida lingvistik kompetensiyani shakllantirish ustuvorlashib, og‘zaki va yozma nutq malakasini yuksaltirish uning soyasida qolib ketganligi, lingvistikaga oid nazariy ma'lumotlarni singdirishga yo‘naltirilgan til ta'limi jarayoni ta'lim oluvchilarning kundalik hayotiy faoliyatlari, ehtiyojlaridan uzilib qolgani ushbu salbiy holatning turg‘unlashishi va chuqurlashuviga sabab bo‘ldi. Ta'limning barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarning yosh, jins xususiyatlari, milliy va mahalliy o‘ziga xosligini e'tiborga olib ularning ona (davlat) tilini o‘rganishga bo‘lgan rag‘batini oshiruvchi tilimizning jozibasi, boy imkoniyatlarini aks ettirgan didaktik materiallar majmuasini o‘z ichiga olgan milliy metodik ta'minot tizimi markazlashgan holda yaratilmadi. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali o‘zbek (ona) tili fanini umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida o‘qitishni rivojlantirishda 2030- yilgacha quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

- konsepsiya umumiy o‘rta ta'limning malaka talablari(DTS)da belgilangan talablar uchun asos bo‘ladi;
- konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni keng amaliyotga joriy etish o‘quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi;

- o‘zbek tili fanini o‘qitish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta'lim mazmuni va malaka-talablari me'yorlari aniqlashtiriladi;
- umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida, zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanib ona tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishiladi;
- ta'lim muassasalarida o‘zbek (ona) tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimi yo‘lga qo‘yiladi, barcha fan, sohalarga oid ilmiy tadqiqotlarda o‘zbek (ona) tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzi yanada ortadi.

MAKTAB O’QUVCHILARIDA FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR

NUTQIY KOMPETENSIYA

- maqsad va kontekstdan kelib chiqqan holda o‘z fikrini yetkazish uchun og’zaki muloqotga kirishadi;
- maqsad va kontestdan kelib chiqqan holda o‘z fikrini yetkazish uchun yozma matn yaratadi;
- turli uslubdagi matnlarni ifodali o‘qiydi;
- mazmunini anglaydi va qayta tushuntirib beradi;
- notanish matnni ovoz chiqarib, belgilangan tezlikda o‘qiydi;
- audiomatnni tinglab, videotasvir va rasmlarni ko‘rib tushunadi,
- o‘z munosabatini og‘zaki hamda yozma shakllarda ifodalab beradi;
- asar va ijodkor shaxsi haqida o‘zining mustaqil fikrini adabiy talaffuz va imlo me’yorlariga rioya qilgan holda bayon qiladi;
- matnning umumiy mavzusini belgilaydi, matnga sarlavha qo‘yadi;
- matnning ma’lum qismini o‘qib, uni mantiqan davom ettiradi;
- matnni mazmuniy qismlarga ajratadi va reja tuzadi;
- turli janrdagi matnlar mazmunini tushunadi, ulardan namunalarni yoddan aytib beradi, asar syujetini hayot bilan taqqoslaydi;
- turli janrdagi adabiyotlarni mutolaa qilib, undagi g‘oya va obrazlarga og‘zaki hamda yozma shakllarda munosabat bildiradi;
- asar mutolaasidan zavqlana olish darajasida tilning ifoda imkoniyatlarini anglay oladi va his-tuyg‘ularini bayon qiladi;
- ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma’lumotlarni tushunadi, o‘z munosabatini bildiradi;

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

- o‘z fikrini yozma shaklda bayon qilishda adabiy tilning imlo, grammatik va uslubiy me’yorlariga rioya qiladi;
- xalq maqollari, hikmatli so‘zlar ma’nosini tushungan holda o‘z nutqida qo‘llaydi, matn tuzishda yordamchi so‘zlardan o‘rinli foydalanadi;
- nasriy asarlardagi so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolarini farqlaydi;
- o‘z yozma nutqida kiritmalardan, tinish belgilaridan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanadi, matndagi ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gap shaklida yozadi;
- til imkoniyatlaridan foydalanib sodda gaplarni qo‘shma gapga aylantiradi;
- o‘qilgan asar bo‘yicha obrazlarga mantiqiy fikrlab tavsif beradi; ish qog‘ozlari (ariza, ma’lumotnoma, xat, e’lon, axborot, tavsifnoma, tushuntirish xati, jadval shaklida o‘z rezyumesi) ni yozadi;
- adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat, esse va ijodiy matn (bayon, 2-2,5 sahifa) yozadi;
- sodda matnlar mazmunini tushungan holda tarjima qiladi.

Shu malaka talablarini shakllantirish bo’yicha boshlang‘ich ta’limda ona tili ta’lim mazmunining negizi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

–nutq tovushlari (unli va undosh, jarangli va jarangsiz);

–bo‘g‘in (urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlar, ochiq va yopiq bo‘g‘inlar, fonetik tahlil);

–so‘z (so‘z ma’nolari, bir va ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh so‘zlar, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar, shevaga xos so‘zlar, uyadosh so‘zlar, kasb-hunarga xos so‘zlar, lug‘aviy tahlil);

–o‘zak, negiz, qo‘shimcha, old qo‘shimcha, affiks, so‘z tarkibining tahlili, so‘z yasovchi qo‘shimcha, narsa va buyum nomi qo‘shimchasi, narsa va buyumning rang-tusini bildiruvchi so‘zlar, narsa va buyumga, uning rang-tusi va miqdoriga ishorani ifodalovchi so‘zlar, ish-harakatning nomini, tarzini, maqsad va holatini ifodalovchi so‘zlar;

–ko‘makchilar va bog‘lovchilar;

–gap (darak ma’nosini ifodalovchi so‘zlar, so’roq ma’nosini ifodalovchi gaplar, his-hayajonni ifodalovchi gaplar);

–tinish belgilari (nuqta, so‘roq, undov, vergul);

–matn (matnning tuzilishi, mavzu, asosiy fikr, sarlavha, reja, so‘zboshi, taqqoslash, dialog, monolog, bayon, kichik insho, og‘zaki va yozma ijodiyot);

–xat, xabar, tabriknoma, maqola, taklifnoma.

Ona tili o‘qitishning mazmuni va metodlari o‘quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga ko‘maklashadi.

Ona tili ta’lim mazmuni to‘rt tarkibiy qismdan iborat:

1. **O‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi**. Ona tilidan bilimlar tizimi deganda bir–biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta’riflar tizimi tushuniladi.

Ma’lumki, asrlar davomida insoniyat tomonidan to‘plangan barcha til ilmini maktab o‘quvchisiga o‘rgatishni iloji va zaruriyati yo‘q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biri sanaladi.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llana olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulotini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, ularni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta’minlaydigan bilimlarni tushunamiz.

2. **Tanlangan ilmiy – nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko‘nikma va malakalar tizimi**.

Dastur va darsliklar faqat o‘quvchilarni ona tilidan bilishlari lozim bo‘lgan til hodisalarini emas, balki ularning bajarishi lozim bo‘lgan amaliy ko‘nikma va malakalarni ham o‘z ichiga olishi kerak.

Ona tili darslarida tilning grammatik qurilishini o‘rganishga qaratiladi, ularning so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish, so‘z boyligini oshirish, fikrni bayon qilish ko‘nikmalari chetda qoladi. Shuning uchun ona tili dasturi o‘quvchilarni ko‘proq ana shu foydali amaliy ko‘nikmalar bilan

qurollantirishga yo‘naltirish maqsadida ona tiliva o’qish savodxonligi fani yuzaga keldi.

3.**O‘quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatish.** Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ijodiy darajada bo‘lishi mumkin.

Bu faoliyat o‘qituvchi tomonidan yoki darslikda berilgan namunaga qarab aynan bajarishga asoslangan faoliyatdir. Bu jarayonda o‘quvchilar izlanishga ehtiyoj sezmaydi. Shuning uchun darslikda har xil metodlardan foydalanish lozim.

Faollikni amalga oshirish uchun darsda olgan bilimlarri, olgan bilimlari asosida mashqlar ustida ishlay olishi, olgan bilimlarni hech qanday tashqi yordamsiz ijodiy qo‘llay olishlari zarur. Bolaning ijodiy faoliyatiga qanchalik ko‘p asoslansak, ta’limning samaradorlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi.

4.**O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimi**.

Bu munosabatlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka asoslangan bo‘lmog‘i lozim. Darsni mazmuni ochib berish bilan cheklanmay, uni qanday yetkazish kerakligini bilish zarur. Shundagina ta’lim mazmuni maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta’lim mazmunining yuqorida sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari bir–biriga shu darajada aloqadorki, ularning biri bo‘lmasa ikkinchisi ko‘zlagan natija bermaydi. Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilimlar tizimi bilan bog‘liq, ijodiy tajriba esa bilim, ko‘nikma, malakalar asosida yuzaga chiqadi.

Ona tili dastur va darsliklarida keltirilgan har bir mavzu yuqorida sanab o‘tilgan tarkibiy qismlarning har to‘rttalasini ham qamrab olmog‘i shart.

Ona tili darslarini o‘tishda o‘qituvchiga qo‘yilgan talablar

Ona tili darslarida o‘quvchilarga berilgan materiallarni (mavzularni) o‘rgatishda o‘qituvchining roli juda muhimdir.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf ona tili darslari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirish bilan bir qatorda, ularning aqliy favoliyatlarini rivojlantirib borishga ham

e’tibor beriladi. O‘quvchilarni o‘qish va yozish malakalarini egallaylari orqali barcha o‘quv fanlarini o‘rganish – o‘zlashtirishga yo‘l ochiladi.

Shuning uchun ham ona tili boshlang‘ich sinflarda asosiy o‘quv predmeti hisoblanadi. Ushbu fan metodikasi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qobiliyatlariga asoslanib, ularning har qaysi sinfda o‘zlashtiradigan bilimlar hajmini belgilaydi. Shuningdek, o‘qituvchi bilimlarini o‘zlashtirishda uchragan qiyinchiliklarni aniqlab, uni bartaraf etish yo‘llarini qo‘llashi lozim.

Metodika – hayot turmush tarzigni o‘zgarishlari va fan–texnika taraqqiyoti natijasida bolalarni aqliy o‘sish darajasi va psixologiyasni o‘zgarib borishida o‘z ifodasini topishi kerak. Shuning uchun ham o‘qituvchi har bir davr va zamon talablariga javob bera olishi zarur.

Buning uchun ona tilidan ta’lim-tarbiya berishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish taqozo etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim ona tili o‘qitishning maqsadi, mazmuni va tarkibiy qismlari hamda davlat ta’lim standarti ona tili darslarini o‘tishda zamon talablaridan kelib chiqqan holda o‘qituvchilar oldiga quyidagi talablarni qo‘ydi:

– dastur va darslik hamda davlat talablarini bilish;
– davlat ta’lim standartiga rioya qilish va uni bajarishini ta’minlash;
– ona tili darslarini zamon talablari darajasida tashkil etishi;
– ona tili darslarida ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi;
– darsni yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi;
– ona tili darslarida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatishi;
– darsda o‘quvchilarni tinglovchidan itshtirokchiga aylantirishi;
– ona tili darslarini samarali va qiziqarli bo‘lishi uchun interaktiv va bahs–munozara, musobaqa darslarini tashkil etishi;
– darsda ijodiy faoliyatlarni oshiruvchi usullardan foydalanish.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablarni darslarda metodik jihatdan to‘g‘ri qo‘llay olish ona tili darslarini samarali bo‘lishida yordam beradi.

Bundan tashqari o‘quvchilar bilimiga qo‘yilgan davlat ta’lim standartini bajarish uchun o‘qituvchining o‘zi shu talablarni bajara olmog‘i lozim.

Ya’ni o‘qituvchi ona tilidan tilshunoslik bo‘limiga oid fonetika, grammatika, leksikologiya hamda imlo qoidalarini yaxshi bilmog‘i lozim.

Darsni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish har bir o‘qituvchining bosh maqsadi bo‘lmog‘i lozim.

Ona tili darslarining turlari va qurilishi

Dars turlari uning didaktik maqsadiga ko‘ra belgilanadi. Bular: ***yangi materialni o‘rganish darsi, bilimni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o‘zlashtirilganini hisobga olish (tekshiruv) darsi*** va boshq. Har bir dars turi muayyan qurilishi bilan boshqasidan farqlanadi. Darsning didaktik maqsadi, turi va qurilishi o‘rtasida ma’lum bog‘lanish mavjud. Muayyan bir darsning didaktik maqsadi o‘rganiladigan mavzuga va bu darsning darslar tizimida tutgan o‘rniga qarab belgilanadi. O‘qituvchi dasturda mavzuga ajratilgan soatlar sonini va o‘rganiladigan materialning xususisiyatlarini hisobga olgan holda, dars turini tanlab, qurilishini belgilaydi.

Darsga qo‘yilgan umumdidaktik talablar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni ona tili o‘rgatishga tatbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona tili darslariga qo‘yilgan talablar quyidagicha bo‘ladi:

1. Yangi bilim berish, ularni nutq amaliyotiga tatbiq etish va o‘quvchilarni tarbiyalash - bir butun jarayondir. Darsda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g‘oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo‘lishiga, tilni o‘rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarur. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.

Ona tili darslarida o‘zbek tiliga muhabbat va so‘zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e’tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o‘rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o‘rin beriladi.

Darsda she’r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi.

Ona tili o‘qitish jarayoni o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi uchun zarur bo‘lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini ham tarbiyalaydi.

2. Darsning aniqligi va ichki mantiqiyligi, uning maqsadga yo‘naltirilganligi juda muhim. Yangi material o‘rgatiladigan darsning mazmuni va mantiqi o‘rganiladigan til hodisasi hamda uning lingvistik mohiyatining bir-biriga ta’sir qilishiga ma’lum darajada sabab bo‘ladi. O‘qituvchi bu o‘zaro bog‘lanishni bilishi va uni o‘quvchilar bilan birga topshiriqlarni bajarish davomida amalga oshirib borishi muhimdir.

Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ysa, darsning mantiqiy shartlari murakkablashtirib boriladi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o‘rganib olishlari uchun bir-ikki mashq jamoaviy ravishda bajariladi. O‘quvchilar mustaqilligi oshgach, mashq ustida mustaqil ishlaydilar. Darsda foydalaniladigan barcha o‘quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarnn bajarish uchun tanlanadigai materiallar ham) darsning maqsadiga maksimal darajada mos bo‘lishi zarur.

3. Ona tili darsi, avvalo, o‘quvchilar nutq va tafakkurini o‘stirish darsidir. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo‘lishi uchun o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o‘stirish ko‘rsatmasi grammatik materialni o‘rgatishda o‘quvchilarning tilimizdagi har bir so‘z turkumi yoki so‘z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo‘llashni talab etadi, ya’ni grammatik nazariya grammatik to‘g‘ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o‘stirishga amalda tatbiq etish uchun o‘rgatiladi. Darsda o’quvchi nutqini o‘stirish darsning mazmunida va qo‘llannilgan vazifalar turlarida o‘z aksini topadi. Grammatik, so‘z yasalishiga oid, imloviy

materiallarni o‘rganishni nutq o‘stirish bilan bog‘lash o‘quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini o‘stirish jarayoni ularning tafakkurini o‘stirish bilan bog‘liq.

Ona tili darsi o‘quvchilar taffakurini o‘stirish ustida ishlash maqsadiga yo‘naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o‘rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o‘zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o‘tkazish tushuniladi. Masalan, “Asosdosh so‘zlar” tushunchasini shakllantirish uchun so‘zlarning leksik manosi va morfemik tarkibini taqqoslashni (ularning ma’nolarida umumiylikni va ularda bir xil asosning mavjudligini) bilish lozim. O‘quvchilar tafakkurini o‘stirish uchun o‘qituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa turlarini tanlaydi, darsning materialini va uni o‘zlashtirishda o‘quvchilar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi.

O‘quvchilarga beriladigan nazariy bilim tildan ongli foydalanish imkonini beradi. Nazariyaga ahamiyat berish, elementar tarzda bo‘lsa ham, o‘quvchilarning til hodisalari o‘rtasidagi bog‘lanishni bilib olishiga e’tibor berish demakdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bunday bog‘lanishni bilsalar, ***nima uchun shunday?*** so‘rog‘iga javob topa oladilar. Masalan, “Nima uchun ***kitob*** so‘zi kelishik va egalik qo‘shimchalari bilan turlanadi, ***yozdik*** so‘zi esa shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanadi?”.

Ona tili darslarining foydali bo‘lishiga darsda og‘zaki va yozma ishlarni maqsadga muvofiq o‘tkazish, o‘quvchilarning o‘quv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, o‘z vaqtida xatolarning oldini olish va to‘g‘rilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabni ilmiy-metodik boshqarishga yo’naltirilgan pedagogik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri- darslarni tahlil qilishdir.

Maktab rahbariyatining ish ko’lami qanchalik ko’p qirrali bo’lmasin, ichki boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri – ta’lim jarayonini tashkil etish va nazorat qilishdan iborat. Shuning uchun, darslarga kirish va uni tahlil etish – ta’lim sifatini ta’minlovchi asosiy omildir.



Darslarni uch yo’nalishda tahlil etish mumkin:

- to’liq (majmuaviy);
- ayrim yo’nalishli;
- qisqa (aniq) maqsadli.

Darsning *to’liq* tahlilida: darsning maqsadi, mazmuni, tashkil etilish shakli, ularning o’zaro aloqalari, shuningdek, uning didaktik, pedagogik, psixologik, ilmiy, metodik, tashkiliy tomonlari ko’zda tutiladi.

***Ayrim yo’nalishli* tahlilda** darsning ayrim yo’nalishlari keng qamrovli va chuqur, ya’ni, darsni psixologik va metodik jihatdan tashkil etilish mexanizmlari alohida o’rganiladi. Ayrim yo’nalishli tahlilda umumiy o’rganishning ayrim qirralari, ilmiy-nazariy, metodik tomonlari chuqur tahlil etilib baholanadi. Lekin, bu holda ham darsning maqsadiga erishilganligi, o’quvchilarning qiziqishi, xohish-istaklarining hisobga olinishi, dars rejalarining to’liq bajarilishi inobatga olinadi. Darsga qo’yilgan qaysi talablar bajarildi? Qaysi tomonlari ijro etilmay qoldi? Darsda o’qituvchi nimani bera oldi? kabi savollargina emas, balki o’quvchilar mustaqil bilim olishga kirisha oldilarmi? Darsda ular o’qituvchiga hamfikr, hamkor bo’la oldilarmi? Matn ustida, darslik ustida ishlaganlarida o’quvchining yakka tartibda, juft-juft bo’lib, kichik guruhlarda ishlashiga muhit yaratildimi? Ilg’or pedagogik texnologiya, innovatsiyalardan foydalanildimi? degan savollarga ham tahlil jarayonida javob izlanishi kerak.

Dars tahlilida quyidagi psixologik holatlarga e’tibor berish zarur:

- o’quv-biluv jarayonida o’quvchilarni faollashtirish uslublarining qo’llanilishi;
- diqqat-e’tibor, his-hayajon holatlarning kechishi;
- o’quvchilarning bilim doirasini kengaytirish maqsadida, yangi tushuncha va fikrlarning qo’llanilishi;
- o’quvchining aqliy faoliyatlarini ishga sola oldimi? SHunga muhit yarata oldimi? kabi savollarga javob bor ёki yo’qligi;
- o’quvchi – o’qituvchi, o’quvchilarning o’zaro muloqotlari uchun ruhiy holat vujudga keltirilgan ёki keltirilmaganligi;
- dars jarayonida o’quvchilarni jonlantirish, undash, ma’qullash, maqtash, ma’naviy qo’llab-quvatlash, hazil-mutoyiba qilish va maslahatlar berish kabi xatti-harakatlar unumli qo’llanildimi?
- o’qituvchi “Bolalarga do’stona munosabatda bo’lish” dastur loyihasi doirasida o’quvchi bilan samimiylikni va o’zaro hurmatni joyiga qo’yishga erisha oldimi?
- dars jarayonida ijodiy muhit yaratildimi? O’quvchilar va o’qituvchi o’rtasida o’zaro tushunmovchilik sodir bo’lgan holatlarda o’qituvchi vaziyatdan chiqa oldimi?
- o’qituvchi va o’quvchi orasida bir-birini tushunishga va muomala madaniyatiga erishildimi?

Yuqoridagi psixologik holatlarni hisobga olganda darsni tahlil etishni quyidagicha olib borish maqsadga muvofiq:

1. Darsning tili, uning umum darslar tizimidagi o’rni.
2. Dars jarayonida didaktik maqsadlarning amalga oshirilishi.
3. Darsning mazmuni (darsda ilmiylik, tushunarlilik, ketma-ketlikka rioya qilinganligi).
4. Darsning uslubiy tomoni, ko’rgazmali va texnika vositalarning to’g’ri tanlanganligi.

5. Darsda o’quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlashi va ijodiy fikrlashlarining tashkil etilishi.
6. O’quv materialini o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilganlik darajasi, ularning bilim sifati va materialni tushungan holda o’zlashtirilishi.
7. Darsda o’quvchilarning iqtidorlarini shaxsiy takomillashtirishga erishilganlik darajasi.
8. O’quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalarni o’zlashtirganligi.
9. Darsda bolalarni rivojlantirish, tarbiyaviy holatlarning hal etilishi, darsni ularning dunyoqarashlariga moslash, o’rganilayotgan materialga munosabatlari, ularni tahlil qila bilishlari, sintez va umumlashtira olishlari.
10. Darsning hayot bilan bog’langanlik darajasi.
11. Darsda normal ruhiy muhitning yaratilganligi.

Dars turlari qo’yidagicha bo’lishi mumkin:

1. Yangi materiallarni o’rganish.
2. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan darslar.
3. Umumlashtirilgan darslar.
4. O’quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalarini tahlil va nazorat etish darslari.

Shuningdek, dars tahlili o’quv jarayonini bir butun yaxlit holda yoki muayyan bo’laklarga bo’lib baholash demakdir. Dars tahlili – bu tekshiruvchi, o’quv muassasasi rahbari, metodistning ijodkorligi, novatorligi bo’lib, u faqat o’qituvchi mehnati natijasini baholabgina qolmay, uni tarbiyalaydi, o’qituvchini bilim va mahoratini kengaytiradi, yangi ish shakli va metodlarni egallashga ko’maklashadi. Shu sabab, o’qituvchi darsiga kirish va tahlil qilishni maqsad qilib qo’ygan pedagog, avvalambor, dars tahliliga kirguncha, dars tahliliga kirish va uni kuzatish vaqtidagi hamda dars tugagandan keyingi harakatlarni aniq belgilab belbilab olishi kerak. Bu harakatlarni to’rt guruhga bo’lish mumkin:

1. **Dars tahliliga kirgungacha tayyorgarlik**

2. Dars tahliliga kirish va kuzatish

3. O’tkazilgan darsni tahlil etish

4. Darsni tahlil qilayotgan shaxsning etikasi va madaniyati

Dars tahliliga kirguncha tayyogarlik quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- dars o’tkazuvchi o’qituvchi faoliyati bilan tanishish;

- dars mavzusi va uning mazmuni, dars jadvali, o’quvchi guruh faoliyati bilan tanishish;

- oxirgi marotaba kimlar, nima maqsadda shu o’qituvchi darsiga kirishganini, ularning tahlili xulosalari bilan tanishish;

- so’ngra darsga kirish haqida fikr bildirish va maqsadni belgilab olish hamda o’qituvchini ogohlantirish;

Dars tahliliga kirishda:

- darsga kech qolmaslik,
- dars o’tiladigan o’quv xonasiga qo’ng’roq chalinishidan oldin kirib joylashish,
- sinf xonasi va o’quvchilar jamoasiga moslashish,
- sinf xonasining jihozlanishi va sanitariya holati,
- o’quvchilarning darsga tayyorligi,
- o’quvchilarning tashqi ko’rinishlari,
- darsning o’quv metodik ishlari va hujjatlari bilan tanishish.

O’qituvchi darsga kirganda uning qo’lida sinf jurnali, o’quv dasturi, taqvim-mavzu rejasi, darsning texnologik xaritasi bo’lishi kerak, kuzatuvchilar dars boshlangunga qadar kerakli hujjatlar bilan tanishib olishlari shart.

Dars jarayonini kuzatish davomida:

- o’qituvchining darsga kirib kelishini kuzatish,
- kerakli yozuvlar, taklif va tavsiyalarni daftarga qayd qilib borish,
- darsni to’liq kuzatish,
- dars jarayonida o’quvchilarning o’quv predmeti bo’yicha bilim, ko’nikma, malakalarini aniqlash va amaliyotda qo’llay olishlariga diqqatni qaratish,
- o’quvchilarning mustaqil faoliyatlarining tashkil etilishi,
- harakatlarining jadalligi hamda fanlararo integratsiyaning tashkil etilishi,

- sinfdagi psixologik muhit va vaziyatni boshqarish tahlil jarayonida nazardan chetda qolmasligi kerak.

Darsdan keyingi tahlil



Bu – faqatgina o’qituvchining yutuqlari, kamchiliklarini topish va uni qog’ozga tushirish emas, balki o’qituvchining pedagogik mahoratiga ijobiy ta’sir ko’rsatish va yangicha yondashuvni shakllantirishda, uning o’ziga usuli, metodlarini tanlash va qo’llay olishida hamda o’quv tarbiya jarayonini takomillashtirishda muhim vositadir. O’qituvchining darsi va uning faoliyatiga bir dars tahlili bo’yicha xulosa chiqarib bo’lmaydi. Uning faoliyatiga biror bir fikr bildirish yoki tanqidiy baho berish uchun uning turli metoddagi bir necha darsini kuzatish kerak. Darsni kuzatuvchilar, avvalo, o’zlari shu kundagi ta’lim tizimi va undagi yangicha yondashuvlar, darslarga qo’yilgan zamonaviy talablar, dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishni, didaktik va uslubiy qarashlar, pedagogik texnologiya va interfaol metodlardan xabardor bo’lishlari kerak.

Nazorat savollari

1.Til bilan tafakkur orasida qanday bog‘lanishlar bor?

2.Dunyoqarashni shakllantirishda tilning o‘rni qanday?

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘zbek tili o‘qitish jarayonida

dunyoqarash qanday shakllantiriladi?

4. Maktabda fonetika, leksika, so‘z yasalishi va grammatikani, nutq o‘stirishni bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rganishning lingvistik asoslarini izohlang.

1.7. 3-4-SINF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY ISHLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY SHAKLLARI

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni grammatikaga oid bilimlarini o‘rgatish va ularni yozma nutqlarini shakllantirishda yozma ishlar alohida o‘rin tutadi. Bolalar savodxonligini oshirishda foydali bo‘lgan mashqlardan biri – yozma ishlardir.

Uni o‘tkazishda o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish, aniqlikka e’tibor berish soddadan murakkabga qarab borish muhim ahamiyatga egadir.

Yozma ishlar quyidagi shakllarda bo‘ladi:

- mashqlar ko‘chirib yozish,
- diktant,
- bayon,
- insho.

Mashqlar o‘quvchining ona tilidan olgan bilim va malakalarini mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi.

Mashqlar bajarish natijasida o‘quvchilar:

a) olgan bilimlarini ongli o‘zlashtira boradilar,

b) bilimlarni amalda qo‘llay oladilar,

v) savodli fikrlash malakalari ham orta boradi.

Mashq bajarish jarayonida til faktlarini doimo kuzatib boradilar, taqqoslaydilar va nihoyat umumlashtiradilar.

Yozma va og‘zaki nutq madaniyatlarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Mashqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlash bilimlarini ongli o‘zlashtirish faoliyatlarini yaxshilaydi.

Ko‘p yozish natijasida o‘quvchida ayrim so‘z formalarini yoki til belgilarini to‘g‘ri qo‘llash malakalari shakllanib boradi.

Ijodiy qobiliyat rivojlanish muammosi tahlili, ko‘pincha shu tushunchaga yig‘ilib boradigan mazmun, mohiyat bilan aniqlanadi. Juda ham ko‘p hollarda ongimizda ijodiy qobiliyatlar badiiy faoliyatining har xil turlarini ya’ni chiroyli chizish, she’rlar to‘qish, musiqa yozish va hokazolar bilan uyg‘unlashadi.
Aslida, ijodiy qobiliyatning o‘zi nima?

Ijodiy qobiliyat deganda biz insonning shunday faoliyatini tushunamizki, uning samarasi o‘laroq xoh bu tashqi dunyo predmeti bo‘lsin, yoki borliq haqidagi yangilikka olib keluvchi tafakkur tuzilishi bo‘lsin, yoki butun borliqqa yangi munosabat hissi bo‘lsin ularga oid yangi bir narsa yaratiladi.

Qaysi jabhada bo‘lmasin, inson hatti-harakati va faoliyatini diqqat bilan ko‘rib chiqadigan bo’lsak, unda harakatning asosiy turini ko‘rishimiz mumkin. Insonning ba’zi harakatlarini reproduktiv va ishlab chiqilgan yoki dasturlashtirilgan deb atash mumkin. Inson hatti-harakatida reproduktiv faoliyatdan tashqari ijodiy faoliyat ham mavjudki, unda o‘tmishdagi tasavvur va harakat malakalari emas, balki yangi obraz va harakatlar paydo bo‘lishi kuzatiladi.

U. Sodiqovning fikricha, zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlash uchun faqat bilim berish bilan chegaralanmasdan, ta’lim oluvchilarga har bir masalaga ijodiy yondashishni o‘rgatish kerak. Ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularning qiziqishi, havaskorligi bilan bog‘liq.

O‘quvchilar tomonidan tayyorlagan ijodiy ishlarning ahamiyati shundaki, bu ishlar shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni to‘la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Xorijiy pedagoglar va psixologlar: D. Gilrord, Y. Torrans, L. Termen, R. Sternberg, M. Vollax, rossiyalik olimlar: V. Dashlova, P. Galperin, D.

Bogoyavlenskiy, T. Kulikova va boshqalar tomonidan ijodiy fikrlash nazariy jihatdan asoslangan bo‘lsada, bugungi kunda ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodikalarini ishlab chiqishda yo‘naltirilgan tadqiqotlar davom etmoqda. D. B. Bogoyavlenskaya fikricha, ijodiy ish - muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan faoliyatdir. Ijodiy faollik deganda hodisalar, jarayonlar, obyektlar ahamiyatini tushungan holda, qiyinchiliklarni yoki muammoni yengishga intilish tushuniladi. Ya’ni shaxsning kasbiy faoliyati bo‘yicha yangi yechimlarni izlash va topish hamda natijalaridan qoniqish tushuniladi.

Ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirish – bosqichma-bosqich hal qilinadigan muammodir. Shaxs faolligi turli, ya’ni o‘quv ilmiy ishlab chiqarish, ijodiy faoliyatlar ta’sirida shakllanadi va rivojlantiriladi.

Shunday qilib, umumiy holda ijodiy qobiliyat talqini quyidagicha ko‘rinadi. Ijodiy qobiliyatlar – bu turli ijodiy faoliyatning samarasi bajarilganligini aniqlaydigan insonning individual xarakterli xususiyatidir. Insonning har qanday faoliyatida ijodiy element mavjud bo‘lganidek, faqatgina badiiy ijodiy iqtidor haqidagina emas, balki tabiiy ilmiy iqtidor, texnik ijodiy iqtidor va boshqalar haqida ham ma’lumot berib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni aniqlash uchun bolani har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxs qilib tarbiyalash zarur. Bu o‘qituvchidan haqiqiy pedagogik odob va mahorat, shaxsiy ijtimoiy sifatlar talab qilinadi. Ana shu sifatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchigina o‘quvchiga qanday muomalada bo‘lishni, o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimni tadbiq etishning turli usullarini yaxshi biladi, odob-axloq qoidalarini, shaxsiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni to‘g‘ri singdira oladi.

Barchaga ayonki, kerakli bilimni o‘z vaqtida o‘zlashtirgan, odobli va tarbiyali, shaxsiy, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni to‘g‘ri anglay olgan, ma’naviy dunyosi sog‘lom o‘quvchigina komil inson bo‘la oladi. Hozirgi zamon o‘qituvchisining asosiy fazilatlari esa o‘z kasbiga sadoqatliligi, e’tiqodliligi, kasbini va bolalarni aziz ko‘rishidir. Maktabda ta’lim-tarbiya

ishining yuqori saviyada olib borilishi asosan o‘qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liqdir.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qitayotgan fanlar tizimini chuqur bilishi, uning metodikasini yaxshi o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur. Fan nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi bolalarni shu fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, o‘qituvchi obro‘sini ko‘taradi.

Bolaning qobiliyati, iqtidori quyidagi mezonlar orqali aniqlanadi:

- bilish imkoniyatining yuqoriligi;
- yuqori darajadagi ruhiy rivojlanish;
- yuqori darajadagi jismoniy ko‘rsatkichlar;
- kitobxonlik darajasining yuqoriligi.

Yuqoridagi mezonlardan ko‘rinib turibdiki, iqtidorli bolalar o’z tengdoshlaridan bilish darajasining, psixologik va jismoniy ko‘rsatkichlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Keng aqliy yoki jismoniy imkoniyatlarga ega bo‘lgan o’quvchi, shubhasiz, o‘zining mukammaligiga erishish uchun boshqa bolalarga nisbatan chuqurroq ta’lim olishi, ko‘proq o‘rganishi kerak bo‘ladi. Buning uchun esa sinf rahbaridan, fan o‘qituvchilaridan ta’lim va tarbiya berishda yuksak pedagogik qobiliyat talab etiladi. Iqtidorli bolalarga boshqa bolalarga nisbatan ko‘proq bilimlar, kengroq ma’lumotlar, alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi. Shundagina iqtidorli o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlari yuqori saviyaga ko‘tariladi. Iqtidorli bolalarga beriladigan ta’lim tizimi, avvalambor, ularning aqlan yetuk, ilmiy bilimdon, ma’naviy barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlariga xizmat qilishi kerak.

Bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasalarida o‘z ustida ishlaydigan, kasbiga mehr qo‘ygan, ijodkor pedagoglarni ko‘proq bo‘lishini taqazo etadi. Ijodiy qobilyat o‘quvchilar bilan ishlashda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchining qobiliyatini yanada o‘stirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday ta’limiy o‘yinlarga “Aqliy hujum”, “Debatlar”, “Bumerang”, “Charxpalak” o‘yinlarini misol qilish mumkin. “Aqliy hujum” o‘yini

o‘quvchilarning aqlini charxlab, kengroq fikrlashlariga yordam bersa, “Debatlar” o‘yini raqobatlashish qonuniyatlarini o‘rgatadi.

Maktablarning moddiy bazasini keng rivojlantirish, darsliklar, ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari muntazam takomillashtirilib borish, shuningdek, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, mahorati va bilimdonligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni darslarda qo‘llay olishi ham juda muhimdir. U o‘quvchiga puxta bilim berishi, erkin, ijodiy fikrlash ko‘nikma, malakalarini hosil qila olishi ham zarur.

Takomillashtirilgan standartlar, yangi o‘quv dasturlari boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchini erkin fikr yuritish orqali muloqotga kirisha olish, qobiliyatini shakllantirishga, so‘z boyliklarini oshirishga, o‘qish texnikasini yaxshi egallashga, chiroyli va savodli yozish ko‘nikmasini hosil qilishga, nutq madaniyatini yuksaltirishga e’tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Shu bois ham ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish, liberalizatsiya qilish (erkinlashtirish) demokratizatsiyalashtirish, bolaga samimiy va do‘stona munosabatda bo‘lish, bu jarayonni hamkorlik va hamijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda.

Qisqa qilib aytganda, o‘quv jarayoni markazida o‘quvchi shaxsi va qadri, ma’naviyati turmog‘i lozim. O‘quv jarayoni o‘quvchi shaxsi, uning ma’naviyatiga

qaratilgan va yo‘naltirilgan bo‘lishi talab etiladi. Shuni e’tiborda tutish kerakki, shaxsga qaratilgan ta’lim o‘quvchining o‘quv-biluv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, uning qiziqish, xohish, talab-istaklarini ro‘yobga chiqaruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi.



O‘quvchi shaxsiga qaratilgan ta’lim, o‘quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta’minlash, qiziqish (motivatsiya)lari asosida ish yuritish, ichki

imkoniyatlarini ishga solish, o‘z qiziqishlari orqali qo‘shimcha ta’lim olishga yo‘llash, o‘z-o‘zini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Interfaollik — o‘zaro ikki kishining faolligi, ya’ni, bunda o‘quv-biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida, dialog shaklda (kompyuter aloqasi) yoki o‘qituvchi-o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari asosida kechadi.

Interfaollik — o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi-o‘qituvchi, o‘quvchi-o‘quvchi (sub’yekt-sub’yekt) suhbatlarida sodir bo‘ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o‘q jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o‘quvchi chetda qolmay, eshitgan, o‘qigan, ko‘rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Didaktik o‘yinli metodlar o‘quvchi ijodkorligini oshirish, ularni faollashtirish asoslangan. Ular o‘quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu metod o‘quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o‘ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi.

Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayot muammolarining yechimiga qiziqish ortadi, turli uchragan qiyinchilik, to‘siqlarni, qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularni turli yo‘nalishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko‘rsatadigan, didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o‘yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchaniik va boshqa yo‘nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o‘quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida

ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rgatish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Barcha o‘yin turlarini tasniflaydigan bo’lsak, ular funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ajratiladi.



Didaktik o‘yin turlarini tanlashda, quydagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi:

- ishtirokchilarning tarkibi bo‘yicha, ya’ni o‘g‘il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o‘yinlar;
- ishtirokchilarning soni bo‘yicha: yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o‘yinlar;
- o‘yin jarayoni bo‘yicha — fikrlash, o‘ylash, topag‘onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan o‘yinlar;
- vaqt me’yori bo‘yicha — dars, mashg‘ulot vaqtining reja bo‘yicha ajratilgan qismi,
- o‘yin maqsadiga erishguncha, ya’ni g‘oliblar aniqlangunicha davom etadigan o‘yinlar.

Ta’limiy o’yinlarning boshqa o’yin turlaridan farqi shundaki, bola bu jarayonda ishtirok etish orqali bilim oladi, egallagan ko’nikma va malakalarini kengaytiradi. Ona tiliga oid o’yin-topshiriqlar ham boshqa fanlardan tashkil etiladigan ta’limiy o’yinlar singari, avvalo, muayyan maqsadga qaratilgan vazifani bajaradi. Bu vazifalar o’quvchini bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Shunday ekan, demak, o’qituvchi o’quvchilarni belgilangan vazifani bajarshiga undaydi, yo’naltiradi. Bu jarayon o’quvchidan oldin egallagan

bilimlarii xotirada tiklashni, zaruriyat tug’ilganda uni yangi sharoitda qo’llay olishni, o’zida mavjud bo’lgan barcha imkoniyatlarni ishga solishni talab etadi.

Ta’limiy o’yinlarda harakat usuli ham muhim ahamiyat kasb etadi. O’yin harakati o’quvchilarning diqqatini o’ziga tortishi bilan birga, ularning faoliyatini tezkor namoyish etishga ham undamogi darqor. Chunki bellashayotgan o’quvchilar yoki muayyan guruhlardan tezkorlik, sezgirlik, chaqqonlik talab etiladi. Shuni unutmaslik lozimki, faqat harakat usulidan xabardor o’quvchigina o’yin shartini bajarish yo’lini topadi.

Ta’limiy o’yinlar hamma vaqt belgilangan qoidaga bo’ysunadi. Shubhasiz, bu qoidalar o’yin topshiriqning shartida o’z ifodasini topadi. O’yin qoidasiga qat’iy amal qilish uni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy shartidir.

Dars jarayonida tashkil etiladigan ta’limiy o’yinlarning asosiy maqsadi o’quvchilarni zerikish va toliqishdan saqlashdir. Shuni yodda tutmoq lozimki, o’yin orqali singdirilgan bilim o’quvchi xotirasiga mustahkam o’rnashib qoladi va bu bilimlarni u har qanday tanish va notanish sharoitda o’quvchi bunday topshiriqni bajara olmaydi.

Ona tili fanidan o’yin-topshiriqlarni tuzishga qo’yiladigan yana bir muhim talab uning tarbiyaviy, didaktik, psixologik va gigienik tomonlariga e’tiborni kuchaytirishdir. Bu guruhlar bir-biri bilan uzviy bog’liq, bo’lib, ularning birini ikkinchisizsiz tasavvur etib bo’lmaydi.

Tarbiyaviy talab tanlanadigan so’z, so’z birikmasi, gap va matnlarning muayyan tarbiyaviy maqsadga bo’ysundirilganligida namoyon bo’lsa, **didaktik talab** topshiriq shartining to’g’ri shakllantirilganligi, ularning o’zaro bir-birini to’ldirishi, o’quvchilarning bilim saviyasiga muvofiqligi kabilarda o’z aksini topali.

Psixologik talab o’yin-topshiriqlarning, avvalo, bolalarning yosh va shahsiy xususiyatlariga mos tushishi, o’yin-topshiriqlarning o’quvchida sezgi, diqqat, iroda, idrok, xotira, tafakkur kabi ruhiy xususiyatlarning rivojlanishiga ta’sirida yuzaga chiqadi.

Gigienik talab shundan iboratki, o’yin-topshiriq o’quvchilarni toliqtirmasligi, zeriktirmasligi, jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir etmasligi va zo’riqtirmasligi kerak.

Ta’limiy o’yinlarga qo’yiladigan yana bir muhim talab - o’quvchilarni o’yin qoidasiga rioya qilishga o’rgatishdir. Ma’lumki, o’yin muaayyan qoida asosida o’tkaziladi. Bu qoida bolaning o’qishda o’zini qanday tutishi, nimani qanday bajarish lozimligini ko’rsatadi. Shuning uchun o’yin qoidasi ta’limiy o’yinda o’yinni tashkil qilish tartibidan iborat bo’lib, belgilangan qoidaga qat’iy rioya qilish orqaligina maqsadga erishiladi. Shunday ekan, ta’limiy o’yinni o’tkazishdan oldin o’quvchilarga o’yinni o’tkazish qoidasi, o’yin mazmuni, uning natijasi nimadan iborat ekanligi o’qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O’yin qoidasini tushunish o’quvchilarning o’z faoliyatlarini ma’lum tartibga solishlariga, asosiy e’tiborni ko’zlangan maqsadga bo’ysundirishlariga, diqqat, iroda va fikrni aniq nuqtaga qaratishga yordam beradi. O’yin qoidasiga rioya qilish natijasida o’quvchilar darsda o’zini tuta bilishga, noo’rin gapirmaslikka va eng muhimi, o’z faoliyatlarini o’zlari boshqarishga o’rganadilar.



O’yinda ma’lum natijaga erishish o’yin qoidasiga rioya qilish, belgilangan vazifani bajarish orqali amalga oshiriladi. O’yin shunday yakunlanmog’i lozimki, bolalar undan ma’naviy ozuqa olsinlar, puxta bilimga

ega bo’lsinlar, mashg’ulot ular uchun zavqli jarayonga aylansin. O’yin oxirida har bir bola o’zini xursand his qilsin, ehtiyoji qondirilganiga qanoat hosil qilsin. Shubhasiz, o’yin oxirida qoidaga qat’iy amal qilib, topshiriqni namunali bajargan va ko’zlangan maqsadga erisha olgan o’quvchilar rag’batlantiriladi. Bu esa navbatdagi ta’limiy o’yinni o’tqazish uchun zamin tayyorlaydi.

O’yin-topshiriqlarga qo’yiladigan yana bir muhim talab o’quvchilar oldiga qo’yiladigan vazifaning asta-sekinlik bilan murakkablashtirilib borilishidir. Topshiriq shartini murakkablashtirish bolaning hayot tajribasiga, uning oldin egallangan bilim, ko’nikma va malakalariga asoslanib amalga oshiriladi. Misol tariqasida so’z o’yinlari turkumiga kiruvchi “Perefraza”, ya’ni “So’zni almashtirish” o’yiniga e’tibor qaratamiz. Bu o’yinda dastlab o’quvchiga, qandaydir so’zning ma’nolarini topish, keyinchalik, ulardan gap tuzishda foydalanish vazifasi beriladi. **Masalan:**

1.“Chiroyli”, “tabiat”… kabi so’zlar va bu so’zlarning ma’nosini topish vazifasi beriladi.

Chiroyli-go’zal-maftunkor-betakror-bejirim-nafis-zebo-xushsurat….

Tabiat-atrof-olam-borliq…

2.Shu so’zlar yordamida gap tuziladi:

Bugun tabiat behad chiroyli.

3.Gapdagi so’zlar o’z ma’nodoshi bilan almashtirilib, yangi gap tuziladi:

- **Hozir atrof rosa maftunkor.**
- **Ayni damda olam juda betakror.**
- **Shu paytda borliq o’ta go’zal.**

4.Matn beriladi va matn ichidan so’zlar o’z ma’nodoshlari bilan almashtiriladi.

Bunday mashg’ulotlar asosida tashkil etiladigan o’yin-topshiriqlar ham, birinchidan, o’quvchilarning so’z boyligini oshirish, so’zlardan nutqda to’g’ri va o’rinli foydalanish, ko’rgan, eshitgan, kuzatgan, bilgan narsalarni og’zaki va yozma shakllarda ixcham, to’g’ri va ravon ifodalay olish, nutqda o’zbek adabiy tilining boy ifoda vositalarini ishga sola bilishga hizmat qilmog’i lozim.

Modomiki, shunday ekan, ona tilidan tashkil etiladigan ta’limiy o’yinlarning o’ziga xos xususiyati lisoniy vazifa bilan nutqiy vazifaning o’zaro uyg’unligidadir. Lisoniy vazifa til hodisalarini kuzatish, ularni o’zaro taqqoslab o’xshash va farqli tomonlarni aniqlash, umumlashtirishlar asosida qoida va ta’riflar chiqarish kabilarda namoyon bo’lsa, nutqiy vazifa so’zning ma’nosini sharhlash, nutqiy sharoitda uning o’z va ko’chma ma’noda qo’llanganligini aniqlash, ma’lum bir so’z o’rnida Shu ma’noni ifodalovchi boshqa so’zni qo’llash, yoki matnning mazmunini **saqlagan** holda shaklini o’zgartirish kabilarda namoyon bo’ladi. Darsda qo’llaniladigan o’yin-topshiriqlardan biri lisoniy malakalarni shakllantirishga qaratilsa, keyingisi nutqiy vazifani ko’zlaydi.

Ularning o’zaro uyg’unligi til hodisalarining mohiyatini anglab, uni amaliy ko’nikma va malakaga aylantirishga keng yo’l ochadi. Ba’zan bir topshiriq shartida ham lisoniy, ham nutqiy vazifa qo’yilishi mumkin. Masalan, berilgan so’zlar sirasini davom ettirish bu so’zlar orasidagi o’xshash tomonlarini aniqlash hamda hosil bo’lgan so’zlarga ma’nodoshlar topish, shu so’zlarni qatnashtirib gaplar tuzish kabilar lisoniy vazifa bilan nutqiy vazifaning bir yaxlitlik hosil qilishi namunasidir. O’yin-topshiriq shartida avval nutqiy vazifa, keyin lisoniy vazifa qo’yilishi mumkin. Bunday hollarda qoida, xulosa va ta’riflar bajarilgan nutqiy vazifalar asosida yuzaga chiqadi. O’quvchi nutq birliklarini tahlil qilish asosida til birliklari xususida umumiy xulosaga keladi. Hozirgi zamon til ta’limi ko’proq ana shu usulning samarali ekanligini ko’rsatadi.

Ta’lim jarayonining samaradorligi bu jarayonga qo’yiladigan talabga og’ishmay amal qilish bilan belgilanadi. Ona tilidan uyushtiriladigan ta’limiy o’yinlarning samaradorligi ham bevosita unga qo’yiladigan qat’iy talablarga bog’liq. Tildan tashkil etiladigan o’yinlarga qo’yilgan eng asosiy talablardan biri o’yin-topshiriqlar shartining tushunarliligi va ilmiyliligidir. Ilmiylik va tushunarlilik ta’limning bir-biri bilan chambarchas bog’langan

prinsiplaridandir. Agar o’yin-toshiiriq ilmiy bo’lsa-yu, tushunarlilikka qat’iy amal qilinmasa, uning samarasi aniq va ijobiy bo’lmaydi.

Adabiy talaffuz me’yorlarini shakllantirishga oid o’yinlar esa deyarli barcha ona tili mashg’ulotlarida tashkil etilishi mumkin. Chunki talaffuz me’yorlari ona tilidan o’rganiladigan mavzular bilan aloqador bo’lib, o’quvchilar to’g’ri talaffuz qoidalariga, ifodali o’qish yoki so’zlashishda aniqlik darajasiga to’la rioya qilishga o’rganadilar.

Og’zaki va yozma nutq malakalari ustida ishlash mazmunini ko’proq so’z zahirasi ustida ishlash, so’zdan nutqiy faoliyatda to’g’ri va o’rinli foydalanish, matn mazmunini saqdagan holda shaklini o’zgartirish, she’riy asarlarning mazmunini nasriy yo’l bilan bayon qilish, voqea-hodisani oddiy, badiiy va ilmiy uslublarda bayon qilish, boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish, berilgan matnni kengaytirish va qisqartirish kabi mashqlar tashkil etadi.

Xullas, ona tilidan o’yin-topshiriqlarni tuzishda "til-me’yor-nutq mutanosibligi" prinsipiga qat’iy amal qilinsa, mashg’ulotlarning samaradorlik darajasi ancha yuqori bo’ladi.

Ta’limiy o’yinlarni tanlashda har bir sinfning o’quv imkoniyati, o’quvchilarning o’ziga xos xususiyatlari, o’rgatilayotgan til hodisasining maqsadi kabilar hisobga olinadi.

Shunday qilib, ona tilidan tashkil etiladigan ta’limiy o’yinlar mazmuni o’z ichiga, asosan, to’rt omilni qamrab oladi:

1) o’yinning vazifasi;

2) o’yinning harakati;

3) o’yinning qoidasi;

4) o’yinning yakuni.

Ona tilidan o’quvchilarga beriladigan o’yin-toshpiriqlarni murakkablik darajasiga ko’ra, asosan, uch turga ajratish mumkin:

1) **qayta xotirlashga asoslangan o’yin-topshiriqlar;**
2) **qisman izlanishga oid o’yin-topshiriqlar;**
3) **ijodiy o’yin-topshiriqlar.**

Qayta xotiralashga asoslangan o’yin-topshiriqlar o’quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo’llashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi. Bunday o’yin-topshiriqlarni bajarish o’quvchiga katta murakkablik ham tug’dirmaydi. Oldin o’rganilgan mavzular va bo’limlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo’lgan o’quvchi bunday topshiriqlarni bemalol bajarishi mumkin. Chunonchi, fonetika bo’limidan unli va undosh tovushlar o’rganilgach, muayyan bir tovush juftlari bilan farqlanuvchi (masalan, i — u, *o — a, u — o’, i* — e va h.q.) tovushdosh so’zlar hosil qilish yuzasidan musobaqa tashkil etilishi mumkin. O’quvchilar oldingi mashg’ulotda shu tovush juftlari asosida so’zlar hosil qilganligi tufayli bunday o’yin-topshiriqni qiynalmay bajara oladilar.

Qisman izlanishga oid o’yin-topshiriqlar o’quvchidan ma’lum bir yordamga asoslangan holda ijodiy faoliyat ko’rsatishni talab etadi. Ta’limiy o’yinning qisman izlanishli bo’lishi o’quvchilarning bilim saviyasiga bog’liq. Agar o’quvchi oldin egallangan bilimlarni yangi sharoitda, tom ma’noda notanish sharoitda qo’llashda o’zida ishonch sezsa va uni bemalol uddalay olsa, topshiriqning qisman ijodiyligiga ehtiyoj qolmaydi. Topshiriq shartini bajarish uchun o’quvchi tashqaridan (masalan, sinfdoshlaridan, o’qituvchisidan, darslik va o’quv qo’llanmasidan, lug’atlardan, ma’lumotnomalardan va h.q.) foydalansa, o’z-o’zidan ravshanki, topshiriq qisman izlanishli bo’lib qoladi. Buning uchun o’qituvchi sinf o’quvchilarining o’quv imkoniyatlarini aniq bilishi va topshiriq shartini bajarish uchun ularga qanday yordam zarurligini belgilay olishi kerak.



Ijodiy o’yin-topshiriqlar oldin egallangan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo’llash demakdir. Shubhasiz, bu jarayon o’quvchidan ijodiylikni, izlanuvchanlikni talab etadi. O’yin-topshiriqni bajarishda o’quvchi faqat o’zida mavjud ichki imkoniyatlarga tayanadi.

O’yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash nafaqat darsning tipiga, balki sinf o’quvchilarining o’yin-topshiriqlarni bajarishga o’rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o’rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganligi kabilarga ham bog’liq.

Ona tilidan tashkil etiladigan o’yin-topshiriqlarning asosiy qismini o’quvchilarning so’z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirishga qaratilgan o’yinlar tashkil etadi.

Shunday qilib, ona tili mashg’ulotlarida o’yin-topshiriqlarning imkoniyatlari benihoya keng. O’yin, eng avvalo, o’quvchini faollashtiradi va tezkorlikka o’rgatadi. Shuning uchun ham yunon faylasufi Platon fanlarni o’yinlar yordamida o’rganishni tavsiya etib, "Odamlarga fanlarni zo’rlab emas, balki o’yinlar orqali o’qit, ana shunda kimning nimaga moyilligini aniq ko’rasan",—deb yozgandi.

3-4-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi interfaol metodlar

Rezyume usuli

Rezyume – so‘zi “qisqa xulosa” degan ma’noni bildiradi. Bu texnologiya ko‘p tarmoqli bo‘lib, mumkin qadar muammoli mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu texnologiya mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beradi, har bir alohida nuqtalarda muhokama etiladi. Bu texnologiya mashg‘ulotning boshida, oxirida qo‘llanilishi mumkin.

Maqsadi: Bu texnologiya tahliliy – tanqidiy, aniq mantiqiy fikrlashni riojlanishi hamda o‘z g‘oyalarini, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa: Bu texnologiya tarbiyaviy xarakterga ham ega bo‘lib, bir – birini hurmat qilish, bir – birini fikrini inobatga olish, to’g’ri qaror qabul qilish, ijtimoiy yondashish, faollik va muammoga diqqatini jamlashni talab etadi.

FSMU texnologiyasi

F – Fikrlaringizni bayon eting.

S – Fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating.

M – Ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

U – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etish hamda o‘quv jarayonini bahs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi. Chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini isbotlashga, ochiq holda bahslashishiga, shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Maqsadi: Ushbu texnologiyada o’quvchilar tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

O‘tkazilish tartibi:

1. Har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi.

F – **Fikr**laringizni bayon eting.

S – Fikringiz bayoniga biron **sabab** ko‘rsating.

M – Ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi **misol** keltiring.

U – Fikringizni **umumlashtiring**.

2. Ishtirokchilar bilan, bahs mavzusi yoki muammo belgilab olinadi.

3. Kichik guruhlarga bo‘lib, ularga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlar tarqatiladi.

4. Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlari taklif etiladi.

5. Kichik guruhlarning yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilishlari so‘raladi.

6. O‘qituvchi tomonidan muammo bo‘yicha fikrlar umumlashtiriladi.

FSMU texnologiyasi o’quvchida muammo yuzasidan o’z fikrlarini bayon etish, ushbu fikri bayoniga biron sabab ko‘rsatish, ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltirish va fikrini umumlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Hikoya

O’qituvchi xattaxtaga bir nechta so’z yozib qo’yadi. **Masalan**: **quyosh, bulut, yomg’ir, shamol**… kabi. O’quvchilar mustaqil ravishda shu so’zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. Bunda ularning lug’at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to’g’ri tuzish, tovushlarni to’g’ri tallaffuz qilish, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. O’qituvchi faol ishtirokchilarni vaqti-vaqti bilan rag’batlantirib borishi o’quvchilarning o’ziga bo’lgan ishonchini orttiradi va bundanda faol bo’lishiga undaydi. Mazkur o’yinlardan nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari mashg’ulotlarda, to’garaklarda, o’quvchilarning mustaqil faoliyatlari va uy vazifalarida ham bemalol foydalanish mumkin.

“Qarama-qarshi so’zlar”



Bu o’yin mantiqiy tafakkuming hamda nutqnining rivojlanishiga yordam beradi. O’yinni individual tarzda ham, guruh bilan ham o’tkazish mumkin. **O’yin sharti quydagicha**: o’qituvchi o’quvchiga bir so’zni aytadi, o’quvchi shu so’zning ma’nosiga qarama - qarshi bo’lgan so’zni topib aytishi kerak.

Masalan: katta - kichik, **issiq** – sovuq, **achiq** – shirin, **qorong'u** – yorug', **keng**-tor, **uzoq**-yaqin, **baland**-past, **och**-to'q… va hokazo.



Odatda ba'zi bolalar o'yin boshida biroz qiynalshadi, aytilgan so'zga javoban antonim so'zni emas, sinonim so'z bilan javob beradi, masalan: katta – baland, uzun - uzoq kabi. Ammo o'yinning mohiyatini tushunib olganlaridan so'ng o'quvchilar yaxshi o'ynaydilar. O'yin bir necha marta o'tkazilganidan so'ng o'quvchilar abstrakt tushunchalami ham osonlik bilan tushunadilar, qiyin savollarga ham oson javob beradilar, shunda o'quvchilarning nutqi ham rivojlana boradi.

Masalan: chaqqon - yalqov, **ishchan** – dangasa, **shirin**-achchiq, **oq**-qora, **osmon**-yer… kabi so'zlarga ham tez javob topa oladilar.

"Ortiqcha"



Bu o'yin rasmlar yordamida va rasmlarsiz o'ynaladi. O'quvchiga bir guruhga kiruvchi uchta predmet rasmi yoki nomi va boshqa guruhga mansub bitta predmet rasmi beriladi yoki nomi aytiladi.

Masalan: dala, bog’, adir, osmon. O’quvchi bir turkumga mansub so’zlarni o’qiydi yoki rasmga qarab nomini aytadi, ular orasidan ortiqchasini topib, uning nomini aytmasdan, “ortiqcha” degan so’zni aytadi. Oquvchidan o’z fikrini asoslab berishi so’raladi. Bu o’yinlar o’quvchilarning tafakkuri rivojlanishiga yordam berishi bilan birga ularda nutqning o’sishiga ham yordam beradi.

O’yin individual tarzda o’tkazilsa ham, guruhda musobaqa ko’rinishida o’tkazilsa ham o’quvchilarning qiziqishi ortadi.

“O’zaro bog’liqlik”



O’quvchilarga rasmli kartochkalar tarqatiladi. Masalan: daraxt, bola, uy… O’quvchilar kartochkalardagi rasmlar bilan tanishib chiqqach, rasmdagi predmet haqida gapirib beradi.

Masalan: 1-o’quvchi: “Bu daraxt. Daraxt bog’da o’sadi va meva beradi. Uning juda ko’p turlari bor. Daraxtlar nafaqat mevali, balki manzarali ham bo’ladi”. Navbat ikkinchi o’quvchiga beriladi. U ham o’zidagi predmet haqida gapiradi va o’zidagi predmet bilan birinchi o’quvchidagi predmetni o’zaro bog’liqligini aytishi kerak. “Bolalar daraxtlardagi mevalarni yaxshi ko’radilar. Sog’lom bo’lish uchun mevalardan juda ko’p iste’mol qiladilar. O’yinqaroq bolalar daraxtlarning ustiga chiqadilar. Manzarali daraxtlardan qurilish materiallari olinadi”. 3-o’quvchi: “Uylar kishilarning yashash manzillaridir. Kishilar uy qurishda yog’ochdan foydalanishadi. Yog’och asosan mevali va manzarali daraxtlardan olinadi. Bunday daraxtlarga terak, chinor, gujum, yong’oq, tut… kiradi. ”

Har bir o’quvchi o’zidagi predmet haqida gapiradi va ikkinchi boladagi predmet bilan o’zidagi predmet orasidagi bog’liqlikni topishi kerak. O’yin shu tartibda davom etadi.

“Qanday ishlatiladi”

O’quvchilarga imkon qadar ko’p hollarda ishlatilishi mumkin bo’lgan narsa yoki predmet nomi aytiladi. Har bir o’quvchi predmetga nisbatan o’z fikrini aytadi. Masalan: O’qituvchi “qalam” so’zini aytadi. O’quvchi tez o’z javobini aytadi. (rasm chizish, yozish, xatcho’p, ko'rsatkich) O’qituvchi boshqa o’quvchiga ham “qalam” so’zini takroran aytsa, boshqa o’quvchi yangi so’zni aytishi kerak.

“Qanday bog’lanadi?”



O’quvchilar aylana shaklida o’tiradilar. Olib boruvchi o’quvchilardan biriga to’pni otayotib, bir-biri bilan bog’lanmagan 2 ta so’zni aytadi. Masalan: daraxt va barg, ona va bola, maktab va o’quvchi, kitob va javon, quyosh va gul, yomg’ira va kamalak va hokazo. To’pni tutib olgan o’quvchi so’z juftligi orasidan umumiy belgini aytib to’pni qaytaradi. Masalan: daraxt va barg-daraxt bargsiz o’smaydi, ona va bola-oila a’zolari, maktab va o’quvchi-maktabda o’quvchilar o’qiydilar, kitob va javon-kitoblar javonda saqlanadi… O’yin orqali o’quvchida bog’lanishli nutq rivojlanadi.

“Sayohat”



O’quvchilarga maktabdan yoki uylaridan ma'lum bir joygacha bo’lgan yo’lini tasvirlash topshirig'i beriladi. O’quvchilar bir necha kun davomida “obyekt”ni mustaqil kuzatadilar va uni og’zaki tasvirlab beradilar. Ma’lum mavzu ham tanlanishi mumkin. “Uydan maktabgacha”, “Ertakdagi sarguzasht”, “Kutubxona”, “Kitob do’koni”, “Maktab hovlisi”, “Sport maydonchasi”…. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof - muhitga diqqat - e’tibor talab etiladigan bu o’yin vositasida Vatanni sevish, tabiatga muhabbat, yon atrofga e’tiborli bo’lish hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, mazkur o’yinlardan foydalanganda o’quvchilarning nutqi rivojlanad, lug'at boyligi yanada ortadi, mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi.

“So’z va hodisalarni eslash” ta'limiy o’yini



1.Sinf o’quvchilari kichik guruhchalarga birlashtiriladi va har bir guruh bittadan so’z tanlaydi.

Masalan: Dovuchcha, danak, do’mbira, doira, dolana, paxta, piyola, parta, pomidor kabi so’zlar

2. O’quvchilar kartochkani tanlaydilar. Daraxt, paxta so’zlarining birinchi bo’g’ini (da-), (pax-)ga bo’g’in qo’shib, yangi so’z hosil qilish vazifasi beriladi. Masalan: **da-** da-la, da-da, da-ra, da-nak, Da-mir, Da-min…; Pax-ta, pax-moq, pax-la-von…

3. Berilgan so’zlarga ohangdosh so’zlar topish: paxta, taxta, shaxta, vaxta…

4. Berilgan so’zlar bilan bog’liq bo’lgan barcha so’zlarni eslash: paxta, momiq, chigit, g’o’za, ko’sak; Daraxt, barg, gul, meva, danak, kurtak, tomir, ildiz…

5. Berilgan so’zlar ichidan birini tanlash: paxta, xat, daraxt, xatar

6. Berilgan so’zlar bilan bog’liq birorta hodisani eslash, hikoya, ertak, sarguzasht yozishga harakat qilish vazifasi beriladi.

“Xotirada saqlash” o’yin-mashqi

6 ta o’quvchi aylana bo’lib joylashadilar. 1-o’quvchi 1 ta ona tili yoki o’qishga doir so’z aytadi., 2-o’quvchi 1-o’quvchi aytgan so’zni takrorlaydi va o’zi ham 1 ta so’z aytadi. 3-o’quvchi 1 va 2-o’quvchi aytgan so’zlarni takrorlaydi va o’zi ham 1 ta qo’shadi. O’yin shunday davom etadi. Agar o’yinda biror so’zni aytolmay qolgan o’quvchi o’yindan chiqishi lozim. O’yin

tugagandan so’ng bolalardan o’yinda o’zini qanday his etganligi so’raladi. Masalan:

1)- *o’qituvchi*

2)- o’qituvchi, muallim

3)- o’qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi

4)- o’qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, murabbiy

5) - o’qituvchi, muallim, ustoz, tarbiyachi, murabbiy, trener

“Meni tushun”



O’yinda 2 o’quvchi taklif etiladi. Birtasi ikkinchisiga qarab biror narsani tasvirlab beradi. 2 - o’quvchi buni nimaligini topadi. Agar topolmasa sinfda o’tirgan qolgan o’quvchilardan so’raladi. Keyin 2 chi o’quvchiga navbat beriladi. Ikkinchi o’quvchi birinchi o’quvchiga boshqa biror narsani tasvirlab beradi. Birinchi o’quvchi qanday narsa ekanligini aytishi lozim. Masalan: Quyosh charaqlab turibdi. Yomg’ir yog’a boshladi. Osmonda ranglar hosil bo’ldi.

Javob: Kamalak

b) O’yinda topishmoq sifatida yoki she’riy misralar bilan biror tushuncha ta’riflanadi. Bolalar nima haqida gap borganiga qarab, nomini topadi.

Masalan: Suyamasang turolmas,

Sen minmasang yurolmas.

Javob: Velosiped

Yuqorida keltirilgan ta’limiy o’yinlar o’quvchilarning darsda faolligini oshirish bilan birga bilimlarni o’zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o’stirishga yo’naltitirilgan har bir mashg’ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undovchi qanday usullarni bilasiz?
2. Boshlang‘ich sinf darslarida muammoli savollar qanday tuziladi?
3. FSMU texnologiyasi qanday strategiyaga asoslanadi?
4. Imitatsion o’yinlarga misol keltiring

II BOB. BOSHLANG’ICH SINFLARDA O‘QISH METODIKASI

2.1. PIRLS – XALQARO BAHOLASH DASTURI VA UNI O‘TKAZISHNING TASHKILIY MASALALARI



Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo’lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo’lmish yoshlarni ijodiy g’oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning bilim,

ko’nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg’or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo’lda xalqaro tajribalarni o’rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo’nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi: PIRLS – boshlang’ich 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajasini baholash; TIMSS – 4- va 8-sinf o’quvchilarining tabiiy-ilmiy yo’nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash; TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’qitish va ta’lim olish muhitini hamda o’qituvchilarning ish sharoitlarini o’rganish; PISA – 15 yoshli o’quvchilarning o’qish, matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. Ushbu loyihalar o’quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko’nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo’llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko’nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. Hozirgi kunga qadar Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi o’rtasida imzolangan kelishuvlarga muvofiq 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro dasturlarida ishtirok etish rejalashtirilgan. Mazkur tadqiqotlar doirasida O’zbekiston Respublikasi o’quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko’rilar ekan, bunga o’ta mas’uliyat bilan tayyorgarlik ko’rish talab etiladi. Buning uchun, xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba

sinovlar o’tkazish, o’quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o’quvchilarda maxsus ko’nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, ongli o‘qish yaxshi o‘qish malakalarining asosiysi hisoblanadi, chunki o‘quvchi tez sur’atda qisqa vaqt davomida matnni o’qisayu, o‘qiganini anglamasa, bunday o‘qish talabga javob bermaydi, matnni tushunmaslikka olib keladi. To‘g‘ri o‘qish ongli o‘qishga xizmat qiladi. Tez, to‘g‘ri, ongli o‘qish ifodali o‘qishning asosi hisoblanadi. Chunki yaxshi o‘qish sifatlarini egallash maktabda barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning sharti hisoblanadi.

O‘qish malakasi murakkab malaka bo‘lib, uning shakllanish jarayonini metodist **T.G.Yegorov** 3 bosqichga bo‘lgan:

1. Analitik bosqich. Savod o‘rgatish jarayoniga to‘g‘ri keladi. Unda o‘quvchilarda so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qish malakasi shakllantiriladi.

2. Sintetik bosqich. Bu bosqichda so‘zni sidirg‘a o‘qish malakasi shakkllantiriladi. Bunda so‘zni ko‘rish bilan uning tovush tomoni idrok qilinadi. So‘zning talaffuzi bilan ma’nosini anglash mos keladi. Sidirg‘a o‘qishga asosan o‘quvchilar 3-sinfda o‘tadilar.

3. Avtomatlashgan o‘qish. Bu o‘qishda o‘quvchi-kitobxon, so‘zning bosh qismiga qarab o‘qib ketaveradi. O‘qishning keyingi yillariga to‘g‘ri keladi. 4-sinfda ba’zi o‘quvchilar o‘qishi avtomatlashadi.

O‘qish darslari shunday tashkil qilinishi kerakki, asar mazmunini tahlil qilish yaxshi o‘qish malakalarini takomillashtirishga yo‘naltirilsin.

Yaxshi o‘qish malakasining sifatlaridan biri - **to‘g‘ri o‘qishdir**. To‘g‘ri o‘qishga bir nechta metodist olimlar ta’rif berganlar:

K. Qosimova: “To‘g‘ri o‘qish xato qilmasdan, yanglishmasdan o‘qishdir”. Shu ta’rifni kengaytirib: to‘g‘ri o‘qish so‘zning tovush-harf

tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan, so‘zdagi biror tovush yoki bo‘g‘inni tushirib qoldirmasdan, ortiqcha tovush yoki bo‘g‘in qo‘shmasdan, harflarning o‘rnini almashtirmasdan, so‘zning urg‘usiga rioya qilib o‘qish to‘g‘ri o‘qishdir”.

M.Odilova, **T. Ashrapovalar**: “Adabiy talaffuz normalariga qo‘yilgan barcha talablar to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmasiga ham taalluqlidir”,- deydilar.

Demak, ularning fikricha, materialni adabiy talaffuz normalariga rioya qilgan holda o‘qish to‘g‘ri o‘qish deyiladi.

Rus metodisti **Yakovleva**: “To‘g‘ri o‘qish bu materialni tovush tomonidan xatosiz va bir tekisda ravon nusxa ko‘chirishdir,”- deb ta’riflaydi.

Har 3 ta ta’rifning mohiyati bir xil. Ya’ni to‘g‘ri o‘qish so‘zning tovush tarkibini grammatik shaklini buzmasdan, adabiy-orfoepik talaffuz normalari asosida o‘qishdir.

“O‘qish savodxonligi” atamasi o‘qish tezligini tekshirishni emas, balki “savodli o‘qish”ni anglatadi. Unga ko‘ra, o‘quvchi mantlarni tushunishi, ularning mazmunini mushohada qilishi va baholay olishi, o‘z fikrini bayon eta olishi zarur. O‘quvchilarga turli matnlar taqdim etiladi: badiiy asarlardan parchalar, biografiyalar, shaxsiy xatlar, hujjatlar, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yo‘riqnomalar, reklama e’lonlari, geografik kartalar va b. Ularda axborot turli ko‘rinishlarda aks etadi: diagramma, rasm, xarita, jadval, chizma va h.k.

PIRLS - bu turli ta’lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlarda kitobxonlik sifati monitoringini tadqiq qilishdir. Turli davlatlardagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish sifati va matnni tushunish darajasini, shuningdek, har xil davlatlar ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni taqqoslash va namoyon qilish imkonini beruvchi tadqiqot metodlaridir. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi **(IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement)** tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni

tashkil etish uchun barcha mas'uliyat Chestnut Hill (Massachusets, AQSh) **Boston kollejiga** yuklatilgan. Tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash **Germaniya (Gamburg)** ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi. Ilk bora tadqiqot **2001-yilda** o'tkazilgan. Tadqiqot har 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi. 2001-yildan boshlab besh yil oralig'ida boshlang'ich ta'lim miqyosida o'tkazib kelinmoqda. U xalqaro tadqiqotlar orasida yuqori o'ringa ega. Bu dasturga kiruvchi davlatlarning soni yildan yilga ortib bormoqda. 2001-yildan boshlab 4 marta o'tkazildi. Oxirgi PIRLS tadqiqotlari 2016-yilda o'tkazildi. Shu davrgacha 35 dan 50 gacha bo'lgan davlatlar ishtirok etishdi.

Ushbu tadqiqot dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi **boshlang'ich sinf (4-sinf)** o'quvchilarini matnni o'qish va tushunish darajalarini taqqoslovchi shuningdek, mamlakatlar milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni taqqoslashga ixtisoslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi. **PIRLS** tadqiqotlari doirasida turli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlarning 4-sinf bituvchilarining o'qish sifati va o'qilgan matnni tushunish darajasi o'rganiladi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi.

Tadqiqot jarayonida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o'qishda o'qish ko'nikmalarining quyidagi to'rt guruhi baholanadi:

1. **Aniq ko'rinishda berilgan ma'lumotni topa olish.**
2. **Xulosalarni shakllantirish.**

3. Ma’lumotlarni umumlashtira olish.

4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

O‘quvchilar matnni o‘qishlari va savollarga javob berishlari lozim. Bunda ba’zi topshiriqlar tavsiya etilgan variantlardan birini tanlashni nazarda tutsa, boshqalari esa mustaqil javob berishni talab etadi.

Tadqiqotda boshlang‘ich sinf bitiruvchilari ishtirok etadi. Aynan shu davrda o‘quvchilarning o‘qish va matn ustida ishlash malakalari shu darajada rivojlanadiki, bu yuqori sinflardagi ta’limning samarali bo‘lishiga zamin yaratadi.

Turli mamalakatlarning maktab dasturlari bir-biridan tubdan farq qilishi hammaga ayon. Shuning uchun turli davlatlardan olingan natijalar o‘zaro taqqoslana oladigan darajada bo‘lishini ta’minlash bunday tadqiqot o‘tkazuvchi tashkilotchilarning muhim vazifalaridan biridir.

Masalan, ko‘pchilik davlatlarda o‘quvchilar 6 yoshdan maktabda o‘qishni boshlashadi. Ammo Angliya va Yangi Zelandiyada ta’lim 5 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun, loyihada 4-sinfdan emas 5-sinfdan o‘quvchilar ishtirok etishadi. O‘qish va matnni tushunish sifati tekshiriladigan o‘quvchilarning yoshi 10,5 yoshni tashkil etadi. Sharq mamlakatlarida o‘quvchilar 7 yoshdan o‘qishni boshlagani uchun ulardan 10,7-10,9 yoshdagi o‘quvchilar tadqiqotda ishtirok etishadi.

PIRLS-2001 o‘tkazilgan birinchi tadqiqotda Rossiya davlati 35 mamlakatlar ichida 16-o‘rinni egallagan. 2017-yilning oxirida PIRLS-2016-yilning oxirgi tadqiqotlar natijasi e’lon qilindi. Unda Rossiya davlati birinchi o‘rinni egalladi.



USHBU XALQARO TADQIQOTDA MAMLAKATIMIZNING ISHTIROKI BIZGA NIMA BERADI?

- Boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarimizning o‘qish savodxonliklari qanday shakllanganligini bilish va taqqoslash
- Mamlakatimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining (4-sinf) boshqa mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan matnni o‘qish va tushunish darajalarini solishtirish
- O‘qish savodxonligidan dars beruvchi pedagog xodimlarimizning dars berish metodlari boshqa mamlakatlarda dars beruvchi pedagog xodimlar metodlaridan farq qiladimi?
- Bugungi kunda bizning mamlakatimizda o‘qish savodxonligi bo‘yicha darslar maktablarda qanday tashkil etilgan?
- Ota-onalar o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini yaxshilashda qanday xissa qo‘shishmoqda?
- Boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarimizga o‘qish savodxonligi yoqadimi?

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asosan to‘g‘ri talaffuz bilan matn ma’nosini puxta sintez qilishda qiynaladilar. O‘qish ko‘nikmalarini

takomillashtirish uchun asar ustida ishlashni o‘qitish bilan birga amalga oshirish zarur.

O‘qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko‘ra kelib chiqadi:

1. So‘zni talaffuz qilish bilan uning ma’nosini tushunish o‘rtasida puxta sintez bo‘lmagani uchun, ya’ni o‘quvchi oldin so‘zni tovush tomonini ko‘radi, uni talaffuz qilishga harakat qiladi va ma’nosini e’tibordan chetda qoldiradi.

2. So‘zlar ko‘p bo‘g‘inli (murakkab bo‘g‘in tuzilishidagi so‘zlarni o‘qishda), ya’ni so‘zning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o‘qiyman deb xatoga yo‘l qo‘yadilar.

3. To‘g‘ri o‘qish yorug‘likka, matn shriftiga, o‘quvchining ko‘ruv sezgisiga ham bog‘liq.

To‘g‘ri o‘qishni ta’minlash uchun o‘qituvchi quyidagilarga rioya qilishi kerak:

1. Matnni o‘qishdan oldin undagi o‘qilishi qiyin, tuzilishi murakkab so‘zlarni, birikma va gaplarni aniqlashi, ular ustida ishlash usullarini belgilab olishi lozim.

2. Ma’nosi tushunarsiz so‘zlarni aniqlashi.

3. Matnning yaxshi, o‘rta, yomon o‘qiydigan o‘quvchilarga o‘qitiladigan qismini oldindan belgilab chiqishi.

4. O‘qituvchi yoki sinf o‘quvchilarining nazorati ostida o‘qishni doimiy mashq qildirishi.

O‘qituvchi o‘qish davomida o‘quvchilar xato qilishi mumkin bo‘lgan o‘rinni belgilab olishi lozim. Xato o‘qishni bartaraf etish uchun:

1. Tuzilishi murakkab so‘zlarni xattaxtaga yoki kartonga bo‘g‘inlarga bo‘lib yozish, oldin o‘quvchilarga ularni bo‘g‘inlab, so‘ng sidirg‘a o‘qishni mashq qildirishi.

2. So‘z ma’nolarining sinonimini, antonimini keltirib yoki gap ichida qo‘llab tushuntirishi.

3. Xatcho‘pdan foydalanish. Xatcho‘p diqqati tarqoq o‘quvchiga, ko‘ruv sezgisi past o‘quvchiga juda foydali.

4. Xato o‘qishi mumkin bo‘lgan o‘rindan o‘quvchiniyam ogohlantirish.

5. Kesma harf va kesma bo‘g‘inlardan foydalanish.

6. To‘g‘ri o‘qish uchun sharoit yaratish.

7. Shivirlab va ichda o‘qishdan foydalanish.

O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan xatolar 2 xil:

1. So‘z ma’nosini noto‘g‘ri anglashga olib keluvchi xatolar (urg‘uni noto‘g‘ri qo‘yib o‘qish tufayli)

2. So‘zlarni o‘qib olishga halal beradigan xatolar.

Xatoni quyidagicha to‘g‘rilash usulidan foydalaniladi:

1. So‘z oxiridagi qo‘shimchani noto‘g‘ri o‘qisa, o‘qishdan to‘xtatmasdan to‘g‘rilash.

2. O‘qish paytida gapning mazmuni buzilib ketsa, o‘qib bo‘lgach, qaytadan o‘qitish yo‘li bilan to‘g‘rilash.

Tez o‘qish

Tez o‘qishni nima uchun o‘rgatamiz?

Avvalambor bir necha savollarga murojaat qilsak,

- Nega bolalar o‘qimaydilar
- Buning uchun nima qilishimiz kerak
- Tez o‘qish bolaga nima beradi
- Bolani tez o‘qishga qanday o‘rgatamiz

Nega bolalar o‘qimaydilar?

Ko‘pgina ota-onalar bolalarining umuman kitob o‘qimasligi, kitoblarga qiziqmasligi, kitob o‘qish o‘rniga turli videolar tomosha qilib vaqtini zoe ketkazayotganligidan noliydilar.

Buning asosiy sababi o‘qishga qiziqmaslikdir. O‘qishga qiziqmaslikning sababi esa o‘qiy olmaslik. Inson biror ishni bajara olmasa, demak unga nisbatan qiziqishi so‘nib boradi. Shunday ekan avvalambor, o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishimiz kerak ekan. Oilada ota-onalarning namunasi ham bolalarga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi. Shuni unutmaslik kerakki oilada mutolaa bolalarni ham kitobxonlikka chorlaydi. Qush uyasida ko‘rganini qiladi, degan naql bejiz emas.

Buning uchun nima qilishimiz kerak?

Avvalambor, bolalarga berilgan vazifani bajarishni o‘rgatishimiz kerak. Buning uchun beriladigan vazifa bola uchun quvonchli kayfiyat bag‘ishlashi zarur. Sen vazifani uddalamading, bu ishing o‘xshamadi, deb bolalarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini so‘ndirib qo‘yishimiz mumkin. “Sen mana shu matnni tezda o‘qib chiq”, deyishdan ko‘ra, “shu matnga sarlavha qo‘y”, “matn ichidan unli harflar bilan boshlanadigan so‘zlarni topib, tezda tagiga qalam bilan chizib chiq”, “matnda nechta undosh tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar mavjud ekan”... tarzida bolaga matn, hikoya haqida ma’lumot to‘plashga, uning matn bilan tanishishiga imkon berishimiz kerak. Matn asosida ishlangan rasm yoki animatsiyalar ham matn mazmunini tushunishga yordam berishini unutmasligimiz kerak. Bola matn mazmunini tushunsa, uni tez o‘qiy oladi. Matnni hech bo‘lmaganda 3 marta o‘qib chiqqanidan so‘ng bolaga endigi vazifa bir daqiqadi tezroq sur’atda o‘qishni taklif qilishimiz mumkin.

K.Qosimova "Tez o‘qish normal tezlikda o‘qishdir",- degan.

K.D.Ushinskiy Tez o‘qish matnni tushunishdan ajralib qolmasligi lozimligini ta’kidlagan. O‘qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o‘sishi kerak.

Tez o‘qish ongli idrok etishni ta’minlaydigan o‘qishdir. Og‘zaki nutq tempiga mos keladigan o‘qish tempi normal tezlik hisoblanadi. O‘ta tez o‘qish va o‘ta sekin o‘qish matn mazmunini tushunishni qiyinlashtiradi. O‘qish tezligi bir daqiqada o‘qiladigan so‘zlar miqdori bilan belgilanadi.

Tez o‘qishni ta’minlovchi yo‘llar:

1. O‘qishni turli topshiriqlar asosida mashq qilish.

2. O‘qishga qiziqish uyg‘otish.

3. Rollarga bo‘lib o‘qitish. Dialoglarni 2 o‘quvchiga o‘qitish:

a) oldin tez o‘qiydigan o‘quvchiga;

b) keyin sekin o‘qiydigan o‘quvchiga;

4. Matnni navbat bilan o‘qitish.

Ko‘pincha o‘quvchilar tez o‘qiyman deb xatoga yo‘l qo‘yadilar.

Ongli o‘qish. Asar mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, timsollarini, badiiy vositalarini rolini tushunib o‘qish ongli o‘qish deyiladi. O‘quvchi asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga munosabat bildira olsa, ongli o‘zlashtirgan bo‘ladi.

Ongli o‘qish quyidagi metodik shartlarga bog‘liq:

1. O‘quvchining hayotiy tajribasiga.

2. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini tushunishiga.

3. Gapda so‘zlarning bog‘lanishini tushunishiga.

Ongli o‘qish 2 xil ma’noda qo‘llanadi:

a) O‘qish texnikasi;

b) O‘qish sifati.

Asar qurilishini tushunish ongli o‘qishdir. O‘quvchining ongli o‘zlashtirib o‘qigani, uning ifodali o‘qiganidan, asar yuzasidan berilgan savollarga javobidan aniqlanadi. Ongli o‘qish bilan ifodali o‘qish biri - ikkinchisini taqozo etadi.

Ifodali o‘qish. Asarni uning g‘oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda, o‘qish, asar jozibasini ifodalab, ravon aniq, to‘g‘ri o‘qish ifodali o‘qish deyiladi.

Ifodali o‘qish adabiyotni aniq va ko‘rgazmali o‘qitishning dastlabki va asosiy formasidir. O‘qituvchi, ifodali o‘qish orqali asar mazmunini va emotsionalligini o‘quvchilarga ko‘rgazmali ravishda yetkazadi.

Intonatsiya – urg‘u, temp, ritm, to‘xtam, ovozning baland-pastligining yig‘indisi. Bular og‘zaki nutq elementlaridir. Bu orqali qahramonlarining turli kayfiyatlari, ichki kechinmalari ifoda etiladi.

Ifodali o‘qishni egallashning asosiy shartlari:

1. Nafasni to‘g‘ri olish va to‘g‘ri sarflash.

2. Tovushlarni aniq talaffuz qilish, burro gapirish.

3. Adabiy talaffuz normalarini egallash. Bular ifodali nutqqa ham taalluqli.

Ifodali o‘qish shartlaridan yana biri ovozning baland-pastligi, yoqimliligi, tinish o‘rnini asar mazmuniga mos holda o‘zgartira olishlik.

Ifodali o‘qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo‘linadi:

1. Qahramonlarning xatti-harakatini tahlil qilish, g‘oyasini belgilash, badiiy vositalarining vazifasini tushunish. Demak, asar tahlili ifodali o‘qishni ta’minlaydi.

2. Pauzaning, urg‘ning o‘rnini, nutq tempini belgilab olish.

3. O‘qishni mashq qilish.

Avvalo, o‘qituvchi ifodali o‘qish namunasini ko‘rsatishi zarur. Ifodalilik ko‘rgazmalilik demakdir.

O‘qish darslari o‘quvchilar fikrini va nutqini o‘stirish, hamda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi xususiyatlar bilan boshqa o‘quv predmetlari orasida alohida o‘rin tutadi. O‘qish darslari jarayonida o‘quvchilarning o‘qish malakalari takomillashib, to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish, badiiy asar g‘oyasini tushunish qobiliyatlari o‘sib boradi.

“O‘qish kitobi”dagi turli janrlarga xos bo‘lgan badiiy asarlarni o‘qish va ular ustida ishlash orqali o‘quvchilarning borliq, voqelik haqidagi tasavvur-tushunchalari kengayadi.

Birinchi sinfda o‘quvchilar ongli, turli va bir me’yorda bo‘g‘inlab o‘qish malakasini egallaydilar. Ayrim nutq tovushlarining talaffuzidagi qiyinchiliklar asta-sekin bartaraf etiladi.

O‘quvchilar o‘qigan matnlarining mazmunini o‘qituvchining yordamchi savollari asosida hamda kichik hajmdagi matn mazmunini unga ishlangan rasmdan foydalanib, so‘zlab berishga o‘rganib boradilar.

Ikkinchi sinfda o‘quvchilarda so‘zni butunicha o‘qish malakalari shakllanadi va ongli, to‘g‘ri, ifodali o‘qishga intilish yaqqol seziladi. O‘qish tezligi ortadi. Ayrim matnlarni ovoz chiqarmay mustaqil o‘qiy boshlaydilar. O‘qituvchi rahbarligida o‘qilgan matndagi asosiy fikrni aniqlaydilar, undagi ayrim voqea-hodisalarni so‘z bilan tasvirlashga o‘rganadilar.

O‘qish va matnni savollar asosida hikoyalashda o‘quvchilar nutqining to‘g‘ri va aniq bo‘lishiga, nutqda so‘zlardan o‘rinli foydalanishlariga e’tibor beriladi.

Uchinchi sinfda o‘quvchilar so‘zlarni butunicha o‘qish malakalarini to‘la egallab, ongli va ifodali o‘qishga ko‘proq e’tibor beradilar. O‘qilgan matn mazmunini mulohaza qilish, voqealar yo‘nalishini aniqlash qobiliyatiga ega o‘quvchidilar. Bu sinfda o‘qilgan asarning badiiy-tasviriy xususiyatlari ustida ishlash davom ettiriladi.

Uchinchi sinf o‘quvchilariga o‘zaro fikr olishuv jarayonida xalq maqollari va obrazli ifodalardan o‘rinli foydalanish, adabiy talaffuz normalariga rioya qilishga o‘rgatiladi.

To‘rtinchi sinfda o‘quvchilar matndagi so‘zlarni butunicha ma’nosiga tushunib to‘g‘ri o‘qish malakalarini to‘la egallaydilar. O‘qiganlari mazmunini qayta hikoyalash, matnni qismlarga bo‘lish va sodda reja tuzish vazifalarini mustaqil bajara oladilar.

O‘qish va gapirish jarayonida o‘quvchilarning adabiy talaffuz normalariga rioya qilishlari talab qilinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yuqorida belgilangan talablar asosida o‘z ishlari natijasini nazorat qilib borishi kerak. O‘qish darslarida darsning asosiy qismini o‘quvchilarning o‘qishiga ajratish lozim. Oquvchilar turli xildagi aniq topshiriqlar asosida bir necha marta o‘qitiladi va o‘qish ma’suliyatlari orttiriladi.

Bunday topshiriqlar dastlab sodda va oson bo‘lib asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Masalan: 2-sinfda o‘quvchilarga matndan bir-ikkita gapni mustaqil o‘qish va belgilangan savolga javob qaytarish topshirig‘i berilishi mumkin. 3-4 sinflarda esa matnni o‘qib qayta hikoyalashga tayyorlanishni, undagi asosiy mazmunni aniqlash singari topshiriqlar beriladi. Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarni mustaqil o‘qish va o‘qiganlari yuzasidan

mulohaza yuritishga undaydi. O‘qish darslari davomida o‘quvchilar lug‘atini boyitish va nutq o‘stirish malakasiga alohida e’tibor beriladi. Buning uchun darslikdagi va boshqa rasmlar asosida suhbat, kuzatganlari yuzasidan og‘zaki hikoya tuzish, she’r, topishmoq maqollarni yoddan aytish singari turli ish usullaridan foydalanish mumkin. Umuman olganda, o‘qituvchi har bir darsning muhim vazifalarini oldindan belgilab olsa, uni maqsadga muvofiq tashkil etadi. O‘qishga o‘rgatishning muhim vazifalari quyilagilardan iborat:

- Boshlang‘ich o‘qish malakalarini (to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qishni takomillashtirish) o‘quvchilarni o‘qigan asarlarning adabiy-estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularni tasvirlangan voqea-hodisalar mag‘zini chaqish, muayyan xulosalar chiqarishga tayyorlash;

- o‘quvchilarda yuksak axloqiy sifatlarni va nafosat tuyg‘usini tarbiyalash,

- o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatish;

- o‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish.

Bu vazifalar dasturda berilgan badiiy, ilmiy - ommabop asarlar, jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunallari asosida amalga oshiriladi.

Matnni o‘qish va uni tushunish darajasini aniqlash bo‘yicha topshiriqlardan namunalar

“Yomon otliq jazosi” (Abdulla Avloniy)

“Bir kishining Qosim ismli bir o‘g‘li bor edi. Ota va onasining so‘ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. O‘quvchilar birla urushib, yaqalashib, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo‘ygan taomlarini yegon vaqtida, onasi: “— Qosim, o‘g‘lim! Taomni sen yedingmu”, desa “Men yeganim yo‘q, mushuk yegondir”, der edi. Bora-bora otasini pulini ham o‘g‘urlab oladigon bo‘ldi. Otasi bilib, “O‘g‘lim, pulni kim oldi?” desa, “Onam olgandur”, deb onasini o‘g‘ri qilur erdi. Bir kuni otasi ustol

ustig‘a bir tanga qo‘yub, o‘zi uxlagan kishi bo‘lib yotdi. Qosim kelib, sekin tangani olib, og‘ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo‘lg‘onda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumiga tiqilib, jon berdi.

O‘quvchilar, ko‘rdingizmi, yomonning yomonligi o‘z boshiga yetdi.

1. Hikoya kim haqida?

A) Farzand B) Qosim S)Ovqat D)Yomonlik

2. Siz yolg‘on gapirganmisiz?

A) Ha B) Yo‘q S)Ba’zan D) Bir-ikki marta

3. Qosim otasiga taomni nima yedi deb aytdi?

A) Mushuk B) It S) O‘zi D) Hech narsa demadi

4. Qosim nimani yutib yubordi?

A) Pulni B) Tangani S) Nonni D) Ovqatni

Matn asosida tuzilgan test savollari orqali o‘quvchining matnni tushunish darajasi, fikrlashi va o‘qish malakalari baholanadi.

Nazorat savollari

1.PIRLS qanday tadqiqot?

2.“O‘qish savodxonligi” atamasi nimani anglatadi?

3.Tez o‘qish nima?

4.Tadqiqot jarayonida darsda o‘quvchilar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘qishning qaysi turlari o‘rganiladi?

5. PIRLS tadqiqotlarida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qishda o‘qish ko‘nikmalarining qaysi guruhi baholanadi?

2.2. 1-4-SINF O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA BADIIY ASARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Badiiy matnni tahlil va talqin qila olish malakasi insonning umummadaniy saviyasi, ma’naviy-ma’rifiy salohiyati, dunyoni anglash imkoniyati, hissiy-estetik idrokining taraqqiyoti uchun muhim ekanligini isbotlab o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Ma’lumki, yozuvchi yoki

so'zlovchining badiiy matn tuzishdan bosh maqsadi o’quvchi yoki kitobxonga estetik ta’sir qilishdan iborat. Ammo ayni paytda yozuvchi yoki so'zlovchi mazkur maqsadi doirasida ifodaning mazmunini shakllantirishda quyidagi niyatlarni ham ko'zda tutishi mumkin:

1) o'zining yoki qahramonning boshidan o'tgan biror voqea-hodisa haqida hikoya qilish, xotiralari haqida so’zlash;

2) qahramon qiyofasi va ichki dunyosi yoki voqealar bo'lib o'tayotgan joy, muhitni batafsil tasvirlash;

3) biror voqea-hodisaning ishonarliligini ta’minlash uchun turli dalil va izohlar keltirish, ayrim hodisalar mohiyatini izohlash;

4) kimgadir pand-nasihat qilish, xayotiy voqea-hodisalar orqali tarbiyalash, yo'l ko'rsatish, turli tavsiyalar berish;

5) biror bir voqea-hodisa haqida xabar berish, ogohlantirish, eslatish: 6) buyruq va turli ko'rsatmalar berish, niyat-istak bildirish;

7) qahramonning ichki kechinmalarini, emotsional holatini, voqelikka hissiy munosabatini aks ettirish va h.k.

Ana shulardan kelib chiqqan holda, badiiy matnning quyidagi mazmuniy turlarini belgilash mumkin:

1.Hikoya mazmunli matn.
2.Tasviriy matn.
3.Izoh mazmunli matn.
4.Didaktik matn.
5.Xabar mazmunli matn.
6.Buyruq — istak mazmunli matn.
7.Hissiy ifoda mazmunli matn.

Lekin shuni ham ta’kidlab o'tmoq joizki, ushbu turlarning faqat bittasi asosida shakllantirilgan badiiy matnni kamdan-kam hollarda uchratish mumkin bo'ladi. Badiiy asar tarkiblanish jihatidan ham, mazmun jihatidan ham o'ta murakkab tuzilishga ega bo'lganligi bois, unda matnning barcha mazmuniy turlarini yoki ma’lum bir turining ayrim xususiyatlarinigina uchratish mumkin.

O‘qish (1-4-sinf) fanini o‘qitishning asosiy vazifasi esa o‘quvchilarning og‘zaki nutqi, adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, adabiy-nutqiy hamda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalarini o‘stirishdan iborat.

Yozma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, dastlab tanish, so’ng notanish matnni ifodali o‘qitilib, o‘quvchidagi ko‘nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko‘rsatkich – o‘qish tezligi, ongli va ravon o‘qish, bir daqiqada nechta so‘z o‘qiy olishi ham belgilanadi. O‘quvchining matn mazmunini to‘liq o‘qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

A1

- matndagi so‘z va gaplarning ma’nolarini tushuna oladi;
- asar mazmunidan ta’sirlana oladi;
- xalq og‘zaki ijodi namunalarini (ertak, topishmoq, maqol, masal, tez
- aytishni) farqlay oladi;
- o‘rganilgan asarlarning nomi, muallifi, mazmuni va qahramonlarini ajrata oladi;
- asar qahramonlariga munosabat bildira oladi;
- o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob bera oladi.

A1+

- mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan asarlarda tasvirlangan voqea-hodisalar mazmunini tushunib, qayta hikoya qila oladi, asar qahramonlariga munosabat bildira oladi.

Asar tahlili o‘qituvchidan o‘quvchilar faoliyatini ma’lum maqsadga yo‘naltirishni taqozo qiladi. **Maktabda badiiy asarni tahlil qilishdan asosiy maqsad** asarda ifodalangan hayotiy voqeani yoritish orqali

o‘quvchilarni badiiy adabiyot olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. O‘quvchilarning yozuvchi oldinga surgan g‘oya, muammolarni to‘liq tushunishlariga erishmay turib, adabiyotning yoshlarni tarbiyalashdagi vazifasini amalga oshirib bo‘lmaydi.

O‘quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma’noni chuqur o‘rganishga yordam beradi.

O‘qituvchi badiiy asar ustida ishlashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishlashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.
2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.
3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.
4. Asarni qanday metodlar asosida o‘rganishni aniqlashi.
5. O‘quvchilar egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Ma’lumki, sinfda o‘qish asosida badiiy va ilmiy-ommabop matnlar turadi. O‘quvchilarni matn bilan tanishtirish o‘qishga tayyorgarlik bosqichidan boshlanadi. Tayyorgarlik bosqichi yozuvchilar haqida ma’lumot berish, o‘quvchilarni asarda tasvirlanadigan voqea-hodisalarni idrok qilish, asar pafosini his etish, notanish va ko‘p ma’noli so‘zlar, murakkabroq tarzdagi obrazli ifodalarni izohlash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Agar asar yil fasllari haqida bo‘lsa, tabiat qo‘yniga sayohat uyushtirish ham sinfda o‘qish muvaffaqiyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Matn bilan dastlabki tanishuvdan so‘ng quyidagicha savollar bilan murojaat qilish darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradi:

1. Hikoyadagi qaysi epizodni qiziqarli deb o‘ylaysiz?
2. Hikoya qahramonlaridan qaysi birining hatti-harakatini ma’qullaysiz? Qaysi birining fe’l-atvori, o‘zini tutishi sizga yoqmadi?

3. Hayotda shunday kishilarni uchratganmisiz?

Tayyorgarlik ishlarining vazifalari quyidagilar:

1. O‘quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta’sir etadigan yangi ma’lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan dalillarni o‘quvchilarning o‘z hayotida kuzatganlari bilan bog‘lay olishlariga sharoit yaratish.
2. Yozuvchining hayoti va ijodiga qiziqish uyg‘otish.
3. O‘quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash.
4. Asar mazmunini tushunishga xalal beradigan so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini tushuntirish.

Masalan, 4-sinf “O‘qish kitobi”dagi “Xarita” matni ustida ishlaganda so‘z va iboralar lug‘ati quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Og‘zing ochilib qolsin – hayron bo‘lib qolgin

Qolipdan chiqqan g‘ishtdek – hamma tomoni birdek tekis

Loqayd – befarq

Kashfiyot – izlanishlar natijasida yaratilgan narsa, ixtiro

Ayilday botdi – qattiq tegdi, ranjitdi

Pisanda qilmoq – oldindan biror shart qo‘ymoq, ta’kidlamoq.

Tayyorgarlik ishlarining ta’limiy shakllari xilma-xil bo‘lib, o‘qituvchi asar mazmuni va sharoitga qarab ish turini tanlaydi.

Tayyorgarlik davrida nimalar haqida ma’lumot berish maqsad qilingan bo‘lsa, avvalo, o‘quvchilarning o‘zlaridan ular haqida bilganlari so‘rab aniqlanadi. Masalan, “Kitobga ixlos” asarini o‘qishga tayyorgarlikda o‘quvchilarning kutubxonaga olib boorish talab etiladi.

Tayyorgarlik shakllaridan biri − ekskursiyadir. Bu ish turidan tabiat tasviriga bag‘ishlangan yoki ishlab chiqarish, qurilish, shahar, qishloq hayotiga, kasbga doir mavzular va tarixiy asarlar o‘rganilganda foydalanish mumkin. Chunonchi, 1-sinfda “Sirkda”, 2-sinfda “Metropoliten” kabi mavzularni o‘rganishdan oldin ekskursiya qilish maqsadga muvofiq.

Ekskursiya o‘quvchilarning asarda ifoda etilgan hodisalarni aniq va ongli o‘zlashtirishlariga yordam beradi, bilimlarini chuqurlashtiradi, tabiat hodisalarini kuzatish va ularni aniq tasvirlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ekskursiya o‘quvchilarda tabiatga mehr uyg‘otadi, uni sevish va tabiat ehsonlarini asrash hissini tarbiyalaydi. Ishlab chiqarish korxonalariga, muzey va boshqa joylarga ekskursiyalar esa tarixiy voqealarning to‘g‘ri idrok etishlarini ta’minlaydi, kattalar mehnati bilan tanishtiradi, o‘quvchida mehnatga muhabbat uyg‘otadi, kasbga yo‘naltiradi.

Film namoyish qilish. Tarixiy materiallarni, asar muallifi hayotini o‘rganishdan oldin film namoyish qilinsa, o‘quvchilarning asarni idrok qilishlari faollashadi. Masalan, 2-sinfda “Gulzorda” hikoyasini o‘qishda gullar haqidagi hujjatli filmdan parcha ko‘rsatilishi, 3-4-sinflarda Ibn Sino haqidagi asarlarni o‘rganishda ”Ulug‘bek xazinasi”, Alisher Navoiy haqidagi asarlar bilan tanishtirishda “Alisher Navoiy” filmi namoyish etilishi mumkin. Video lavhalardan o‘quvchilarni asarni o‘qishga tayyorlash davrida foydalaniladi. Ular o‘quvchilarning tasavvur qilishlariga, tushunchalarini oydinlashtirishga, ongli o‘qish va hissiy idrok etishlariga yordam beradi. O‘quvchilarning film namoyishida tug‘ilgan ayrim savollariga ularning o‘zlari yangi o‘qiydigan asarlardan javob topadilar. Tayyorgarlik ishlarini bunday uyushtirish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini ham oshiradi.

O‘qituvchi hikoyasi. Bu usul asar muallifi, g’oyasi va syujeti haqida ma’lumot berishda eng samarali hisoblanadi. Asar muallifi shoir va yozuvchilar haqida so‘zlab berilayotganda ularning portretlari, o‘quvchilar uchun yozgan asarlari namoyish etilsa, o‘quvchilarning muallif ijodiga qiziqishlari ortadi. Boshlang‘ich sinfda shoir, yozuvchilarning o‘z tilidan o‘qigan asarlari yoki ular haqida boshqalar aytgan fikrlarni audio shakli eshitttirilsa yoki video tasmadan ko‘rsatilib, unga o‘qituvchi hikoyasi qo‘shilsa, darsning samaradorligi yanada oshadi. Masalan, 4-sinfda O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi yangragach, A.Oripovning o‘zi

aytgan ”O‘zbekiston” she’ri qo‘yib eshittirilishi mumkin. O‘qituvchi yozuvchi va shoirlar haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchilar saviyasiga mos qilib, hayajonli qilib hikoya qilsa, o‘quvchilarning badiiy asarni o‘qishga ichki istagi kuchayadi, ularda kitob o‘qishga muhabbat ortadi. Yozuvchi haqidagi ma’lumot 1-sinfdan 4-sinfga borgunga qadar ko‘paytirilib, chuqurlashtirilib boriladi.



Sinfdan sinfga ko‘chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi o‘quvchilar bilimi ortib boradi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo‘yilgan talablar ham ko‘payadi. O‘qituvchi qisqa ma’lumot berishdan yozuvchi hayoti bilan to‘liqroq tanishtirishga o‘tadi. Bunda u kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ular yozuvchi bilan qay darajada tanish ekanligi va uning asarlaridan nimalarni o‘qiganligini hisobga oladi.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo‘linadi:

1. Birinchi sintez bosqichi.

Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirishdan iborat. Bunda avvalambor asarni yaxlit holatda o’quvchilar e’tiboriga havola qilish maqsadida o’qituvchi o’ziga qulay bo’lgan usulni tanlaydi. Masalan, o’qituvchi hikoyasi, asar matnining audio shakli, film namoyishi, asarning bir necha

o’quvchilar tomonidan rollarga bo’linib o’qilishi va hokazo. Bunda ish turi badiiy asarning xususiyatlari va qaysi sinfda o’qitilishiga mos ravishda tanlanadi. Bu bosqichni boshlashda o’qituvchi asar muallifi haqida ham ma’lumot berishi lozim.

2. Analiz bosqichi.



Bu bosqichning vazifasi badiiy asarda voqealar rivojining bog‘lanishini aniqlash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori (O’zini qanday tutdi? Nima uchun bunday qildi?) va ularning asosiy xususiyatlarini ochib berish (qahramonlarning ijobiy va salbiy xususiyatlariga e’tibor qaratiladi), asar kompozitsiyasini ochish (tugun, kulminatsion nuqta, yechim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish ya’ni, badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg`u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi badiiy tasvir va ifoda vositalari, obrazlilik (tasviriylik) va emotsionallikni kuchaytiruvchi elementlarga e’tibor qaratish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Birinchi sintezdan so‘ng o‘qilgan asarga bog‘liq holda ijodiy xarakterdagi ishlar o‘tkaziladi. Masalan: **“Ekspertlar guruhi”** amaliy ishini taklif qilamiz. Bu usul quyidagi tartibda tashkil etilishi mumkin.

Badiiy asarni analiz qilish uchun o’quvchilar asar qahramonlari sonidan kelib chiqib bir necha kichik guruhlarga bo’linadilar. Masalan: 4-sinf O’qish kitobida keltirilgan **“Eng ulug’ fazilat”** ertagini **“Ekspertlar guruhi”** usulidan foydalanib analiz qilish quyidagi tartibda amalga oshirilishi mumkin Avval ertak matni birinchi sintez bosqichi asosida o’quvchilar e’tiboriga havola etiladi, ya’ni ertak matni boshidan oxirigacha mutolaa qilinadi.

Eng ulug’ fazilat

Qadim zamonda bir mo’tabar odamning uch o’g’li bor edi. Bir kuni ularni huzuriga chaqirib, shunday debdi:

- **O’g’illarim, sizlarni sinamoqchiman, bir oy sayohat qiling. Shu bir oylik umringizni xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf eting. Qaysi biringizning qilgan yaxshiligingiz eng ulug‘ fazilat kasb etsa, barmog‘imdagi mana shu juda qimmatbaho uzukni unga beraman.**

O‘g‘illari har tarafga tarqalib, sayohatga chiqib ketibdilar. Bir oy sayohat qilib yurib, yana otalarining huzuriga qaytib kelibdilar. Ota katta o‘g‘lidan so‘rabdi:

– O‘g‘lim, shu bir oy ichida qanday eng ulug‘ fazilatli ish qilding?

– Otajon, bir kuni tanho o‘zim bir bog‘ ko‘chasidan o‘tib ketayotsam, bir yerda juda ham qimmatli olmos tushib yotgan ekan. Uni olib darhol tegishli ma’murlarga topshirdim. Ma’murlar boshlig‘i menga tashakkur aytdi. Qo‘limga mana shu taqdirnomani yozib berdi. Olmosning egasini toptirib, unga topshirdi. Shu qilgan ishim to‘g‘riligimga bir dalil. Shu harakatim eng ulug‘ fazilat emasmi?

– Juda to‘g‘ri ish qilgansan, o‘g‘lim! Vijdonan vazifangni ado etgansan. Lekin u olmos sening xususiy mulking emas-ku!

Keyin o‘rtancha o‘g‘li so‘zga kirishdi:

– Men bir kuni katta bir ariq yoqasidan ketib borardim. Shu choqda bir yosh bola suvga tushib ketdi. Halok bo‘lish xavfi ostida ekanini ko‘rib qoldim. Darhol o‘zimni suvga tashladim. Ko‘p mashaqqat chekib, bolani suvdan olib chiqdim. Uni halokatdan qutqazib, ota-onasiga eson-omon

topshirdim. Ota-onasi mendan ko‘p minnatdor bo‘lib, haqimga duo qildilar. Hayotim qo‘rqinch ostida qolsa ham yosh bolani halokatdan qutqazish uchun qilgan shu harakatim bilan mukofotingizga loyiq bo‘lsam kerak, deb o‘ylayman.

Otasi o‘rtancha o‘g‘lining qo‘lini ushlab, shunday dedi:

– Ofarin, o‘g‘lim. Seni tabriklayman, faqat shu go‘zal ishing tufayli qalbing zavq-shavq bilan to‘lganini his etgansan. Shuning o‘zi mukofot emasmi?

Keyin kichik o‘g‘li otasiga ta’zim qilib aytdi:

– Otajon, menga doimo dushmanlik nazari bilan boqib, zarar yetkazib yurgan bir odam bor. Men unga hech bir yomonlik qilmagan bo‘lsam ham, u payimda yuradi. Hatto meni yo‘q qilish uchun fursat kutadi. Kecha u dushmanimning bir jar yoqasida uxlab yotganini ko‘rdim. Agar uyqusirab, bir yondan ikkinchi yonga ag‘darilsa yoki qattiqroq tovush chiqarib uyg‘otilsa, turishga harakat qilib, jarga qulab tushishi mumkin edi. Men tovush chiqarmasdan, sekingina yurib uning yoniga bordim. Juda ehtiyotkorlik bilan uni ushlab, asta-sekin o‘z tomonimga torta boshladim. Ancha beriga kelib xavf-xatardan qutulgandan keyin ruhim ko‘tarildi, shodlanib yo‘limda davom etdim. Otasi o‘g‘lining bu yaxshi ishidan, oliyjanobligidan shodlanib ko‘ziga yosh oldi. Uni quchoqlab, yuz-ko‘zidan o‘pib dedi:

– Bor bo‘l, o‘g‘lim! Yasha, umring uzoq bo‘lsin! Mukofotimni olishga sen haqlisan, chunki dunyoda eng ulug‘ fazilat – yomonlikka yaxshilik qilishdir, – deb qimmatli uzugini o‘g‘lining barmog‘iga taqdi, uning haqiga duo qildi.

Ertak o’quvchilar e’tiboriga havola etilgach, ertak qahramonlari nomi yozilgan kartochkalar ekspertlar guruhi a’zolariga tarqatiladi.

Masalan:

OTA, TO’NG’ICH O’G’IL, MA’MUR, O’RTANCHA O’G’IL, CHO’KAYOTGAN QIZCHA, QIZCHANING OTASI, ONASI, KENJA O’G’IL, 3-O’G’ILNING DUSHMANI

Har bir guruh a’zosi, ya’ni ekspertlarga bittadan qog’oz (blank) beriladi. Blankning eng yuqori qismida qahramonning nomi yoziladi. Ular ertak matnidan o’ziga tegishli qahramon yo’nalishida ma’lumotlar to’plash va qayd etishga harakat qilishi kerak. Bu ma’lumotlar og’zaki va yozma shaklda to’planishi mumkin.

Masalan:

OTA

- mo’tabar odam
- 3 o’g’li bor
- O’g’illarini sinamoqchi bo’ldi
- Eng ulug’ fazilatli o’g’lini aniqlamoqchi bo’ldi
- O’g’illarini bir oy sayohat qilishga yubordi
- O’g’illarining bir oylik umrini xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf etishlarini so’radi
- Katta o’g’liga olmos uning xususiy mulki emasligini aytdi
- O’rtancha o’g’liga ofarin aytib, uni tabrikladi. Qizchaning ota-onasining minnatdorchiligining o’zi ham mukofot ekanligini aytdi…

TO’NG’ICH O’G’IL

- Bir kuni tanho o‘zi qimmatli olmos topib oldi
- Uni olib darhol tegishli ma’murlarga topshirdi.
- Ma’murlar boshlig‘i unga tashakkur aytdi. Qo‘liga taqdirnomani yozib berdi.
- Shu qilgan ishim to‘g‘riligimga bir dalil, shu harakatim eng ulug‘ fazilat emasmi?- dedi…

O’RTANCHA O’G’IL

- katta bir ariq yoqasidan ketib borardi
- Shu choqda bir yosh bola suvga tushib ketdi.

- Halok bo‘lish xavfi ostida ekanini ko‘rib qoldi.
- Darhol o‘zini suvga tashladi.
- Ko‘p mashaqqat chekib, bolani suvdan olib chiqdi.
- Uni halokatdan qutqazib, ota-onasiga eson-omon topshirdi.
- Ota-onasi undan ko‘p minnatdor bo‘lib, haqqiga duo qildilar.
- Hayotim qo‘rqinch ostida qolsa ham yosh bolani halokatdan qutqazish uchun qilgan shu harakatim bilan mukofotingizga loyiq bo‘lsam kerak, deb o‘ylayman,- dedi otasiga.

KENJA O’G’IL

- Unga doimo dushmanlik nazari bilan boqib, zarar yetkazib yurgan bir dushmanining jar yoqasida uxlab yotganini ko‘rdi.
- Agar uyqusirab, bir yondan ikkinchi yonga ag‘darilsa yoki qattiqroq tovush chiqarib uyg‘otilsa, turishga harakat qilib, jarga qulab tushishi mumkin edi.
- u tovush chiqarmasdan, sekingina yurib uning yoniga bordi.
- Juda ehtiyotkorlik bilan uni ushlab, asta-sekin o‘z tomoniga torta boshladi.
- Ancha beriga kelib xavf-xatardan qutulgandan keyin ruhi ko‘tarildi, shodlanib yo‘lida davom etdi…

Qahramonlar to’g’risida eng ko’p ma’lumot to’plagan o’quvchilar rag’batlantiriladi.

3. Ikkinchi sintez bosqichi. Bu bosqichda badiiy asar ishtirokchilarining muhim xususiyatlari umumlashtiriladi, qahramonlar taqqoslanadi va baholanadi. Shu bilan birga asarning g‘oyasi aniqladi, badiiy asarning hayotiy manbalari va san’at asari sifatida baholash ko’nikmalari shakllantiriladi. Bunda o’quvchilarga quyidagi ko’rinishdagi savollar bilan murojaat qilish mumkin.

- **Qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldik?**
- **Asar nimaga o‘rgatadi?**
- **Muallif o‘z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta’sirli tarzda yetkazgan?**

Asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o‘quvchilar faolligi ortadi, chunki asarni tahlil qilish ijodiy jarayon sifatida o’quvchilarni firlashga undaydi.

1-sinf o‘quvchilari matn ustida ishlash jarayonida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. O‘qilgan matnda nima haqida fikr yuritilayotganligi to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi.

2. O‘qilgan adabiy asar namunasining umumiy mazmuni aniqlanadi.

3. O‘qilganda ishtirok etuvchi shaxslarning hatti - harakatlariga elementar ravishda baho berishga o‘rgatilib boriladi.

4. O‘qilgan badiiy asar namunasining tili o‘rganiladi. O‘qilganda ishtirok etuvchi qahramonlaming hatti-harakatini, ularni bir-biriga taqqoslash yuzasidan mashq qildiriladi.

Matn ustida ishlashning eng ko‘p qo‘llaniladigan usullaridan biri **o‘quvchilarning ichida o‘qishdir.** U yoki bu adabiy asar namunasi yoki ilmiy - ommabop maqolalar o‘quvchilarga ichida o‘qish uchun topshirishda o‘qituvchi matnni o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga qarab quyidagi topshiriqlarni berishi mumkin:

1. O‘qituvchi tomonidan topshirilgan badiiy asar namunasi yoki ilmiy - ommabop maqolalarni ichda o‘qib, matn oxirida berilgan yoki oldindan tayyorlab doskada yozib qo‘yilgan savollarga javob berish.

2. Matnni ichda o‘qib, tushunilmaydigan o‘rinlarni, so‘z va iboralarni aniqlab chiqish va shular yuzasidan savollar berish.

3. O‘qilganning mazmuni yuzasidan, qanday rasmlar chizish mumkinligini aniqlash maqsadida ichda o‘qish.

4. O‘qituvchining topshirig‘i yoki savoliga javob topish maqsadida ichda o‘qish.

Matn ustida ishlashga o‘rgatishda: so‘z ma’nolarini tushuntira olish, o‘qilganda ishtirok etuvchilarni tasvirlashi uchun matndan obrazli so‘zlarni topa bilish, o‘qilgan asar namunasida qatnashuvchi shaxs haqida hikoya qilish uchun material tanlash kabi ishlar bajartiriladi.

O‘qilgan matnni muhokama qilishda suhbat uchun ko‘p vaqt sarf qilib, o‘qilganining g‘oyasidan o‘quvchi fikrini uzoqlashtirib, chalg‘itmaslik zarur.

Badiiy asar namunalarini o‘qish orqaligina uni har tomonlama o‘rganiladi. Shunga ko‘ra, o‘qish va nutq o‘stirish darsining asosiy qismini berilgan matnni o‘quvchiga o‘qitishni tashkil etishi lozim.

O‘qish, berilgan matn mazmuni bilan tanishish va o‘quvchining fikri, nutqi har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

Matn ustida ishlaganda uning hajmi va xarakteriga qaraladi. Hajmi kichik, tushunilishi oson matnlarni o‘qishdan so‘ng tahlil qilishga kirishiladi. Lekin hajmi katta bo‘lsa, avval o‘qilganining mazmunini o‘zlashtirishga oid reja tuzish, qayta hikoya qilish lozim bo‘ladi.

O‘qilgan matn mazmunini tahlil qilishda o‘qilganining mazmuni asosida savol tarzida reja tuzish va shu tuzilgan reja asosida qayta hikoya qilish ham o‘qish va nutq o‘stirish mashg‘ulotlarining eng muhim etaplaridan biri sanaladi.

Matn ustida ishlashda **suhbat** asosiy rol o‘ynaydi. Suhbat o‘qituvchi belgilab, kelgan savollar asosida o‘tkaziladi.

Tabiiyki, to‘g‘ri o‘qish malakasini egallamay turib, boshqa malakalarni hosil qilib bo‘lmaydi. Bunga erishish uchun esa, o‘quvchini ko‘proq o‘qitish lozim.

To‘g‘ri o‘qish malakasini hosil qilish uchun quyidagi ish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1) Ko‘p bo‘g‘inli va talaffuzi qiyin so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib, so‘ng o‘qish.

2) Tanish matnlarni qayta o‘qitish, o‘qish sur’atini asta - sekin oshirib borishi orqali notanish matnlarni ham tutilmay o‘qish iqtidoriga ega qilinadi.

3) To‘g‘ri o‘qishni ta’minlashda tovush, bo‘g‘in va so‘zlarni to‘g‘ri, aniq talaffuz etish katta ahamiyat kasb etadi. Aytishda "p" yozilishda "b" yoziladigan so‘zlarni to‘gri o‘qishga o‘rgatish (kitob, serob,) r tovushni o‘rniga ya, y deb (bayroq, bayloq o‘rtoq- o‘ytoq) talaffuz etishlariga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

4) Tez aytish usulidan foydalanish o‘qish malakasini takomillashtirishning eng qulay vositalaridan biri hisoblanadi. Tez aytishda avval so‘z va jumlalar sekin, aniq aytiladi, yod olinadi so‘ng, asta - sekin talaffuz etish sur’ati tezlashtiriladi, dastlab o‘qituvchi tez aytishni o‘quvchilar bilan birgalikda bir-ikki marta aytadi. So‘ng o‘zlariga takrorlatadi.

5) To‘g‘ri o‘qish malakasini hosil qilishda, o‘quvchilarning o‘qishlariga aslo yo‘l qo‘ymaslik lozim. Aks holda, o‘quvchi o‘rtog‘ining o‘qiganlarini yoddan takrorlashga odatlanib, o‘qilayotgan asar mazmunini tushunmay qoladi.

6) To‘gri o‘qish malakasini ayrim hollarda xor bilan o‘qish orqali o‘quvchilarga osonlikcha singdirish mumkin. Topishmoq, maqol, kichik she’riy parchalar sekin o‘qiladi, o‘quvchilar so‘zlar bilan tanishib olgach, birgalikda xor bilan o‘qitiladi.

7) O‘qilgan matn mazmunini so’zlab berishga undash uchun o‘quvchilarga turli xildagi savol- topshiriqlarning berilishi, ayniqsa, muhim ahamiyatga molikdir.

O‘qish darslarida o‘quvchilarni to‘g‘ri o‘qish malakalarini rivojlantirishda guruhlarda ishlash katta samara beradi. Bunda biror matnni tanlab u yuzasidan har bir guruhga turli topshiriqlarni turli fanlar bilan bog‘lagan holda berish, ya’ni integrasiyalash orqali o‘quvchilarda to‘g‘ri, ongli o‘qish bilan birga, shu matn orqali boshqa fanlardan olgan bilimlari mustahkamlanib, o‘quvchida fanlarni integrasiyalashga va ayniqsa, ona tili mavzulari bilan o‘qish fanini bog‘lash katta qiziqish va ishtiyoq uyg‘otadi.

ASAR TAHLILI JARAYONIDA MATN USTIDA ISHLASHNING QUYIDAGI TURLARIDAN FOYDALANILADI:

1. Tanlab o‘qish. Tanlab o’qish vazifalari o’quvchida diqqatni bir nuqtaga qaratish imkoniyatini yaratishda yordam beradi. Bunda o‘quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o‘qiydi. Berilgan vazifa ham matnning qandaydir qismida berilganligi bilan xarakterlanadi. O’quvchi matn mohiyatini

anglagan bo’lsa, berilgan savol yoki topshiriq yuzasidan ma’lumotni matnning qaysi qismidan topishni biladi. Vazifa asarning mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog‘lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o‘qilgan matnga o‘z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lishi mumkin. Tanlab o’qish uchun o’quvchi berilgan topshiriqqa mos qismni topib o’qish uchun matnni kuzatish va unga ko’z yugurtirish usullarini qo’llay olish malakasiga ega bo’lishi kerak. Bu malakalar quyidagicha shakllantiriladi.

a) Gorizontal zik-zak



b) Vertikal zik-zak



c)Matnning boshi, o’rta qismi va oxiridan oz qismdan o’qib matndan kerakli ma’lumotni tanlab o’qish



Tanlab o’qish uchun o’quvchilarga masalan, 4-sinf o’qish kitobidan **“Oltin kuz”** matnidan **“Tabiatdagi o‘zgarishlar berilgan qismlarni topib o‘qing”, “Baqa va taqa”** masalidagi **“Taqachining nasihati berilgan joyni topish o‘qing”** kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Tanlab o‘qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. Tanlab o‘qishdan matn ustida ishlashning barcha bosqichlarida turli xil qiyinchilikda, murakkablikda foydalaniladi. U o‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlarini o‘stirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehnini o‘stirishga yordam beradi. Tanlab o‘qishning yana ham murakkabroq turlari matndan sabab-natija munosabati bilan bog‘langan dalillarni taqqoslashni, umumlashtirishni talab qiladigan o‘rinlarini topib o‘qish hisoblanadi.

Masalan, 4-sinf darsligidan Normurod Norqobilovning “Xarita” hikoyasini ko‘rib o‘tamiz. **“Xarita” (Normurod Norqobilov)** hikoyasi yuzasidan topshiriqlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

− Sinf rahbari Rasulni nima uchun Samadga biriktirib qo‘ydi? Shu o‘rinni topib o‘qing.

− Samadning Rasuldan arazlash sababi ifodalangan o‘rinni toping. Bunda o‘quvchi biror qatnashuvchi shaxs o‘zini qanday tutishini, nima uchun u

shundayligini tasdiqlash uchun matndan material tanlab o‘qiydi. Tanlab o‘qish ongli va ifodali o‘qish malakasini shakllantirishni matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish bilan birga qo‘shib olib borishga, o‘quvchilarning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehnini o‘stirishga imkon beradi. Shuning uchun undan o‘qish darslarida keng foydalaniladi.

Tanlab o‘qish matn rejasini tuzishda (matn qismiga uning mazmunini ifodalaydigan gapni, ya’ni reja qismini topishda) **qahramonga tavsif berish** (matndan qahramonning muayyan bir xususiyatini, harakatini tavsiflovchi materiallar tanlash)da, **asar g‘oyasini aniqlash** (g‘oyani anglatgan o‘rinni topib o‘qish)da tatbiq etiladi.

2.<u>Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarga o‘quvchilarning o‘z so‘zlari bilan javob berishi.</u>

Mashqning bu turi o‘quvchilarda o‘qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko‘nikmasini o‘stirishga, asarda qatnashuvchi qahramonlarni baholashga, muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g‘oyasi o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan va muayyan izchillikda bo‘lishi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida savol va topshiriqlar qaysi maqsadga yo‘naltirilganiga ko‘ra quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Asar mazmunini o‘zlashtirish va qayta hikoyalashga doir savol - topshiriqlar.

2. Asar tilini o‘rganish va o‘zlashtirishga doir savol-topshiriqlar.

Matn yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarga o‘quvchilarning o‘z so‘zlari bilan javob berishi uchun avvalambor o’quvchida lug’at zaxirasi mavjud bo’lishi kerak. Lug’at bazasini paydo bo’lishi uchun o’qituvchi tomonidan bir qancha metodik ishlar amalga oshirilishi muhim. Masalan bu ishlar tovush va harflarni o’tib bo’lgandan so’ng, harflarni mustahkamlash jarayonida tashkil etilishi lozim. 2-sinf ona tili va o’qish savodxonligi

darslarida o’quvchilarning lug’ar doirasini boyitish uchun alifbo harflari mavzu qilib olinadi.

Masalan:

“A” o’yini

O’yinda o’quvchi o’zbek tilida **“a”** harfi bilan boshlanuvchi so’zlarni turli manbalardan topib yozishi va maxsus daftarga to’plab borishi kerak. **Asal, ayiq, ayg’ir, ayyor, aql, ayvon, ayb, asal, achchiq, ayron, atir, abadiy, aytmoq…**

“B” o’yini

Bahor, bobo, botir, boqiy, barhayot, betakror, bino, baland, Buxoro, bog’, bunyod, barpo…

“D” o’yini

Diyor, dona, do’lana, doira, dazmol, dastur, daftar, diyor, davra, do’st, dushman, davo, dashnom…

Hamma harflar doirasida shu tarzda ishlangandan so’ng har bir o’quvchida so’zlar zaxirasi to’planadi. O’quvchida so’z doirasi to’plangach, unda bog’lanishli nutqning shakllanish uchun mavjud so’zlardan foydalangan holda gaplar tuzish mashqlari amalga oshiriladi.

Masalan:

1.Ayyor ayiq aqlli asalarini aybladi. Asalari atirgul atrofidan amallab aylandi.

2.Bizning boqiy Buxoromizda baland-baland binolar bor. Bu binolar buyuk bobokalonlarimizning betakror bunyodidir.

3.Doktor Diyora doim do’stlarini davolaydi.

Keyingi bosqichda o’quvchilarga matn tuzish vazifasi beriladi.

Masalan: “Ch”

Chakalakzor chetiga chirmashgan chirmovuqqa chiqqan chigirtka chirillab chumolini chaqirdi. Chirillayotgan chigirtka chinqirig’dan chayladagi chumoli cho’l chetini chamalab chopdi. Chaylada chuchvarani cho’lpillatib chaynayotgan cho’pon chigirtkaning chirillashidan cho’chidi.

Chamanda chumchuq chirqilladi. Chirqillagan chumchuq chuqurdagi chuvalchangni cho'qidi. Chopganidan chanqagan chumoli chelakka cho'kdi…

Sabab-natija tarzidagi savollardan ham foydalaniladi. Agar o'qituvchi asar g'oyasini tushunishda o'quvchilarga yordam berishni ko'zda tutsa, savol sabab-natija tarzida bo'ladi. Anvar Obidjonning "Odobli bo'lish osonmi?" ertagi (4-sinf) g'oyasi o'quvchilarni salomlashish odobi bilan tanishtirish, ularda muomala madaniyatini tarbiyalashdir. Ertakdagi asosiy fikrni aniqlash uchun o'qituvchi "Anvar Obidjon aytmoqchi bo'lgan salom berish mavridlarini o'z so'zingiz bilan aytib bering", "Nima uchun echki sichqonga nasihat qildi?", "Toshbaqaning sichqoncha haqidagi fikrini gapirib bering" kabi savol-topshiriqlardan foydalanishi mumkin. Qambar O'taevning "Non qayerdan keladi?" (4-sinf) she'ri asosida esa "Non nima? Uni ta'riflang", "Non qayerdan kelar ekan?", "Nonni nima uchun qadrlash kerak?" kabi savol-topshiriqlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda savol-topshiriqlarga javob berishga katta o'rin berilgan. O'qituvchining vazifasi ana shu savol-topshiriqlar ustida ishlash usullarini oldindan belgilab olishdir. Ijodiy xarakterdagi savollar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. 4-sinf «O'qish» kitobidan o'rin olgan «Qodir bilan Sobir» matni yuzasidan o'quvchilarni o'z fikrini aytishga undovchi «Sobir o'qishdan kechikish sababini ochiq aytib to'g'ri qildimi?», «Uning o'rnida siz bo'lganingizda nima qilardingiz?» kabi savollar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqini o'stiradi va matnni yaxshi o'zlashtirishlariga yordam beradi. Asardagi voqealar tizimiga oid savol-topshiriqlar tuzish va undan tahlil jarayonida ijodiy foydalanish ham kata ahamiyatga ega.

3. Matn asosida o'quvchilarni savol berishga o'rgatish. O'quvchilarni savol berishga o'rgatish matn ustida ishlashda yaxshi natija beradi. Metodist olimlarning fikricha, to'g'ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo'ladi.

O‘quvchilar matnni ongli o‘zlashtira olsalargina, matn yuzasidan savol bera oladilar. O‘quvchilarga savol berishni o‘rgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarni ongli ravishda savol tuzishga o‘rgatish uchun o‘qituvchi matnga o‘zi tuzgan yoki «O‘qish kitobi»da berilgan savollarni tahlil qiladi. Tahlil uchun “Nega u yoki bu savol qo‘yilgan?”, “Unda kim yoki nima haqida gap boradi?”, “Savol ko‘proq qaysi so‘zlar bilan boshlanadi?” kabi savollarni ishlatadi va matndan foydalangan holda bu savollarga javob berishni o‘rgatadi. Ikkinchidan, o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini matnga savol tuzish yo‘liga qaratadi va savol tuzishdan oldin matnni diqqat bilan o‘qish, qatnashuvchi shaxslarni ko‘rsatish, savol tuziladigan qismni ajratish kerakligini tushuntiradi. Savol tuzishga o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichida bu mashq jamoa bo‘lib bajariladi va ta’limiy xarakterda bo‘ladi; buning uchun qulayroq savol ajratilib, nima uchun u qiziqarli ekani yoki, aksincha, noqulay bo‘lsa nima uchun noqulayligi tushuntiriladi.

Masalan: 3-sinfda **“Ahillik ulug‘ baxt”** ertagida **“Odamlarning cholning o‘quvchilari haqidagi fikri yuzasidan savol tuzing”** topshirig‘i berilgach, o‘quvchilar “Odamlar aqlli cholning o‘quvchilari haqida nima deyishdi?” kabi savol tuzishlari mumkin.

4-sinfda **“Qovun sayli” (Sh.Sa’dulla)** hikoyasi yuzasidan savol tuzish topshirig‘i quyidagicha beriladi:

− Hikoyadagi birinchi xat boshini o‘qing va shu qism yuzasidan savol tuzing.

− Hikoyadagi birinchi xat boshida qo‘llangan so‘zlarning ma’nosini izohlash bo‘yicha savol-topshiriqlar tuzing. (Bejirim, serto‘r so‘zlarining ma’nosini izohlang)

− Hikoya qahramonlari yuzasidan savollar tuzing va shu kabilar. Keyinchalik o‘quvchilar muhokama va ijodiy savollar berishni ham o‘zlashtirib oladilar.

4. Matnni tasvirlash. Matnni tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, undan to‘g‘ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlagan hayotiy

manzaralarni o‘quvchilar aniq tasavvur qilishlari uchun qulay imkoniyat yaratadi. Matnni ikki xil tasvirlash mumkin:

A) SO‘Z BILAN TASVIRLASH

Masalan**, 4-sinf “O‘qish kitobi”dagi Qudrat Hikmatning “Bahor”** she’ri asosida “She’rda dastlab nimalar haqida gapiriladi?”, “She’rdagi fikr yuritilgan narsalarni ketma-ket aytib bering”, “Shoir bahorni tasvirlashda qanday tasvir usullaridan foydalangan?” kabi savol-topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilar faolligi oshiradi. Savol-topshiriqlar ustida jamoa, juft va yakka tartibda ishlash mumkin.

Yoki she’rdagi tabiat tasvirini matn, hikoya, ertak yoki boshqa janrdagi asarga aylantirish asosida so’z orqali tasvirlash vazifasi beriladi. Masalan:

O’quvchilarga she’r matni beriladi. She’rga qarab o’quvchilar ertak yoki hikoya, yoki yangi she’r tuzishi kerak.

“Bahor kunlarining birida ikki o’rtoq uchrashib qolishdi. Ular bahor tabiatining go’zalligidan bahramand bo’lib anhor yuzini yelpiyatgan mayin shamollar iforidan rohatlandilar. Qirg’oqdagi tollar soyabonlar kabi tizilishib, oynadek suv yuzida o’z aksini ko’rayotganga o’xshardi. Tong yellari jiydazorga kirib yo’qolgandek mayin o’ynoqlardi. Maysa-o’tlar esa ularning orqasidan kuzatib qolgandek tebranar edilar. Shu payt ikki o’rtoqning diqqati tutlar ustiga o’g’zida cho’p-xas olib, in qurish uchun harakat qilayotgan qushlarga tushdi. Osmono’par teraklar ham bahorda kulrang po’stiga oro bergandek ko’rinardi. Yam-yashil o’tloq singari bepoyon bedapoyalar, chinorlarda chug’urlayotgan qushlarga e’tibor bermasdan bo’lmasligi, bu manzara bahorning ko’rkiga yanada husn bag’ishlayotganligi ikki o’rtoqni chamanzordek gullagan o’z ona Vatanini yanada ko’proq sevishga chorladi.”

B) GRAFIK TASVIRLASH

Bunda o’quvchilar matn asosida rasm chizishlari kerak. Bunday vazifalar asosan uyda beriladi. Rasm chizish uchun matnningalohida qismi tanlanishi

ham mumkin. **Masalan: “Chumchuqlarning og’zida cho’p-xas”, “Soyabon tollar – oyna - suvda ko’rar o’zini…” va h. k**

5. Asar rejasini tuzish.

Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o‘zaro bog‘lanishini tushunishda o‘quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo‘lishga va har bir qismning asosini topishga, ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o‘rganadilar. Buning uchun **“Sarlavhasiz matnlar”** usulidan foydalanish yaxshi samara beradi. Dastavval o’quvchilarga notanish matn berib, uni nomlash ko’nikmasi ko’nikmasi shakllantiriladi. Bu ko’nikma shakllangach, badiiy asarni bir necha qismlarga bo’lib, har bir qismiga mos umumlashtiruvchi fikr yoki gap orqali sarlavha qo’yiladi. Shunga qarab badiiy asar rejasi tuziladi.

Nazorat savollari

1.Badiiy asarni o’qishga tayyorgarlik ishlarining vazifalari qaysilar?

2.Matn ustida ishlashning necha usuli mavjud?

3.Matn asosida o‘quvchilarni savol berishga o‘rgatishda qanday usuldan foydalanish mumkin?

4.Lug’at ustida ishlashning qanday turlari mavjud?

2.3. O‘QISH DARSLIKLARIDAGI MATNLAR ASOSIDA PIRLS TOPSHIRIQLARINI YARATISH VA UNI BAHOLASH MEZONLARI

O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

PIRLS xalqaro tadqiqotida asosan o‘quvchilarning dars vaqtidagi va maktabdan tashqari vaqtdagi ikki turdagi o‘qish savodxonligini baholanadi:

- O‘quvchilarda badiiy o‘qish savodxonligi ko‘nikmasini shakllantirish

va rivojlantirish

- Axborotni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish

Tadqiqotda o‘quvchilar badiiy va axborot (ilmiy-ommabop) matnlarni o‘qish qobiliyatlari to‘rt guruhda baholanadi:

- Aniq shaklda berilgan matndan ma’lumot topish
- Matnning mazmunini, til xususiyatlarini va tuzilishini tahlil qilish va baholash
- Axborotni umumlashtirish va talqin qilish
- Berilgan matndan xulosa chiqarish

Ilmiy-ommabop maqolalarni o’qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarga tabiat, kishilar mehnati va ijtimoiy hayoti haqida muayyan bilim berish, o‘quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashga va undan aniq bilim olishga o‘rgatishdan iborat. Ilmiy prozada real muhit faktlarini kuzatish natijasining mantiqiy umumlashmalari va xulosalari hisoblangan aniq tushunchalar aks ettiriladi.

Tabiatshunoslikka oid (1-sinfda) va tarixiy mavzudagi maqolalarni o‘qish bilan bog‘liq holda tabiat xodisalarini kuzatish (masalan, daraxt kurtaklarining bo‘rtishi), o‘quvchilarni xalqimizning mehnati bilan tanishtirish, mamlakatimizda yuz bergan o‘zgarishlarni, Vatan urushi, quruq yerlarni o‘zlashtirish, zavodlar, elektr stantsiyalari qurilishi kabi buyuk tarixiy voqealarning guvohi va ishtirokchilari bo‘lgan kishilar bilan uchrashuvlar uyushtirish maqsadga muvofiq.

1-sinf dasturida o‘qish bilan bog‘liq holda kuzatish, ekskursiya, predmet darslar mo‘ljallanadi. Masalan, yil fasllari (kuz, qish, bahor, yoz)da mavsumiy tabiat hodisalari (ob-havoning o‘zgarishi, o‘simlik va hayvonlarning hayoti)ni, shuningdek, kishilarning mehnatini kuzatish uchun tabiatga (dala, bog‘, hiyobonlarga) ekskursiyalar o‘tkazish ko‘zda tutiladi. Ekskursiyalar bilan bog‘liq holda predmet darslar o‘tkazilib, o‘quvchilarning o‘zlari yiqqan, shuningdek, o‘qituvchi olib kelgan daraxt kurtaklarini, gullar, turli o‘simlik va

boshqalar o‘rganiladi. Ekskursiyada ko‘rganlaridan tashqari, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar va kishilarning mehnati yuzasidan o‘quvchilarning uzoq kuzatishlari uyushtiriladi. Predmet darslarida ko‘rgazma sifatida o‘quv kinofilmlaridan ham foydalanish mumkin.

Tarixiy mavzudagi maqolalarni unga mos rasmlar bilan bog‘lab o‘qitish kishilar ilgari baxtli hayot uchun, o‘z hayotlarini yaxshilash uchun, ota-boo‘quvchirimiz dushmandan vatanni saqlash uchun qanday kurashganliklarini tushunib yetishga yordam beradi. O‘quvchilar mehnat hayotning asosi ekanini, kishilar hayoti mehnat tufayli rivojlanib, farovonlashib borishini bilib oladilar.

Mavjud dasturga ko‘ra, 2-sinf o‘quvchilari «Toshkent metrosi» mavzusidagi maqolalarni, 4-sinfda esa «Asrga tatigulik kun» (Safar Barnoev) asarini o‘qish orqali o‘tmish ajdodlarimiz, ularning xizmati, vatanimizning hozirgi taraqqiyoti haqida bilib oladilar. Bu maqolalar xalqimizning hayoti, mehnati, kurashi haqida yangi bilim berishi bilan birga, o‘quvchilarni Vatanga, xalqqa, ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi, mehnat qilish zarurligini tushunishlariga yordam beradi.

Ilmiy-ommabop maqolalarni izohli o‘qish darsni uyushtirishda quyidagi reja varianti (jadvali) asos qilib olinadi:

1) *o‘qiladigan matn yuzasidan o‘quvchilar tajribasi va bilimini aniqlash, ularni matn mazmunini tushunishga tayyorlash maqsadida taxminiy suhbat o‘tkazish;*
2) *maqolani yoki uning bo‘limini o‘qish, ayrim so‘zlarning ma’nosini tushuntirish;*
3) *maqola yoki uning bo‘limi rejasini tuzish;*
4) *o‘qilgan maqola yuzasidan suhbat;*
5) *o‘qilgan bo‘limni asosiy mazmunini aniqlashga reja qismlarini yozish;*
6) *reja asosida maqolani qayta o‘qish;*
7) *maqolani yaxlit o‘qish, bunda o‘quvchilarni qayta hikoyalashga tayyorlash va maqola mazmunini yaxshi o‘zlashtirishlariga erishish maqsadi ko‘zda tutiladi;*

8) xulosalash va umumlashtirish;

9) reja asosida qayta hikoyalash.

Ilmiy-ommabop maqolalar o‘quvchilarni gazeta va jurnallarni o‘qishga tayyorlaydi, ijtimoiy-siyosiy, tabiatshunoslik atamalarini o‘zlashtirishga yordam beradi, ularning mantiqiy tafakkurini va nutqini o‘stiradi.

Boshlang’ich sinf o’qish darslarida ilmiy-ommabop matnlar bilan birga turli janrdagi asarlar berilgan. Bunday asarlar turkumiga masal janri ham kiradi.

Masal axloqiy mazmunni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. U ko‘proq she’riy tarzda yoziladi. Masalda inson xarakteriga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o‘simliklar dunyosiga ko‘chiriladi. Ko‘pincha masalning kirish qismida, ba’zan oxirida qissadan hissa, ya’ni ibratli xulosa chiqariladi. Bu o‘quvchilarni axloqiy tomondan tarbiyalashga katta imkon beradi.

Masalda fikrning chiroyli va ifodali tasvirlanishi, tilining o‘tkirligi va xalqchilligi o‘quvchilar nutqi va taffakkurini o‘stirishda muhim material hisoblanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugal, kulminatsion nuqta va yechimi bo‘lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa va mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo‘la oladi.

O‘quvchilarni masaldagi kinoyaviy mazmun emas, balki, birinchi navbatda. obrazlarning go‘zalligi o‘ziga jalb qiladi. Shuning uchun masal ustida ishlashni hayvonlar hayotidan yozilgan hikoya ustida ishlash kabi uyushtiriladi. Odatda, masal personajlari o‘z xatti-harakatlari, fe’l-atvorlari bilan, nutqiy uslublari, odatlari bilan o‘zlarini tavsiflaydilar, ba’zan bu xarakteristikani masalning boshqa personaji to‘ldiradi. Avtorning o‘zi esa, bir-ikki so‘z bilan xarakteristikasini mukammallashtiradi.

Sinflarda masalni o‘rganishda, o‘quvchilarni masalni ifodali o‘qishga va uning mazmunini qisqa, ba’zan bir necha so‘z bilan aytib berishga (masalni to‘liqligicha hikoya qildirish tavsiya etilmaydi), ayrim qatnashuvchilarning xarakterli xususiyatlarini aytib, o‘zaro qiyoslashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Masalning allegorik mazmuniga to‘xtalmasdan, bosh personaj obrazini tahlil qilishga kirishiladi.

1-sinfda o‘quvchilar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o‘xshash kulgili hikoya kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab, ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabatlari ba’zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko‘proq she’riy

tarzda bo‘lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar.

Masal tili ustida ishlaganda, o‘quvchilar nutqini boyitish uchun unda ishlatilgan obrazli iboralar, badiiy vositalar o‘quvchilarga mustaqil topshiriladi.

O‘quvchilar o‘qituvchi bergan gap yoki iborani masaldagi ibora bilan almashtiradilar. Masalan, Shukur Sa’dullaning «Laqma it» masalining tili ustida ishlash jarayonida o‘qituvchi “Qish kelib sovuq boshlandi”, “Bo‘ron turdi” gaplarini beradi, o‘quvchilar gaplarni topib aytadilar. Masal tahlil qilinayotganda voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o‘quvchilarga yordam berish zarur. Shunga ko‘ra, ularga ayrim epizodlarni so‘z bilan tasvirlash, ba’zilariga o‘qituvchi yordamida xarakteristika berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo‘lib o‘qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Qahramonlarga xarakteristika berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o‘qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, avtor tilini yaxshi tushunish, har bir personajning individual xarakterini hisobga olish zarur. Masalan, «Laqma it» masalini o‘qiganda, laqma itning yalinib-yolvorishi, mushukning to‘g‘ri so‘zligi muomalasi orqali ifodalanadi. Dialogli masallarni rollarga bo‘lib o‘qish, inssenirovka qilib, ertaklardek ayttirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, masal ustida ishlash quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- masal mazmunini aniq idrok etish;
- kompozitsiyasi, qatnashuvchilarning xarakteriga xos xususiyatlarini, xatti-harakatlarining sabablarini ochish;
- allegoriyani aniqlash;
- “Qish keladi qilich olib, Bo‘ron bilan dovrug‘ solib”- masal qismlaridagi asosiy fikrni aniqlash;
- masal xulosasini tahlil qilish.

Mana shu izchillik hisobga olinsa, masal o‘qish darsining qurilishi quyidagicha bo‘ladi:

1. Tayyorgarlik ishlari (bunda masalning xususiyatlari va qaysi sinfda o‘qitilishiga mos ravishda ish turlari tanlanadi):

- ***masal avtori haqida o‘qituvchi hikoyasi;***
- ***o‘qilgan masal materiali yuzasidan viktorina (savol****-javob o‘yini);*
- ***o‘qilgan masalda qatnashuvchi shaxslar (hayvonlar) xarakteriga xos xususiyatlar haqida suhbat.***

2. Masalni o‘qituvchi o‘qishi (magnitafon yozuvini eshittirish yoki film ko‘rsatish). Emotsional baholash asosida suhbat.

3. Masalning aniq mazmunini analiz qilish:

▪ *masalning strukturasi va kompozitsiyasini aniqlash (o‘qish, reja tuzish va hokazo);*

▪ *qatnashuvchilarning xatti—harakati, fe’l—atvori sabablari, xarakterini o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish (tanlab o‘qitish, so‘z bilan va grafik rasm chizish, savollarga javob);*

▪ *masalning aniq mazmunidan kelib chiqib undagi asosiy fikrni belgilash.*

4. Allegoriyaisini ochish.

5. Asosiy xulosa aks ettirilgan qismni tahlil qilish.

6. Hayotda uchragan o‘xshash janrlarga taqqoslash.

O‘qish oddiy bo‘lishi kerak. O‘qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, hursandlik, qahr-g‘azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo‘l qo‘ymaslik zarur. O‘quvchilar she’rni o‘qiganda, she’riy satrga rioya qilishlari, she’r ritmini buzmasliklariga erishish lozim.

She’r mazmuni ham, boshqa janrdagi badiiy asarlar kabi, savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she’r mazmuni haqida o‘quvchilarga ko‘p savol berish tavsiya etilmaydi. O‘quvchilar she’rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o‘zi kifoya.

Masalan, 4-sinf o‘quvchilari Qudrat Hikmatning «Qish to‘zg‘itar momiq par» she’rini o‘qiganda, “qaysi fasl haqida o‘qidingiz?” Savoliga javob berishlari yetarli;

4-sinf o‘quvchilari shu shoirning «Bahor» she’rini o‘qiganda, o‘qituvchi «She’rda yilning qaysi fasli haqida o‘qidingiz?” (Bahor), «Shamol haqida nima deyiladi?”, “Terak, bedapoya, qushlar haqidachi?» savollarini beradi. Shuni ham aytish kerakki, o‘quvchilar hayoti, ularning o‘ziga xos fikrlari, his-tuyg‘ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz va o‘tmishdagi avlodlarimizning qahramonona ishlari haqidagi she’rlar mazmunini to‘liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she’rlarni o‘qishga o‘quvchilarni maxsus tayyorlanadi. She’r mazmuniga asos Bo‘lgan tarixiy voqea haqida qisqa so‘zlab beriladi yoki suhbat o‘tkaziladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan ko‘pgina she’rlarni tahlil qilib, ifodali o‘qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi (o‘quvchilar darsda ifodali o‘qimagan she’rni uyda ifodali yod aytib berishga tayyorlanishni tavsiya etilmaydi).

O‘quvchilar she’rni yoqtiradilar. She’riy nutq yengil yodlab oq’iladi, estetik his-tuyg‘u uyg‘otadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar saviyasiga mos o‘quvchilarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor

she’rlarni o‘quvchilar tez va oson yodlab oladilar, keyin yoddan ifodali o‘qiydilar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga she’rni qanday yodlash kerakligi o‘rgatiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan she’rni teng satrli bir necha qismga bo‘ladi. O‘quvchilarga har bir satr oxirida ritmik pauza qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgi bo‘lishi shart emasligi, ritmik pauzada ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi va bo‘lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

4-sinf (darslik asosida)

O‘qish texnikasini tekshirish.

1- topshiriq

1-vazifa. Ertak matnini sekin, yarim ovozda o‘qib chiqing. O‘qituvchining ishorasi bilan o‘qiyotgan joyingizni belgilab qo‘ying.

2-topshiriq.

1-vazifa. Matnning bu qismida ertakning qanday xususiyatlarini uchratish mumkin:

a) sehrgarlik ishlari

***b) sehrli buyumning mavjudligi**

v) sehrgarning harakatlari

2-vazifa. Matndan sizning oldingi javoblaringizni tasdiqlovchi gaplarni belgilab chiqing. (– Sen menga maymunjon berding, men senga biron narsa sovg‘a qilaman. Mana senga xurmacha, sen faqat shuni aytishing kerak: Bir, ikki, uch, xurmachada shavla pish.)

3-vazifa. Boshqa ertaklarda ham qahramoni sehrli buyumga ega bo‘lgan shunga o‘xshash voqealar uchraydimi? Qaysi ertaklarda? Javobingizni yozing**.**

(«Ur to‘qmoq!», «Uch og‘ayni botirlar» “Sehrli nay”, “Sehrli uzuk”…)

Maktab tajribasidan ma’lumki, kichik yoshdagi o‘quvchilar ertakdagi hayvonlar gapirmasligini, tulki va turna bir-birinikiga mehmonga bormasligini yaxshi biladilar, ammo ertaklar dunyosini hayotiy hikoya kabi qabul qiladilar. Ertakni o‘qib, tahlil qilganda, barcha ishlar uning mazmunini yaxshi idrok etishga, syujet rivojini, qatnashuvchi personajlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tasavvur etishga yo‘naltiriladi. Ertak ustida ishlashning oxirgi bosqichida «Ertakda sizga juda yoqqan joyini o‘qing. Nima uchun yoqqanini ayting. Hayotingizda mana shu ertakdagiga o‘xshash voqealar bo‘lganmi?» kabi savol-topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning ertak xulosasini tushunishlariga erishiladi.

Ertak o‘quvchilar uchun ertakligicha qolishi va o‘quvchilar hayotidagi hodisalarga avtordek yondashishga o‘rganishlari uchun shuning o‘zi bilan kifoyalanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayvonlar haqidagi ertaklardan tashqari, «Davlat», «Ovchi, Ko‘kcha va Dono», «Ilm afzal» kabi ertaklarni ham o‘qiydilar.

O‘quvchilarni bunday ertaklarni o‘qishga tayyorlash ilmiy-ommabop maqolalarni o‘qishga tayyorlash kabi bo‘ladi (kuzatish, ekskursiya, predmet darslari), ertakni o‘qish va tahlil qilish badiiy hikoya tarzida uyushtiriladi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida ertakda qatnashuvchilarning xulq-atvori, ayrim xatti-harakatlarini baholaydilar, ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini aytadilar va shular asosida ayrim obrazlar haqida xulosalar chiqaradilar, ertak rejasini tuzadilar, ertak qismlarini rollarga bo‘lib o‘qiydilar.

O‘quvchilar, 4-sinfda o‘qiydigan «**Davlat»** ertagini olaylik, bu ertak oddiy turmushga tegishli elementlarni tasvirlovchi ertakdir. Ertakda fantastika bo‘lganligi uchun o‘quvchilarni ertakni o‘qishga taxminiy tayyorlashni talab qiladi.

Ertakni o‘qishga tayyorlash uchun o‘quvchirimiz atrofni, tabiatni, borliq dunyoni qanday tasavvur etishlari haqida suhbat o‘tkaziladi. Bunday suhbat ertakdagi badiiy obrazlarni, ularning o‘zaro munosabatlarini, xulq-atvorlari, xarakterlarini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Ertak ustida ishlashda o‘quvchilarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, o‘quvchilar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi, ona tiliga muhabbatni tarbiyalaydi.

1-sinfdayoq ertak tilidan erkin foydalanishga o‘rgatish uchun ertak bilan birinchi tanishtirishda uni (agar ertak hajmi katta bo‘lmasa) o‘qituvchi aytib berishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, ertakni izohli o‘qish darsining ko‘rinishi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1) o‘quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash;

2) o‘qituvchining ertakni ifodali o‘qishi, yod aytib berishi;

3) ertakni o‘quvchilar qanchalik idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o‘tkazish;

4) ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish va tahlil qilish; undan ayrim tasviriy vositalar, sinonim so‘zlarni topish, ayrim so‘zlar ma’nosini tushuntirish;

5) ertakni aytib berishga tayyorlanish (ichda o‘qish);

6) ertakni aytish;

7) umumlashtiruvchi suhbat (ertak g‘oyasini ochish);

8) ma’lum vazifa bilan ertakni qayta oq’ish;
9) vazifani tekshirish va yakunlash (Nima uchun ertakni qiziqib o‘qidik?);
10) uyda boshqalarni ham qiziqtiradigan qilib ertakni o‘qib (yoki aytib) berishga tayyorlanish.

3-TOPSHIRIQ

SHE’R TAHLILI: O‘QILGANNI TUSHUNISH, TASVIRIY VOSITALARNI ANGLASH, OHANG TANLAY OLISH, QOFIYANI ANIQLASH



SUV BILAN SUHBAT

Zafar Diyor

– Hoy, sen, jiyron toychamdek
O‘ynab-o‘ynab oqqan suv,
Dalalarga bayramdek
Guldan bezak taqqan suv.
Quloq solgin so‘zimga,
Nega buncha shoshasan?
Qayerdan bu kelishing,
Qirg‘oqlardan toshasan?

– Yaxshi bola, toychangdek
O‘ynab-kishnab kelishim,
Qir, adirlar oralab
Shamol kabi yelishim,
Ko‘rasanmi, hu o‘sha
Oppoq qorli tog‘lardan,
Shoshib oqib kelaman
Dalalardan, bog‘lardan.

1-vazifa. She’rni past ovozda o‘qing. She’rni qanday ohangda o‘qigan ma’qul deb o‘ylaysiz?.
*a) xotirjam, mayin;
b) g‘amgin va qayg‘uli;
v) quvnoq, tantanali ohangda
2-vazifa. She’rdagi qaysi misralarda suvning kayfiyati ifodalangan? To‘lqinli chiziqlar bilan belgilang.
3-vazifa. She’rda shoir suvni nimalarga o‘xshatgan? Mana shu misralarni aniqlang. (– Hoy, sen, jiyron toychamdek, Shamol kabi yelishim.)
4-vazifa. Qofiyadosh qatorlarni qalam bilan birlashtiring. (Toychamdek-bayramdek, shoshasan-toshasan, kelishim-yelishim, tog‘lardan-bog‘lardan,).

She’r - janr jihatidan ma’lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik, (ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solish vositalari ritm) qofiyali (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil bir me’yorda takrorlanib kelishi va so‘zlarning mosligi) asar hisoblanadi.

She’rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she’r tarzida yozilgan hikoyalar va lirik she’rlar o‘qitiladi.

She’riy hikoyada syujet, ya’ni voqealar sistemasi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she’r biror hayotiy voqea-hodisa ta’siri ostida tuzilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ularni aks ettiradi.

She’rni o‘tish darslarida asosiy ish turi ifodali o‘qish hisoblanadi. O‘quvchi she’rning asosiy (g‘oyaviy) mazmunini tushunsagina, fikrni ifodalay oladi. Shuning uchun she’rni tahlil qilish, uning mazmunini o‘quvchilarga tushuntirish lozim.

She’rni tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilish kabi turlaridan foydalanish mumkin. Tursunboy Adashboevning «Navoiy bobomlar» she’riy hikoyasi mazmuni savollar yordamida gapirtirilishi mumkin. Ammo lirik she’rni tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Lirik she’rni o‘qish darsida eng asosiy ish turi uni his-xayajon bilan ifodali o‘qishdir. She’r ifodali o‘qilgach, undagi tushuntirish zarur bo‘lgan so‘z va iboralar ikki-uch so‘z bilan izohlanadi.

She’rni o‘qishdan oldin ba’zan, unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o‘tkaziladi yoki she’r mazmunini tushuntirish uchun o‘quvchilar bilishi lozim bo‘lgan voqealarni o‘qituvchi aytib beradi. Ba’zi she’rlarni o‘qishga o‘quvchilarni uzoqroq tayyorlash, masalan, Qudrat Hikmatning «Qish», «Bahor» she’rlarini o‘qishdan oldinroq tabiatni kuzatish, boqqa, qir-adirlarga ekskursiya o‘tkazish maqsadga muvofiq. Turli o’yinlardan foydalanib she’r matni ustida ishlash ham yaxshi samara beradi.

Masalan:

“Misrani tugat” o’yini. Bu o’yinda o’quvchilar har bir misrani to’g’ri ketma-ketlikda qo’yib chiqishi, ikkinchidan misradagi tushib qolgan so’zlarni, o’ng tomonda berilgan so’zlardan topib, uni yozishlari kerak. She’r yodlashda qiynaladigan, diqqati tarqoq o’quvchilarga she’r yodlatishda bunday usullar juda yaxshi samara beradi.

Yelpib-yelpib	**mayin shamollar**
Uchib yurar	**ko’rar o’zini**
Qirg’oqlarda	**anhor yuzini**
Oyna suvda	**soyabon tollar**

Boshlang‘ich sinflarda ko‘rgazmali ta’limning asosiy formasi lirik she’rni ifodali o‘qish hisoblanadi. Lirik she’rni ham, she’riy hikoyani ham o‘quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhimdir. Shuning uchun she’r

birinchi marta o‘qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She’r o‘quvchilarga qanday ta’sir qilgainini hisobga olish, bilish zarur. O‘qituvchi she’rni shunday ifodali o‘qishi kerakki, o‘quvchilar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so‘z kuchliroq ta’sir etsin.

4-TOPSHIRIQ. BADIIY MATNNING ALOHIDA XUSUSIYATLARINI BILISH, TILNING TASVIRIY VOSITALARINI ANGLASH

Yozning issiq kunlari, quyosh tikka ko‘tarilgan. Bepoyon, ko‘m-ko‘k dala ko‘ksida yonayotgan quyosh shu’lasi laxcha cho‘g‘ bo‘lib, g‘o‘zalar ustida tovlanib ko‘rinadi. Murod bilan ikkimiz mayda-chuydani ko‘tarib, katta yo‘lning shimol tomonidagi yolg‘izoyoq yo‘ldan jo‘nadik. Ertalabki shirchoyni bobom bilan birga ichdik. O‘rtog‘imni hovli orqasidagi boqqa olib chiqdim. Bir tarafi gulzor, ikkinchi tomoni turli meva daraxtlari bilan to‘lgan so‘lim bog‘dan sira chiqib ketgimiz kelmas edi. Oq olma, ko‘ksulton rosa pishgan ekan, yeb turgan edik, birdan allaqanday hayvonning qichqirgani eshitildi. Murod taajjublanib atrofiga qaradi. Shu chog‘ bobomning bo‘rsig‘i esimga tushdi:

– Nimaning ovozi? – dedi o‘rtog‘im.

– Bobomning bo‘rsig‘i-ku!

– Rostdanmi? Qaerda – dedi hayron bo‘lib Murod.

– Yur, ko‘rsataman, – dedim-da, do‘stimni boshlab, bog‘ etagidagi qafasda turgan bo‘rsiq oldiga olib bordim. Qafasda turgan bo‘rsiqni har tarafga sakratib, o‘ynatib maza qildik. Shu chog‘ tog‘am chaqirib qoldi. **(G‘ayratiy, Bobomning sovg’asi)**

1-vazifa. Asardan parchani sekin, yarim ovozda o‘qib chiqing. Hikoyada qahramonni hayratga solgan qanday hodisa yuz berdi?

a) shu payt tog’am chaqirib qoldi

*b) allaqanday hayvonning qichqirgani eshitildi

v) oq olma, ko’ksulton rosa pishgan ekan

2-vazifa. Matndan tabiat tasvirini yorqin tasavvur etishga yordam beruvchi sifatlarni aniqlang? (Bepoyon, ko‘m-ko‘k , so‘lim)

3-vazifa. Matndan o‘xshatish va jonlantirishlar qo‘llangan gaplarni toping.(Bepoyon, ko‘m-ko‘k dala ko‘ksida yonayotgan quyosh shu’lasi laxcha cho‘g‘ bo‘lib, g‘o‘zalar ustida tovlanib ko‘rinadi.)

4-vazifa. Mazkur matnning turini aniqlang.

a) ertak

*b) hikoya

v) ilmiy-ommabop maqola

TOPSHIRIQLARNI BAJARISH DARAJALARI

1-topshiriq. O‘qish tezligi (1 daqiqada 90 so‘z hisobida)

1-daraja - 1 daqiqada 70 so‘zdan kam.

2-daraja - 1 daqiqada 70-80 so‘z

3-daraja - 1 daqiqada 80-90 so‘z

4-daraja - 1 daqiqada me’yordan ko‘p

2-topshiriq. Ertaklarining xususiyatlarini farqlay olish ko‘nikmasi.

1-daraja – topshiriq bajarilmagan yoki noto‘g‘ri bajarilgan.

2-daraja – topshiriqning yarmi bajarilgan.

3-daraja – umuman to‘liq bajarilgan, alohida kamchiliklari bor.

4-daraja – barcha savollarga to‘g‘ri javob berilgan.

3-topshiriq. She’r tahlili: o‘qilganni tushunish, tasviriy vositalarni anglash, ohang tanlay olish, qofiyani aniqlash ko‘nikmasi.

1-daraja – topshiriq bajarilmagan yoki noto‘g‘ri bajarilgan.

2-daraja – topshiriqning yarmi bajarilgan.

3-daraja – umuman to‘liq bajarilgan, alohida kamchiliklari bor.

4-daraja – barcha savollarga to‘g‘ri javob berilgan, qofiyalar aniqlangan.

4-topshiriq. Badiiy matnning alohida xususiyatlarini bilish, tilning tasviriy vositalarini anglash ko‘nikmasi.

1-daraja – topshiriq bajarilmagan yoki noto‘g‘ri bajarilgan.

2-daraja – topshiriqning yarmi bajarilgan.

3-daraja – umuman to‘liq bajarilgan, alohida kamchiliklari bor.

4-daraja – barcha savol-topshiriqlarga to‘liq va to‘g‘ri javob berilgan.

5-topshiriq. “Masal” haqida savol.

Qaysi masaldan olingan?

- Masal - bu _____
- Masal muallifi _____
- Masalda nima hikoya qilinadi? _____

Masal. Masal o‘quvchi aqlining rivojiga, qiziqishiga boy imkoniyatlar ochib beradi. Ko‘p masallar yordamida o‘quvchilarning go‘daklik chog‘laridanoq adolatparvarlik, do‘stlik, o‘rtoqlik tuyg‘ularining shakllanishi, ularning tabiatga, hayvonot olamiga mehr-muhabbatlarining oshishi uchun keng yo‘l ochiladi. Chunki ular kamol topar ekanlar, masal eshitadi. Har bir masaldagi yaxshi-yomonni, gunoh-savobni bilib, mag‘zini chaqib, tushunib o‘sadilar. Bu esa, ularning kelajagida oqko‘ngil, mehnatkash, ota-onaga, ona-Vatanga, hayvonot olamiga muhabbatli bo‘lishlari uchun ko‘prik vositasini ado etadi.

6-topshiriq. Qanday asarlar lirik asar deyiladi?

a) turli o‘y va his-tuyg‘ularni ifodalovchi;

b) sahnalashtirish uchun tavsiya qilingan;

v) to‘qima asosiga qurilgan.

O‘qituvchi agar ijodkor bo‘lsa ta’lim - tarbiya ishini tashkil etishda nostandart yo‘ldan boradi, ya’ni u ishini odatdagi ishdan boshqacharoq boshlaydi. O‘z faoliyatida dars o‘tishning turli usullaridan foydalanib, zamonaviy darslarni tashkil etadi. Bu darslarda quyidagilardan ham foydalanish mumkin:

- **Teleko‘rsatuv**
- **Teatrlashgan sahna**
- **Musobaqa darslari**
- **Davra va hokazo**

Ushbu dars (usul)lardan foydalanish ancha qo‘l keladi. Yuqorida qayd etib o‘tgan usullar darsning samarasini sezilarli o‘sishiga imkon beradi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilar faolligi, qiziquvcnanligi, darsga, kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshirishni ta’minlaydi.

Nazorat savollari

1.Masal nima?

2.She’r tahlili jarayonida qanday ko’nikmalar baholanadi?

3.Ilmiy-ommabop maqolalarni o’qitishdan asosiy maqsad nima?

2.4. O’QISH DARSLARIDA O’QUVCHILARNING BADIIY VA AXBOROTLI MATNLAR MAZMUNINI ANGLASH VA UNI IZOHLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

O‘quvchilar milliy va jahon adabiyotlarini o‘qib, tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi. Ularga ongli munosabat bildirish hamda o‘zlaridagi axloqiy-ma’naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratadi. Mutolaa o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlari rivojlanadi. Bolaning matn mazmunini to‘liq o‘qib olishi qayta hikoyalashi, shuningdek, o‘zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi malakalari hosil qilinadi.

Matn qo‘llanishiga ko‘ra dialogik va monologik matn turlariga bo‘linadi. Dialog so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni bo‘lib, o‘zaro savol-javoblardan iborat bo‘ladi. Dialogik matn tarkibida so‘roq olmoshlari, muomala odobiga oid so‘z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so‘zlar keng qo‘llaniladi.

1-mashq.

Berilgan dialoglarni o‘qing. Suhbat jarayonida ishlatiladigan muomala odobiga oid so‘zlar va his-hayajonni ifodalovchi vositalarni ko‘rsating.

1.– E, Zokirjon, sizmisiz? Xo‘sh, qalay, topshirib chiqdingizmi?

– Ha, qoniqarli deb topildi.

– E, tabriklaymiz bo‘lmasa.

– Rahmat, rahmat.

2.– Hormanglar! – dedi rais ishchilarga qarab.

– Bor bo‘ling!

– Qalay, charchamayapsizlarmi?

– Hosil mo‘l bo‘lsa, hech kim charchamaydi.

– Xirmonga baraka. Topganingiz halol mehnatingizga yarasha bo‘lsin.

– Rahmat.

3.– Assalomu alaykum, qarindosh.

– Vaalaykum assalom, – dedi Umrzoq ota.

– Bugun hasharchilar kelishmadimi?

– Yo‘q. O‘zimiz eplaymiz, deb javob berib yubordik.

– Ofarin. Kuchingizga kuch, g‘ayratingizga g‘ayrat qo‘shilaversin.

3-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing. Matn mazmuni asosida partadoshingiz bilan dialog tuzing.

Men orzu qilgan kasb

Ustozimiz «Men orzu qilgan kasb» mavzusida insho yozib kelishni topshirdilar. Insho yozish uchun ancha yillardan buyon orzu qilib yurgan kasbim haqida yana qayta-qayta o‘yladim. Fikrlarim chigallashib ketdi. Bir qarorga kelolmay qiynaldim. Dunyoda bor kasblarni bir-bir ko‘z oldimdan o‘tkazdim. O‘qituvchi, tarbiyachi, shifokor, haydovchi, oshpaz…Bularning oxiri ko‘rinmaydi. Shu kasb egalari o‘z kasblarida xizmat qilib kelmoqdalar va bir-birlariga yordam beradilar. O‘z kasblaridan noli-maydilar. Oilalarini kasblari orqali boqmoqdalar. Menimcha, har bir inson o‘zi orzu qilgan, yaxshi ko‘rgan kasbini egallasa, yurtimizning gullab-yash-nashiga o‘z hissalarini qo‘shadilar. Yaqinlarim, tanishlarim tinim bilmay mehnat qiladilar. Xalqimiz bejizga «Hayotda ishning boshi sevimli kasb tanlash» deyishmagan. Bu gapni tushunish qiyin bo‘lmadi, chunki men katta hayot ostonasida turibman. Oldimda xilma-xil kasblar, ularning birini tanlash juda qiyin. Go‘yo oldimda xazina, xazinada esa turli-tuman qimmatbaho toshlar. Bu toshlarning bittasini tanlash kerak. «Shoshib tanlangan kasbning umri qisqa», – deydi.

Badiiy matnni quyidagi tiplarga bo‘lib chiqish mumkin:



1. Hikoya mazmunli matnlar (Le texte narratif - narrativ matn). Bunday matnda muallif yoki asar qahramoni o‘zi boshidan o‘tkazgan, eshitgan, o‘qigan yoki guvoh bo‘lgan biror bir voqeani hikoya qilib beradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va rivoyatlarni narrativ matn tipiga kiritish mumkin. Hikoya tarzi asosan o‘tgan zamon shaklida, birinchi shaxs birlik yoki ko‘plikda ifodalanadi. Hikoya qilinayotgan voqea – hodisa kichik yoki keng qamrovli bo‘lishi mumkin. Sekin - asta ko‘tarilib boruvchi izchil va yaxlitlovchi ohang kuzatiladi. Biryoqlama ifoda uslubidan foydalaniladi. Ya’ni, matn shakllanishida asosan, hikoya qiluvchi (roviy) etakchi faktor hisoblanadi. Monologik nutq ko‘rinishi bunday matnlar uchun juda mos va qulay bo‘ladi. O‘rni bilan diologik nutq ko‘rinishlariga murojaat qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Shunda ham hikoya matnining motivatsion butunligi roviyga bog‘liq bo‘ladi. Bu tip matnlarda tasviriy, izoh, xabar, hissiy ifoda mazmunli matnlar birdaniga ishtirok etishi ham mumkin.

Oilada biz besh kishimiz. Otam, onam, singillarim Aziza, Madina va men. Har bir oilada bo'lgan qonun qoida bizning ham oilamizda mavjud. Bizning oilada ham har kimning o'z o'rni bor va hammamiz bir oila bo’lib dasturxonda o’tiramiz va birga turamiz. Har birimizning o'zimizga yarasha vazifamiz bor. Mening oilam tinch va osoyishta oilalardan biridir. Men oilada katta qizman ya’ni katta farzand man. Mening oiladagi o'rnim va mas’ulyatim juda katta deb hisoblayman. Sababi ba’zan singlimning xatolarni ko'raman. O'ylaymanki, men ota - onamga qanday munosabatda bo'lsam, ukalarim ham menga qarab shunday qiladi. Shuning uchun doimo o'zimni munosib tutishga harakat qilaman va bunga erishaman deb o'ylayman. Singillarimning ham o'ziga

yarasha mas’ulyati bor. Biz o'z mas’ulyatlarimizni bilib, xatolarni to'grilab yursak shundagina oilamiz mustahkam va tinch bo'ladi. Buning uchun ko'proq bilimga ega bo'lishimiz kerak. Men dunyodagi eng baxtli insonlar qatoridanman deb hisoblayman, sababi mening mehribon oilam bor. Mening oilam mening faxrim.

MATNGA SARLAVHA QO’YING

Matn yuzasidan oilangiz haqida 5 ta gapdan iborat bo’lgan gap tuzing

2. Tasviriy matnlar (Le texte descriptif - deskriptiv matn). Bunday matn o’quvchiga noma’lum bo‘lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani batafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan bo‘ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko‘rinishi yetakchilik qiladi. Partonimik tasvir bunday matnning eng xarakterli xususiyati hisoblanadi. Masalan:

 **– ajoyib hayvonlar. Eng katta**  **ko'k rangda bo’ladi. Ehtimol, bular**  **da yashaydigan eng katta mavjudotlardir. O'rtacha uzunligi - 22 metrdan 27 metrgacha bo’ladi. Urg'ochilari esa har doim erkaklarga qaraganda kattaroq bo’lishadi. 1926 yilda qo'lga olingan taniqli eng katta**  **uzunligi 33 metrga yetgan va uning vazni 150 tonnaga yetdi. Shunday qilib, ko'k**  **orasida 37 metrgacha haqiqiy gigantlar borligi haqida ba'zi bir dalillar mavjud.**

3. **Izoh mazmunli matnlar** (Le texte argumentatif – argumentli matn). Bunday matnda aytilayotgan fikrning ishonarliligini ta’kidlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o‘zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil vajlarni keltirish argumentli matn tipining o‘ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Fikr bilan keltirilgan dalil o‘rtasida **mantiqiy bog‘liqlik**ning (connecteurs logiques) bo‘lishi muhim sanaladi. Bunday matnda chunki, **zero, lekin, aslida, shuning uchun, to‘g‘risini (ochig‘ini, rostini) aytganda, eshitishimga qaraganda, bilishimcha, taxminimcha kabi birliklar** (le lexique apprėciatif) qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Kitobxonni yoki tinglovchini ishontirish asosiy maqsad bo‘lganligi uchun shunga mos ritorik uslub tanlanadi. To'liq tavsiflash, tushunchalarni taqqoslash, misollar va ta'riflar bu turdagi matnlarning ko'plab mualliflari tomonidan eng ko'p ishlatiladigan tilshunoslik manbalaridir. Odatda topiladigan formatiga kelsak, entsiklopediyalar, qo'llanmalar, ilmiy jurnallar,

gazeta maqolalari va hatto qoidalar kiradi.

Masalan:

Bilasizmi do'stlar?! Hammamiz issiq jonmiz, qachondir tobimiz qochish, kasal bo'lib qolishimiz mumkin. Shunda bir-biridan qimmat dorilarni sotib olarkanmiz, xastaligimizni sababi nimadan ekan, nima qilganimda ushbu kasallikka chalinmasdim deb o'ylab qo'yamiz. **Albatta** dunyoda kasalliklar ko'p, unga davo bo'ladigan dori-darmonlar esa undanda ko'p. **Xo'sh,** kasal bo'lmaslik uchun nimalar qilish zarur? **Albatta** sog'lom turmush tarziga rioya qilish, to'g'ri va ratsional ovqatlanish, mehnat va dam olishni to'g'ri tashkillashtirish, shuningdek, kunlik badantarbiya mashqlari bilan organizmni chiniqtirib borish... Bu haqda ko'pchiligimiz eshitganmiz, bilamiz va qanchadir miqdorda amal qilamiz**. Lekin** shunday bir dorivor o'simliklar ham borki, ularning mahsulotlaridan iste'mol qilib borish orqali bizni ko'plab kasalliklar kelib chiqishidan mustahkam himoya qila oladi. U qaysi o'simlik ekan deb qiziqyapsizmi? **Aslida** u zafaron (shafran, saffron) o'simligidir. Ushbu o'simlik haqida ma'lumotlar juda qadimdan ma'lum. Uning foydali xususiyatlari haqida qancha gapirsak ham oz.

4. **Didaktik matnlar** (Le texte explicatif – eksplikativ matn). Kimgadir pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o‘rgatish istagi asosida tuzilgan matn eksplikativ yoki didaktik matn deyiladi. Maqsadga erishish uchun maqol, matal, aforizm, turli hayotiy voqealar, rivoyatlar, masallardan namuna sifatida foydalaniladi. Ularning matn ichiga singdirilish tarzi turlicha bo‘ladi. Muallif bunday didaktik birliklarni matnga to‘g‘ridan to‘g‘ri olib kiradi va uning qaysi janrga taalluqli ekanligini aytib o‘tadi. Didaktemalar matn tashqarisida avvaldan tayyor holda mavjud bo‘ladi. Muallif yoki qahramon nutqida quyidagi ifoda shakllari ishlatiladi: shunday maqol bor, mashoyihlar demishlarki, ulug‘lar(eskilar)da shunday gap bor, derlarkim, shunday rivoyat (o‘git, voqea, masal) eshitganman va hokazo.

«BOBURNOMA» — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur. Eski o‘zbek (turkiy-chig‘atoy) tilida yozilgan (taxm. 1518/19—1530). «Boburiya», «Voqeoti Bobur», «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa «Vaqoe» va «Tarix» degan nomlarni ishlatgan. «Boburnoma»da 1494—1529 yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib,

ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. «Boburnoma» o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg‘oniston (1504—24) va Hindiston (1524— 30)dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi.

5. **Xabar mazmunli matnlar** (Le texte informatif – informativ matn). Biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o‘ziga xos tarzda bo‘ladi. Oddiy xabardan farq qiladi. Estetik maqsad yuklangan bo‘ladi. Masalan:

“Boburnoma”… Quriganda ham hidi gurkirab turadigan dastorboshga o‘xshaydi bu asar — har gal qo‘lga olganda yangitdan ifor taratadi. Shuning uchun uni bot-bot o‘qiyman. Tilining bir oz murakkabligi shunga da’vat etsa ham ajab emas. Ammo har galgi mutolaa chog‘ida avvalgisida anglamagan yo chala uqqan ma’nolarni topib zavq qilaman. Hozir butun boshli “Boburnoma” emas, undagi bir jumla haqida fikrlashmoqchiman. Bunga esa yaqinda o‘qiganim Komil Avazning “Tong epkini” degan kitobi sabab bo‘ldi.

Bu ham xabar mazmunli matn hisoblanadi.

6. **Buyruq mazmunli matnlar** (Le texte injonctif – injonktiv matn). Buyruq hamda maslahat ohangi etakchilik qiladigan, buyruq maylidagi gaplardan tuzilgan, biror ishni bajartirish yoki turli ta’qiqlashlarni ifoda etadigan matn tipiga buyruq mazmunli matn deyiladi. Asosan qahramonlar nutqida kuzatiladi. Lekin muallif nutqida maslahat yoki tavsiya ma’nosida qo‘llanilishi ham ma’lum. Masalan:

Odat

Ishdan nega kech kelganingizni surishtirsa, hayron bo‘lmang. Bo‘yinbog‘ingizni yechishga ko‘maklashish bahonasida yoqangizni hidlab ko‘rsa, hayron bo‘lmang. Majlisda nima masala ko‘rilganini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Kimning yonida o‘tirganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Telefoningiz rangi qanaqaligini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Necha kishi qo‘ng‘iroq qilganini so‘rasa hayron bo‘lmang. Qayerda tushlik qilganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Bufet nechanchi qavatdaligini so‘rasa, hayron bo‘lmang. Nima ovqat yeganingizni so‘rasa, hayron bo‘lmang. Sizga choyni qaysi qo‘li bilan uzatganini so‘rasa, hayron bo‘lmang! Boringki, oftob qaysi tomondan chiqqanini so‘rasayam hayron bo‘lmang. Qiziquvchanlik – ayolning tabiiy odati! (O‘.Hoshimov)

6. **Hissiy ifoda mazmunli matnlar** (Le texte expressif - ekspressiv matnlar). Insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini ifodalash maqsadida tuzilgan matnlar hissiy ifoda mazmunli matn deyiladi. Matn ustida ishlashda o'quvchilardan ba'zi so'zlarning to'g'ri shaklini toppish vazifasi ham berilishi mumkin. Masalan:

Baroh - yangilanish, yasharish safli! Bahor - fasllar gikelincha. Bunda gulyaproqlarning muattar dihi, jonbaxsh yellarning abij sho'xligi, uyg'ongan hayotning fanis nafasi qalblarni junbushga dikeltira go'yo. Daraxtlar gagul diburnaka, qushlarning baxshorom sasi niolam tutadi. Tuproq nihidi sog'ingan bobo qondeh moniniket libo, dalasiga oshiqadi. Kim chatko' qadagan, kim yer ganchop, kim raxtda tabugan. Boshqasi ariq ziqagan. Barcha-barcha tiriklik tashvishlari bilan band. Bu - go'zallik, nafosat fasli!

Maqsadiga muvofiq matnlar bir necha turlarga bo'linadi

H I K O Y A M A T N I

Matnning bu turi asosan so'zlashuv va badiiy asarlarda qo'llaniladi.

Afrika qabilalaridan birida jinoyat qilgan odamni sazoyi qilish, qamab qo'yish, qatl etish degan gaplar yo'q ekan. Tanho o'zini qabiladan haydab yuborisharkan, xolos… Aslida, odam uchun yolg'izlik eng oliy jazodir. (O'tkir Hoshimov)

T A S V I R I Y M A T N

O'zaro so'zlashuvlar, badiiy asarlar va nutqning boshqa shakllarida qo'llaniladi.

Temurbek qaddi-qomati raso, baland bo'yli, keng peshonali, qoshlari quyuq, ko'zlari katta-katta bir yigit edi. Ko'z qarashi mayin, muloyim bo'lib, kuchli, o'ktam ovoz bilan gapirar, shoshilmas, ovozida kishini o'ziga tortuvchi qandaydir joziba sehr yashiringandi. Qur`on tushirganda, ovozi nomdor qorilarniki singari shirali va yoqimli eshitilardi. (Muhammad Ali)

M U H O K A M A M A T N I

Ba'zi nutq shakllarida qo'llaniladi

Dunyoda shunday hunarlar borki, birining xatosini ikkinchisi tuzatishi mumkin. Paxsakash xatosini suvoqchi, suvoqchi xatosini bo'yoqchi; to'quvchi aybini bichiqchi, bichiqchi aybini tikuvchi "yopib yuborsa" yuborar… Dunyoda shunday hunarlar borki, xatosini hech kim tuzata olmaydi. Bular – shifokor va huquqshunos. Ular inson hayotini, inson qimmatini hal qiladi. (O'tkir Hoshimov)

Matn turini aniqlang va tavsiflashga harakat qiling

“Oldingdan oqqan suvning qadri yo’q” deydilar. Chindan ham shunday. Oldimizdan oqqan suvni uvol qilsak – chidaydi. Qo’limizni yuvsak – chidaydi. Betimizni chaysak – chidaydi. Boringki, oyog’imizni yuvsak ham chidaydi. Ammo… oldimizdan oqqan suvga tupursak, cho’p tiqib loyqalatsak, boshidan mag’zava ag’darsak… Oldimizdan oqqan suvning gunohi nima o’zi?! (O’tkir Hoshimov)

RASM ASOSIDA TASVIRIY MATN TUZING VA UNDA MUHOKAMA MATNI HAM ISHTIROK ETSIN

BO’G’IRSOQ

Qadim o`tgan zamonda chol bilan kampir yashagan ekan. Bir kuni chol kampiriga qarab:

– Menga bo’g’irsoq pishirib ber, – debdi.

– Unimiz yo’q-ku. Bo’g’irsoqni nimadan pishirib beraman? – debdi kampir.

– Suprani qoqib-sidirsang, bo’g’irsoqqa yetadigan un yig’ilib qoladi, – debdi kampiriga chol.

Kampir suprani qoqib-sidirib bo’g’irsoqqa yetadigan un yig’ib olibdi. Kampir unni qaymoqqa qoribdi, zuvala yasab bo’g’irsoq qilibdi va pechga joylabdi.

Bo’g’irsoq qizarib ,chiroyli bo’lib pishibdi. Kampir uni pechdan olib, sovitish uchun deraza oldiga qo’yibdi.

Yotaverib-yotaverib zerikkan bo’g’irsoq asta dumalab derazadan so’riga, so’ridan yerga tushib, eshik oldiga kelib qolibdi. Eshikdan dahlizga, dahlizdan pillapoyaga, pillapoyadan hovliga, hovlidan saroyga, saroydan tashqariga chiqib yo’lga ravona bo’libdi. Bo’g’irsoq yo’lda dumalab ketayotib, bir quyonni uchratib qolibdi:

Hooy bo’g’irsoq, bo’g’irsoq! Men seni yeyman, – debdi quyon.

– Meni yema, quyonvoy, men senga qo’shiq aytib beraman, – debdi bo’g’irsoq va qo’shiq ayta boshlabdi:

– Men bo’g’irsoq, bo’g’irsoq, supradagi un-urvoq.
Sidirishib oldilar, qaymoqqa xo’p qordilar.
Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.
Eshit, quyon, bo’ldi bas, sendan qochish hech gapmas.

Bo’g’irsoq qo’shig’ini tugatishi bilan yana dumalab yo’lga tushibdi. Quyon esa nima bo`lganini tushunolmay qolaveribdi.

Bo’g’irsoq yumalayveribdi yumalayveribdi. Bir payt qarshisidan bo’ri chiqib qolibdi.

Bo’g’irsoq, bo’g’irsoq, men seni yeyman, – debdi bo’ri.

– Meni yema, bo’rijon, senga qo’shiq aytib beraman, – debdi va qo’shig`ini

ayta boshlabdi:
– Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, supradagi un-urvoq.
Sidirishib oldilar, qaymoqqa xo'p qordilar.
Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.
Qochib ketdim quyondan.
Eshit, bo'ri, bo'ldi bas, sendan qochish hech gapmas!
Bo'g'irsoq dumalashda davom etib, bir pasda bo'ridan uzoqlashib ketibdi. Yo`lida ketayotsa oldidan ayiq chiqib qolibdi.

Bo'g'risoq, bo'g'irsoq men seni yeyman, – debdi ayiq.
– Maymoqvoy, meni yeyishga senga yo'l bo'lsin, – debdi bo'g'irsoq va o'z qo'shig'ini ayta boshlabdi:
– Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, supradagi un-urvoq.
Sidirishib oldilar, qaymoq qo`shib qordilar.
Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.
Qochib ketdim quyondan, qochib ketdim bo'ridan.
Eshit. ayiq, bo'ldi bas, sendan qochish hech gapmas.
U shunday kuylaganicha dumalab ketaveribdi. Ayiq bo'lsa, og'zini ochgancha anqayib qolibdi. Bo'g'irsoq dumalab ketaveribdi, ketaveribdi, shu payt oldidan tulki chiqib qolibdi.

Salom, bo'g'irsoq, – debdi tulki. – Namuncha dum-dumaloq, qizarib pishgan bo'lmasang? Shu paytta qayoqqa dumalab ketyapsan?
Bo'g'irsoq tulkining maqtovlariga uchib, dumalashdan to'xtabdi va qo'shiq ayta boshlabdi:
– Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, supradagi un-urvoq.
Sidirishib oldilar, qaymoqqa xo'p qordilar.
Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.
Qochib ketdim quyondan, qochib ketdim bo'ridan.
Qochib ketdim ayiqdan.
Eshit, tulki, bo'ldi bas, sendan qochish hech gapmas.
Bo'g'irsoq yana dumalay boshlagan ekan, tulki unga shunday debdi:
– Qo'shig'ing buncha yoqimli bo'lmasa! Qarilik qursin, qulog'im yaxshi eshitmaydi, Sendan iltimos, shu qo'shig'ingni burnimga chiqib yana bir marta aytib bersang degandim. Eshitib bir maza qilay. Faqat qattiqroq ayt.

Bo'g'irsoq tulkining burniga chiqib kuylay boshlabdi:
– Men bo'g'irsoq, bo'g'irsoq, supradagi un-urvoq.
Sidirishib oldilar, qaymoqqa xo'p qordilar.

Pishdim pechda, tovada, sovitdilar havoda.
Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim buvimdan.
Qochib ketdim quyondan, qochib ketdim bo'ridan.
Qochib ketdim ayiqdan.
Eshit, tulki, bo'ldi bas, sendan qochish hech gapmas.
– Rahmat, bo'g'irsoq, – debdi tulki unga. – Qo'shig'ing haqiqatan ham ajoyib. Qani edi uni yana bir marta eshitsam. Tilimga tushgin-da uni menga so'nggi marta aytib ber.
Bo'g'irsoq tulkining og'ziga sakrab tushibdi, tulki bo'lsa bo'g'irsoqni «xap» etib yeb qo'yibdi!

ERTAK SYUJETI AKS ETGAN RASMLARNI TO'G'RI KETMA-KETLIKDA JOYLASHTIRING

















ERTAK MATNINI TO’G’RI KETMA-KETLIKDA JOYLASHTIRING

Kampir unni qaymoqqa qoribdi, zuvala yasab bo’g’irsoq qilibdi va pechga joylabdi.

Bo’g’irsoq tulkining og’ziga sakrab tushibdi, tulki bo’lsa bo’g’irsoqni «xap» etib yeb qo’yibdi!

Bo’g’irsoq yo’lda dumalab ketayotib, bir quyonni uchratib qolibdi

Bo’g’irsoq qizarib, chiroyli bo’lib pishibdi. Kampir uni pechdan olib, sovitish uchun deraza oldiga qo’yibdi.

Bo’g’irsoq dumalashda davom etib, bir pasda bo’ridan uzoqlashib ketibdi.

Yo`lida ketayotsa oldidan ayiq chiqib qolibdi.

Bo’g’irsoq tulkining maqtovlariga uchib, dumalashdan to’xtabdi va qo’shiq ayta boshlabdi

Nazorat savollari:

1.Hikoya mazmunli matnga misol keltiring
2.Hissiy ifoda mazmunli matnlarning mamun va mohiyatini tushuntiring
3. Maqsadiga muvofiq matnlar necha turlarga bo'linadi ?
4.Badiiy matnlar qanday tiplarga bo‘linadi?

2.5. SINFDAN TASHQARI O‘QISH ORQALI O‘QUVCHILARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

1. Sinfdan tashqari o‘qish darslarining maqsad va vazifalari

Sinfdan tashqari o‘qish o‘quv dasturi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash, ularni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish talab etiladi. Bolalarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari ikki haftada bir marta o‘tkaziladi va o‘qish uchun ajratilgan soatlardan foydalaniladi. Badiiy-adabiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o‘qib borilsa, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o‘qish tanish bo‘lmagan muallifning kitoblari, muqovasi, titul varag‘i, kirish so‘zi, mundarijasi va rasmlariga qarab asarning taqvimiy mazmunini aniqlash vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bolalarga ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish o‘qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Sinfdan tashqari o‘qish bosqichlari, dastur talablari, tarbiyaviy vazifalari o‘quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi. Masalan, tayyorlov bosqichida kichik hajmdagi asarni o‘qituvchi o‘qib bersa, o‘qilganlar yuzasidan suhbat, qayta hikoyalash o‘tkazilsa, boshlang‘ich bosqichda butun sinf o‘quvchilari bir xil kitob bilan ta’minlanadi, barcha o‘quvchilar bitta matn ustida ishlaydilar. Bunda bitta yozuvchi yoki bir mavzudagi asarlar ko‘rgazmasi tashkil qilinadi. Asar ichda o‘qishga topshirilishi, albomlar tayyorlanishi, kinofilm va diafilmlardan parchalar ko‘rsatilishi, musiqiy daqiqalar o‘tkazilish hamda asar mazmuni yuzasidan ijodiy rasmlar chizdirilishi ham mumkin. Bu jarayonda

kitobni saqlash maqsadida uni yamash, o‘rash o‘rgatiladi, ***“Ertaklar bayrami”, “Ifodali o‘qish tanlovi”*** o‘tkaziladi.

Asosiy bosqich yakunida kichik yoshdagi o‘quvchilar faol kitobxon uchun zarur bo‘lgan yaxshi o‘qish ko‘nikma va malakalarini egallashlari, eng muhimi, ularning kitob hamda mustaqil o‘qishni yaxshi ko‘rishlariga erishish juda muhimdir.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlash tamoyillari

Metodikaning vazifalaridan biri sinfdan tashqari o‘qish uchun kitoblar tanlash, o‘qiladigan adabiyotlar ro‘yxatini tavsiya qilish, yillik o‘quv rejasi va dars tuzilishi namunalarini ishlab chiqishdir.

Sinfdan tashqari o‘qish uchun kitob tanlashda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

1. Kitobni targ‘ib qilish. Sinfdan tashqari o‘qishga tavsiya qilinadigan asarlar ro‘yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo‘yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to‘ldiriladi, ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. O‘qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o‘qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbat o‘tkaziladi.

Hikoyani o‘qish bilan bog‘liq holda o‘tkaziladigan ijodiy ishlar ham o‘quvchilar nutqini, tafakkurini o‘stiradi. Bular:

1) ijodiy qayta hikoyalash;

2) inssenirovka qilish;

3) o‘qilganasarga rasm chizish;

4) hikoyani davom ettirish.

Ijodiy qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoyaning sharoiti yoki shaklini o‘zgartirib hikoya qilinadi. Bunda hikoyani yangi epizodlar bilan to‘ldirib hikoya qilish ham mumkin. O’quvchi yangi qahramonlar qo’shishi, ba’zi qahramonlar xulqini o’zgartirib hikoyani davom ettirishi mumkin.

Inssenirovka yoki sahnalashtirishda o‘quvchilar o‘qilgan hikoyani sahnabop qilib o‘zgartiradilar. Buning uchun ular hikoyaga ssenariy haqida, kiyim, qatnashuvchilarning hatti-harakatlari, imo-ishorasi haqida o‘ylaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar (bu tilni o‘rgatish nuqtai nazaridan eng muhim ish hisoblanadi).

O‘qilgan hikoyaga rasm chizishda o‘quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o‘qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o‘zi rasm chizadi. Agar o‘quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o‘zi chizmoqchi bo‘lgan rasmni og‘zaki tasvirlab beradi, ya’ni so‘z bilan chizadi.

O‘qilgan **hikoyani davom ettirish usuli** maktab tajribasida keng qo‘llaniladi. Bu usul xikoyaning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo‘llaniladi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ham o‘quvchilar nutqi va tafakkurining rivojlanishiga katta ahamiyat qaratiladi.

3. Sinfdan tashqari o‘qish yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko‘riladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o‘quvchilari o‘qituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a’zo bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi va kutubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5. O‘quvchilarning o‘qiganlarini hisobga olish. Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. 1-sinf o‘quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo‘shib yozadilar. 3-4-sinflarda o‘qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o‘z mulohazalarini ham qo‘shishlari mumkin.

2019-yilda 1-4 sinf yoshidagi bolalar uchun “Maktab kutubxonasi" turkumidagi "Kitobim-oftobim" nomli jami 4 ta kitobdan iborat sinfdan tashqari o‘qish kitoblari nashr etildi.

Har bir kitob majmua xarakteridagi asarlar to‘plamidan iborat bo‘lib, unda taniqli bolalar yozuvchi va shoirlari qatorida yosh ijodkorlarning ham maktab dasturiga kiritilmagan qiziqarli asarlari jamlangan. Kitobda jamlangan asarlardan o‘quvchilar mustaqil o‘qish uchun, ota-onalar bolalar bilan ishlashda, ularning bilimini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, badiiy asarlarni ko‘proq o‘qishga yo‘naltirishda foydalanishlari mumkin.



SINFDAN TASHQARI O‘QISHGA RAHBARLIK QILISH SHAKLLARI

Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlikning asosiy shakli maxsus sinfdan tashqari o‘qish darslaridir. Bunday darslar erkin dars hisoblanadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, bilim doirasi, estetik taassuroti, badiiy obrazlarni idrok etishi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi; faol kitobxonga xos ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratiladi, shuning uchun ularning qurilishi juda xilma-xil bo‘ladi. Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchining ijodi hisoblanadi; darsda qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishilsa, maqsadga erishish oson kechadi.

Shularga qaramay, sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirishi uchun ma’lum talablarga bo‘ysunadi. Ular quyidagilardir:

1. Har bir darsda o‘quvchilar o‘qigan kitoblar (asarlar) hisobga olinadi. Ular o‘qigan va o‘qiyotgan kitoblarini sinfga olib kelib ko‘rsatadilar, ikki-uch o‘quvchi o‘zlari o‘qigan kitob haqida gapirib beradi, darsda o‘zaro fikr almashish holati yaratiladi (bu holat darsdan tashqpri vaqtda ham davom etishi mumkin).

2. Har bir darsda o‘qish uchun yangi kitob (asar)lar tavsiya qilinadi. Tavsiya qilish shakllari turlicha bo‘lib, ular fikr almashuv, kitobni ko‘rsatish, sinfda ko‘rgazma tashkil etish, o‘quvchilarni qiziqtirish uchun tavsiya qilinadigan kitobdan biror parchani o‘qib berish, rasmlarni ko‘rsatish yoki film namoyish etishdan iborat bo‘lishi mumkin.

3. Har bir darsda o‘quvchilarga asarni yaxlit holda o‘qitish mumkin. Agar asar hajmi kattaroq bo‘lsa, bu ish ikki-uch dars davomida amalga

oshiriladi. Bunda o‘quvchilar o‘zlari o‘qigan kitobdan biror parchani ovoz chiqarib o‘qib berishlari mumkin. Bu jarayonda ichda o‘qishdan ham, she’r yodlashdan ham, rollarga bo‘lib o‘qishdan ham foydalaniladi.

4. Har bir darsda o‘qilgan asar yuzasidan suhbat metodi orqali tahlil ishlari amalga oshiriladi. Bunda erkin hikoya qilish uchun “Senga asardagi nimalar yoqdi?”, “Bu kitob haqida sen nimalar ayta olasan?” kabi savollar beriladi va o‘quvchilarning ijodiy hamda mustaqil qayta xikoyalash malakalari shakllantiriladi.

5. Har bir darsda ma’lum bir yangi kitobxonlik ko‘nikmasi hosil qilinadi: muallif haqida ma’lumotlar to‘plash, kitob nomiga qarab u nima haqda ekanligini aytish, o‘qilgan asarlar yuzasidan ko‘rgazmalar tayyorlash, asarga taqriz yozish, albomlar tayyorlash, kitobxonlik kundaligini yuritish kabi ishlar amalga oshiriladi.

6. Har bir dars kirish suhbati bilan boshlanadi va sinfda o‘qish darslarida qo‘llanadigan barcha usullardan ijodiy foydalaniladi.

7. Har bir darsda tahlil qilingan asarlar yuzasidan umumlashtiruvchi, yakunlovchi suhbat uyushtiriladi. Umumlashtirishga ko‘rgazma ham, albom tuzish ham, rasmlarni tatbiq etish ham yordam beradi.

Sinfdan tashqari o‘qishga rahbarlikning yordamchi shakllari ham mavjud bo‘lib, ular barcha ishlarni izchil uyushtirishni ta’minlaydi, STO‘ darslari uchun sharoit yaratadi. Bunday shakllarga quyidagilar kiradi:

1. Kitobni targ‘ib qilish. STO‘ga tavsiya qilinadigan asarlar ro‘yxati sinfga yoki maktabning maxsus joyiga osib qo‘yiladi, ular vaqti-vaqti bilan yangilab turiladi, to‘ldiriladi, ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. O‘qituvchi maxsus suhbatlar uyushtiradi.

2. Yakka tartibdagi yordam va kundalik tekshiruv. O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari yuzasidan suhbat uyushtiriladi, o‘qilgan kitoblar hisobga olinadi. Shaxsiy fikrlar aniqlanadi, uy kutubxonalari bilan tanishiladi, ota-onalar bilan suhbat o‘tkaziladi.

3. STO‘ yuzasidan ommaviy ishlar. Adabiy ertaklar, viktorinalar, yozuvchilar bilan uchrashuvlar, adabiy ekskursiyalar uyushtiriladi, ular uchun maxsus tayyorgarlik ko‘riladi.

4. Kutubxonaga yozilish. 1-sinf o‘quvchilari o‘qituvchining tavsiyasi bilan kutubxonaga a’zo bo‘ladi. Bu jarayonda o‘qituvchi va kutubxonachi hamkorlikda ish olib borishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5. O‘quvchilarning o‘qiganlarini hisobga olish. Bunda ularning kitobxonlik kundaligidan foydalaniladi. 1-sinf o‘quvchilari 2-yarim yillikdan boshlab kitobxonlik kundaligiga yozuvchining ismi, familiyasi va kitob nomini, 2-sinfda esa unga nashr etilgan joyi va yilini qo‘shib yozadilar. 3-4-

sinflarda o‘qigan kitobining qisqacha mazmunini yozib, unga taqriz va o‘z mulohazalarini ham qo‘shishlari mumkin.

O‘quvchilarning o‘qigan kitoblari og‘zaki tarzda ham hisobga olinadi: ular o‘qiganlari yuzasidan sinfdan tashqari o‘qish va sinfda o‘qish darslarida, yakka tartibdagi suhbatlarda gapirib beradilar.

SINFDAN TASHQARI O‘QISH MASHG”ULOTLARINING TURLARI

Sinfdan tashqari o‘qish darslarining xususiyatlari, birinchidan, sinfdan tashqari o‘qish tizimining bosqichlari bilan, ikkinchidan, o‘quv vazifalari va dastur bilan, uchinchidan, oldinga qo‘yilgan tarbiyaviy vazifalar bilan, to‘rtinchidan, o‘quvchilarning qiziqishlari bilan belgilanadi.

1-sinfda tayyorlov bosqichida yangi matn o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi, boshlang‘ich bosqichdagi darslarda yangi kichik hajmli matnni o‘quvchilar o‘qiydilar.

Keyingi bosqichlarda asar tahliliga doir ishlar kengaytiriladi, o‘quvchilar o‘qiganlarini taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalashga, qahramonlarni elementar tavsiflashga o‘rgatiladi. Bu jarayonda rollarga bo‘lib o‘qishdan foydalaniladi. Asosiy bosqichda sinfdan tashqari o‘qish darslari 2-sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinflarda 2 haftada 1 marta o‘tkaziladi. O‘quvchilar mustaqil o‘qishga o‘rgatiladi, ular “G‘uncha”, “Gulxan” jurnallari bilan, “Tong yulduzi” gazetasi bilan tanishtiriladi, ya’ni bolalar matbuoti bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda o‘zbek, qardosh va chet el adabiyoti yozuvchilarining turli janrdagi va mavzudagi asarlaridan foydalaniladi. Bir darsga o‘quvchilar bir nechta asarlar o‘qib kelib, ular haqida o‘z fikrlarini aytib beradilar, qahramonlarni tasvirlab, rasm chizadilar. Bu jarayonda yozuvchilar hayoti va ijodiga doir kechalar uyushtiriladi. Shu tarzda adabiyotni sevadigan, mustaqil fikr yurita oladigan kitobxon shaxsi shakllantiriladi.

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘qilgan kitobni muhokama qilish, ijodiy qayta hikoyalash, insenirovka qilish, rasmlar chizish, ifodali o‘qish, kitoblar tavsiya qilish usullaridan keng foydalaniladi.

Nazorat savollari:

1. O‘quvchilarda tez, to‘g‘ri, ongli va ifodali o‘qish malakalarini shakllantirishda nimalarga ahamiyat beriladi?

2. Sinfdan tashqari o‘qish darslariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar nimalardan iborat deb o‘ylaysiz?

3. O‘quvchilar kitobxonligini rivojlantirilish bo‘yicha o‘z tavsiyalaringizni ishlab chiqing.

TEST SAVOLLARI:

1. Eski maktabda o’qish bilan yozish qanday o’rgatilgan?

a. o’qish bilan yozish bir vaqtda o’rgatilgan

b. * dastlab faqat mutolaa o’rgatilgan

c. avval yozish o’rgatilgan

2. Eski maktabda o’qish qanday usul bilan o’rgatilgan?

a. * hijo (bo’g’in) usuli bilan o’rgatilgan

b. ohang usuli bilan o’rgatilgan

c. yodlash usuli bilan o’rgatilgan

3. O’qishga o’rgatishning - “hijjai qadimiy” deb atalgan usuli qachongacha davom etgan?

a. *asrlar davomida hech qanday o’zgarishsiz davom etib kelgan

b. qisqa muddat davom etgan

c. bir yil davom etgan

4. Hijo usulida o’qishga o’rgatishni necha bosqichga bo’lish mumkin?

a. 3 bosqichga bo’lish mumkin

b.* 2 bosqichga bo’lish mumkin

c. 1 bosqichga bo’linadi

5. Kreativ usullar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qanday qobiliyat rivojlanadi?

a. *Ijodkorlik, yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash, dunyoga ijodkorlik nigohi bilan qarash, eng original yechimlar va fikrlarni topish

b. Erkin fikrlash va fikrini dalillay olish

c. Yakka tartibda ishlash, o’z fikrida muqim qolish

6. Evristika” so’zining ma’nosini belgilang.

a. Evristika”–lotincha so’z bo’lib, “heurist” so’zi “izlayman”, “topaman”, “ochdim” ma’nolarini beradi.

b. *Evristika”–grekcha so’z bo’lib, “heurist” so’zi “izlayman”, “topaman”, “ochdim” ma’nolarini beradi.

c. Evristika”–inglizcha so’z bo’lib, “heurist” so’zi “izlayman”, “topaman”,

“ochdim” ma’nolarini beradi.

7. “Kognitiv” so‘zining ma’nosini izohlang

a. ***“Kognitiv”** so‘zi lotincha so’zdan olingan bo’lib, “bilish” degan ma’noni anglatadi

b. **“Kognitiv”** so‘zi yunoncha so’zdan olingan bo’lib, “bilish” degan ma’noni anglatadi

c. **“Kognitiv”** so‘zi inglizcha so’zdan olingan bo’lib, “bilish” degan ma’noni anglatadi

8. Ona tili faniga oid nutqiy kompetensiya nimani anglatadi?

a. Tinglab tushunish, og‘zaki nutq, yozma nutq, anglash

b. *Og‘zaki nutq, yozma nutq, anglash, o‘qish va tushunish, tinglab tushunish

c. O‘qish va tushunish, tinglab tushunish

9. Frazeologiya atamasiga izoh bering

a. * Frazeologiya – lotin tilidan olingan bo`lib, prasis – ifoda, logos – ta’limot deganidir.

b. Frazeologiya – yunon tilidan olingan bo`lib, prasis – ifoda, logos – ta’limot deganidir.

c. Frazeologiya – ingliz tilidan olingan bo`lib, prasis – ifoda, logos – ta’limot deganidir.

10. Frazeologizm nima?

a. Tilning iboralarni o`rganadigan bo`limi

b. Iboralar yig`indi

c. Lug’at boyligini o’rganish

11. Syujet so`zini ma’nosi?

a.*Tasvirlangan voqea, lavha, harakat

b.Tasvirlangan surat

c.Ijod mahsuli

12. Orfografiya nima?

a. *Grekcha so‘z bo‘lib, to‘g‘ri yozish ma’nosini ifodalaydi va savodli yozma nutqni shakllantiradi

b. Lotincha so‘z bo‘lib, to‘g‘ri yozish ma’nosini ifodalaydi Tilshunoslikning orfografiya bo‘limi savodli yozma nutqni shakllantiradi

13. Ijodkorlik nima?

a. * muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi

b. ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs

c. ham jarayon, ham natija sifatida obyektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talab darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs

14. Kreativ shaxsni tayyorlash deganda nimani tushunasiz?

a. ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs;

b. *ijodkorlikka o‘rgatish va o‘zini o‘zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish rivojlantirish mazmuni;

c. shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish rivojlantirish

15. Ijodkor shaxs kim?

a. ham jarayon, ham natija sifatida obyektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talab darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs

b. ijtimoiy sub’ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi

c. *ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs

16. Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari nechta?

a. 5

b. *8

c. 3

17. Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari qaysi javobda tug’ri belgilangan?

a.* bilishga oid (gnostik) malakalar; loyihalash malakalari; ijodiy-amaliy

(konstruktiv) malakalar;

b. kreativ malaka, bunyodkor malaka, ijodkor malaka

c. tadqiqotchilik malakalari texnik-texnologik malakalar kreativ malaka

18. Kreativlik yo'l xaritasi nechta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi?

a. 7

b. 3

c. *4

19. Kreativlik deganda nimani tushuniladi?

a. ijod qilish, o'z istedodini namoon qilish

b.*insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi.

c. shaxsni rivojlantiruvchi shaxsni rivojlantiruvchi ko'pqirraligi tushuniladi

20. Kreativ shaxs kim?

a.*jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs

b. ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs

c. ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs

21. O'quvchining kreativ fikrlashi uchun qanday psixologik jarayoh muhum rol o'ynaydi?

a.*tasavvur

b. diqqat

c. nutq

22. Ijod nima?

a. har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash

b. innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish;

c. *ijtimoiy sub’ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi

23. Og‘zaki nutq nima?

a.* unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlash;

b. fikr ifodalashda bir-biriga o‘xshash (satr osti, satr usti harflari) harflarni farqlab yozish;

c. ikkala javob to’g’ri

24. Kompozitsiya nima?

a. Fransuzcha “kompog’e-asardan nusxa ko`chirish”

b. Nemischa “kompones-asarni bezatish, ramka o`rnatish”

c. *Lotincha “komponariye-asar qurilishi, g’oyasi, xarakteri”

25. Badiiy asar shakli barcha elementlarining obrazli, goyaviy-badiiy mazmundagi yagona to’liqlik asosida birlashuvchi jihati nima deb ataladi?

a. *kompozistiya

b. kulminatsiya

c. yechim

26. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash necha bosqichga bo‘linadi?

a. *3

b. 2

c. 5

27. Qanday asarlar lirik asar deyiladi?

a. *turli o‘y va his-tuyg‘ularni ifodalovchi;

b. sahnalashtirish uchun tavsiya qilingan;

c. to‘qima asosiga qurilgan.

28. Masal nima?

a. axloqiy mazmunni hajviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asar

b. *axloqiy mazmunni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asar

c. axloqiy mazmunni tragedik obrazlar orqali aks ettiradigan hajviy asar

29. Kognitiv so’zining ma’nosi

a. aytmoq

b. *bilmoq

c. Eshitmoq

30. Ko‘chirib yozish necha xil bo‘ladi?

a. 5

b. 1

c. *2

31. Ko’chirib yozish deganda nimani tushunasiz?

a. *matnni o’zgartirmasdan ko’chirib yozish , matnni o’zgartirib ko’chirib yozish

b. Yozuv taxtasida matnni yozish , yozuv tatasida matnni o’zgartirib yozish

c. To’g’ri javob yoq

32. Diktantlar maqsadga ko’ra nechi xil bo’ladi?

a. 3

b. *2

c. 4

33. Darslarni necha yo’nalishda tahlil etish mumkin?

a. 2 xil: to’liq (majmuaviy), ayrim yo’nalishli

b. *3 xil: to’liq (majmuaviy), ayrim yo’nalishli, qisqa (aniq) maqsadli

c. 1 xil: qisqa (aniq) maqsadli

34. **O‘qish malakasining shakllanish jarayonini necha bosqichga bo‘linadi?**

a. 2 bosqichga: analitik va sintetik

b. *3 bosqichga: analitik, sintetik, avtomatlashgan o’qish

c. 4 bosqichga: analitik, sintetik, analogik, avtomatlashgan o’qish

35. Analitik bosqichning asosiy xususiyati nimada?

a. *O‘quvchilarda so‘zlarni bo‘g‘inlab o‘qish malakasi shakllantiriladi

b. Bunda so‘zni ko‘rish bilan uning tovush tomoni idrok qilinadi.

c. Bu o‘qishda o‘quvchi-kitobxon, so‘zning bosh qismiga qarab o‘qiydi

36. PIRLS xalqaro dasturida badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qishda o‘qish ko‘nikmalarining necha guruhi baholanadi?

a. 5 turi

b. 2 turi

c. *4 turi

37. PIRLS-2001 o‘tkazilgan birinchi tadqiqotda Rossiya davlati 35 mamlakatlar ichida nechanchi o‘rinni egallagan?

a. 1-o’rinni

b. 12-o’rinni

c. *16-o’rinni

38. Ongli o’qish nima?

a. * Asar mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, timsollarini, badiiy vositalarini rolini tushunib o‘qish ongli o‘qish deyiladi.

b. O‘quvchi asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga munosabat bildira olmasa, ongli o‘zlashtirgan bo‘ladi.

c. Xato qilmasdan, yanglishmasdan o‘qish – ongli o’qishdir

39. Ifodali o‘qish nima?

a. *Asarni uning g‘oyasiga, yozuvchining niyatiga mos ravishda, o‘qish, asar jozibasini ifodalab, ravon aniq, to‘g‘ri o‘qish

b. Asar mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, timsollarini, badiiy vositalarini rolini tushunib o’qish

c. Og‘zaki nutq tempiga mos keladigan o‘qish

40. Intonatsiya nima?

a. nafasni to‘g‘ri olish va to‘g‘ri sarflash

b. * urg‘u, temp, ritm, to‘xtam, ovozning baland-pastligining yig‘indisi

c. adabiy talaffuz normalarini egallash

41. Boshlang‘ich o‘qish malakalariga qanday malakalar kiradi?

a. *to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalari

b. savodli, tez, ongli o‘qish malakalari

c. tushunib, bo’g’inlab, sidirg’a o‘qish malakalari

42. Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar ustida ishlashning birinchi sintez bosqichini izohlang.

a. badiiy asarda voqealar rivojining bog‘lanishini aniqlash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini ochib berish

b. * matnni yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirish

c. badiiy asar ishtirokchilarining muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash

43. Tanlab o‘qish nima?

a. o‘quvchilarda o‘qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko‘nikmasini o‘stirish maqsadidagi o’qish

b. *matnning berilgan vazifaga mos qismini o‘qish

c. asar mazmunini o‘zlashtirish va qayta hikoyalash

44. Matnni tasvirlashning necha turi mavjud?

a. *2 xil: so’z bilan tasvirlash, grafik tasvirlash

b. faqat so’z yordamida tasvirlash

c. 2 xil: verbal va noverbal usulda tasvirlash

45. Kommunikativ kompetensiyalarga qanday malakalar kiradi?

a. *davlat tili hamda xorijiy tillarni o‘zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish, til bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash

b. o’qish, yozish, tinglab tushunish, og’zali bayon etish

c. muloqot vositalarini tanish va notanish vaziyatlarda qo’llash

46. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi nima?

a. jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish

b. * axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash

c. zamonaviy axborot telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish

47. O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi qaysi javobda keltirilgan?

a. mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjet)lardan foydalanish

b. * jamiyatda ro‘y berayotgan progressiv va innovatsion o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olish

c. favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega

bo‘lish

48. Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyalari to’g’ri ko’rsatilgan javobni aniqlang.

a. ijodiy fikrlash, yozma va og‘zaki ravon bayon etish

b. axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash

c. * fuqarolik burchi, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo‘lish

49. Diktant nima?

a. *eshitib idrok qilingan so‘z, gap, matnni yozish

b. Ijodiy mashq turi

c. Yozma turdagi nazorat ishi

50. Ta’limiy diktantlar tashkil etish va bajarilish usuliga ko‘ra necha turga bo‘linadi?

a. 6 turga

b. 2 turga

c. *8 turga

51. Bayon nima?

a. *o‘quvchilarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqini o‘stirishga qaratilgan orfografik mashq

b. Fikrning og’zaki ko’rinishi

c. Dalil va isbotga asoslangan matn

52. Grafik xato nima?

a. * Husnixat me’yorida yozilmay, harf shaklining buzilishi

b. Adabiy til o‘rnida sheva so‘zining qo‘llanilishi

c. Kelishik qo‘shimchalaridan biri o‘rniga boshqasining qo‘llanishi

53. Imloviy xato nima?

a. gapda biron so‘zning tushib qolishi yoki biror gap bo‘lagining yetishmasligi

b. * So‘zda harfning tushib qoldirilishi yoki orttirilib, so‘z ma’nosining o‘zgarishi

c. Husnixat me’yorida yozilmay, harf shaklining buzilishi

.

TERMINLAR LUG‘ATI (GLOSSARIY)

№	Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
1	***Akmeologiya***	insonni o‘z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o‘zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishning kompleks masalalarini o‘rganadigan fan tarmog‘i	dynamics of development of human life and takomili various stages his strong ability to study problems of a difficult branch of science
2	***Amaliy mashg‘ulotlar***	maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, tahsil oluvchilarda ular tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim shakli	specially yequipped room or special area of tests where scholars to put the theoretical knowledge into practice, directed to skills and training
3	***Analiz metodi***	ilmiy tadqiqot metodi bo‘lib, unda tekshirish obyekti fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilinadi	scientific method in which will be shared object of management of structural yelements
4	***Analitik metod***	tahlil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim metodi	method of the analysis of training
5	***Anologiya***	o‘xshash- paradigma	as - paradigms
6	***Axborot***	amalda qo‘llaniladigan aniq xabar. Axborot kishilar orasidagi, odamlar va EHM orasidagi ma’lumot almashinish hodisasi	it is accurately put into practice. Information between these people and yexchange of information between the falling yexposition
7	***Axborot-ta’lim muhiti***	ta’lim jarayonida yangi ma’lumotlarni olish imkonini beradigan o‘quv vaziyati	the provision of educational process that allows to receive new school

8	***Axborot texnologiyasi***	axborotni hosil qilish, saqlash, kompyuter yordamida qayta ishlashni ifodalovchi faoliyat sohasi	data, storage, processing the computer which represents the field
9	***Axborotli modul***	yangi ma'lumot berishga yo'naltirilgan o'quv modeli	the model is directed on new educational
10	***Aqliy hujum***	muammoni hal etishga nisbatan intelluktual yondashuv. Bunda muammoni hal etishga oid shaxsiy farazlar ilgari suriladi	intelluktual approach to the solution of this problem. At the same time, to solve a problem of separate hypotheses yearlier
11	***Baho***	ta'lim oluvchilar bilim, ko'nikma va malakalarining miqdoriy baholashda bal yoki raqamlar vositasida shartli ifodalanishi	preparation of knowledge, skills and yexperience by means of number or the size of a quantitative assessment of conditional yexpression
12	***Baholash***	o'quvchi yoki o'quvchining egallagan bilim, ko'nikma va malakalari hamda shaxsiy sifati darajalarini belgilash	the student or the student of knowledge, skills and experience to define a level of quality and personal
13	***Bilim***	o'quvchi va o'quvchilarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki o'quvchilarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumot	school students and students of the nature, society, achievements of science and technology. Theoretical information will be provided for pupils or students
14	***Bilish nazariyasi (gnoseologiya, epistemologiya)***	bilish qonuniyatlari va imkoniyatlari, bilimning obyektiv reallikka munosabatini o'rganadi	the nobility governed also opportunities for studying of interrelation between knowledge of objective reality
15	***Boshqarish***	jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o'qitish maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladigan pedagogik faoliyat	for achievement of the objectives of educational process at a stage of implementation it is planned to serve for implementation of the program and pedagogical activity
16	***Boshqaruvchi pedagogik texnologiya***	nafaqat yaxlit pedagogik jarayonni, balki uning alohida qismlarini qamrab oluvchi, yuksak ijtimoiylashtirilgan shart-sharoitni ta'min etuvchi texnologiyalardir,	not only in all educational process, but also the covering parts of technology which provide high sotsiality of a condition in diagnostics, monitoring, and also correction of technology

		ularga tashxislovchi, monitoring, shuningdek, korrektsiya qiluvchi texnologiyalar kiradi	
17	***“Bumerang” texnologiyasi***	o‘quvchini mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari jarayonlarda turli o‘quv adabiyotlari, muammoli tajriba bajarish mazmuni bilan tanishtirish, fikrni erkin bayon etish hamda muayyan tajribani bajarish davomida uni baholashga qaratilgan texnologiya	In the course of training of the reader and educational literature and to present the maintenance of productivity of problem yexperience in the course of realization of freedom of yexpression, and also concrete yexperience in an assessment of technologies
18	***Verbal muloqot shakllari***	ma’ruza, suhbat, savol-javob, nasihat, munozara, bahs, xabar, tabrik, tanbeh, salomlashishhayrlashish kabilardan iborat muloqot turi	Lectures, discussions, questions and answers, councils, discussions, discussions, messages, greetings, forbid, a greeting a response
19	***Gnoseologiya***	bilish haqidagi ta’limot	In more detail about training
20	***Gnostik ko‘nikma***	bo‘lajak mutaxassis shaxsini kasbiy faoliyatni ijodiy jihatdan amalga oshirishga yo‘naltirilish, uning tadqiqotchilik xarakterini ifodalovchi ko‘nikma	are concentrated on realization of the creative person of future yexpert of professional activity, his ability to represent the research nature
21	***Davlat ta’lim standarti (DTS)***	ta’limning zarur, yetarli darajasi va o‘quv yuklamalari hajmiga qo‘yiladigan asosiy davlat talablari majmuasidir	adequate education level and preparation of the main requirements of a government complex by the size of working loading
22	***Dars***	1) uzluksiz ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta’limning asosiy shakli; 2) o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli, mantiqiy tugallangan, yaxlit o‘quvtarbiyaviy jarayonning aniq vaqt bilan cheklangan qismi	1) continuation of educational institutions will be the main form of education; 2) studying by the main organizational form of the work performed in logical complete educational the part of process is limited for a certain period of time
23	***Dars tahlili***	o‘quv mashg‘ulotini bir butun yaxlit holda yoki muayyan bo‘laklarga bo‘lib baholash	complex academic preparation in general or separate parts of an assessment

24	***Darsni jihozlash***	o‘tiladigan dars mavzusiga ko‘ra o‘quv-didaktik materiallar, qo‘llanma, multimedia, o‘quv vositalari kabilarni tanlash va tartibga keltirish	On a training subject in the curriculum and didactic materials, manuals, multimedia tutorials, such as selection and an arrangement
25	***Dastur***	o‘quv faoliyatini amalga oshirish rejasi va ushbu faoliyatning mazmunini ifodalovchi me’yoriy hujjat	plan to carry out educational activity and content of activity of normative documents
26	***Dasturlashtirilgan ta’lim***	materialni (qismlarga bo‘lib) qadam-baqadam, har bir qismning o‘zlashtirilganligini nazorat qilgan holda o‘rganish texnologiyasi	materials (components) step by step, each part of development of technology of management
27	***Dasturli ta’lim***	tadrijiy ketma-ketlikda joylashgan sertarmoq o‘quv materiali qismlaridan tashkil topgan o‘rgatuvchi dasturlar yordamida o‘qitish texnologiyasi	evolutionary sequence of sertarmoq educational technologies with use of an yequipment of training programs
28	***Determinant***	dastlabki asos, fikr, nuqtai nazar. 2) matematik tushuncha	The idea is based on the first point. 2) mathematical concept
29	***Diagnostika***	ta’lim jarayoni, o‘qituvchi hamda o‘quvchi faoliyatining muayyan qirrasini o‘rganish maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish	Educational process, teachers and students to check activity of certain yelements which will be carried out for the purpose of studying
30	***Didaktik material***	o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv materiallari	The educational and training materials directed to students
31	***Didaktik tizim***	ta’lim mazmuni, uni tashkil etishning shakl, metod, jarayonlari va o‘qitish maqsadlaridan iborat tizim	content of training, form of the organization, methods, processes and purposes of system of training

32	***Didaktika***	1) pedagogikaning ta’lim nazariyasi bilan shug‘ullanadigan tarmog‘i; 2) ta’lim nazariyasi	1) business with the theory of pedagogics of an educational network; 2) Theory of education
33	***yechim***	yechish, masala va muammoning javobi	The answer to this question for the solution of questions and problems
34	***Jarayon***	muayyan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan o‘quv harakatlar majmui	set of the actions which are carried out for achievement of certain results, training
35	***Zamonaviy pedagog***	ta’lim oluvchining qanday o‘qiyotganligi va rivojlanayotganligini to‘liq tushunib, his qila oladigan, ya’ni uning hayotini o‘z shaxsiy hayoti singari his qilib, o‘quvchining ichki, ahloqiyma’naviy, umummadaniy o‘sib rivojlanishiga, bolalar hamda kattalar hamjamiyatining mustahkamlanishiga ko‘maklasha oladigan o‘qituvchi	Development it is trained how to read and to fully understand that you can feel that his life to feel as in the private life, the student, moral, spiritual and umummadaniy development in children and adults who can help to strengthen community of teachers
36	***Idrok***	o‘quvchi va o‘quvchining bilish, tushunish qobiliyati, zehni, fahm-farosati	school students and students, ability to understand beliefs, abilities to think,
37	***Ijod***	o‘quvchi va o‘quvchining yaratuvchiligi, kashfiyoti	Opening of creators of school students and students
38	***Ijodiy izlanish metodi***	pedagog boshchiligida qo‘yilgan muammo va masalalarni yechish yo‘llarini faol izlashni tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar	Teachers have given a way to the solution of problems and questions which serve creation of active search of methods
39	***Izlanishli metod (evristika)***	o‘quvchilarni asta-sekin muammolarni hal etishga yaqinlashtirish uchun, tadqiqotning ayrim bosqichlarini bajarishga o‘rgatish, ko‘nikma hosil qilish metodi	students step by step to approach the solution of problems, a method of studying to teach others to take some steps to abilities to create
40	***Imitatsiya***	biror narsaga taqlid qilish, o‘xshatma	imitating something imitating

41	***Individual o‘qitish***	o‘quvchi shaxsiga alohida yondoshgan holda ta’lim-tarbiya berish	the pupil of the personal focused education and vocational training
42	***Induksiya***	(lot. inductio to‘g‘rilash, tartibga keltirish) oddiydan murakkabga qarab fikrlash	based on simple thought
43	***Innovatsion vaziyat***	pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan vaziyat	creation of the pedagogical innovations directed to realization and development of the situation.
44	***Innovatsion muhit***	pedagogik yangiliklarning vujudga kelishi, ularning jadal o‘zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq qilinishi	poyavlenie novых pedagogicheskix, oni uskoryayut razrabotku i vnedrenie
45	***Innovatsion pedagogik loyiha***	qabul qilingan va qismlarga ajratilgan innovatsion pedagogik g‘oya, fikr	emergence new pedagogical, they accelerate development and deployment
46	***Innovatsion ta’lim***	1) ta’lim sohasiga kirtilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2) yangilangan, yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni	1) education in China, and news; 2) it is updated on the basis of new technologies of educational process
47	***Innovatsion texnologiya***	pedagogik taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni	the pedagogical activity aimed at the development of organizational process
48	***Innovatsiya***	yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar	new concepts, procedures, technologies and innovations
49	***Insert usuli***	o‘quv matni ustida ishlash jarayonida o‘quvchining faollik ko‘rsatishi, o‘z bilimlarini baholash uchun qo‘llanadigan usul	in the course of work on the text of a method of training it is used for an assessment of their knowledge of a role of the student

50	***Intensiv ta'lim***	jadal, tezkor amalga oshiriladigan o‘quv jarayoni	to accelerate fast implementation of educational process
51	***Interfaol usul***	ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o‘rtasidagi faol hamkorlik muloqoti	education, dialogue and cooperation between education
52	***Isbot metodi***	mulohaza, hukm, nazariyaning chinligini pedagogik jihatdan aniqlash usuli	motivated judgment, the theory it is right a pedagogical method
53	***Isbot metodi komponentlari***	tezisni aniqlash; isbotlash usuli, yetarli dalillarni saralash; xulosalarni tavsiflash, fikr, algoritm, modellar, zarur sxema	thesis; The Method of the choice is yenough proofs to prove; to describe conclusions, ideas, algorithms, models, schemes
54	***Ishlanma***	muayyan maqsadga yo‘naltirlgan o‘quv jarayoni yoki o‘quv materialining loyihasi	purposeful educational or training materials for the project
55	***Kasbiy tayyorgarlik***	ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon	Development of the concrete work or work necessary for yend of a set of skills which provides accelerated occupy educational process
56	***Kasbiy ta'lim***	muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim	performance to this or that sphere of formation and development of education
57	***Keys***	(ingl. Case – hodisa, shartsharoit) – amaliy muammolar ifodalangan o‘quv materiallari yig‘indisi	a case) - - Has put the collection of educational and methodical materials, yexpressed in practical tasks
58	***Keys usuli***	o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan usul	way to develop creative skills of students
59	***Keys texnologiyasi***	o‘quvchilarning mustaqil qarorlar qabul qilishlari, muammoli savollarga to‘g‘ri va haqqoniy javoblar topishlariga qaratilgan, o‘qituvchi kuzatuvchi (eshituvchi) vazifasini bajaradigan ta'lim texnologiyasi	students to make independent decisions, the problem to find the correct and truthful answers to questions of the observer, teachers (hearing) carries out a role of educational technologies

60	***Kognitiv***	shaxsning mustaqil fikrlash jarayoni	independent thinking
61	***Kognitiv ta'lim***	alohida iqtidorli bolalarga ta'lim-tarbiya	Vocational education of yexceptional children
62	***Kommunikativlik***	shaxslar orasidagi o‘zaro axborot almashinuv, aloqa, munosabat	exchange of information between individuals,
63	***Kompetensiya***	u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik	in this or that sphere of competence
64	***Kompyuter***	muayyan dastur bo‘yicha ishlaydigan avtomatik qurilma	the device automatically to start the special program
65	***Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi***	kompyuter vositasida amalga oshiriladigan ta'lim tizimi	Training is carried out by means of computer system
66	***Kreativlik (ijodiylik)***	qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, badiiy shakl yaratish, fikrlash, g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon	something new, something unique ability to create to create a form of art, thoughts, ideas and can lead to the solution of intellectual process
67	***Kuzatish metodi***	obyektiv borliqdagi narsahodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni	objective things and yevents in systematic, continuous, yexact, full understanding of process
68	***Kurs***	(lot. Kursus – yugurish, harakat) – 1) oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida o‘quv davri, bosqichi; 2) biror fan va ilm sohasining muayyan doiradagi tugallangan bayoni	1) the highest and average special educational institutions of a stage of a training cycle; 2) Description of a full range of this or that field of science and science
69	***Ko‘nikma***	o‘quvchi yoki o‘quvchining o‘zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyati	student or knowledge of the student of development of activity of specific practical actions
70	***Loyihalash metodi***	pedagogikaning pragmatik yo‘nalishiga asoslangan holda,	On the basis of the direction of pedagogics is pragmatical, practical

		ta’lim jarayonida o‘quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni o‘quvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va ko‘nikmalarini namoyon qilishlarini ta’minlovchi ta’lim shakli	training in students at design and performance of the pupils, providing knowledge and skills of training
71	***Malaka***	o‘quvchi yoki o‘quvchida muayyan o‘quv materiali va kasbni chuqur o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘lgan avtomatlashgan mahorat	pupils or students in a certain training material and a profession as a result of development of the automated skills
72	***Mantiqiy izchillik***	pedagogik bilim va tushunchalarning uzviy bog‘langan tadrijiy tizimi	educational skills and concepts are closely connected from yevolutionary system
73	***Mashq***	biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida uni ko‘p marta takrorlash	For improvement of quality of any activity or development it is good to repeat it many times
74	***Ma’lumot***	shaxsning o‘qish, o‘rganish natijasida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalari hajmi, yo‘nalishi va darajasi	reading, training, knowledge, skills, size, direction and speed
75	***Ma’lumotlarning ierarxik modeli***	ma’lumotlarning izchil tizimini ifodalovchi loyihalar	represents consecutive information of system projects
76	***Ma’ruza***	o‘quv materialiga oid biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil, tartibli, og‘zaki bayoni	training materials on a subject, scientific, political subjects in a consecutive manner, the verbal description
77	***Metod***	ta’lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, o‘rgatish, o‘rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo‘l-yo‘riqlar, usullar majmui	Practical and theoretical knowledge in educational process, development, teaching, training, service instructions, a set of methods
78	***Metodologiya***	tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan me’yoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy	scientific work of the theoretical and practical pedagogical principles, is legal, theoretical and philosophical approaches, laws and the sum of views

		yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig‘indisi	
79	***Milliy model***	“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning o‘zagini tashkil etuvchi yaxlit tizim	"The program of training at the national level" make a basis of all system
80	***Modellashtirish***	o‘quv materiallari yoki ta’lim mazmunini yaxlit tizimga keltirish	training materials or maintenance of a uniform education system
81	***Muammo***	o‘quv jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan masala, vazifa	question which has to be solved in the course of training, a task
82	***Muammoli vaziyat***	individ yoki guruh faoliyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi holat	strong influence on work of the individual or group status
83	***Mustaqil ta’lim***	insonning o‘zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida avlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan shaxsiy harakatlari jarayoni	the person has chosen tools and publications on yexperience of generations, yefforts have been concentrated on studying of achievements of science and technology
84	***Nazorat***	o‘qitishning barcha bosqichlarida natijalar sifatini nazorat qilish, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalari hamda ularning shaxsiyatini aniqlash jarayoni	Results of quality control at all stages of education, training, recipients of knowledge, abilities, skills and definition of their personality
85	***Ong***	ruhiy faoliyatning oliy ko‘rinishi	emergence of cerebration
86	***Paradigma***	(yunon. raradigma – namuna, o‘rnak) – turli nazariy yo‘nalishlar	the raradigma) - various theoretical directions

87	***Pedagogik jarayon***	aniq maqsadga yo‘naltirilgan, mazmunan boy, tarkibi jihatidan qat’iy shakllangan o‘quv vaziyatida o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro hamkorlik	target, substantial, from the point of view of structure of an yevent it was strongly approved educational interaction between teachers and students
88	***Pedagogik kvalimetriya***	o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni o‘lchash tizimi	students of the acquired knowledge, abilities, skills and personal qualities of measuring system
89	***Pedagogik loyihalash***	pedagogik jarayonning yaxlit mazmuni va uning tarkibiy qismlarini bosqichma-bosqich muayyan uzviylikda rejalashtirish	the content of teaching and educational process is his integral component step by step of planning of box
90	***Pedagogik maqsad***	pedagogik faoliyatning prognoz qilingan natijalari	Results of the forecast of pedagogical activity
91	***Pedagogik muammo***	(grek. problema – topshiriq, vazifa) – ta’lim oluvchi tomonidan bilim va tajribalari asosida tegishli vaziyatda yuzaga kelgan qiyinchilik va ziddiyatlarni hal etish zarurligini anglash hodisasi	based on knowledge, yexperience and prepared by the state to understand difficulties and need of resolution of conflicts, caused by accident
92	***Pedagogik taksonomiya***	o‘quv maqsadlarining tasniflanishi, o‘quv fani bo‘yicha xususiy maqsadlarning aniq belgilanishi	Classification of the educational purposes, the training program learns specific goals, certain
93	***Pedagogik tizim***	1) ma’lum pedagogik kontseptsiya, nazariya va yondashuvlarning mualliflar tomonidan pedagogik amaliyotga joriy etishdagi izchillik; 2) o‘quvchi shaxsining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadigan pedagogik prinsip, vosita, usul va metodlar yig‘indisi	1) concrete educational concepts, theories and approaches to gradual introduction of student teaching by authors; 2) influence the identity of the reader of the pedagogical principle, the yengine has a set of methods and receptions

94	**PIRLS**	boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash dasturi	Progress in International Reading and Literacy Study
95	**PISA**	15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash dasturi	The Programme for International Student Assessment
96	***Refleksiya***	fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish	thinking, self-checking
97	***Savodxonlik***	muayyan soha bo‘yicha bilimga egalik	have special knowledge in the field of the industry
98	***Sintez***	sintez olingan natijalarni umumlashtirishdan iborat pedagogik ilmiy tadqiqot metodi	method of synthesis, summary of teaching scientific researches
99	***Subyekt***	obyektiv dunyoni biluvchi, uni o‘zining ehtiyoj va qiziqishlariga moslab o‘zgartiruvchi shaxs	objective knowledge of the world and to adapt it to the requirements and interests
100	***Ta’lim***	o‘quvchi va o‘quvchilarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko‘nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi	school students and students, to train them to develop talent and skills to be convinced that process, the main means of preparation of youth for life and work
101	***Ta’lim vositasi***	muayyan o‘qitish metodi yoki usullaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallari	concrete method of training or methods necessary for successful use of auxiliary materials
102	***Ta’lim mazmuni***	o‘quvchilarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi	The student's objective, scientific facts, concepts, laws, theories directed to their acquaintance with information system

103	***Ta'lim tizimi***	turli daraja va yo‘nalishdagi o‘zaro aloqador uzluksiz ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, tashkiliy huquqiy turlaridan qat'iy nazar ta'lim muassasalarining barcha tarmoqlari, ta'limni boshqaruv organlari va ular qoshidagi muassasa hamda tashkilotlarni qamrab oluvchi tizim	various degrees and mutual connected with continuation of educational programs and the state educational standards, irrespective of their legal forms of educational institutions in all sectors, with educational bodies and institutions and the organizations within the general system
104	***Ta'limning sinf–dars tizimi***	maktabda o‘quv jarayonini tashkil etish tizimi. Unda o‘quvchilar yosh xususiyatlari va o‘qish muddatlariga ko‘ra muayyan sinflarga ajratilib, ta'lim o‘quv rejasi va dasturiga muvofiq, asosan, dars shaklida olib boriladi	The organization of educational process in system of school education. According to conditions of students of skills of reading and some numbers have been selected according to the curriculum and the program, is carried out generally in the form of a lesson
105	***Tahlil***	muayyan obyekt, voqea-hodisani har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, o‘rganish	concrete object, yevent analysis of all aspects of an yevent, deep survey
106	***Topshiriq***	o‘quvchilarni ijobiy xattiharakatga yo‘naltiruvchi ta'limtarbiya metodi	Method of training of children positive relation to training
107	***Tushuncha***	narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari mazmun-mohiyati va munosabatlarini aks ettiruvchi tafakkur shakli	Key features of things and yevents which capture the yessence of the relations and the relation between thought and a form
108	***Uzluksiz ta'lim***	o‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi	Depending on complexity of a link on the basis of logical sequence and simplicity and the necessary steps leading to development of all education system
109	***Evristik***	o‘quvchilarda topqirlik, faollikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni	educational process is aimed at the development of creativity of students
110	***Empirik metod***	tajriba–sinov metodikasiga ma'lum bo‘lgan adabiyotlar, g‘oyalar, tajribalarni o‘rganib chiqish asosida tug‘iladigan farazlar, modellar, bajarilishi	the yexperimental method known in literature, ideas, yexperience and to develop hypotheses which can yevolve from models which have to be complete tests and practical application

		kerak bo‘lgan ishlar loyihasini sinab ko‘rish va amaliyotga tadbiq qilish metodi	of a method of the project
111	***O‘zlashtirish***	o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim mazmunining o‘zlashtirilganlik darajasi	have learned in the program of training according to the content of training
112	***O‘rganish***	axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko‘rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko‘nikmalarini egallash jarayoni	access to information and various yefforts to master skills for carrying out independent process according to procedure,
113	***O‘rgatish***	axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish	access to information, and students in the course
114	***O‘quv dasturi***	o‘quv fani mazmunining qisqacha izohi	Short description of maintenance of a training course
115	***O‘quv predmeti***	u yoki bu fanning asosiy mazmunida ifodalangan didaktik asoslangan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi	This or that the science is based on didactic the maintenance of basic knowledge, skills and qualification of system

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Sh.Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.56 B.

2.Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: “Sharq”, 1997.

3.Sh.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O‘zbekiston” -2016.488 B.

4.2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

5.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.-T.:«Ma’naviyat», 2008.

6.Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

7.G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqieva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.

8.Matchanov S., G‘ulomova X., Yuldasheva Sh., A. Nisanbaeva. Ana tilin oqыtu ədistemesi.–T.: TDPU, 2013. –277b.

9.Raxmatullaeva L.I. Metodika prepodavanія rodnogo яzыka. –T.: Uchebnoe posobie. Molія Iktisod, 2007.

10.Abdullayeva Q. va boshq. 2-sinfda o‘qish darslari. –T.: O‘qituvchi, 2009. – 266 b.

11.Umarova M, Sh.Hakimova. O‘qish darslari (3-sinf uchun). –T.:Cho‘lpon, 2008. – 126 b.

12.G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. –T.: O‘qituvchi, 2003.

13.Qosimova Q. “2-sinflarda ona tili darslari”, T. “O‘qituvchi”, 1998 yil.

14.G‘afforova T., G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish darslari. –T.:Sharq, 2003. 126 b.

15.Jumaev M.E Matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Yu uchun darslik.) — T.: “Turon iqbol” 2016. 426 b.

16.Jumayev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang‘ich ta’lim fanlarini o‘qitish metodikasi O‘UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.

17.Mirzaxmatova Sh., Po‘latova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta’lim (Uslubiy qo‘llanma) –T.: “Yangi asr avlodi”, 2011.

18.Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. – T.: TDPU, (O‘quv qo‘llanma) 2007.

19. Ma’rufjon Yo’ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiяsi, «Fan» nashriёti 2008.

20.Sanaqulov X, Xodiyeva D, Sanaqulova A “Mehnat ta’limi” 2-sinf darsligi. T., “Sharq”, 2016 yil.

21. Sanaqulov X, Xodieva D, Sanaqulova A “Mehnat ta’limi” 3-sinf darsligi. T., “Sharq” 2016 yil.
22. PISA - 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy.
23. Timss-2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
24. Yo‘ldoshev M, Muhamedova S, Saparniyazova M “Matn lingvistikasi” 5611600 – Noshirlik ishi ta’lim yo‘nalishi uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2020 yil

Elektron ta’lim resurslari

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi veb sayti: www.uzedu.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi: www.eduportal.uz, www.multimedia.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz
4. Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi: www.giy.uz.
5. Ijtimoiy axborot ta’lim portali: www.ziyonet.uz.
6. http://www.school.edu.ru - Umumta’limportali (rus tilida),
7. http://www.rostest.runnet.ru - Test olishmarkaziserveri (rus tilida),
8. http://www.allbest.ru - Internet resurslari electron kutubxonasi (rus tilida),
9. http://www.mathtype.narod.ru/ - Online-darsliklar (rus tilida),
10. http://www.gov.uz-O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
11. http://www.istedod.uz – “Iste’dod” jamg‘armasi sayti.
12. http://www.edunet.uz – maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. DARSLIKLAR:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik.– T.:“Talqin”, 2005.-272 b.
1. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari (monografiya). – Toshkent, Muharrir nashriyoti, 2013. – 300 b.
2. Mirtojiyev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism (kirish, fonetika, fonologiya, yozuv, imlo, orfoepiya, leksikologiya, leksikografiya). - T.: Universitet, 2004. – 222 b.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2006. – 464 b.

4. Choriyev T.va boshqalar. O‘zbek tili. T., “Iqtisod - moliya”, 2008, -295 b.
5. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. Toshkent, 2009.

II. LUG‘ATLAR:

6. Yo‘ldoshev B., Bozorboyev K. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati (so‘zlik). – Samarqand: “So‘g‘diyon” nashriyoti, 1998. – 86 b.
7. Yo‘ldoshev B., O‘rinboyeva D. O‘zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug‘ati. - Toshkent, «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 100 b.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati, Toshkent, Qomuslar bosh tahririyati, 1992. - 382 b.
9. Rahmatullayev Sh. va boshq. “O’zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”. - T. “O‘qituvchi”, 1980.
10. Rahmatullayev Sh.”O’zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”. - T. “O‘qituvchi”, 1984.
11. Rahmatullayev Sh. “O’zbek tilining qisqacha etimologik lug‘ati” . T., 2000
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. A.Madvaliyev tahriri ostida. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008 –y.
13. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati, T., O‘qituvchi, 1974.- 308 b.
14. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T., «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi» nashriyoti, 2002. – 168 b.
15. Hojiyev A. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. — Toshkent, O‘qituvchi, 1995.
16. Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati -Toshkent, «Yangi asr avlodi», 2007.
21. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jild. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2006-y.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.tdpu.uz

MUNDARIJA:

Kirish.....3

I BOB. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING TARIXI VA TARAQQIYOTI

1.1. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitish metodikasi.....11

1.2. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etishda o'qituvchining kreativ yondashuvini rivojlantirish…….....21

1.3. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini nazorat qilishning kognitiv shakllari.....36

1.4. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishning zamonaviy usullari…….....…58

1.5. O'zbek tilining izohli, imlo va frazeologik lug'atlari ustida ishlash.....74

1.6. Ona tili fanidan ochiq darslarni o'tkazish va ularni tahlil qilish texnologiyasi.....93

1.7. 3-4-sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari……..…….113

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH METODIKASI

2.1. PIRLS – xalqaro baholash dasturi va uni o'tkazishning tashkiliy masalalari…….……...136

2.2. 1-4-sinf o'qish darslarida o'quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish …….....….152

2.3. O'qish darsliklaridagi matnlar asosida pirls topshiriqlarini yaratish va uni baholash mezonlari……..……..…….…174

2.4. O'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matnlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish……..…….…….....186

2.5. Sinfdan tashqari o'qish orqali o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish…….....….197

Test savollari……..…….…….....203

Terminlar lug'ati glossariy).....214

Adabiyotlar ro`yxati……..228